



LINGVIST

LINGUIST

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

LINGVIST

Ilmiy maqolalar to'plami



Toshkent-2017

Mazkur to'plamdan respublika oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borayotgan professor-o'qituvchi, katta ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil izlanuvchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy maqolalari o'rin olgan. "Til tarixi", "Til nazariyasi", "Leksikologiya va terminologiya", "O'zbek tilshunosligida yangi sohalar rivoji", "Nutq madaniyati, uslubiyat", "Semantika" kabi rubrikalar ostida e'lon qilinayotgan ilmiy maqolalarda ona tilimizning ijtimoiy-tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti bilan aloqador, shuningdek, o'zbek tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalar aks etgan.

To'plam filolog-mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrlar va bakalavrlarga mo'jallangan.

This collection consists of the articles professor-teachers, doctorates, independent researchers, masters and bachelor students. It's reflected that, here the tasks of connected with mother language's historical and modern process in the "Language history", "Language theory", "Lexicology and terminology", "The new approaches in Uzbek linguistics", "The speech culture, stylistics", "Semantics" rubrics.

This collection is aimed for philology-specialists, methodologists, doctorates, masters and bachelor students.

Mas'ul muharrir:

H.Dadaboyev, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Q.Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor

Z.Xolmanova, filologiya fanlari doktori, professor

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

M.Xolmuradova, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2017-yil 28-apreldagi 9-sonli bayonnoma).

SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho meros sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, nufuzini oshirish ustuvor vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2016-yil 13-mayda imzolangan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida ta'kidlanganidek: "...fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rmini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo'lib turganini qayd etish lozim". Shu ma'noda, hozirgi globallashuv davrida globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning sifatini oshirishga hissa qo'shish maqsadida universitet qoshida o'zbek tili va adabiyotining dolzarb masalalariga bag'ishlangan "Lingvist" nomli ilmiy maqolalar to'plami nashr qilinmoqda.

Ona tiliga bo'lgan e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi tilshunoslarni, ayniqsa, til muammolarini hal etishda munosib ulush qo'shishga bel bog'lagan yosh yigit-qizlarni turfa mavzular doirasida izlanishlar olib borishga ilhomlantirdi.

To'plamda universitet, turdosh oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, talabalarning ilmiy maqolalari o'rin olgan.

TIL TARIXI

Х. ДАДАБОЕВ, ТошДЎТАУ профессори

ОГАҲИЙ ТАРИХИЙ АСАРЛАРИДАГИ ДИПЛОМАТИЯГА ОИД ТЕРМИНЛАР

Resume

In this article, diplomatic terms were analyzed in Ogakhii's 5 historical works in diachronic aspects.

Key words: old Uzbek language, diplomatic terms, embassy, term systems, the group of theme, diplomatic authority.

Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий шеърят ва бадий таржима соҳасидаги гўзал асарлари қатори Марказий Осиё халқлари тарихини акс эттирувчи оригинал китоблари билан тарихда ўчмас из қолдирган адиб саналади. Огаҳий XIX асрнинг биринчи ярмидан вафотига қадар (1874) бешта мукамал тарихий асар ёзди. Хусусан, Оллоқули Мухаммад Баҳодирхон ҳукмронлик қилган даврга (1825-1843) атаб “Риёзуд-давла”, Абулғози Раҳимқули Баҳодирхон ҳукмронлиги дастлабки йиллари (1843-1846)га оид “Зубдатут-таворих”, Мухаммадаминхон тарихига доир “Жоме ул-воқеоти султоний”, Саййид Мухаммадхон ҳукмронлик замониغا (1856-1865) бағишлаб “Гулшани давлат”, Мухаммад Раҳимхон соний тахт эгаллаган даврга (1865-1910) атаб “Шоҳиди иқбол” ни яратди.

Қайд этилган манбаларда Хива хонлиги тасарруфида бўлган ўзбек, қорақалпоқ, қозоқ, туркман халқларининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий, диний, маиший ҳаёти, хонликнинг Бухоро амирлиги, Қўқон хонлиги, Афғонистон, Эрон, Ҳиндистон, Россия сингари мамлакатлар билан бўлган муносабатлари, савдо, дипломатик алоқалари, халқларнинг русумлари, удумлари хусусида қимматли маълумотлар ўрин олган бўлиб, улар тарихчилар, сиёсатшунослар, иқтисодчилар, адабиётшунослар қатори тишшунослар, айниқса, тил тарихи мутахассислари учун илмий изланишлар олиб боришда бирламчи манба вазифасини ўташи билан муҳим аҳамиятга эгадир.

Огаҳий тарихий асарлари матнида дипломатияга доир терминлар фаол қўллангани билан характерланади. Дипломатик терминлар тизимида Хива хонлигининг Бухоро амирлиги, Қўқон хонлиги, Эрон, Туркия, Россия каби давлатлар билан мавжуд элчилик муносабатлари аксини топган.

Юқорида номлари зикр этилган обидалар матнида қайд этилган дипломатик терминларни қуйидаги кичик мавзуйи гуруҳларга ажратган ҳолда таҳлил ва тасниф қилиш мақсади мувофиқ: 1) дипломатик вазифа, миссия билан машғул шахсларни ифодаловчи терминлар; 2) дипломатик алоқаларни англатувчи истилоҳлар; 3) дипломатик ҳужжатларни билдирувчи терминлар.

Муайян салтанат ҳукумати топшириғига биноан бошқа бир давлатга қисқа ёки узоқ муддатга дипломатик миссия билан жўнатиловчи шахсни ифодалаш мақсадида Огаҳий тарихий асарларида бир нечта терминлар қўлланишда бўлганлиги диққатни тортади. Бу терминларнинг шаклланиш ва қўлланиш динамикаси узоқ ўтмишга бориб тақалади. Зеро, давлатлараро дипломатик алоқалар жуда қўхна тарихга эгадир. Бир неча юз йилликлар давомида дипломатияга хос терминларнинг у ёки бу тил лексик таркибидан ўрин эгаллаши аксарият ҳолларда экстралингвистик омилларга боғлиқ бўлган. Огаҳий ёзиб қолдирган ҳар бешта тарихий асар матни билан яқиндан танишиш, Хива хонлигида дипломатик муносабатларнинг кенг йўлда қўйилгани, тинчлик ёки низо масалаларини ҳал этишда элчилик миссиясининг роли сезиларли бўлганлигини кўрсатади.

Дипломатик агентлар саяё-ҳаракати эвазига қўпгина можароли, бахсли масалалар ижобий ечимини топганлигининг шохиди бўламиз.

Дипломатик агент, «дипломатик вакилларнинг энг катта мартабаси, унвони ва шу унвонга эга бўлган киши» (ЎТИЛ, II, 445) семемаси асосан қадимги туркий тил битиклари матнидаёқ кўзга ташланган асл туркийча элчи терминини билан англашилади: *Шаавал отининг йнгирми иккисиди сешанба куну йухоро элчиси Убайд мирохурбоши...остони олий хокбўслиқи шарафига восил бўлуб...* (ГД, 184).

Дастлаб XII-XIV аср эски туркий тил обидаларида «Алпоҳнинг элчиси, пайғамбар» маъносидида шаклланган арабча **расул** ўзлашмаси Алишер Навоий асарлари тилида қайд этилган маъно қатори «элчи» маъносини ҳам англаган¹ Ушбу арабча истилоҳ кейинги маънода Огаҳий тарихий асарлари, чунончи, "Риёз уд-давла"да ҳам ифодасини топган: *Ўз аъёнидин бир расули икхоснишон қўиуб, қўлуқ изҳори била арзадоит ва яхиш тухфалар била атибхи фалакмисолга ирсол қилди* (РД, 35). Мазкур терминнинг **русул** қўплик шакли ҳам "элчи" маъносини ифодалаган (РД, 34). XIV аср Хоразм манбаларида арабча қосид ўзлашмаси илк бор «чопар» маъноси билан ишлатилган (СҮЯ, II, 617). Бу истилоҳ "Қисаси Рабғузий" (2v14), Алишер Навоий асарлари тилида (АНАТИЛ, IV, 67) қайд этилади. Огаҳий ушбу ўзлашмани айни «элчи» маъносидида қўллайди: *Қосидни таъзими талом ва тақрими локалом била баҳрамано қилиб, бир элчийи ҳуимад анга мусхуб этиб, тухфоти кироманд били ирсол қилди* (РД, 34). Жумлада қўлланган қосид ва элчи истилоҳлари мутлақ синонимик қаторни юзага чиқарган. Огаҳийнинг сўз қўллаш маҳорати муайян маънони бир-бирига мазмун жиҳатдан тенг истилоҳларни ишлатишда нямовн бўлган.

Кузатишлар Хива хонлигида элчи вазифасини давлат маъмурий-боникарув аппаратида фаолият кўрсатган амалдорлар ҳам бажарганини кўрсатади. Хусусан, **тўқсаба** (Бухоро элчиси), **арбооб**, **шайх** (Хуросон ҳукмдори шоҳ Комроннинг элчиси), **махрам**, **охунд**, **додхох**, **бек**, **девонбеги**, **мирохур**, **мулжаллий**, **сўфий**, **мироб** сингари фахрли унвон эгалари элчиликка

¹ Қариш: Далабаев Х.А. Общественно – политическая и социально-экономическая терминология в первоначальных письменных памятниках XI – XIV вв. - Ташкент: Ёзувчи, 1991. - С. 105.

тайинланган. "Элчиликка таъйинламок" маъноси **рисолатга номзад қил-** *Мусо мутаваллийни Бухоро волийси амир Музаффарнинг рисолатига номзад қилди* (ШИ,276) ва **масхуб қил-** бирикмаси ёрдамида англашилган: *Рафеъмакон Раҳмонберди охунд била садоқатнишон Раҳматулла Қарокўзни масхуб қилиб, Бухоро сари ирсол қилди* (ЗТ,200). Элчи ўрнатилган коидага мувофиқ салатанат (вилоят, ўлка) ҳукмдорининг бошқа бир давлат бошлиғига йўллаган номасини тантанали тарзда топширган, саломи, тухфа ва совғаларини оғзаки йўсинда баён этган. Элчи ҳурмат-эҳтиромга сазовар бўлган, турфа тортиқ ва ињомларга мушарраф топилган, белгиланган вақт давомида махсус ажратилган жойда яшаган. Расмий ижозат теккандан кейингина ўз юртига қайтган.

"Дипломатик ваколат" маъноси, маълумки, қадимдан **элчилик** ясамаси билан англашилган. Ушбу истилохнинг Огаҳий тарихий асарларида ҳам тез-тез қўлланганини кўрамыз. Айни чоғда адиб асарлари матнида **элчилик йўсини** (ГД,184), **элчилик тариқаси** (ЖВС,17), **элчилик расми** (ГД,199; ШИ,60а), **рисолат тариқаси** каби туркий изофали бирикмалар ҳам қайд этилган маънони ифодалашда қатнашган: *Қиёт дудмонининг зубдаси Қаробаҳодир миробким, бурунроқ амири олий мужибии била Бухоро волийси амир Музаффарнинг олдида рисолат тариқаси била бормиш эрди* (ШИ,219а).

"Дипломатик ваколат жойлашган бино" маъносини ифодалаш эски ўзбек адабий тилида кенг ишлатилган **элчихона** терминининг функциясида бўлган: *шаҳарда қолиб, элчихонаи ҳумоюнда мутамаккин эрди* (ГД, 199). Бошқа юртлардан ташриф буюрган элчилар элчихонада қисқа муддатга кўним топган: *Амир Насруллонинг элчиси Мирзо Убайд мирохурбоши...шаҳарда қолиб элчихонаи ҳумоюнда мутамаккин эрди* (ГД,199).

Ҳукмдорнинг элчилар ва саройга ташриф буюрган шахсларни қабул қиладиган махсус хонаси бўлган ва у **кўрунушхона** термини билан аталган: *Аларни илтифоти бегарон ва иноёти фаровон била кўрунушхонаи ҳумоюнга ундаб...* (РД, 20). Бу ерда ҳукмдор узок ёки яқин давлатлардан келган элчиларни қабул қилган, ўзга юртлар бошлиқлари томонидан йўлланган мактуб (нома)лар шу ерда ўқиб эшиттирилган, юборилган совғаю пешкаш (хадя)лар қабул қилинган ва ўз навбатида, элчилар турли шоҳона тўнлар, халатлар ва бахшишлар билан сарафроз этилган ва ҳ.к. "Қабулхона" маъносини англаувчи терминнинг биринчи компоненти "намоён бўлиш, чиқиш; қабул қилиш" маъносини англаган **кўрунуш** (<кўрун- "кўринмоқ, намоён бўлмоқ"-) дериватидан ташкил топган. Мазкур ясаманинг "қабул" маъносида илк бор қўллангани Шарафуддин Али Яздий "Зафарнома" асарининг 1519 йилда Кўчкунчихон фармонида биноан Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий томонидан эски ўзбек тилига қилинган таржимаси матнида қайд этилади: *Тонгласи (Соҳибқирон) амирзода Мироншоҳга кўрунуш бериб, пешкашларни тортти* (2246).

Элчиларнинг бирор бир мамлакатга буюрадиган ташрифи арабча **сафар**, **сафарот** истилоҳлари билан ифодаланган: *Ул ҳазрат мазкур сафардин келиб, салатанат саририда истироҳат кўргузгандин сунг...*(ГД,199). Элчининг ўз мамлакатига қайтиши учун бериладиган ижозат, рухсат **мурожаат рухсати** изофали бирикмаси ёрдамида англашилган: *Бухоро волийси амир*

Музаффарнинг...элчиси Яхёхожа судургаким...навозиш ва бахшишлар кўргузуб, мурожаат рухсатин берди (ШИ, 856).

Айни маънони ифодалаш шунигиндек, **муовадат рухсати** бирикмасига ҳам юклатилган: *...сўнг икковига ҳам муовадат рухсатин бериб...ҳазрат зилли субҳонийнинг хизматиға ирсол қилди* (ШИ, 1636). Изофали бирикманинг биринчи компоненти, яъни арабча *муовадат* ўзлашмаси “қайтиш” маъносида эски ўзбек адабий тилида анча фаол қўлланган.

"Элчини муайян топширик билан бирор мамлакат, салтанатга жўнатмоқ, юбормоқ" маъносининг **ирсол қил-**, **ирсол эт-**, **раҳқўб қил-**, **равона қил-** каби қўшма феъллар ҳамда **йибор-//юбор-** лексемаси билан ифодаланганини кузатиш мумкин: *Абдурраҳмон сарҳангни элчилик расми била Бухоро жонибига ирсол қилди* (ГД, 199). Ушбу гапдан элчилик ваколатининг лашкарбоши (**сарҳанг**)га юклатилганини англаш қийин эмас.

"Икки томон орасидаги осойишталик, тинчлик" маъноси арабча **мусолаҳа**, "самимий дўстлик, содиклик, ишонч" маъноси эса **мусодақа** ўзлашмалари кўмагида ифодаланган. Ҳар икки мамлакат, давлат ўртасида мавжуд ёки тузилган тинчлик битими *сулҳнома* истилоҳи билан англашилган: *амир Ҳайдар подшоҳнинг мусолаҳа талаби билан юборган сулҳномасин...келтуруб эрди* (РД, 19). Ҳар учала истилоҳ эски ўзбек адабий тили обидалари, хусусан, Алишер Навоий, Бобур асарларида фаол ишлатилган.

Ўрнатилган халқаро тартиб ва қондаларга мувофиқ у ёки бу мамлакат элчилари томонидан келтирилган ёхуд олиб борилган совға-саломлар **туҳфа**, **пешкаш**, **ҳадя** ўзлашмалари билан номланган. Элчилар томонидан муайян ҳукмдорга топшириладиган ишонч ёрликлари арабча-форсча-тожикча **арзадошт** лексик бирлиги билан аталган: *Ўз аъёнидин бир расули ихлоснишон қўшиб, қуллуқ изҳори била бир арзадошт ва яхши туҳфалар била...ирсол қилди* (РД, 35).

Бирор бир мамлакат бошлиғининг бошқа давлат ҳукмдорига йўллаган ёзма номаси арабча **хат** (ШИ, 1956), **китобат**, **мактуб**. *Ва Яхёхожа судур амир Музаффарнинг йиборган садоқтуслуб мактубин ва савгону тансуқотин одоби тамом била тавақуффи арзага етқуриб...* (ШИ, 25а) **муросила**: *Чаҳоршанба куни Аббос мирзодин келган муросилага лойиқ жавоб амри мунишийлар ҳақида содир бўлиди* (РД, 132), **форсча-тожикча нома** (ШИ, 17а), оғзаки хабари эса **форсча-тожикча пайгом** ўзлашмаси билан номланган: *Чун элчи фармон мужибиди била қатъи манзил ва биёбон қилиб, шоҳи комронга пайгоми саодат интизомин етқурди* (РД, 34). Шу ўринда номани "оғзаки изҳор қилмоқ, баён этмоқ" маъносининг **арз қил-** "*Ҳазрати зилли илоҳийнинг йиборган сулҳнома ва топширган сўзларин арз қилошлар*" (ЗТ, 173) ва тил **сўзи била топшур-** "ибораси билан ҳам англашилганига диққат қаратамиз: *Баҳодирхоннинг қрунишига дохил бўлуб, муҳаббатномани тил сўзи била анга топшурди* (РД, 94). Ошқора бўлиши махфий тутилган мактуб, нома, хабар, маълумотлар қадимдан оғзаки тарзда етказилган.

Элчилар томонидан келтирилган номаю мактублар мазмун-моҳиятан бири-бирдан фарқланган. Хусусан, "бирор шахсга бўлган ишонч, эътиқод, унга боғланган умид" маъноси **эътиқоднома** (ЖВС, 69, 81), **ихлоснома** (ЗТ, 200),

мухаббатнома: Ул ҳазрат Ҳуқанд элчиси Қаробош додхоҳга Бобобекни элчи йусуни била қўшиб, мухаббатнома била Ҳуқанд вилоятига ирсол қилди (ЗТ, 191), "дўстлик, биродарлик" маъноси муволяфатнома (ШИ, 216), "содиклик" маъноси мусодақатнома (ШИ, 60а), садоқатнома (ШИ, 31а), "қозонилган ғалаба ҳақидаги хабар" фатҳнома (ШИ, 346), "кечириш, узр, афв сўраш" маъноси маъзаратнома "Амир Насрулло-нинг... юборган маъзаратномасин наввоби давлат интисоб воситаси била назари ақдаси аъло мутолаасига еткурди (ЗТ, 196), "ваъдада туриш, аҳдга содик қолиш" маъноси аҳднома "Ўрус подшоҳининг дўстлуге ва якжиҳатлик бобида йиборган аҳдномасин ва тансуқот ва пешкашларин назари анвор пешгоҳидин ўтқариб... (РД, 152) сингари истилохлар билан ифодаланган.

Шартли қисқартмалар:

АНАТИЛ - Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 1-1У. - Тошкент: Фан, 1983-1985.

ГД – Гулшани давлат. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. - Тошкент: Фафур Фулом, 1978.

ЖВС - Жоме ул-вокеоти султоний. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. - Тошкент: Фафур Фулом, 1980.

ЗТ - Зубдатут – таворих. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Асарлар. V жилд. - Тошкент: Фафур Фулом 1978.

РД - Риёзуд-давла. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. - Тошкент: Фафур Фулом, 1978.

ШИ – Шохиди иқбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шохиду-л иқбол (Иқбол шаҳодати). - Тошкент: Мухаррир, 2009.

Қисаси Рабғузий-Grønbech K. Narrationes de Prophetis. God. Mys. Brit. Add. - Copenhagen, 1948.

З. ХОЛМАНОВА, ТошДУТАУ профессори

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОЙ ПИСЬМЕННОСТИ

Resume

In this article, Uzbek writing history was analyzed through necessary sources.

Key words: writing, written speech, Semitic writing, Old Turkic alphabet, Sogd alphabet, Arabic alphabet.

Письмо является средством передачи одной из форм речи. Оно появилось в истории человечества по социальной необходимости в определенное время и совершенствовалось с развитием общества. Письмо является одним из самых больших культурных приобретений человечества после языка.

Появление и развитие письма определяется с развитием общества, его культурной степенью, политически-правовой, и эстетической стороной, а также необходимостью передачи культурного наследия. Письменная речь выполняет коммуникативную, эмоционально-экспрессивную, аккумулятивную функцию.

Непосредственно, через язык люди входят в коммуникацию, передают информацию, имеют сведения о прошедших событиях, людях, традициях. Через письмо расширяются возможности передачи сведений о культурных памятниках, исторических событиях и моральных наследиях будущему поколению.

Письмо имеет свою историю развития. Графические знаки являются основной формой письма. Пиктографические, идеографические, иероглифические знаки являются одними из первых видов письменности. После них появилось фонографическое письмо, т.е. вначале кое-какие слоги, затем кое-какие звуки обозначались каким-либо знаком. Формирование фонетического письма связано с финикийским письмом.

Народы придумали - латинские, армянские, грузинские, славянские, арабские варианты фонетического письма. Древние письмена записывались сначала на камнях, костях, на дереве, на камыше, затем на пергаменте и на бумаге. Письмо читается справа налево, слева на право, снизу вверх.

“Исследование взаимосвязи письма и языка является важной теоретической проблемой лингвистической науки, и в современном языкознании уже произошло четкое разделение двух лингвистических направлений, как: “Фонетика и фонология”, изучающая звуки, т.е. фонологическую систему языка, и “Грамматология” или “Графическая лингвистика”, изучающая проблемы письменности, различные виды алфавитов, истории письма и т.д.” [Амирова, 1975, 9]

В мире существует более 6000 тысяч языков, из которых некоторые не имеют своего письма. Многие языки использовали несколько видов письма. Изменение письма влияет на развитие данного общества, оно связано с объективными и субъективными факторами.

Сведения о племенах, которые жили в древнее времена на территории Средней Азии и их культурной жизни, языке и письме дошли до нас непосредственно из произведений греческих, персидских и китайских историков, а также с помощью надписей текстов на камнях.

Великий Шёлковый путь находился в центре социально-экономических отношений, знакомил всех культурными традициями тюркских народов. Связующим звеном культурной компетенции всех тюркских народов относится развитие письма народов Центральной Азии, которая с древних времён является очагом культуры. Народы Центральной Азии пошли дальше и использовали фонетическое письмо, т.е. алфавит, где каждый звук соответствовал букве.

Первыми, основными письменами древнего Ближнего Востока были клинописное, египетское и семитское письма. В VI-IV веках до нашей эры на территориях близ Ирана Средней Азии официальным письмом считали клинописное письмо.

На основе семитского письма появилась индийское письмо и все арамейские письма Центральной Азии. Арамейским письмом пользовались персы в ведении документации. В некоторых местах в дипломатических

отношениях использовали арамейское письмо, так как это письмо было намного проще клинописного письма.

По историческим сведениям в III-I веках до нашей эры вместе с арамейским письмом параллельно использовались греческие письмена и карошта.

В конце XVII и начала XVIII века в раскопках Восточного Туркестана были найдены образцы письма религиозно-мистического характера. На некоторых предметах домашнего обихода встречались тохарское письмо, на основе которого образовалось пехлавидское письмо.

В 1956 году монгольский археолог Дорж Сурен в деревне Бугуте (Монголии) нашёл надгробный камень с надписью. Монгольский учёный Б.Ринчен исследовав этот отрывок письма предположил его уйгурским. Затем В.А.Лившиц, исследовав это письмо на основе фотоснимков, который послал Дорж Сурен, текстов, который переписан С.Кляшторным, научно подтвердил теории о том, что бугутское письмо является согдийским.

Считалось, что, связь между согдийцами и тюрками началась с VI века, на основе вышесказанного памятника эти отношения являются ещё древнее. Образцы согдийского письма сохранились в текстах документов и это показывает значимость этой письменности.

С II века нашей эры начали использовать согдийское письмо. Это письмо использовалось до VI века.

С конца II века и начала III века Хорезмшах выпустил деньги на хорезмийском письме, на печати хорезмского шаха можно было увидеть хорезмийское письмо. Это письмо было очень близко к арамейскому.

Современная наука ведёт отчёт истории письма тюркских народов с надписи на серебрянном сосуде найденном в Иссыккургане. Оно было найдено в 1974 году близ Алматы в склепе древне-сакского предводителя. Данное письмо называется «горячим письмом» («киссик ёзув»), образцы которого были также найдены на территории Сурхандарьи – на юге Узбекистана. В 1950 году члены французо-афганской экспедиции заметили на скалах (на территории Афганистана) тексты на «горячем письме». Это говорит о том, что этот древний тюркский алфавит был распространён на большой территории IV-III веках до нашей эры и в II-III веках нашей эры. Считают, что эта письменность явилась основой для рунического письма [Исхаков, 2009, 8]

Похожее письмо, которое было найдено на юге Узбекистана и в Дашти Новуре Афганистана ещё не исследовано достаточно на научном аспекте.

В V - VIII веках тюркские народы пользовались руническим письмом.

В 1982 году сотрудниками института рукописей АН Уз началось изучение древних письменностей, и памятников древности, на которых они были изображены. В основном начали изучать согдийские, рунические (кук турк), староуйгурские письмена и памятники древности с точки зрения филологии и источниковедения.

Изменения письма мы можем проследить и на примери тюркских языков. Их изменение определяется с социально-политическими процессами.

Фонетическая система каждого языка, формирующаяся в течение многих веков, представляет собой уникальное явление, которое определяет во многом специфику языка. А алфавит, система графических знаков, традиции письма в большой степени изменяются под влиянием экстралингвистических факторов. Алфавиты тюркских языков более чем какие либо другие языки, испытали на себе это влияние, видоизменяясь три раза за последние только 75-80 лет.

В начале XX века тюркские народы начали обращать большое внимание на проблемы письма. В 1926 году на первом курултае тюркологов, которое происходило в Баку, был поднят вопрос о переходе с арабской графики на новый алфавит тюркского языка. И здесь же были разработаны орфографические правила этого алфавита.

Особое место имеет конференция тюркологов, которая состоялась 12-15 декабря 1966 года, посвященная 40 летию первого тюркологического курултага. На этой конференции были подняты вопросы письма тюркских народов, их орфография и терминология, совершенствование данного письма.

Как было сказано выше, изменения происходившие в письме тюркских народов было связано с социально-политическими процессами. Сначала некоторые из тюркских народов с древних видов письменности перешли на арабское письмо. Например, как у узбекского народа, татары тоже пользовались арабской письменностью. В 20- * годах XX века был реформирован арабский алфавит, все буквы, которые ставшими характерны для татарского языка были изъяты из алфавита и введены новые буквы. Гласные передавались специальными знаками. В конце 20- * годов был переход на латинскую графику, а в 1938 году на основе кириллицы был создан новый татарский алфавит. В современном татарском языке существует 39 букв. Письмо крымских татар несколько раз реформировалось. В начале у них тоже была арабская графика, затем латинская, а после - русская графика (кириллица).

Народы Средней Азии, а именно узбекский народ, в древности использовал разную систему письма. В истории узбекской письменности можно выделить в основном фонографическое письмо, т.е. звуковое, буквенное, которое составляло алфавит. А также, узбекский народ, как и другие народы Средней Азии использовал арамейское, греческое, согдийское, хорезмийское, кушанское, эфталитское, пахлавийское, сирийское, индийское, руническое, уйгурское и арабское письмо.

Узбекский язык использовался в нескольких видах. Из истории узбекского письма более доступно конкретное научное обозрение следующих типов графики:

1) **самые древние письма:** алфавиты узбекского языка на основе согдийской, орхоно-енисейской, уйгурской письменности;

2) алфавит на основе арабской графики;

3) первый (ранний) алфавит на основе латинской графики;

4) узбекский алфавит на основе кириллицы;

5) новый узбекский алфавит на основе латинской графики.

1. Самые древние письма

Памятники древнего периода написаны на рунической, уйгурской, согдийской, манихейской и брахманской (брахмийской) письменностях. Они были обнаружены на камнях (например, орхоно-енисейские надписи), коже или специальной бумаге (найлены в Турфане) и т. д. Все памятники были созданы в период Тюркского и Уйгурского каганатов.

Самые древние письма относятся к согдийскому, арамейскому и брахманскому письму. В Маверауннахре до VII века пользовались руническим, уйгурским, согдийским, манихейским, брахманским письмом. Религиозные произведения были на брахманском и манихейском письме, а официальные документы на уйгурском или согдийском письме.

На руническом письме дошли орхоно-енисейские каменные памятники, древнетюркские летописи (VIII-X вв) на уйгурском (его Махмуд Кашгарский называет «туркское письмо»); «Олтин ёруғ», «Майтри смит», буддийские и христианские религиозные летописи, юридические документы – на согдийском письме. На манихейском написан «Хуастуанифт».

Арабское письмо появилось в VIII веке и стало популярным. Само слово «алифбе» состоит из соединения двух начальных букв арабского алфавита «алиф» и «бо» (бе). До перехода на латинскую графику весь мусульманский мир пользовался арабским письмом. В 20-х годах XX века арабская графика была реформирована, так как не было знаков которые бы показывали гласные звуки. «Зеру-забар» (знаки используемые под буквами и над буквами) были только в «Коране» и в других религиозных книгах.

Арабское письмо занимает значительное место в историческом развитии и культурой жизни тюркских народов. Арабское письмо, которое пришло в тюркский мир, обслуживало социально-культурные потребности общества в течение более чем тысячи лет.

Арабское письмо сыграло объединяющую роль в общем культурно-историческом пространстве тюркских народов. Невокализированный текст на арабской графике можно было читать соответственно специфике каждого тюркского языка (татарского, узбекского, турецкого и т.д.). Потому что тюркские языки отличаются в области фонетики, в первую очередь, по системе гласных. Этот алфавит в течение во многих веков поддерживал единство тюркских народов, и великая литература, созданная на этом алфавите, воспринималась как своя в любом регионе тюркского культурного мира. Произведения созданные в течении 1000 лет относятся к арабской графике. Целый комплекс тюрко-узбекских письменных памятников, эти ценнейшей атрибуты духовной культуры народа дошли именно в арабписьменном варианте.

Существуют несколько видов арабского письма: *маъкалий*, *тавкъе*, *наш*, *таълиқ*, *настаълиқ*, *куфий*, *риқоъ*, *шикаста*, *сулс*. Каждая из этих письменностей отделяется своими каллиграфическими свойствами. Куфий и сулс являются среди них самыми сложными письменностями. Они были использованы в виде текстов на архитектурных памятниках, на камнях кладбищ [Джуманиязов, 1989,17].

Из видов арабской письменности *наста'лиқ* выделяется красивой каллиграфией и доступным чтению. И поэтому *наста'лиқ* был принят в Средней Азии и на Кавказе как официальное письмо. Большинство письменных памятников народов Средней Азии и Кавказа написаны на этом письме.

Поэт и полководец Захириддин Мухаммед Бабура, считая арабское письмо сложным, создал алфавит «Письмо Бабура», когда ему было двадцать лет. Главной особенностью этого письма является то, что здесь гласные буквы передовались не диакритическими знаками (зер-забар), а специальными буквами. «Письмо Бабура» устраивал многих, так как он был создан с учётом фонетических особенностей тюркских языков. Это доказывает тексты, которые встречаются в «Бабурнаме»: *Мирзобек тағойидин ҳам Камронға таржима ва Ҳиноқа келгали айтқон ашғор ва "Бобирий хати" била битилган сархатлар йиборилиди* [Бабура, 1960, 409] отправлены *сархат*ы, которые были написаны в письме «Хатти Бабурий»...

Сархат – это образец письма, написанная для тех, кто изучает новую пропись [НАЛ, 552, ТРС, 345]. *Сархат* образцовая пропись используемая в целях просвещения. Сархат даёт информацию о развитии национальной каллиграфии. Отрывок о сархате из «Бабурнаме» даёт нам сведения об использовании алфавита «Хатти Бабурий» («Письма Бабура») како-то время.

В издании «Бабурнаме» 2002 года говорится о существовании «Письма Бабура» и о том, что «Каран» был переписан на этом письме [Бабура, 18].

Общезвестно, что проблема письменности, это проблема духовной культуры народа, нации. И назревшая на современном этапе настоятельная необходимость перемены алфавита. Т.е. возврат к латинице направлен на сохранение и развитие языка, на сохранение его самобытной природы. Более того, эта проблема затрагивает сохранение и развитие самой нации, ибо язык это первый показатель в определении нации.

Современный узбекский алфавит называется «новым узбекским алфавитом, основанным на латинской графике».

На 13 сессии Верховного Совета Республики Узбекистан (2-го сентября 1993 года) был принят закон «О создании узбекского алфавита на основе латинской графики». Это объясняется тем, что этот алфавит приблизит народа к всемирной науке и технике, и этот алфавит больше соответствует особенностям узбекского языка.

24 августа 1995 году были приняты «Основные орфографические правила узбекского языка (основанного на латинской графике)», которое состоит из 7 разделов и 82 пунктов.

Переход на новый узбекский алфавит основанный на латинской графике обоснован следующими факторами:

1. Переход на латинскую графику поможет в социально-экономическом развитии страны. Все развитые страны мира пользуются этой латинской графикой, а также латиница является широкоиспользуемой во всем мире.

2. Для развития на уровень высоких достижений в социально-экономической сфере, в дипломатических переговорах с зарубежными странами требуется

изучения английских, испанских, французских языков. Переход на латиницу поможет освоению этих западных языков.

3. Переход на латинский алфавит был поддержан со стороны нескольких тюркских народов [Рахматуллаев, 2002, 3-7].

В настоящее время продолжается параллельное использование кириллицы и латиницы, которая, однако, существенно отличается как от алфавита образца 1928 года, так и от современных тюркских латиниц (турецкой, азербайджанской, крымско-татарской и др.).

Использованная литература

Abdurahmonov G', Xo'jayeva D. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qituvchi, 2003.-Б.87.

Амирова Т.А.Функциональная взаимосвязь письменного и звукового языка. - М.:Наука,1975.

Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома.-Тошкент: Фан,1960.-С. 409.

Бобур Захириддин Мухаммад Бобурнома.-Тошкент:Шарк, 2002. -Б.336.

Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви.-Т.:Ўқитувчи,1989.-Б.7-17.

Исҳоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. -Т.: Ўқитувчи. 1995.-Б.9.

Исҳоқов М., Қ Содиқов, Қ Омонов. Мангу битиглар.-Т.,2009.-Б.8.

Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism.-Toshkent:Ilm ziyo, 2011.-Б.57.

Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси.-Тошкент: Университет, 2002. -Б.3-7.

Рахмонов Н. Қадимги туркий тил.-Тошкент:Ўқитувчи,1989.-Б.24-25.

Умаров Э. Урхун ёзуви.-Тошкент, 2013. -42 б.; www.uz-translations.net.

Шобдурахмонов Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент:Ўқитувчи,1980.-Б. 84-85.

Ҳамидов З. Эски ўзбек тили ва ёзуви (қулланма). -Т., 2002.-Б.9-11.

НАЛ-Навий асарлари лугати. Порсо Шамсиев таҳрири остида-Тошкент, 1972. -552-б.

ТРС-Таджикско-русский словарь.Под редак. М. В. Рахими и Л. В. Успенской -М.: Гос. изд. ин. и нац. словарей, 1954. -с.345.

“ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТУРК” АСАРИ ВА УНИНГ ЯНГИ НАШРИ ХУСУСИДА

Resume

The paper deals with about republished edition of “Devonu lugotit turk” Makhmud Koshgariy in 2017.

Key words: turkology, tribe, lexicographical tradition, name, verb, encyclopedia.

Мутахассислар томонидан замонасининг буюк олими сифатида эътироф этилган Махмуд Кошғарий “Девону луғотит турк” асарида тилшуносликнинг кўплаб соҳаларини қамраб олди. Унда туркий тиллар, хусусан, ўзбек тилининг фонетик, лексик, грамматик, диалектал хусусиятларига доир муҳим маълумотлар акс этган. С.Муталлибов таъкидлаганидек, мазкур асарнинг яратилиши факат ўша давр учун катта воқеа бўлиб қолмай, бугунги туркология учун ҳам ўз аҳамиятини сақлаб келмоқда. Шу боис у ҳақли равишда туркология фанининг асосчиси саналади.

Араб тили илм-фан тилига айланиб улгурган бир пайтда барча туркий халқлар учун бирдек қимматли бўлган ушбу нодир манбада 8,5 мингдан ортиқ туркий сўзнинг арабча изоҳлаб берилиши, шунингдек, бухоролик олим тилидан “Турк тилини ўрганинг, чунки уларнинг ҳукмронлиги узок давом этади” деган ҳадиснинг келтирилиши ўша даврда туркий қабилалар нуфузи ортиб бораётганлигидан далолатдир. Қолаверса, Махмуд Кошғарийнинг “а” ни “ҳа” тарафда талаффуз қилувчи қабиллага мансублиги унинг қайси қабиладан эканлигини аниқ ифодаламаса-да, мазкур қабиланинг туркийлар орасида катта маънага эгаллигидан гувоҳлик беради.

Таъкидлаш керакки, Махмуд Кошғарий араб лексикографиясидан фарқли ўлароқ, ўзига хос туркий луғатчилик анъанасини бошлаб берди. Бу тилшуносликнинг барча соҳалари, яъни сўзларни изоҳлаш жараёнида ўрни билан қабилалар тилининг фонетик, лексик, сўз ясалиши, морфологик хусусиятларининг киёсланиши юзасидан маълумот бериб, назарий фикрлар билан қилинганда яққол намоён бўлади. Мазкур ёндашув луғатчиликда янги ва мураккаб усул ҳисобланади. Луғатнинг тузилиш принципи ҳақида мушрифнинг ўзи шундай ёзади: “Асарни 8 асосий китоб (қисм) билан чокладим. Ҳар бир бўлимни исмлар ва феъллар тарзида икки қисмга ажратиб бердим. Исмларни олдин, феълларни эса исмлардан кейин ўз сирасига қараб, кўпларга ажратиб, ўз ўрнида олдинма-кетин кўрсатдим. Тушунилиши осон бўлсин учун асарда арабча терминларни қўлладим. Китобни тузиш олдида Хамил ибн Аҳмаднинг “Китобул-айн” асарида тутган тартибини қўллаш, истъомолдан чиққан сўзларни бера бориш фикри менда туғилган эди. Бу тартиб араб тили билан тенг пойгада ўзиб бораётган турк тилини тўғри ёритиш жиҳатидан ҳам яхши эди. Лекин мен ўқувчиларнинг фойдаланиш масаласига исосландим. Мен истъомолдаги сўзларнигина бердим, истъомолдан

чиққанларини ташладим. Мен тутган тартиб “тўғрироқдир” (23- бет). Демак, маълум бўладики, Халил Аҳмад тутган тартибни қўллаш истаги бўлса-да, туркий тилнинг мавқеи, ўзига хос табиатидан келиб чиқиб, уни тўлиқроқ ёритиш мақсадида кўпчиликка тушунилиши осон бўлган янгича, қулай йўлни танлайди. Бу билан олим қадимги туркий тилга мурожаат қилмайди, демоқчи эмасмиз. Аксинча, туркий тилнинг дастлабки босқинчи ўз даври билан боғлаш ва унинг давомийлигини таъминлашни назарда тутиб, қадимги туркий тилдаги сўз ва грамматик шакллардан қиёсий тарзда фойдаланиб, кези келганда, уларга изоҳлар беради. Луғатда бу тўғрисида қуйидагиларни ўқиймиз: “Биз бу ерда” қадам изи биров юрганлигини билдиради” дейилгани каби улардан баъзи намуналарини кўрсатиб бошқаларини шунга қиёс қилишни ўқувчиларнинг ўзларига ҳавола қилдик.

Қисқартириш ва энгиллатиш мақсадида бу асарни мендан олдин ҳеч ким тузмаган ва ҳеч кимга маълум бўлмаган алоҳида бир тартибда туздим. Бу жиҳатдан мен асарнинг қимматини ошириш, бошқаларга (фойдаланувчиларга) осонлик туғдириш мақсадида ҳамда пухта қўлланма бўлсин деб, ҳар бир қабиланинг ўзига хос хусусиятларига кўра қиёсий қоидалар туздим. Бу масалага қизиққан мутахассисларга ушбу асарни қўлланма қилдим. Илгарилаб кетганларга етиш учун мен бу китобимни пойгачи отдек уларнинг кетидан юбордим, уларга етиб олиш учун йўл очиб бердим, жуда юқорига чиқиш учун нарвон ясадим. Сўнгра мен ҳар бир қабилга мансуб сўзларнинг ясалиш хусусиятларини ва қандай қўлланилишини қисқача изоҳлаб кўрсатиш учун алоҳида йўл тутдим (24-25- бетлар). Дарҳақиқат, “Девон”даги тил фактлари 11 асрагина тегишли бўлмай, улар қадимги давр тили, ижтимоий-тарихий ҳодисалардан ҳам намунадир.

Муқаддима ва 8 бўлимдан иборат асарда туркий тиллар фонетикаси, нутқ товушларининг қўлланилиши, талаффузи, фонема ва ҳарф тушунчаларининг фарқланиши, бошқа тилга оид ундош товушлар, товуш алмашиши, ёзув ислохотлари, сўз маънолари, сўз ясалиши, грамматика, диалектология билан боғлиқ лингвистик таҳлиллар ҳамда адабиёт, тарих, фалсафа, ҳуқуқ, мантик, ахлоқшунослик, сиёсат, этнография, ҳарбий санъат каби соҳаларга оид маълумот ва мисоллар, шу билан бирга, халқ оғзаки намуналари, сермазмун хикमतлар, мақол ва маталларнинг берилиши олимнинг, ҳақиқатан, ўз замонасининг етуқларидан, энг катта мутахассисларидан эканлигини яна бир бор исботлайди.

Адабиётларда қиёсий-тарихий тилшунослик XIX асрда пайдо бўлди дейилади ва унинг асосчилари сифатида Ф. Бопп ва Р. Раск ҳамда Я. Гримм эътироф этилади. Ваҳоланки, Маҳмуд Кошғарий туркий қабилга, қавм ва уруғлар яшаган шаҳар, қишлоқ ҳамда яйловларни 15 йил мобайнида бирма-бир кезиб, сўзларни тўплади, 50 га яқин қавм ва уруғлар, жумладан, 20 та қабилга тилини қиёслаб, уларнинг кичик фарқлари, нозик хусусиятларини аниқлади, айни пайтда, туркийшуносликда биринчи бўлиб туркий тиллар таснифини амалга оширди.

Мутахассисларга яхши аёнки, Европада XX аср бошларида лингвогеография лингвистиканинг тармоғи сифатида шаклланди. Аслида унинг

илдизлари Махмуд Кошғарийга бориб такалади. Аллома қабилалар тилининг диалектал хусусиятларини ёритиб, туркий тиллар диалектологиясига нўйдевор қўйган бўлса, туркий қабилаларнинг жойлашиш ўрни кўрсатилган диалектолгоик харитани яратиш оркали лингвистик география фанига асос солди.


“Девон”нинг таржималари ҳақида гапирганда, шуни айтиш керакки, асар бугунги кунга қадар 18 тилга таржима қилиниб, 22 марта нашр қилинган. Асардан илк намуналар юртимизда 1927-1928 йилларда Фитрат ижодида кўзга ташланса, унинг ўзбек тилидаги тўла наشري 1960-1963 йилларда филология фмилари доктори, профессор С.Муталлибов томонидан эълон қилинган эди. Кайд этилган нашрнинг 2006 йилдаги туркча, Анкарада нашр этилган Б.Аталай ҳамда 2010 йилдаги русча, яъни Москвада чоп қилинган А.Рустамов таржималари билан солиштирилиб кенг китобхонларга 2016 йилда иккинчи бор тақдим этилиши катта аҳамиятга моликдир¹. Қолаверса, асарнинг қўлёзма нусхаси билан қиёслаш натижасида матнда тушириб қолдирилган жумла ва сўзларининг тикланиши, араб тилида берилган ояти қарима, ҳадис ва айрим шеърлар таржимасининг кирилл ёзувидаги транслитерацияси билан бирга ёрилиши таҳсинга сазовор. Шунингдек, шеърларнинг рим рақамида, мақолларнинг сатрбошида, феълларда мисоли келтирилаётган ҳарфларнинг шўҳида ажратилиб кўрсатилиши нашрнинг қийматини янада оширган.

Ж.Худойбердиевнинг қайд этишича, Махмуд Кошғарийнинг ҳаёти ва унинг асари юзасидан 1779 та тадқиқот ҳамда турли нашр ишлари амалга оширилган бўлса, унинг 309 таси ўзбекистонлик олимлар ҳиссасига тўғри келади². Шундай бўлса-да, тарихий-қомусий асарнинг туркий тиллар, чунончи, ўзбек тили риможи ва туркологияда тутган ўрни, луғат бойлиги етарлича ўрганилган деб айтолмаймиз. Шу маънода, мазкур ёзма ёдгорликнинг орадан 53 йил ўтиб, қайта эълон қилиниши келгуси изланишлар учун кенг йўл очиб, бу борада муҳим манба вазифасини ўташ баробарида туркий луғатчиликнинг дастлабки мукамал намунаси ҳисобланган асар умрининг бардавомлигини таъминлайди.

Асарнинг 1914 йилда туркиялик китобсевар Али Амирий томонидан тилилиши, 1960-1963 йилларда юртимизда илк бор ўзбек тилида чоп қилиниши қиңчилик тарихий аҳамият қасб этган бўлса, луғатнинг бугунги наشري ҳам шунчалик кадр-қимматга эга. Чунки туркий тиллар, хусусан, ўзбек тили ва лексикографиясининг шаклланишида “Девон”нинг ўрни бекиёс.

¹ Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т турк). – Тошкент: Mumtoz so'z, 2016.

² Nislo'yberdiyev J. Mahmud Koshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 4.



ЭСКИ ЎЗБЕК ТИЛИДА МИСЛИ КЎМАКЧИСИНИНГ СИНТАКТИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Ўзбек тили тарихига доир ёзма манбаларда, айникса, Алишер Навоий ва Бобур асарларида ўзлашма луғавий шакллар кўплаб учрайди. Тил тараккиёти давомида айрим ўзлашма шаклларнинг талаффузида, маъно тараккиётида ўзгаришларга учраганлиги, айрим грамматик шаклларнинг жумла қурилишига таъсир қилганлигига доир жуда кўплаб мисоллар келтириш мумкин. Шунга кўра айрим ўзлашмаларнинг луғавий маъносида юз берган ўзгаришлардан ташқари ўша тилга хос грамматик хусусиятларни сақлаб қолиши ва синтактик структурага таъсир қилиши масалалари тил тарихига оид манбаларни тадқиқ қилишга асос бўлади. Шундай ўзлашмалардан бири *мисл* сўзидир. *Мисл* сўзи туркий ёзма манбаларда XIII-XIV асрдан бошлаб қўллана бошлаган. Унинг кейинги давр ёзма манбаларида – хоҳ насрий, хоҳ назмий асарлар бўлсин, қўлланиш доираси кенгайган.

Мисл сўзи араб тилидан ўзлашган бўлиб, тарихий манбаларда *ўхшаиш*; *хўдди*, *каби* маъноларни ифодалаган. Алишер Навоийнинг асарларида *мисл* сўзи бир нарсанинг *ўхшаиши*, *монанди*, *тенги* каби маъноларда ишлатилади. Э.Фозилов бу сўзни шеърий асарларда *ўхшатиш*, *қиёслаш* маъносида қўлланганлигини айтади.¹ *Мисли* тарихий манбаларда арабий бирикма таркибида ҳам қўлланган: *عديم المثل* – *адимул-мисл а. тенги йўқ, мисли йўқ* каби². Шунингдек, мазкур кўмакчининг отлар каби эгалик шаклида қўлланган ўринлар ҳам мавжуд. Масалан: *Мислинг адим* – *ўхшаишинг, тенгинг йўқ*. *Билурда сенинг доғи мислинг адим* (СИ)³. *Мисли* кўмакчиси ҳозирги ўзбек тилида ҳам фаол қўлланади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида *мисли* (*мисл+и*) сўзи таркибидаги “и” форсий изофа шакли эканлиги айтилади: [а+ф. — «мисл» сўзи изофа ҳолатда] *каби, сингари, бамисоли* маъноларда келади: *Қалбини бир оғир ғам ўртарди мисли отаи*. Х. Олимжон.⁴ Эски ўзбек тилида ҳам айна шу ҳолатда, *мисли* шаклида қўлланган

Мисли сўзи ҳозирги ўзбек тилда *каби, ўхшатиш* маъносини ифодаловчи восита сифатида кенг қўлланади. Ёзма манбалар тилида қўлланган *мисли* кўмакчиси ифодалаган маъно ҳозирги ўзбек тилидаги маъносидан фарқ қилмаса-да, унинг тарихий манбалар тилида, хусусан, насрий ва шеърий асарларда қўлланишида фарқли жиҳатлар кузатилади.

Мисли кўмакчиси шеърий асарларда *киби, бикин, янглиг* каби кўмакчилар ифодалаган грамматик маънода қўлланган ва биргина жумла таркибидаги гап бўлаги ёки бирикма маъносига аниқлик киритишга хизмат қилган ва гапда аниқловчи, баъзан кесим вазифасида қўлланган. Масалан:

¹ Фозилов Э. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий тили. –Тошкент, Фан. 1969. 64-б.

² Навоий асарлари луғати. –Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1973. 394-б.

³ Навоий асарлари луғати. –Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1973. 794-б.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 601-б.

*Нун бошинда шамра янглигдур қошинг узра гиріх
Ораз узра нуқта мислидур узоринг узра хол (1-378).*

Мисли шакли насрий асарлар тилида киби, бикин, янглиг кўмакчилари ва - дай, -дек луғавий шакллар ифодалаган маънода қўлланиб, куйидаги ўзига хос жиҳатлари кўзга ташланади:

- *мисли кўмакчиси асосан уюшиқ бўлақлар бошида қўлланган;*
- *киби, бикин, янглиг кўмакчилари билан шаклланган қурилмалар маъноси аниқлаштирилаётган сўздан олдин қўлланса, мисли шакли ўзининг грамматик хусусиятига мувофик маъноси аниқлаштирилаётган гап бўлагидан кейин қўлланган;*
- *мисли шакли ёрдамида маъноси аниқлаштирилаётган гап бўлаги аксарият ҳолларда грамматик кўплик шаклида бўлган;*
- *мисли кўмакчиси билан шаклланган жумла мураккаб синтактик тутилишга эга бўлган.*

*Мисли кўмакчиси билан шаклланган жумла ноанъанавий гап қолипи кўринишга эга. Бу тарзда шаклланган гап шакллари ҳозирги ўзбек тилида учрмайди. Шейрий асарлар тили учун ҳам хос эмас. Масалан: Ва маснавийлари ҳам мисли «Тажнисот» ва «Зул-бахрайн» ва «Зул-кофиятайн» ва «Ҳисн ва ишқ» ва «Носир ва Мансур» ва «Баҳром ва Гуландом» бор (2). Жумладан маълум бўладики, *мисли кўмакчиси уюшиқ бўлақлардан олдин қўлланган ва уларни яхлит ҳолда кўмакчили қурилманинг шаклланишини тийминлаган.**

*Мисли кўмакчиси билан шаклланган қурилма синтактик жиҳатдан ўзи бўлган гап бўлагидан кейин келиб, унинг маъносига ойдинлик киритади, аниқлаштиради: Манга ҳам улуг ишлар орага тушиди, мисли Қандаҳор ва Балх ва Бадахшон ва Ҳиндустон фатҳи (3-127). Жумладаги уюшиқ бўлақлар Қандаҳор ва Балх ва Бадахшон ва Ҳиндустон фатҳи мисли кўмакчиси билан шаклланиб, синтактик жиҳатдан яхлит ҳолда улуг ишлар бирикмасига бўлган ва яхлит ҳолда унинг аниқловчиси саналади. *Мисли билан шаклланган қурилмаларни каби кўмакчи билан трансформациялаш мумкин. Бунда унинг туркий маънодошларини қўллаш ўринли: Манга ҳам Қандаҳор ва Балх ва Бадахшон ва Ҳиндустон фатҳи каби улуг ишлар орага тушиди каби.**

Мисли сўзининг маъносини кучайтириш, таъкидлаш мақсадида қўшимча ривонда унинг туркий маънодоши – ўхшатиш воситаси -дек шакли ҳам қўлланилган. -дек шаклининг қўлланиши кўмакчили қурилманинг синтактик тутилишини ўзгартрмайди: Ва баъоят беназир боғланиб, яна ишлар ҳам мисли «киби» ва «газди» ва «чорзарб»дек ва «савт» ва «нақиш» худ беҳадду аدد боғлабдур... (4-128).

Куйидаги жумлада маъноси аниқланаётган бўлак бирикма ҳолида (моҳир кинишлар) бўлиб, қочирик ҳолатда қўлланган ва кўмакчили қурилма бирикманинг ҳар иккала қисмига боғланган: Ул асрнинг бу фанда моҳирлари мисли Устод Мухаммад Хоразмий ва Мавлоно Нувмон ва Мавлоно Соҳиб Балхий ва Шайх Сафойи Самаркандий ва Хожжа Юсуф Андижонийдек кинишларин; таснифоти муқобаласида ишлар ясабдур (4-68). Тобе компонент ноанъанавий (форсий) қолипни эслатса – моҳирлари мисли Устод Мухаммад

Хоразмий ва Мавлоно Нўъмон ва Мавлоно Соҳиб Балхий ва Шайх Сафоий Самарқандий ва Хожя Юсуф Андижоний, иккинчиси –дек шакли ёрдамида туркий қолипда боғланган: Устод Муҳаммад Хоразмий ва Мавлоно Нўъмон ва Мавлоно Соҳиб Балхий ва Шайх Сафоий Самарқандий ва Хожя Юсуф Андижонийдек қишлар каби.

Эски ўзбек тилида *мисли* кўмакчиси кенг истеъмолда бўлган. Бу кўмакчи шеърый ёхуд насрий асарларда қўлланишидан қатъи назар маънода тафовут сезилмайди, эски ўзбек тилидаги *киби*, *бикин*, *янглиг* кўмакчилари билан бир хил маънони ифодалайди. Ўшатиш маъносида қўлланадиган *киби*, *бикин*, *янглиг* каби кўмакчилар ўзи боғланган гап бўлагидан олдин қўлланса, *мисли* кўмакчиси билан шаклланган қурилмалар эса ҳар доим ўзи боғланган гап бўлагидан кейин қўлланади ва жумланинг синтактик таркибини мураккаблаштиради.

1. Алишер Навоий. 3-том. “Ғаройиб ус-сиғар”.
2. Алишер Навоий. 15-том. “Ҳолоти Пахлавон Муҳаммад”. Фан. 1999.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома” Юлдузча. 1989.
4. Алишер Навоий. 15-том. “Ҳолоти Пахлавон Муҳаммад”. Фан. 1999.

М.ЖЎРАЕВ, ЎЗРФА ЎТАФИ бўлим бошлиғи,
М.ХОЛМУРАДОВА, ТошДУТАУ КИХИ

“КУТАДҒУ БИЛИГ”ДАГИ ТИББИЙ ТЕРМИНЛАР

Resume

In this article, the medical terms are analyzed in one of an important source “Kutadgu bilig” in the Old Turkic language diachronic aspect.

Key words: medicine, personal nouns, term, symbolic meaning, medicine names, Turkic language.

Панднома адабиётининг ёрқин намунаси бўлган Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари туркий тил имкониятлари ёритилган илк бадий дoston бўлиши билан бирга, турли соҳага оид маълумотлар жамланган қомусий манба ҳамдир. Асарда йигирмадан ортиқ соҳага оид фикр-мулоҳазалар баён этилган. Жумладан, тиббиётга доир терминлар, таъбатга оид тушунчаларни акс эттирувчи лексик бирликлар қайд этилган.

“Қутадғу билиг”даги тиббиётга оид тушунчаларни ифодаловчи сўзларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин.

1.Тиббиётга доир шахс отлари. Асар матнидаги айрим сўзлар тиббиёт соҳаси билан шуғулланувчи шахс отларидир. Масалан, *otaçi* “даволовчи” маъносини билдирган:

Olarda birisi otaçi turur

Qatug̃ ig̃ toğ̃aqa bu emçi erur

“Улардан бири табиб(лар)дир, Ҳамма касаллик, руҳ оғирлигига улар эмчилардир” (4252-байт)

“Девону луғотит турк”да ҳам *otaçi* “даволовчи, табиб” маъносида қайд этилган (ДЛТ,1299). “Қадимги туркий луғат”да “олов”, “Ўт, гиёҳ”, “дори” маъноларидаги *ot* шаклдошлари келтирилган (ДТС,373). *Otaçi* “гиёҳ, доривор ўсимлик” маъносидаги *ot* сўздан ясалган шахс оти бўлиб, даво усули асосан шаклланган.

Асарда табибларга нисбатан “*emçi*” термини ҳам қўлланган. *Emçilar* бирча касаллик ва руҳ оғрикларига даво бўладиган шахслар сифатида эътироф этилган. *Emçi* сўзи *otaçi*, яъни “табиб” шахс отини изоҳлаш учун келтирилган. *Em* ҳам “гиёҳ, ўт” маъносида қайд этилган. *Ot* сўзи *em* билан биргаликда қўлланиб, “гиёҳ, доривор ўсимлик” тушунчаларини билдирган (ДТС,373).

“Табиб”, “даволовчи шахс” тушунчасини билдириш учун ҳар икки терминнинг биргаликда(жуфт)мажозий маъно, қўлланиш ҳолати ҳам кўчатилади: *otaçi emçi, otaçi baqşi, otaçi hakim* (ДТС,373).

Emçi (эмчи) ҳозирги ўзбек тилида ҳам ишлатилади. “Ўзбек тилининг иккюхли луғати”да ушбу сўзнинг икки маъноси қайд этилган:

1. Эмловчи табиб, врач, ҳамшира.

2. *эти.* Эми-дими, дуо, кокик-суқуқлар билан даволовчи табиб *Emçi (эмчи)* бугунги кунда, асосан, шеваларда изоҳли луғатда қайд этилган иккинчи маънода қўлланади. “Халқона усул, амаллар билан даволовчи табиб” тушунчасини ифода этади. *Em* сўзи ҳам сўзлашув услубида ишлатилади, “даво, шифо” тушунчаларни билдиради.

“Кутадғу билиг”даги шахс отлари лексик-семантик тараққиёт нуусиятларни ифодалаш билан бирга соҳалар ривож, терминларнинг шаклланиш омиллари ҳақида муайян тасаввур беради.

2. **Дори номлари.** Асарда турли дори номлари ва уларнинг қандай ясалликларга қарши қўлланилиши ҳақида маълумотлар берилган. Асарда қўлланган дори номлари фармацевтика ривож, дори турлари, даволаш усуллари борасида маълумот беради.

Urağun – аччиқ таъмга эга бўлган дори, заҳар:

Bedük bir biçäkig elikdä tutar

Solımdın urağun oñındm şakär “Қўлида улкан бир пичок тутган, Сўл томонида – урагун (бир хил дори), ўнгида эса шакар (шарбат)” (757-байт).

“Қадимги туркий тил”да *urağun* “название одного из индийских лекарств, горький напиток” тарзида изоҳланган (ДТС, 614). Р. Арат бу дорини “Hindistandan gelen bir ilâç” деб таърифлайди.²

Байтда келтирилганидек, зўрлик ва зулм кўрган инсон ҳукмдорнинг даргоҳидан адолат топса, шакардан, ширинликдан баҳра олади. Зўравон ва шоним, тўғриликдан мосуво кишилар урағун, яъни заҳар ичишга маҳкумдир. Ҳукмдорнинг адолатли сиёсатидан золимлар урағун ичгандек азият чекади. Юқоридаги байтда *urağun* мажозий маънода қўлланиб, Кунтуғди элигининг

¹ Ўзбек тилининг иккюхли луғати. V том - Т., 2007. – Б. 38.

² Raod Rahmoti Arat Kutadgu bilig (index). - Istanbul, 1979. – Б. 497.

адолат ҳақидаги фикрларини асослашга, ёмонларнинг жазога муқаррар эканлигини таъкидлашга хизмат қилган.

Ötrüm – сурги дори. Асарда таъкидланишича, Ойтўлди касалликка чалинганда табиблар унга қон олдиришни тавсия қилишган. Айрим табиблар сурги дори – *ötrüm* ичишни маслаҳат берганлар:

Qayu aydi ötrüm içürgü keräk

Özin qatmış emdi boşuğu keräk “Баъзилари айтдилар: сурги ичириш лозим, ичи қотибди, энди ични юмшатиш керак”(1045-байт).

Ötrüm “Қадимги туркий луғат”да “кучсизлантирувчи” маъносида қайд этилган (ДЛТ,393).

Şahsa, taryaq сўзлари ҳам беморни даволаш учун бериладиган дори тушунчасини ифодалаган:

Keräk qat şahsa keräk taryaq et

Keräk mitridus qat ya çurni ögüt “Иста шалисо ишлат, иста тарёк истеъмол қил, иста Митридуc ишлат ёки чурни, ўгит истеъмол қил”(1050-байт).

Şahsa (*шалисо*) – ҳар жиҳатдан манфаатли дори.¹

taryaq (*тарёқ*) – захарларга қарши мураккаб таркибли дори.²

Байтда келтирилган *mitridus*, *çurni*, *ögüt* каби сўзлар ҳам дори номларини билдирган. *Mitridus* – мураккаб таркибли дори бўлиб, яратувчисининг номи билан аталган.³ Бу тиббий термин метонимия асосидаги маъно кўчиши асосида юзага келган бўлиб, атоқли от турдош отга айланган. “Қадимги туркий луғат”да *mitridus* “названия лекарственного снадобья” тарзида изоҳланган (ДТС,338).

Ögüt (*угут*) “заъфаронга бир неча хил ашёлар қўшиб тайёрланадиган дори” тушунчасини билдирган.

Güvariş, ma’jun, çurni доривор гиёҳлардан тайёрланадиган дори номларини ифода этган. *Güvariş* (*гувориш*) – овқат хазм қиладиган дори. “Қадимги туркий луғат”да “пищеварение, виночерный держит разные травы, добавляет их для пищеварения, для закрепления и [в качестве] слабительного” тарзида таърифланган (ДТС,195). Р.Арат *güvariş* “*hazma yardımı olan şeyler*” деб келтиради.⁴

Ma’jun (*маъжун*) – опиум дорилар аралашмасидан иборат паста.⁵ *Maъжун* арабчадан олинган сўз (лекарственная смесь – DTS,339); *kuvvet ilâçî*.⁶

Çurni (*чурни*) – сурги дори, турклар томонидан қўлланилади (лекарственный порошок, слабительное – DTS,157).

Qamuş türlüğ otlar idişçi tutar

Güvariş ya ma’cun ya çurni Qatar

“Ҳамма турли дориларни шаробдор сақлайди, Гувориш ё маъжун, ё чурни аралаштиради (ҳозирлайди)” (2448-байт).

¹ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob. –Б. 29.

² Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari V kitob.–Б. 234.

³ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari V kitob.–Б. 235.

⁴ Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). Istanbul, 1979. –Б.184

⁵ Юсуф Хос Ҳожиб. “Кутадгу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиқ қилувчи Қ.Каримов.- Тошкент: Фан, 1972.–Б.960.

⁶ Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). Istanbul, 1979. –Б.321.

Terāḡbin “бушатувчи, тозаловчи дори” тушунчасини ифодалаган:

Sarıḡı kışānmiş bolur ay bōḡü

(Özini boşutḡu terāḡbin yegü. Сафроси кучайган бўлади эй доно, Ўзини бушатиши, тарангбин истеъмол қилиши керак” (5885-байт).

Terāḡbin (тарангбин) – япроқда пайдо бўладиган шира, сурги дори сифатида фойдаланилади.

Хулоса қилиб айтганда, “Қутадғу билиг” асаридаги тиббий терминлар Ўрта Осиёдаги табобат ривожига, дори кўринишлари, даво турлари ҳақида маълумот беради. Бу асарни нафақат тилшунослик ёки адабиётшунослик соҳасига оид, балки тиббиётга оид қимматли фикрлар жамланган ноёб қомусий асар сифатида ўрганиши лозим.

Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadḡu bilig. I,II,III,IV,V jildlar. -Toshkent: Jahon print, 2011.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари . V китоб.-Т., 1993.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). -Тошкент, 1963.
4. ДТС - Древнетюркский словарь.-Л. :Наука, 1969.
5. Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). -Istanbul, 1979.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тинсиқ қилувчи Қ.Каримов.-Тошкент: Фан, 1972.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V жилдлар. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-Т., 2006-2008.

М.МУМИНОВА, ТошДУТАУ магистранти

“САДДИ ИСКАНДАРИЙ”ДАГИ ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАР

Resume

The article is devoted to analyzing military terms divided into nine groups that are mentioned in Alisher Navoi's "Saddi Iskandariy".

Key words: Old Uzbek literary language, term, military terminology, topical group, military fate, promotion.

Алишер Навоий эски ўзбек адабий тилининг такомиллашуви ва тиракқийетида беқиёс хизматлари билан алоҳида ўрин тутади. Тил ва жамият тарихини ўрганиш, унинг шаклланиш ва тараққийёт босқичларини аниқлашда аниқ обидаларнинг аҳамияти беқиёс. Чунки тил жамият ва халқ тарихи билан алоҳида равишда ривожланиб боради. Шу нуқтага назардан тилдаги терминларни аниқлаш тадқиқ этиш, бир томондан, ҳар бир истилоҳнинг тадрижий тиракқийёт йўллари очиқ берса, иккинчидан, у тилнинг муайян даврдаги сўз байлиги, шунингдек, фонетик-фрнологик, морфем-морфологик ҳамда синтактик хусусиятларини ёритишда ёрдам беради.

Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий”¹ дostonида бир қатор терминлар тизими кўзга ташланади. Булар ичида энг фаолларидан ижтимоий-сиёсий ва ҳарбий терминологияни таъкидлаш мақсадга мувофиқ.

Достон мазмун-моҳият нуқтаи назаридан Искандарнинг кўндан кўп ҳарбий ҳаракатлари, юришлари, жангу жадаллари бўлганлиги сабабли унда эски ўзбек адабий тилида қўлланган ҳарбий терминологиянинг деярли барча мавзуий гуруҳлари ўз аксини топган.

Маълумки, ўзбек тили ҳарбий терминологияси шаклланиш ва тараққиёт босқичининг бир неча даврларини бошидан кечирган. Унинг шаклланиш ва ривожланишида қадимги туркий тил, эски туркий тил ва эски ўзбек адабий тилига хос бўлган ҳарбий терминология салмоқли ҳисобланади. Ҳарбий терминология масаласи билан шуғулланган олимларнинг фикрига кўра, эски ўзбек адабий тили ҳарбий терминологиясини қуйидаги мавзуий гуруҳларга тақсимлаган ҳолда тадқиқ этиш ўзини оқлайди²:

1. Саркардалар, лашкарбошилар ҳамда бошқа ҳарбий мансаб, унвон ва лавозим эгалари номини ифодаловчи терминлар. Булар сирасига *сипоҳсолар, сархайл, лашкарбоши, қўшунбеги, туманбеги, мингбеги* сингари терминларни киритиш мумкин. Асардаги ҳарбий мансаб ва унвонларни лисоний тадқиқ қилишда, албатта, ушбу мансаб ҳамда унвон эгаларининг вазифалари, сиёсий мавқелари хусусида аниқ тасаввурларга эга бўлиш талаб этилади.

2. Турли ҳарбий қисм ва бўлинмалар номларини ифодаловчи терминлар: *лашкар, сипоҳ, жайш, юзлик, минглик, қаровул, чағдавул, қунбул, черик, ҳиравул* ва ҳ.к.

3. Жанговар тартиб, саф тушунчаси билан боғлиқ истилоҳлар: *ясол, саф, қатор, барангар, жувангар, қалб, соқа* ва ҳ.к.

4. Ҳарбий амалиётлар номларини ифодаловчи терминлар: *пистирма, ҳўжум, ҳамла, қабал, қувгин, камин* ва ҳ.к.

5. Курол-яроғ номлари:

- Кесувчи ва санчувчи куроллар: *қилич, синон, найза, пичоқ, ханжар* ва ҳ.к.

- Урадиган куроллар: *гурзи, тўқмоқ* ва ҳ.к.

- Отиш куроллари: *раъд “ўт сочиш куроли”, камон, ёй, ўқ, тир “ўқ”*.

6. Қўшин турлари: *отлиқ, ниёда, сангандоз “тош отувчи”, раъдандоз “раъд отувчи”, тирандоз “ўқчи”* ва ҳ.к.

7. Ҳарбий истеҳкомлар номларини билдиручи терминлар: *қалъа, қўрғон, ҳисор, бурж, бору* ва ҳ.к.

8. Ҳарбий мусика билан боғлиқ истилоҳлар: *табл, нақора, сурнай, карнай* ва ҳ.к.

9. Турли ҳарбий ҳаракатларни ифодаловчи терминлар: *қабамоқ “камал қилмоқ”, ҳамла қилмоқ, ҳўжум қилмоқ, қавламоқ “таъқиб этмоқ”, фатҳ қилмоқ* ва ҳ.к.

Қуйида айрим терминлар қўлланган фактик материалга мурожаат этамиз.

¹ Alisher Navoiy. *Saddi Iskandariy*. - T.: G'ulom, 2016.

² Қарағ: Дадабоев Ҳ. Военная лексика в староузбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. - Ташкент. 1981.

Адоват (ар.) – душманлик, ғанимлик.
*Адоват била қилди бизга мурур,
Сипаҳ тортмоқ бизга бўлди зарур.*
Адад (ар.) – сон, миқдор.
Жўвангарда ҳам олти юз минг адад.
Адовий (ар.) – дори, порох.
*Ичининг халосин мало қилдилар,
Адовийдин ани тўло қилдилар.*
Баргуствон (ф) – зирх. Филга ёпиладиган ўқутмас ёпинчик.
*Аламлар қарою, синонлар қаро,
Бедов узра баргуствонлар қаро.*
Бунгоҳ – қўшин қароргоҳи, лашкаргоҳ, лагерь.
*Узатқач халойиқ била шохни,
Ҳамул нақб уза чекти бунгоҳни.*
Гирд (ф) – айлана, доира.
*Куп эрким қилиб гирд қилмоғни вурд,
Кўра шакли ернинг бўлиб нимгирд.*

Хуллас, Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достонида ишлатилган ҳарбий терминлар эски ўзбек адабий тили ҳарбий терминологиясининг ўта турфалиги, ранг-баранглиги ҳамда нафақат ўз, шунингдек, ўзлашма қатламлар ҳисобига кенгайиб, такомиллашганидан далолат беради.

“Садди Искандарий” достонида қўлланган ҳарбий лексикасикани метрофияча ўрганиш эски ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ҳусусиятларининг ўзига хослигини асослаш, мазмун-моҳияти, илмий-амалий қийматини белгилаш, муаллифнинг сўз қўллаш маҳоратини ёритишда муҳим ўрин тутади.

N. RAXMONOVA, ToshDO`TAU magistranti

“QISASI RABG`UZIY” ASARINING O`RGANILISHI

Resume

The article deals with investigation of one of Old Turkic manuscript “Qisasi Rabguziy” in turcology.

Key words: independence, heritage, manuscript, London edition, Turkic researcher, Kozon edition.

Sobiq Sho`rolar davrida o`zbek mumtoz adabiyotining bir qator vakillari ijodi, ularning adabiy merosi turli sabablar, to`siqlar natijasida yetarlicha o`rganilmadi, ting`ib etilmadi. Bu jihatlari diniy, islomiy g`oyalar, mafkuraviy asarlarda, hukmdorlar merosini o`rganish yoki qator mumtoz shoirlarimizni zamonaviylashtirishga urinish kabilarda ko`rinadi. O`tmish merosimizning nodir yodgorligi bo`lgan “Qissasi Rabg`uziy” kitobi va uning muallifi Nosiruddin

Burhonuddin Rabg'uziy merosi ham xalqimiz hayotidan uzib qo'yildi. Mustaqillik davrigacha nashr etilmadi, ta'lim muassasalarida yetarlicha o'rganilmadi. Ilmiy ishlar amalga oshirilmadi, chunki asar g'oyasi payg'ambarlar hayoti bilan hikoyatlar o'sha davr manfaatlariga mos kelmas edi.

Rabg'uziyning ushbu asari yer yuzining paydo bo'lganidan boshlab so'nggi payg'ambarimiz – Muhammad (s.a.v.) hayotiga doir voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to'g'rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, taniqli rus olimi A.Samoylovich Yassaviy "Hikmat"lari, Rabg'uziy asarlarini chetlab o'tib, o'zbek adabiyotining boshqa asarlarini to'liq tahlil etish mushkul ish ekanligini ta'kidlab o'tgan edi¹.

"Qisasi Rabg'uziy"ning turli davrlarda ko'chirilgan bir necha qo'lyozma nusxasi mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Asarning eng qadimiy qo'lyozma nusxasi XV asrda ko'chirilgan bo'lib, u Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan². Manbalarga qaraganda, London nusxasi Rabg'uziy hayotligi chog'ida ko'chirilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida mavjud bo'lgan qo'lyozma nusxalarining eng mo'tabari Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida S-245 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxasi bo'lib, u XV yoki XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilinadi. Bu nusxaning boshlanishi va oxirgi bir necha sahifasi yo'qolgan, keyinchalik boshqa nusxalari asosida tiklangan. "Qisasi Rabg'uziy"ning boshqa nusxalari keyingi davrlarda ko'chirilgan bo'lib, bularning leksikasi vaqt taqozosiga ko'ra o'zgarib borgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida litografiya asosida bir necha marta nashr etilgan Toshkent, Qozon nusxalari XII-XIII asrlarning til xususiyatlarini yaxshi saqlagan. Asarning to'la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N.Ilminskiy tomonidan 1859-yili Qozon shahrida e'lon qilingan.³ Bu nashr nisbatan keyinroq ko'chirilgan nusxaga asoslangan bo'lib, til jihatdan asl nusxadan ancha farq qilishini olimlar ta'kidlab o'tgan. Keyinchalik asar ayrim parchalarining ruscha tarjimasi, ba'zi lingvistik sharhlar bilan P.Melioranskiy, S.Malov, N.Katanov, N.Ostraumov tomonidan o'quvchilar hukmiga havola qilingan. Bundan tashqari, N.Mallaev asarni maxsus tadqiq qilish o'zbek adabiyoti tarixi uchun g'oyat qimmatli natijalar berishini ta'kidlagan⁴. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" kitobidan Yusuf qissasi va Nuh to'foni bilan bog'liq parchalar o'rin olgan⁵. "Qisasi Rabg'uziy" asarining boshqa qo'lyozma nusxalari so'nggi yuz yillikka aloqador bo'lib, ular turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan va o'z davri adabiy tiliga moslashtirilgan.

Asar qo'lyozma nusxalarida kitobat qilingan paytdagi tilning ta'siri katta. Buning natijasida esa, asarning matn tili va uslubi o'zgargan. Bunga misol qilib Shvetsiya, Parij, Boku, Toshkent nusxalarini keltirishimiz mumkin. 1977-yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida T. G'ofurjonovanning ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi

¹ Самойлович А.Н. К истории литературного среднеазиатского турецкого языка. Сборник «Mir-Ali-Shir». – L.: 1928.

² Grohbeck K. Rabguzi Narrationes de Prophetis. Cod. Mys. Brit. Add. Kopenhagen, 1948.

³ Ильминский Н. Кисас-и Рабгузий. Казан. 1859.

⁴ Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. – T.: 1976. –B.206.

⁵ Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari // Samarqand, 1928. –B. 104-112.

sharqshunoslik instituti fondida qissaning yettita qo'lyozma va o'n uchta toshbosma nusxasi saqlanmoqda. E. Fozilovning ta'kidlashicha, O'zRFA Abu Rayhon Beriniy nomidagi sharqshunoslik instituti hazinasida obidaning 13 ta, O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi fondida esa 2 ta qo'lyozma nusxasi bor. Rossiyalik tilshunos A. Xaliullina esa ilm olamida asarning 35 ta qo'lyozmasi mavjudligi shundan 19 tasi Qozon kitob fondida saqlanishini qayd etadi.

Asarni o'rganish dastlab turkologiyada boshlangan, sababi XIII-XIV asr turkiy obidalar til xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish bilan bog'liq. Til tarixidan bizga ma'lumki, eski turkiy tilning so'z boyligini tahlil qilishda A. Borovkov, S. Mutalibov, G' Abdurahmonov, A. Najib, E. Fozilov, Q. Mahmudov, Q. Karimov, N. Ne'matov, H. Dadaboyev, Q. Sodiqov kabi turkolog olimlarning hissasi juda katta. Jahon tilshunosligida "Qisasi Rabg'uziy" asarini Y. Shenkivich sintaksisi bo'yicha A. Abrajev yodgorlikdagi qo'shma so'zlar bo'yicha ilmiy izlanishlarni olib borishgan. 1969-yilda O' Mirzakarimova Sankt-Peterburg nusxasi asosida asarning morfologik xususiyatlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. A. Xaliullina tomonidan asrning Ilminskiy nashri London va ikkita Qozon nusxalarini qiyoslagan holda uning fonetik hamda morfologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Bundan tashqari Germaniyalik X. Boeshoton va Belgiyalik M. Vandammelarning "Qissasi Rabg'uziy" bo'yicha bir nechta maqolalari e'lon qilingan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan o'zbek tilshunosligida ham "Qissasi Rabg'uziy" asarni chop etish va uni o'rganish yuzasidan tadqiqotlar bir muncha jonlandi. Xususan, H. Dadaboyev tomonidan qissadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy terminlar, astroponimlar tadqiq etildi, "Qisasi Rabg'uziy" lekseksi bo'yicha bir qaror maqolalar e'lon qilindi. Bularga quyidagilarni keltirish mumkin "O'zbek adabiy tili leksik tarkibining o'zlashmalar hisobiga boyishi",¹ "Qisasi Rabg'uziy"dagi ayol so'mali leksemalar xususida",² "Qissasi Rabg'uziy"ning leksik xususiyatlari",³ "Qissasi Rabg'uziy" tilidagi turkiy leksemalar⁴, "Qissasi Rabg'uziy" da qo'llangan sal-fe'lining semalari xususida"⁵. N. Xusanov qissa tilida istifada etilgan farishtalar, payg'mbarlar va ularning qarindoshlari, oila a'zolari, xalifalar, avliyolar nomimni anglatuvchi antroponimlar xususida ilmiy izlanish olib bordi. R. Zohidov "Qissasi Rabg'uziy" asari yozilish tarixi, tili va uning muallifi, nasl nasabi, tug'ilib o'sgan joyi bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan maqolalarini kitobxonlar e'tiboriga taqdim etdi. B. Abdushukurov ham asar haqida 40 ga yaqin ilmiy maqolalar e'lon qilib, 2009 yilda "Qisasi Rabg'uziy" asarini hozirgi tilmizga yaqinlashtirgan holda nashr qildirdi. Buning sababini asarga yozilgan "Muhim yozma yodgolik" so'ng so'zida quyidagicha izohlaydi "...asarning ilk nashri bilan solishtirish va undagi

¹ Дидабоев Х. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар ҳисобига бойиши // Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагог-ҳодимларнинг аъъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий анжумани маърузалари. – Ангрн, 2007. –Б. 337-342.

² Дидабоев Х. "Қисаси Рабғузий"даги аёл семали лекмалар ҳусусида // Филология фани янги аср муаммолари. – Т., 2003. –Б. 124-128.

³ Дидабоев Х. "Қисаси Рабғузий"нинг лексик хусусияти ҳақида // Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмига қўшилган ҳиссаси. – Т., 1999. –В.17-23

⁴ Дидабоев Х. "Қисаси Рабғузий" тилидаги туркий лексемалар // Второй международный тюркологический конгресс Современная тюркология: теория, практика и перспективы I бўлим. – Туркестан, 2006. –Б 90-93.

⁵ Дидабоев Х. "Қисаси Рабғузий"да қўлланган сал- феълининг семалари ҳусусида// Ўзбек тилшунослиги масаллари. – Т. 2006. –Б. 22-24.

o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatini bersa, ikkinchi jihatdan, xalqimiz orasida eng ko'p tarqalgan nasriy asarning mazmuni bilan kitobxonlarni yanada tanishish uchun sharoit hozirlaydi".¹ 2015-yil "Qisasi Rabg'uziy" asari asosida "Eski turkiy adabiy til leksikasi" o'quv qo'llanmasini nashr ettirdi.

Adabiyotshunoslik sohasida ham "Qissasi Rabg'uziy" asari bo'yicha bir qator tadqiqotlar qilindi. Xususan, H. Karomatov 1993-yilda "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari"² mavzusida doktorlik dissertatsiyasi, I. Ostanaqulov 1993-yilda "Qissas-ar-Rabg'uziy – adabiy asar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi,³ H. Safarov 2001-yilda "Rabg'uziyning "Qissasi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari g'oyaviy-badiiy tahlili"⁴ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Z. Shukurovaning "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida bir necha maqolalari e'lon qilindi. Z. Shukurova asosan, "Qisasi Rabg'uziy"da ertak motivlari, tush talqinlari, "Qisasul anbiyo" asari nusxalari haqida tadqiqot olib borganlar⁵. R. Zaripova, N. Sa'dullaevlar ham 2013 yilda "Qisasi Rabg'uziy" asarini hozirga tilimizga yaqinlashtirgan holda chop ettirdilar.

Demak, "Qisasi Rabg'uziy" asari bizgacha juda kam nusxada yetib kelgan bo'lishiga qaramay, bugungi kunda juda mashhur yodgorlik hisoblanadi. Mumtoz adabiy manbalarni o'rganish yoshlar dunyoqarashini ma'rifiy, ma'naviy jihatdan takomillashtirishda ahamiyatlidir.

A.AXMEDOV, ToshDO'TAU talabasi

O'ZBEK TILIDA OT-KO'MAKCHILARNING O'RGANILISHI

Resume

This article is about the dynamic position of learning noun-helping words in the Uzbek linguistics.

Key words: linguistic factors, postposition, noun-postposition, Uzbek linguistics, function.

Ko'makchilardagi lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi masalalarini yoritish ko'makchilarning kelib chiqishi, o'rganilish tarixi bilan bog'lanadi. Ko'makchi bilan bog'liq ayrim nazariy masalalar ularni aniq tasavvur qilish uchun ko'makchilarning faqat hozirgi nutqimizdagi xususiyatiga qarab emas, balki tarixiy taraqqiyotiga tayanishni talab etadi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida ko'makchilar o'zining tadiriy o'rganilish tarixiga ega. «Devonu lug'otit turk», «At-tuhfatuz zakiya fil- lug'atit turkiya» kabi asarlarda turkiy yordamchi so'zlar, jumladan, ko'makchilarni o'rganishning tamal

¹ Qissasi Rabg'uziy. MUMTOZ SO'Z.– Toshkent.: 2009. B.205. (Nashrga tayyorlovchi B. Abdushukurov).

² Karomatov H. O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari.

³ Ostanaqulov I. Qissas ar-Rabg'uziy – adabiy asar. Filol. fan. nom. diss. – T.: 1993. 3-bet.

⁴ Safarov H. Rabg'uziyning "Qissasi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari g'oyaviy-badiiy tahlili. Filol. fan. nomz. dis. – Samarqand. 2001. 127-128-betlar.

⁵ Shukurova Z. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"da ertak motivlari // Til va adabiyot ta'limi.–T., 2010. –№3. –B.36-40. Shukurova Z. Rabg'uziyning "Qisasul anbiyo" asari nusxalari haqida.– G'.G// Til va adabiyot ta'limi.–T., 2010. –№9. –B.76-80. Shukurova Z. "Qisasi Rabg'uziy"da tush talqini // Til va adabiyot ta'limi. –T.,2011.– №7. –B.80-85.

toshi qo'yilgan bo'lsa, o'zbek tili yordamchi so'zlari, xususan, ko'makchilarning o'rganilishida Fitratning qarashlari ham alohida ahamiyatga ega.

XX asr o'rtalari o'zbek tilshunosligida o'z o'miga ega bo'lgan Faxri Kamolov tahriri ostida 1957-yilda nashr etilgan "Hozirgi zamon o'zbek tili" darsligida ilk marotaba ot-ko'makchi jumlasini ishlatiladi: "Barcha ko'makchilar quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin: asl ko'makchilar; ot-ravish ko'makchilar; fe'l ko'makchilar (1). Shu o'rinda mualliflar quyidagicha havola berib ketadilar: "Bunday ko'makchilarni grammatiklar ot ko'makchilar deb yuritadilar. Ot-ravish ko'makchilardan farqlash uchun ko'makchi otlar deb atadik"[1]. Ana shundan so'ng o'zbek tilida ot-ko'makchi atamasini qo'llash ommalashadi. Mazkur darslikda ot-ko'makchilarning quyidagi belgilari sanab o'tildi:

"Biz yuqorida ko'rganimiz ko'makchilarning yana bir xili borki, bular ko'makchi otlardir. Ko'makchi otlar ham mustaqil, ham yordamchi vazifada qo'llanadilar. Ular yordamchi so'z vazifasida kelganlarida predmet yoki predmet belgisini anglatmaydilar. Balki egalik va kelishiklar (chiqish, jo'nalish, o'rin kelishiklari) bilangina turlangan holda turli grammatik munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladilar. Ko'makchi otlarning ko'makchilardai farqi shuki, bular turlangan holda o'zlaridan oldin keladigan ot bilan qaratqich-qaralmish aloqasiga kirishib, shu ot bilan birlikda boshqariladilar.

Ko'makchilar morfologik jihatdan turlanmasalar, ko'makchi otlar esa morfologik tomondan, uchta o'rin bildiruvchi kelishik bilan turlana oladilar. O'zlaridan oldingi ot bilan qaratqich-qaralmish aloqasida kelib, gapda so'zlarning turli sintaktik munosabatlarini ko'rsatadilar.

Ko'rsatilgan ko'makchi otlardan ba'zilari ko'chma ma'noda ham qo'llanadilar: lsh boshiga qo'ymoq; qo'l ostida ishlamoq; jo'z tagiga olmoq" [1].

U.Tursunov "O'zbek tilida so'ng ko'makchi" deb nomlangan kitobida o'zbek tilining ko'makchiga doir o'ziga xos jihatini yanada ba'rttiribroq, ta'kidlabroq ko'rsatish va rus tilidagi old ko'makchidan farqlash maqsadida ularni "so'ng ko'makchi" tarzida talqin etadi.

O'zbek tilidagi ko'makchilarga birinchi bo'lib mukammal ta'rif A.N.Kononovning avval "Грамматика узбекского языка" so'ngra "Грамматика современного узбекского литературного языка" asarida berildi: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlarki, ular ot bilan yoki ob'ekt bilan predikat orasidagi qurol-voqita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi" [2].

O'zbek tilshunosligida ko'makchilarning bevosita o'rganilish tarixi Sh.Shoabdurahmonov tadqiqotidan boshlandi. Olim ko'makchiga shunday ta'rif berdi: "Ko'makchi ob'ektning ob'ektga yoki ob'ektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir"[3]. T.Rustamov ko'makchilarni maxsus ilmiy tadqiq qilgan bo'lsa [4], S.Fuzailov ot-ko'makchilarni maxsus o'rgandi [5]. D.Lutfullayeva ko'makchilarga zamonaviy tadqiq usullari bilan yondashdi [6].

Shunga qaramay hanuz hozirgi o'zbek tilshunosligida ko'makchilarning aniqlanish mezonlari, tarkibi, boshqa so'z turkumlariga munosabati kabi masalalar ko'pchilik muhojir qaranglar mavjud. Bu esa uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida

ko'makchilarni o'qitish jarayonida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu, ayniqsa, vazifadosh ko'makchilarni o'qitish bilan bog'liq.

So'z turkumlari orasida muntazam aloqa mavjud bo'lib, bu aloqa til tizimining doimiy o'zgarish, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi. Ot-ko'makchilar aslida mustaqil turkumga mansub lug'aviy ma'noli so'z bo'lib, ayni paytda otdan ko'makchiga ko'chish bosqichini "boshidan kechirayotgan" *tomon, haqida, chamasi, misoli, holda, yo'sinda, bo'yi, osti, tagi, usti, oldi, orqasi, yoni, bo'yi, ichi, orasi, o'rtasi, tepasi, qoshi, labi, yoqasi, og'zi* kabi so'zlardir. Bunday so'zlar hozirgi o'zbek tilida yigirmadan ortiq bo'lib, ular ko'makchi vazifasini bajarayotganda faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

1966-yilda G. A. Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dasrligida ko'makchilarning ilmiy tadqiqi to'la aksini topgan. Darslikda ko'makchiga doir qarashlar quyidagicha umumlashtiriladi: "Gapda otdan yoki otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularning boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqasini (bog'lanishini) ko'rsatuvchi elementlar ko'makchi deyiladi. Ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'z bilan bog'lanib, uni boshqaradi, shu bilan birga yana boshqa so'z bilan ham sintaktik aloqaga kirashadi"[7].

Ko'makchilarni o'rganish yuzasidan olib tadqiqotlar natijasi o'laroq, o'zbek tilshunosligida ko'makchi va uning ko'rinishlari haqidagi qarashlar birmunch qat'iylashdi.

Ko'makchilarni tarixiy o'rganish jarayonida ularning lisoniy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Ayrim ko'makchilar shakl jihatidan ot-ko'makchilarga o'xshasalar-da, aslida ularda sof ko'makchilarga xos xususiyat bor. Hozirgi o'zbek tilida sof ko'makchi sifatida qo'llanayotgan *maqsadida, orqali, dovur, doir, yaraiia, yo'lida, qarata, muvofiq, oldida* kabilar o'zbek tili tarixida uchramaydi. Hozirgi *maqsadida* ko'makchisining funksiyasini tarixan *niyatida* ko'makchisi bajargan. Lekin maqsad semantikasini yanada aniqroq ifodalash *niyatida* ko'makchisiga nisbatan *maqsadida* ko'makchisi zarur ekani o'zbek tilining stilistik ixchamliligiga mosdir. Shuning uchun ham *niyatida* ko'makchisi iste'moldan chiqib, uning o'mida *maqsadida* ko'makchisi ishlatilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикология. Фонетика. Графика ва орфография. Морфология. – Тошкент: Фан, 1957.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. -Л.: Изд. Акад. наук СССР. 1960.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар: Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. - Тошкент: ЎзФА, 1953.
4. Рустамов Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. - Т.: Фан, 1965.
5. Фузаилов С. Кўмакчи ва кўмакчи отлар ҳақида баъзи мулоҳазалар. - Тошкент. 1988.
6. Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1996. - №5.
7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. - Тошкент: Фан. 1966.

TIL NAZARIYASI

Ш. ТУРНИЁЗОВА, САМДҶТИ ДОЦЕНТИ

МАТН ДЕРИВАЦИЯСИДА КИРИШ СЎЗЛАРНИНГ ҶУНИ

Resume

The paper deals with important place of modal words in text derivation.

Key words: derivation, syntactic functions, modal words, word combinations, macro-text.

Маълумки, ҳозиргача мавжуд лингвистик адабиётларнинг барчасида кириш сўз ва бирикмалар тилнинг синтактик вазифа бажара олмайдиган унсурлари тарзида талқин этилиб келинди ва бунинг асосий боиси уларнинг гап сатҳида қатнашаётган бўлақлар билан грамматик жиҳатдан муносабати йуқлигида эканлиги таъкидланди. Албатта, бундай ҳулосага келиш мутлақо тўғридек кўринади. Лекин сўнги йилларда қилинаётган баъзи тадқиқот ишларида кириш сўз ва бирикмалар хусусида янгича мулоҳазалар юритилаётганини кўраимиз. Бошқача айтганда, уларнинг гап бўлаги вазифасида келиши мумкинлиги илмий асосланмоқда.

Бизнингча, бундай бўлиши табиий эди, чунки гап таркибида қатнашувчи элементлар, шу жумладан, кириш сўз ва бирикмалар ҳам қандайдир маънода унинг бўлаги саналади. Акс ҳолда, яъни гап компонентларидан бирининг гап бўлаги деб, иккинчисини эса номсиз қолдириш масала тавсифини сунъий ривийида чигаллаштириб юбориши табиий. Шунинг учун кириш сўз ва бирикмаларнинг нафақат семантик, балки синтактик вазифа ҳам бажариши ҳақида айтилган А.Р.Сайфуллаевнинг фикрига тўлиқ қўшилаимиз.

А.Р.Сайфуллаев кириш сўз ва бирикмаларнинг синтактик вазифасини гапнинг учинчи даражали бўлақлари тарзида изоҳлайди ва уларнинг семантик вазифадан ташқари синтактик вазифа бажариши ҳам қузатилишини илмий асослаб беради (1,70-98). А.Р.Сайфуллаевнинг фикрига кўра, кириш сўз ва бирикмалар аксарият ҳолларда гапнинг кесими билан синтактик муносабатда келиб, бошқарув, битишув воситасида у билан боғланади (2, 14): Дарҳақиқат, салкам қирк йил Мовароуннаҳрга салтанатли шох бўлди (О.Ёқубов).

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, кириш сўз ва бирикмалар гапнинг қандай бўлаги вазифасида келиши мазкур тадқиқотимиз учун муҳим эмас, балки уларнинг синтактик вазифа бажара олиши устувор аҳамият касб этади. Чунки кўп йиллар давомида ҳукм суриб келган ҳулосаларнинг бу тахлит унгартирилиши кириш сўз ва бирикмаларнинг лингвистик талқини бобида ҳескин бурилиш ясамоқда.

Кириш сўз ва бирикмаларнинг синтактик фаоллиги, айниқса, матн шиклланиши жараёнида янада салмоқлироқ тус олади, зотан, бунда улар

муайян бир гап доирасида эмас, балки гаплараро ҳудудда синтактик фаоллик кўрсатади ва аксарият ҳолларда жумланинг бошланиш қисмида келади:

Содда қишлоқ боласи дилига тугилган гапларни айтолмай саросимада юрди. Унинг юрагида бўлаётган гаплани виз сезарди-ю, аммо унга сир бой бермасди. Умуман, Дилдор унинг маюс боқишларига эсанкирашларига бепарвороқ қарарди (С.Аҳмад).

Келтирилган матнда унинг компонентлари – гапларнинг ўзаро синтактик алоқаси *умуман* кириш сўзи билан вокеланаётганини кўрамыз. Айни пайтда кириш сўз матн синтактик деривациясининг оператори вазифасида келмоқда.

Бундай вазиятда, яъни матн таркибида унинг компонентларини ўзаро муносабатларини ташкил этаётган кириш сўз функционал қимматига кўра боғловчи билан тенглашади. Унинг функциясига кўра бу тахлит боғловчига яқинлашиши рус тилшунослигида бир неча нуфузли олимлар томонидан таъкидланган эди. Масалан, А.Н. Гвоздев кириш сўз вазифасида келувчи модал сўзлар XIX асрнинг бошларига қадар боғловчилар жумласига киритилганлигини эслатади (3, 441).

Шуни ҳам айтиш лозимки, муайян бир матн таркибида бир неча кириш сўз ёки бирикма қатнашаётган бўлса, албатта, уларнинг ҳар бирини мазкур матннинг синтактик деривацияси оператори тарзида талқин этиб бўлмайди. Бундай вазиятда кириш сўзлар ёки бирикмалар ичида қайси бири энг муҳим синтактик вазифа бажараётган бўлса, ўшаниси деривация оператори саналади:

Мана, бир икки йил бўлди... Мовароуннаҳр ва Хуросон осмонидан қора булатлар аримай қолди. Теурий шаҳзодалар қилич ва тиг чархладан қўллари бўшамади. Ниҳоят, Улуғбек қиличи ўтқир чиқиб, салтанат хиёл осойиш топган эди, шаҳзода Абдулла.tif ўз надари бузрукворига қарша шамишир кўтариб чиқди (О.Ёқубов).

Айни пайтда берилган матн таркибида *мана* ва *ниҳоят* кириш сўзлари қатнашмоқда. Мазкур мофологик воситалар ичида биринчиси муҳим аҳамият касб этаётганлигини курамыз. Чунки у абзацнинг бошланишида келиб, унинг синтактик деривацияси вокеланниши учун хизмат қилмоқда. Семантик нуқтаи назардан ҳам бу сўзнинг мавқеи баланд эканлигини курамыз, зотан, у билан бошланаётган гапнинг мазмуний салмоғи кейинги гапларга ўз таъсирини ўтказмоқда. Бу, ўз навбатида, кириш сўз абзац қолипидаги матн синтактик деривациясининг оператори бўлиб келиши мумкинлигидан далолат беради.

Лингвистикага оид адабиётларда кириш сўз ва бирикмалар мустақил гапларни ўзаро боғловчи ўзига хос восита сифатида тавсифланади ва мазкур вазифасини бажариши жараёнида уларнинг лексик маънолари бирмунча заифлашиши айтилади(4,140). Бу билан қўшилиш мумкин, чунки модал сўзлар, тартиб сонлар кириш сўз вазифасида келар экан, лексик маъноларидан узоқлашиши табиийдир.

Кириш сўз ва бирикмалар матн таркибида фақат мустақил гапларни боғлаб келувчи грамматик восита бўлибгина қолмай, матн деривацияси оператори вазифасини ҳам бажариши мазкур воситаларнинг нутқда полифункционал салмоқли эканлигини кўрсатади. Бундан ташқари яна шуни таъкидлаш лозимки, кириш сўз ёки бирикма, макроматн таркибида абзацлар

ўртасидаги синтактик муносабатни воқелантирувчи деривацион восита мавқеида келиши ҳам мумкин:

Унинг ҳар бир гапи Икромжон юрагига харжар бўлиб ботарди.

Демак, Турсунбой Марғилон атрофларида яқшириниб юрибди.

Зирилламага бориўга юраги дов бермаган у ярамаснинг (С.Аҳмад).

Келтирилган мисолда *демак*кириш сўзи ўзи қатнашаётган абзацининг синтактик деривацияси оператори вазифасида келишидан ташқари бу абзаци маъно жиҳатдан ҳам, синтактик нуқтаи назардан ҳам олдинги абзац билан боғламоқда. Бу эса кириш сўз ёки бирикма матн структурасининг вужудга келишида гоят муҳим деривацион омил вазифасини бажаришидан далолат беради.

Адабиётлар

1. Сайфуллаев А. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984.
2. Сайфуллаев А. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке // Автореф. дис. докт. филол. наук. - Ташкент, 2001.
3. Гвоздев А.Н. Современный русский язык. Ч.1. – М., 1961.
4. Грамматика русского языка. Т. 2. Ч. 2. – М., 1960.

K.ABDULLAYEVA, TDO`TAU magistranti

FE'L TAKRORI MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA

Resume

The paper discusses transportation peculiarities of verbal tautologies as joining the parts of the text.

Key words: text, system, tautology, verb, grammatical sense, lexeme.

Ma'lumki, matn tarkibiy qismlari lesik-grammatik vositalar orqali bog'lanadi va bu vositalar alohida tizimni tashkil qiladi. Bu tizimda takroming o'mi alohida. Matn nazariyasida takroming bir qancha turlari farqlanadi [2,27;3,46]. Biz shulardan fe'l takrori xususida to'xtalamiz.

Fe'llarning umumiy grammatik ma'nosi ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalashdir. Holat ifodalash boshqa so'z turkumlariga ham xosdir, biroq fe'lda u bir holatdan ikkinchi holatga o'tish tarzida bo'ladi. Masalan. *daraxtlar yam-yashil* gapida sifat kesim (*yam-yashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Diraxtlar ko'kardi* gapida esa holat jarayoi sifatida, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish tusida yuz bermoqda.

Fe'l leksemaga birinchi navbatda harakatning takrorlanib, kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalaydigan affikslar qo'shiladi. Bu affikslar fe'l leksemaning leksik ma'nosiga ma'lum bir grammatik ma'no qo'shadi, shunga ko'ra

yasovchi morfema deyiladi. Bunday morfemalar ikkiga ajratiladi: 1) harakatning takrorlanib voqe bo'lishini ifodalaydigan affiksalar; 2) harakatning kuchli-kuchsiz darajada voqe bo'lishini ifodalaydigan affiksalar.

Ma'lumki, fe'l morfologik shakli, asosan, kesimlik uchun shakli xoslangan sintaktik shakl sanaladi. Predikat-kesim har doim o'zida kesimlik shakllari: zamon, mayl, shaxs-son bilan qo'llanishi ma'lum[1;4;5;6]. Kesim va undagi kesimlik shakllarining aynan takrorlanishi ham MSBlarni hosil qilishda ishtirok etadi. Shuni ta'kidlash zarurki, kesim shakli - predikatlar yangi - remani ifodalash uchun xoslangan shakl sanaladi va shu xususiyati bilan ot, olmosh kabi takrorlardan farq qiladi.

Egasi ishtirok etgan gaplarda aktual bo'linish paradigmasining bosh a'zosi sintaktik bo'linish bilan mos keladi: sintaktik tuzilish egasi (yoki ega guruhi) aktual bo'linish temasi, sintaktik tuzilish kesimi (yoki kesim guruhi) aktual bo'linishning remasi bo'lib keladi, ya'ni ega va ega guruhining oldin kelishi, kontekst shart-sharoitidan qat'iy nazar, tema-rematik munosabatni ko'rsatishga eng muvofiq holat sanaladi. Bunday gaplarda sintaktik bo'linish (ega-kesim) va aktual bo'linish bir-biriga mos keladi va sintaktik ega-kesim va aktual bo'linishda muvofiqligi uchun adabiyotlarda bu holat kontestual yoki sintagmatik mustaqil jumlarlar deb ham yuritiladi.

Masalan: *Zohid chiqib ketdi. Ilmoqli gaplari bilan Sharifning yuragini tirnab ketdi.* Ushbu gapda *-b* ravishdosh shaklining takrori ham ikki mustaqil fe'lining mazmunan yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. SSBning tarkibiy qismlari sanalgan birinchi jumlada jumla temasi *-Zohid*, ikkinchi jumlada ham implitsit qo'llangan U - *Zohid* bo'lib, uning ayni vaqtda eksplitsit qo'llanishiga hojat yuq. Chunki uning qo'llanishi birinchi va ikkinchi jumlalarning predikatidagi shaxs-son ma'nosidan anglashilib turibdi.

Bu holatni quyidagi matnda ham ko'rish mumkin: *...Har qanday ayolning esini o'g'irlashi turgan gap. Ayollarning sochi uzun, aqli kalta, deganlar ularning ko'ngli sezgir bo'lishini hisobga olmagan bo'lsalar kerak, Xonadonlari boshi uzra yopirilib kelayotgan abri baloni erlardan avvalroq sezadilar. Sezadilar-u, uni qaytarishga ojizlik qiladilar. Nasiba erining yomon bir o'yinga aralashib qolganini sezib turardi, ammo uni bu o'yin girdobidan chiqarib olishga qurbi etmasdi.* Ushbu matnda ham *sezmoq* fe'lining takrorlanishi (leksik takrorlar) matnni shakllantishda muhim rol o'ynamoqda.

Badiiy asardan keltirilgan quyidagi misolda ham matn *-di* o'tgan zamon shakli asosida birlashgan. *-di* zamon va shaxs-son qo'shimchasi asar qahramonlarini emas, balki boshqa predmetlik tushunchasi bilan bog'liq leksik vositalarning ma'nosini oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. Keltirilayotgan misolda *-di* shakli ham shaxs tushunchasi bilan bog'liq emas: *Botir firqa kostyumi yoqalariga yuz-ko'zlarini artdi. Hiq-hiq eta-eta, peshonasini bilaklariga qo'ydi. Upka-sini bosolmay — hiq-hiq etdi. Elkalari silkinib-silkinib — hiq-xiq etdi. Ko'zlarini yumib... og'ir tin oldi. Shunda, chala qolmish oyatni esladi. Tag'in boshini ko'tardi. Daftoriga qaradi. Kafilarini duo uchun ochdi. Oyatni davomini o'qidi*¹

¹Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. - B. 146.

Quyidagi misolimizda esa yuqoridagidan farqli ravishda **-di** qo'shimchasi vositasida hosil qilingan matn shaxs tushunchasi va predmetlik tushunchasi bilan bog'liq ma'nolarni ifodalovchi leksik vositalar ma'nosi bilan aloqador: *Hayot misol bir bog' bo'ladi. Bog'da daraxt mo'l bo'ladi. Gul mo'l bo'ladi. Ana shu bog'ni sara muattar guli — odamzot bo'ladi. Serhosil daraxti — odamzot bo'ladi. Odamzotda daraxt misol urug'dan uradi. Niholdan o'sa-di. Daraxt bo'lib etiladi. Meva tug'adi. El-yurtga meva pishirib beradi*¹.

Kesimda qo'llangan **-di** affiksi shaxs tushunchasi bilan bog'liq ma'nolarni ifodalagan bo'lsa, jumalari predmetlik ma'nosi bilan bog'langan tushunchani ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, **-di** kelasi zamon 3-shaxs affiksi turli ma'no munosabatlarni ifodalasa-da, matnlarni hosil qilishi mumkin.

Misollarni tahlil qilish davomida fe'l va ot kesimlarning kelasi zamon shaklida qo'llanishiga ko'ra matnlarning yaxlitlanishini kuzatdik. Masalan: *Oradan necha kun o'tsa ham Asadbekning gaplarini o'ylaydi. Mag'zini chaqmoqchi bo'ladi. Hozir zavod to'rt million so'm sof daromad oladi. To'rtidan biri - demak, million! Yangi usulga o'tilsa, bu yana ko'payadi. Xorijdan dollar ham oqib keladi. Nima, u millioner bo'ladimi? Bunga ishonib ko'ngli yayrab ketadi.* Mazkur jumlada o'ylaydi, bo'ladi, oladi, ko'payadi, keladi, bo'ladimi, ketadi kabi fe'llari kelasi zamonda qo'llangan va matnni hosil qilgan. Matnning tarkibida ot-kesim sifatida qo'llanayotgan kesimlik shakli to'liq o'z ifodasini topmagan. *To'rtidan biri - demak, million* jumlasida kesimlarga xos zamon va shaxs-son ma'nosi shaklan ifodalanmagan bo'lsa-da, unda *bo'ladi* bog'lamasining o'mi sezilib turibdi. Shunga ko'ra biz uni kelasi zamonda qo'llangan ot-kesim sifatida qarasa to'g'ri bo'ladi. Quyidagi matnda ham xuddi shu xususiyat mavjud: *Shundan beri xayoli qizida. Eshik tiq etsa, xavotir bilan qaraydi. Telefon jiringlasa ham, yuragi bir to'lqin uradi. Nazarida qizi sharmandalik yukini ortmoqlab, ko'z yoshini to'lib, faryod urib kirib kelayotganday.*

Ba'zi matnni tashkil etuvchi jumlarlar o'zaro fe'l va ot-kesimlarning grammatik shakliga ko'ra turli mazmuniy munosabatga kirish orqali bog'langan. Masalan: 1. *U boshqa olamdan edi, 2. egilmadi. 3. Botir firqa pul qistirolmadi. 4. Unga Botir firqaning hozirgi holati begona edi. 5. Shu sababli uning egilmaganini mag'rurlik belgisi sifatida qabul qilib g'ijindi. 6. U o'zini mag'lub his etdi.* 1- va 2-jumlarlar o'zaro ot va fe'l kesimlarning shakliy va mazmuniy birligi ko'p predikatli gaplarni hosil qilishda muhim rol o'ynagan va o'zaro sabab natija munosabatini yuzaga chiqarishda qatnashgan. Uni *U boshqa olamdan edi, (shuning uchun) egilmadi. (Shuning uchun) U pul qistirolmadi. Unga Botir firqaning hozirgi holati begona edi. Shu sababli uning egilmaganini mag'rurlik belgisi sifatida qabul qilib g'ijindi. U o'zini mag'lub his etdi* tarzida ifodalash mumkin. Ularda faqat oxirgi jumla *shu sababli* birikmasi bog'lovchilik rolini bajarib, o'zidan oldingi jumlalarning mazmunan bog'lanishini ta'minlagan. Demak, oldingi jumlalarning sintaktik-semantik bog'lanishida predikat - kesimlarning o'mi muhim. Ularda qo'llangan bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning kesimi o'tgan zamon aniqlik maylida qo'llanishi ham ma'lum bir grammatik qonuniyatlar asosida, ya'ni maxsus aloqa

¹ Tug'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. - B. 157.

vositalari yordamida shakllanishi natijasida yaxlit sintaktik va semantik butunlik yuzaga kelganligini qayd etish zarur.

Qish qaridi. El ko'klamni povladi. Intiq –intiq povladi. O't-o'lan amal olishini qaradi. O't-o'lanlar bilan kun kechirishini o'yladi. Ko'kat eb, qorin to'ydirishni o'yladi¹

Mazkur matnda –*ajak* qo'shimchasining takrori orqali adib matn qismlarining aloqa-aralashuv munosabatini ifodalagan. *Birinchi kinoteatr qurilajak bo'ldi. Loyiha tasdiq bo'ldi. Botir firqa kinoteatr dovrug'ini olamga yoyajak bo'ldi. Respublika miqyosida doston etajak bo'ldi. Shu maqsadda Yo'ldosh Oxunboboevni taklif etdi*²

Yana bir misol: *Qo'shchini Botir firqa demagichlar bo'ldi. Birov - firqa so'ziga tushunolmay aytmadi. Birov –qo'shchi so'ziga o'rganib qolib aytmadi. Tag'in birov –qo'shchiga firqa so'zi yarashmaydi, deya aytmadi (T. Murod. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", - bet). Matnda aytmadi fe'li 1-gapda qahramon nutqiga tushunmagani ma'nosida, 2-gapda qo'shchining so'zini eshitaverib oddiy va e'tiborsiz holatdagi ma'nosida, 3-gapda esa unga qarshi ma'nosida takror qo'llanilib, asar qahramonining xarakterini ochib berishga xizmat qilgan.*

Fe'llarni takrorlash orqali yozuvchi asarning mazmun va mohiyatani bir yaxlit holga keltirgan, bir butun matn holatiga keltirgan, fe'llarning uslub jihatidan qiymatini oshirgan. Masalan: *Tomda qo'llarini ketiga qo'ydi. Tom bosh-adog'ilab qadamladi. Vazmin-vazmin qadamladi. Olislarga dono-dono boqib qadamladi. Botir firqa qo'llari ketida qadamladi. Ohista qadamladi. Tantanali qadamladi³ Yoki: *Birov zog'ora nondan shishib o'ldi. Birov kamjaradan shishib o'ldi. Birov shularni-da topolmay-ochidan o'ldi!**

Badiiy asarda murakkab fe'llardan ham takror holatda unumli foydalanib, asar ruhini, asar tilini jozibali va xalqona chiqishiga erishish mumkin. Masalan: *Qo'shchi qo'llari ketida tag'in qadam oldi. Mag'ribga boqib qadam oldi. Mashriqqa boqib qadam oldi 'Yana bir misol. Bog'... yo'a bo'ldi. Quyuq-quyuq bog' yo'a bo'ldi. Yam-yashil bog' yo'a bo'ldi... Yoki: *Xolilatib-xolilatib oyoq ildi. Onaga qayrilmay gap ochdi. Erdan ko'z olmay gap ochdi. Ohista-ohista gap ochdi. Yana bir misolga muprojaat qilsak: *Kulbalarda bekasi bilan xo'jasi uzala tushib o'lib votdi. Bekasi bag'rida qizalog'i o'lib votdi. Xo'jasi qo'ynida o'g'ilchasi o'lib votdi. Odamzot yo'llarda o'lib votdi. Ariq bo'ylarida o'lib votdi. Daraxt taglarida o'lib votdi.***

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib ayta olamizki, matn tarkibiy qismlarini bog'lashda takrorning, xususan, fe'l takrorining ahamiyati katta. Ular matn tarkibiy qismlarini bog'lash bilan birga matnda alohida bir ifodaviylikni, ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi, ba'zan esa musiqiylikni hosil qiladi va muallifning muayyan poyetik maqsadiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

¹ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. – B. 13.

² Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. – B. 20.

³ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. – B. 162.

⁴ Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. -T., 2001. – B. 5.

2. Yoldoshev M. Badiiy matnning lingvopoyetik tahlili asoslari. - Toshkent: Fan, 2007.
3. Qurbonova M. Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. - Toshkent: Universitet, 2014.
4. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
5. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili. Sodda gap sintaksisi uchun materiallar. - Toshkent: Universitet, 2002.
6. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

F.AZIZOVA, TDO`TAU magistranti

ZULFIYA SHE'RIYATIDA ANTITEZANING QO'LLANILISHI

Resume

The paper analyzes the specific usage of antithesis that are existed Uzbek poet Zulfiya's poetry.

Key words: literary language, denotative meaning, connotative meaning, antithesis, syntactic-stylistic, syntactic construction

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining "sirli", "yashirin" nuqtalarini yoritishdan iborat bo'lsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy bo'lagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o'ziga xos xarakter-xususiyatlari, o'y-mulohazalari, his-ruygularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta'sirini tahlil qiladi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili, boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish mas'uliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xarakterga ega bo'lgan, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobiliyati, falsafiy muhojahadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

Ushbu ilmiy ishning muhim sohasidagi birinchi galda shunda namoyon bo'ladiki, u keng iste'moldagi so'z va iboralarni mohirona qo'llash bilan bir qatorda, talqin qilish, ilg'or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlari muvofiq ravishda kengaytira boradi. O'z tili materiallari asosida yangi so'z va iboralar yaratadi, har xil dialoglarda va umuman og'zaki nutqda mavjud bo'lib, adabiy-yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarda qo'llash yoli bilan ularga yangi ma'no va vazifalar yuklaydi.

Badiiy nutqning kommunikativ va shu bilan birga estetik vazifa bajarishi ma'lum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi uning estetik funksiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir.

Til mohiyatan. ichki qurilishi jihatidan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ ma'no bildirib, shu asosda aloqa vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, ob'yektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning

shakli: ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil tizimdir.

Zulfiya mohir so'z sanatkori sifatida tasvir vositalaridan juda keng va mohirona foydalangan. Badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlar ham tasvir vositalaridir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g'oyasini o'quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchi munosabatini uyg'otadi¹.

Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqelikni so'zlar vositasida o'zgaralr hissiga, ruhiga va ongiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qilingan har qanday axborot inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuyg'ularga ta'sir etib badiiy kechinma tug'diradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga ega bo'lgan so'zlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi².

Zulfiya o'z she'rlarida badiiylk, hayotiylikni yuzaga chiqarish uchun uslubiy vositalardan biri bo'lgan antitezadan ham unumli foydalangan.

Antiteza hodisasi bir necha asrlar davomida tilshunos olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin bu hodisa haqidagi fikrlar uning umumiy ma'nosini ko'rsatish bilan chegaralangan. Mashhur fransuz tilshunosi Sh. Ballining "Fransuzkaya stilistika" kitobing nashr etilishi hamda unda birinchi marta til va nutq birliklarining stilistik vosita sifatida ma'lum bir belgilangan funksiyasini bajarish haqidagi fikrlarning bayon etilishi stilistik figuralar, shu jumladan, antiteza hodisasining sintaktik- stilistik vosita sifatida alohida o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Natijada til stilistikasiga oid ishlarning ayrimlarida antiteza hodisasi sintaktik- stilistik hodisalardan biri sifatida alohida tilga olinadigan bo'ldi³

Antiteza badiiy adabiyotga ma'lum bir stilistik vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan murakkab stilistik vositadir. Fikrlar shuni ko'rsatadiki, eng qadimiy stilistik usullardan biri hisoblangan antiteza hozirgi zamon o'zbek adabiy tili nutq stillarida juda keng qo'llanadi. Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutq birliklarinig stilistik maqsadda qarama-qarshi qo'llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga keladi⁴.

Antiteza badiiy adabiyotga va notiqlik sa'natida aktiv qo'llanadigan sintaktik-stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshi qo'yilishi natijasida nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi. Masalan:

Kunlar qancha shodlik,
Qancha noshodlik,
Qancha ish,
Kohishga etar ro'baro'.
Jahonga sig'magan sevinchga nordek

¹ Qo'ng'urov R. Badiiy tasvirning leksik vositalari.

² Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. -T.: Fan, 2004. -B. 121

³ O'zbek tili stilistikasi. -T., 1983. -B.190.

⁴ Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T.: Fan, 1990. -B. 15

Kelib bir bahamni qilganda orzu,
Taqdir to'siq bo'lsa,
Uni izlayman (Izlayman).

Antiteza usulidan stilistik maqsadlarda keng foydalaniladi. Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, yani unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Bu hodisada uchinchi narsa bo'lmaydi. Shuning uchun ham antitezali sintaktik konstruksiyalar binar tamoyili asosida shakllanadi va simmetrik xarakterga ega bo'ladi. Masalan:

Kaftda tutmas to'ydan tantanavorlik,
Hayot bog'i goh tinch,
Gohi bo'ronlik.
Og'irlik yelkada,
Iqbol o'rtada

Boqiy qolsin juft-la sevgi visoli (Kelin tushdi).
Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga,
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga (Sensiz).

Keltirilgan birinchi misolda hayotning qarama-qarshiliklarga boyligi antiteza vositasida tasvirlangan. Bu yerda qarama-qarshilikni yuzaga chiqarishda antonim so'zlardan foydalanilgan: tinch-bo'ronlik. Aslida tinch leksemasining antonimi ahiddatli hisoblanadi. Biroq badiiy tafakkurning kengligi, badiiy nutqning imkoniyatlarining cheksiz ekanligi bo'ronlik leksemasini tinch leksemasiga qarshi qo'yish imkoniyatini beradi. Hayot, darhaqiqat, ziddiyatlarga boy, hech qachon bir maromda, tekis o'tmaydi-ba'zan sokin kechsa, ba'zan turli "bo'ronlik"larga duch keladi kishi. Mana shu ziddiyatlar antiteza vositasida yuzaga chiqarilgan.

Ikkinchi misolda esa ikki voqelik zidlangan: Birov azasida yig'layman qon-qon, to'yida yayrayman o'xshab ohuga. Mazkur voqelikning yuzaga kelguniga qadar shoira o'quvchiga vaziyatni yaqqolroq yetkazish maqsadida oldingi misralarda ham antitezaga murojaat qiladi: bahor-qish, baxt-qayg'u. lirik qahromon hijron dardlarini hayon etar ekan, shuncha qiyinchiliklarga qaramay tirikligini, har nega qalqon bo'lib kelayotganini eslaydi: har nega qalqon, baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga. Shoira baxt va bahor tushunchalarini birga, qish va qayg'u tushunchalarini esa birga ta'kidlaydi. Mantiqiy yondashilsa ham bahor faslining baxtligi, qish faslining qayg'u ekanligi asosli. Bu holatda alliteratsiya-undosh tovushlarning uyg'unlashuvi (bahor-baxt, qish-qayg'u) antitezaning ta'sir kuchini oshirgan.

Nutqda ifodalilikni yanada oshirish maqsadida mazmunan biri ikkinchisiga zid tushunchalar, mantiqan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yadi. Antiteza hodisasi til sathlarining barchasida kuzatiladi. Lekin bu hodisaning sintaksis doirasidagi, ayniqsa, qo'shma gap sintaksisi doirasidagi vazifasi alohida ahamiyatga ega. Stilistik-sintaktik figuralar doirasida antiteza usuli qo'shma gaplarda qo'llanilish muhsuldorligi jihatidan sintaktik takror bilan bir qatorda turadi.

Antitezani yuzaga chiqarishda ishtirok etuvchi nutq birliklari antitezaning materiali hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, antitezali qurilmalarning ma'lum bir sistemani tashkil etishi ham tabiiy bir holdir. Antitezani yuzaga chiqishida

quyidagilar asosiy o`rin egallaydi:

1. Antonim so`zlar.

Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,
Aziz do`stim, mudom seni esga soladi.
Ko`zlar amri, yurak erki, jo`shqin his bilan
Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.
Ham tabiat, ham do`st, ham raqib,
Barchasini qoldirib dog`da,
Ko`rishsak-u, yana tirilsa
O`sha o`lgan bo`sa dudog`da (Sog`inganda).

2. Ayrim leksik-grammtik shakllar. Antitezali qo`shma gaplarning ba`zi turlari kontekst talabi bilan ma`nosi bir-biriga qarama-qarshi qo`yiladigan ayrim so`zlar va so`z shakllari yordamida hosil qilinadi.

Ikkimizga ma`lum bir qudrat

Yillar o`ta senga tortadi.

Unutayin deymanu, faqat

Dilda uning o`ti ortadi (Sog`inganda).

3. Tasdiq va inkor shaklli so`zlar. Antitezali gaplarda tasiq va inkor formali so`zlar antiteza materiali bo`lib kelishi mumkin.

Biz yig`ladik tepangda shu kun,
Keldingmi, deb ko`tarmading bosh.

Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,

Ko`rganmiding ko`zimda bir yosh? (Ko`rganmiding ko`zlarimda yosh).

4. Antiteza materiali predikativ birliklardan bo`lishi mumkin.

Sog`inganda izlab bir nishon,

Qabring tomon olar edim yo`l.

Keltirarding menga bir zamon,

Endi har chog`men eltaman gul. ? (Ko`rganmiding ko`zlarimda yosh).

Antiteza hodisasi qo`shma gapning har uchala turi orqali yuzaga kelishi mumkin. Antiteza usuli yordamida qo`shma gaplarning murakkablashgan turlari hosil qilinganda, sintaktik qurilma qismlarining har biri qo`shma gapning biror turidan iborat bo`lib, ular orqali ifodalangan fikrlar o`zaro qiyoslanadi va farqi ochiladi. Antiteza usuli qo`shma gaplarning shart-payt, qiyoslash-zidlash munosabatini ifodalovchi turlarini hosil qilishda yetakchi usul hisoblanadi. Shuning uchun ham antitezaning qo`shma gap tuzishda ishtirok etuvchi sintaktik-stilistik figuralardan biri sifatida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Antitezali qo`shma gaplar nutq uslublaridan asosan ikkitasida: so`zlashuv va badiiy uslublarda keng qo`llaniladi. Antiteza usuli kitobxoniga nutqda qarama-qarshi qo`yiladigan voqea-hodisa, predmetlar o`rtasidagi aloqani konkret izohlashga yordam beradi. Alohida olinganda bir-biriga zid bo`lmagan predmetlar, tushunchalar badiiy asarda kontekst talabi bilan o`zaro qarama-qarshi qo`yilishi mumkin. Masalan:

Tog`day bor deb bilgan yuragim,

Qush boshicha qolmadi chog`i.

G`amni yengarman degan sarim,

Yana ortar alami, dog`i. (Ne baloga etding muftalo).

Mana shu o'rinda shoiraning mahorati yana bir karra namoyon bo'ladi. U alohida olinganda mazmunan zid bo'lmagan so'zlarni vaziyatga mos holda ustalik bilan qarama-qarshi qo'ygan: tog'day-qush boshicha. Lirik qahramonning o'sha paytdagi ahvolini yorqinroq tasvirlash uchun antitezadan unumli foydalangan.

Antiteza usuli bilan hosil qilingan sintaktik konstruksiyalarda qarama-qarshilik ob'yekti quyidagilardan iborat bo'ladi:

1) shaxs sifati:

O'zing tashna etding, o'zing suv tutding,
Qalbmimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!
Seni seva-seva men boyib ketdim,
Dunyo ichra topgan dunyomsan, xalqim! (Xalqimga aytar so'zlarim).

2) predmet belgisi:

Sevaman oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog'larni!
Yomg'irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho'mganim go'zal onlarni!

3) shaxs yoki predmet harakati va holati. Masalan:

Muna qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
U ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari. (Bahor keldi seni so'rog'lab).
Xuddi senday uzoq va senday yorqin,
Avji chaqnaganda so'nadi u ham,
Bir yupanch: sevgimning osmonidan
O'chmasdan yonasan, ey go'zal hamdam! (Yulduz).

Zulfiya she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, unda matn mazmunidan kelib chiqib yuzaga keltirilgan antitezalarni ko'plab uchratishimiz mumkin:

Narg'aygan dashtlarga berding yashil qon,
Tuproq tepalarda shahar ko'tarding:
Har bir g'alabangni ko'rgan suyuk on
Dildagi o'z g'amim kuyi cho'kardi

Keltirilgan parchada sarg'aygan leksemasi yashil qon leksemasiga qarama-qarshi qo'yilgan. Alohida olinganda sariq rang yashil rangga antonim emas. Biroq badiiy nutqning keng imkoniyatlari, shoiraning keng badiiy tahayyuli bu so'zlarni ayni vaziyatda qarshilantira olgan: sarg'ayib yotgan dashtlar yashillikka burkandi. Keyingi misrada ayni belgiga xos holatlarning keltirilishi she'ming badiiy ta'mirchanligini oshirib bergan: tuproq tepalarda shahar ko'tarding. Mazmuniy muvofiqlik ham saqlangan: sarg'aygan dashtlar-tuproq tepalar; yashil qon berding-shahar ko'tarding.

Xoh inongin, inonma xohi,
Xayolimda kezasan yolg'iz.
Meni sevgin!»
Yigit nigohi

Sevgi tilar — sukut qilar qiz. (Muhabbat tongi kulganda).

Mazkur parchada badiiy o'ziga xoslikning yana bir go'zal namunasini ko'rish

mumkin. Muhabbat tarannum etilgan bu misralarda shoira antitezadan o`rinli foydalangan. Bunda ikki harakat, yani yigit va qizning harakatlari qarama-qarshi qo`yilgan: yigitning nigohlar sevgi tilamoqda-qiz esa sukut qilib turibdi. Ayrim olinganda tilamoq(so`ramoq) fe`li aytmoq fe`liga antonim hisoblanadi. Yuqoridagi misralarda esa tilamoq leksemasi sukut qilmoq leksemasi bilan qarama-qarshilik hosil qilgan.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, antiteza uslubiy vosita sifatida badiiy matnda keng tarqalgan. Shoira Zulfiya o`z she`rlarida antiteza vositasidan keng foydalangan. Antonimlar, qarama-qarshi predikativ birliklar, ayrim leksik-semantik shakllar antitezani yuzaga chiqarishga yordam bergan. Ayrim olinganda o`zaro zidlik hosil qilmaydigan so`z va birikmalar shoira badiiy tafakkuri yordamida antitezani hosil qilgan.

O'ZBEK TILI MAVQEINI YUKSALTIRISH VA TIL TA'LIMI MUAMMOLARI

SH.USMANOVA, ToshDSHI professori,
B.MIRSHARIPOVA, ToshDSHI magistranti

FRAZEOLOGIZMLARNI TARJIMADA BERISH USULLARI

Resume

The article deals with the issues given phrasesin thr process of translation.

Key words: phraseology, polysemantic meaning, equivalent, language family, translation, adequate, descriptive method.

Frazeologizm – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. F.I.Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan aslohy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir¹.

Asliyat va tarjima matnlarini qiyosiy o'rganish natijasida frazeologizmlarni quyidagi yo'llar vositasida tarjima qilinganligini ko'rish mumkin:

- to'la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish;
- muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish;
- tasviriy usulda tarjima qilish.

Frazeologizmlarni to'la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish. Turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy muahadalardagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, boshqa til vositalari singari frazeologizmlar ham turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotli kuzatishlar asosida vujudga keladilar. Natijada turli tillar barqaror so'z birlikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar².

Tarjimada to'liq ekvivalentga ega bo'lgan frazeologik birliklar deyarli hech qanday muammo tug'dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma'noga, ifoda usuli va ta'sir kuchiga ega bo'ladi³.

Koreys va o'zbek tillarining bir oilaga mansubligi, bu tillar sohiblarining turmush sharoitlari o'xshashligi tufayli lafzlaridagi ko'pgina frazeologik birliklar bir-birlariga o'xshash bo'lib, ularning aksariyati bir xil manbalar asosida vujudga kelgan. Jumladan, koreys tilidagi 복네 좋가다 *pogne chokkada* (omadi yaxshi chopdi) "ishi

¹ Бураев Ф. И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. –М.: Русский язык, 1954. –С. 37.

² Бураев К. Таржима назарияси асослари. –Ташкент: Фан, 2005. –Б. 186.

³ Юсупов Л., О.Мо'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. –Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. –B. 152.

o'ngidan kelmoq, yurishmoq, baxti kelmoq" ma'nosida qo'llaniladi. Ayni ma'no va tasvir uchun o'zbek tilida uning *omadi kelmoq, omadi chopmoq* ekvivalentidan foydalanilinish mumkin:

복녀는 얼굴이 새빨갳게 되면서 감독에게로 돌아섰다.

"가 보자."

감독은 저편으로 갔다. 복녀는 머리를 숙이고 따라갔다.

"복녀 좋았구나."

뒤에서 이러한 조롱 소리가 들렸다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자, 86).

Tarjimasi:

Shunda Ponnyo o'zining ikki yuzi bir lahzada lov-lov yonganini payqadi. U nimanidir tushungandek bo'ladi.

– *Ortimdan yur, – dedi nazoratchi va chetga qarab yurib ketdi.*

Ponnyo, ikki yuzi qip-qizil, boshini xam qilib, unga ergashdi. Ortidan bir ayol quvnoq ovozda:

– *Mana, bugun kimning omadi chopdi! – deganini eshitdi* (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 112).

Frazeologizmlarni muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish. Tarjima tilida aslyatda qo'llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobil munosabatida bo'ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo'lishi va iste'foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etishda o'z turmush tushunchalari, urf-odatlari, milliy-falsafiy qarashlari va o'ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi¹.

Koreys tilida "iljaymasdan, bilinar-bilinmas kulmoq" holatini ifodalash uchun *코웃음을 하다 kousimil hada* (burnida kulmoq) iborasidan foydalaniladi. Mazkur iboraga o'zbek tilida ayni ma'noda qo'llaniladigan *miyiq'ida kulmoq* (miyiq shevada mo'ylovni anglatadi) frazeologizmi muqobil bo'ladi. Biroq bu ibora tarjimonning e'tiboridan tushib qolgan va uni *kibr bilan iljayar edi* shaklida tarjima qilgan:

그 겨울도 가도 봄이 이르렀다.

그때 왕서방은 돈 백원으로 처녀 하나 마누라도 사오게 되었다.

"흥."

복녀는 다만 코웃음만 쳤다.

"복녀, 강짜하잖구만."

동네 여편네들이 이런 말을 하면 복녀는 '흥'하고 *코웃음을 웃곤 하였다.*

내가 강짜를 해? 그는 늘 힘있게 부인하고 하였다. 그러나 그의 마음에 생기는 검은 그림자가 어찌할 수가 없었다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자, 88).

Tarjimasi:

Qish o'ldi. Bahor keldi. Xitoy Van bir qizni yuz vonga xotinlikka sotib olmoqchi emish, degan gap tarqaldi.

– *Xo'sh, nima bo'пти? Ko'ramiz hali! – dedi buni eshitgan Ponnyo istehzo bilan.*

¹ Мусаев К. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 195-196.

– Nahotki, Ponnyoning rashki kelmaydi? – deb pichirlashar edi mahalla xotinlari. – Bo‘lishi mumkin emas!

Buni eshitgan Ponnyo faqat kibr bilan iljayar edi. “Him, rashk qilarmishman. Qayoqdagi bir xitoyini-ya. Hecham-da”, deya xayolidan o‘tkazardi u. Biroq ayni vaqtda ichidan qirindi o‘tar edi (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 115).

Goho ma‘no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o‘xshash bo‘lib, boshqa so‘zlari farq qiladi. Bunday o‘zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea-hodisa, harakat-holat, xislat-xususiyatning obrazli yoki his-hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo‘lib, bir-birlariga to‘la mos keladilar¹. Jumladan, koreyscha 눈에 칼을 세워가지다 *nune kauril sevokajida* (ko‘zida pichoq turg‘izmoq) frazeologik birligi “jahli chiqmoq” ma‘nosini ifodalaydi va tarkibida “ko‘z” komponenti ishtirok etgan *yomon ko‘z bilan qarab* iborasiga muqobil bo‘ladi:

그러나 그 집에서도 얼마 안되어 쫓겨나왔다. 복녀는 부지런히 주인집 일을 보았지만 남편의 게으름은 어찌할 수가 없었다. 만날 복녀는 눈에 칼을 세워가지고 남편을 재근하였지만 그의 게으른 버릇은 개를 줄 수는 없었다 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자, 84).

Tarjimasi:

Ijara haqini vaqtida to‘lamaganlari uchun tez orada ularni bu kulbadan ham quvib chiqarishdi. Ponnyo uy egalarning hojatini chiqarish uchun qo‘lidan kelguncha harakat qildi, lekin ularga ijaragirlarning xo‘jalik bo‘yicha yordami emas, balki naqd pul kerak edi. Ponnyoning yalqov eri ijara haqini to‘lashga yetarli pul ishlab topishga urinmasdi. Natijada xotin yalqov eriga *yomon ko‘z bilan qarab, unga ta‘na-dashnom bera boshladi* (Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Bir savat batat, 110).

Frazeologizmlarni tasviriy usulda tarjima qilish. Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o‘g‘irishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san‘atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usulga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma‘nolari o‘kin ma‘nodagi so‘z yoki so‘z birikmalari vositasida tushuntirib qo‘ya qolinadi².

Misalan:

일심분 박을 한 부락으로 삼고 그곳에 모여 있는 모든 사람들의 정업(직업, 생업)은 기쁘고, 부업으로는 도둑질과(자기네끼리의) 매음, 그밖에 이 세상의 모든 무섭고 더러운 미끼가 있었다. 복녀도 그 정업으로 나섰다.

그러나 일 아홉 살의 한창 좋은 나이의 여편네에게는 누가 밥인들 잘 줄까 (한국 단편소설 베스트. 김동인. 감자, 84).

Ushbu parchadagi **한창 좋은 나이** *hanchan cho‘in nai* iborasi “ayni gullagan davri, o‘ynab kuladigan yoshda” ma‘nosida bo‘lib, bu asarda o‘zbek tiliga *yosh, kuch-shayxona to‘la* so‘z birikmasi vositasida tarjima qilingan:

Itu mahallada yashovchilarning ko‘pchiligi tilanchilik qilib kun kechirardi. Bu yosh o‘g‘ritlar va tovlamachilar, fohishalar va boshqa jinoiy unsurlar makoni edi. Ponnyo ham ko‘p o‘ylamasdan ko‘chada tilanchilik bilan shug‘ullanishga qaror qildi.

¹ Ushakov A. H. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: ToshDSHI, 2015. – B. 93.

² Ушakov A. H. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 208.

Ammo bu ishda omadi yurishmadi, chunki yosh, kuch-quvvatga to'la ayolga sadaqa berishni hech kim istamas edi (Zamonaviy koreys nasni antologiyasi. Bir savat batat, 110).

Xullas, turg'un birikmalami tarjima qilish erkin birikmalami tarjima qilishdan qat'iy farq qiladi. Ko'chma yoki obrazli turg'un birikmalar tarjimasi tarjimondan alohida e'tibor, alohida mahorat talab qiladi. Zero, iboralarning tarkibidagi komponentlar erkin birikmalamikidan farqli o'laroq alohida ma'no kasb etmaydi. Iboralarning ma'nolari komponentlarning bir butunligidan, yaxlitligidan anglashiladi. Shuning uchun, tarjimon tarjimaga kirishishdan oldin asliyat matnidagi turg'un birikmaning ma'nosini aniq tushunib yetishi va undan so'ng iboraning to'liq ifodasini berish uchun tabiiy ekvivalentni topishi shart.

Р. ЖОМОНОВ, ТошДЎТАУ доценти

ЎЗБЕК КИРИЛЛИ АЛИФБОСИДА Ў ҚАРФИ МАВЖУДМИ?

Resume

This article is devoted to orthographical tasks. There are expressed the role of letter **ы** in Uzbek-krill alphabet.

Key words: Krill alphabet, letter, symbol, surname, alphabet, orthography.

Ижтимоий тараққиётда ёзувнинг ўрни катта. Шу боисдан ўзини англаган ҳар бир халқ ўз ёзувига эга бўлиш ҳамда уни такомиллаштириб боришга ҳаракат қилади. Жумладан, ўзбек халқи ҳам ўз тараққиёти давомида қатор ёзувлардан фойдаланган. Биргина XX асрнинг ўзида уч хил ёзув тизимидан фойдаланишга тўғри келди. Араб, лотин ва кирилл ёзувлари орасида мазкур даврда халқимизга энг кўп хизмат қилган ва бугунги кунда ҳам қўлланиб турган ёзув – ўзбек кирилл алифбосидаги ёзувдир. Мазкур ёзув 1940 йилдан бошлаб ўзбек халқига хизмат қилади. Ўша йили қабул қилинган 33 ҳарф ва 2 белгидан иборат алифбо деярли ўзгаришсиз қолди ва лисоний эҳтиёжимизни қондириб келмоқда. Ҳатто 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган ўзбек лотин алифбоси жорий қилинган ҳам кирилча алифбонинг ўрни пасаймади, аҳамияти камаймади. Бу эса унинг анча мукамаллигидан, адабий тилимиздаги товушларни имкон қадар тўлиқ акс эттиришидан ҳамда ижтимоий ҳаётда мустаҳкам ўрин олганидан далолат.

Лекин кузатишлардан маълум бўладики, кирилча ёзувдаги матнларда ўзбек кирилл алифбосида мавжуд бўлмаган ҳарфлар ҳам қўллана бошлади. Масалан, **ы** ҳарфи кирилча алифбомизда мавжуд бўлмаса-да, нима сабабдандир эмин-эркин қўллана бошлади. Аниқроғи, русча ва қорақалпоқча исм ва фамилияларни ёзишда **ы** ҳарфидан нумли фойдаланилмоқда. Масалан, *Рыжков*, *Лысенко* каби русча фамилиялар айни шу кўринишда тавсия этилмоқда. Шунингдек, қорақалпоқча *Арысланбаева*, *Сатымбаев* каби фамилиялар ҳам айни шу шаклда ўзбек кирилл алифбосида берилмапти. Хўш,

ушбу ҳолат нимадан дарак беради ва қандай ижтимоий оқибатларга олиб боради?

Агар масалага лисоний нуқтаи назардан қараладиган бўлса, бу ҳолат кирилча алифбони билмаслигимиздан, уни моддий ва маънавий бойлик сифатида эътироф этмаслигимиз нишонасидир. Чунки ҳар қандай халқ ўз ёзувига онгли муносабатда бўлиб, уни кўз қорачиғидек асрашга ҳаракат қилади. Бинобарин, ҳар қандай сўзнинг ёзилишини фақат ўзи қўллаётган алифбо доирасида ҳал қилади.

Ушбу муаммонинг ижтимоий-сиёсий томонларини ҳам ҳисобга олиш лозим. Негаки, ёзувдаги бефарқлик ижтимоий ҳаётда дарҳол ўз аксини топади: бошқа тиллардаги ҳар қандай белги – ҳарфларни ўзбек тилида бемалол ишлатиш мумкин экан, деган хулосага олиб келади. Демак, ўзбек имлосида тартибсизлик (хаос) бошланади, миллий бирликка путур етади.

Айни пайтда исм-фамилияларнинг кирилча алифбомизда ы ҳарфи билан берилиши сиёсий жиҳатдан ҳам тўғри бўлмайди. Чунки мазкур ҳолат сиёсий қарамлик ва лисоний тафаккурнинг етишмаслигидан дарак беради. Ахир, бошқа халқлар ўзбекча номларни ўз тилларининг фонетик тизимига мос тарзда ёчиб, ўзлари учун қулай тарзда талаффуз этадиларку! Масалан, *Қодир*, *Нодир* исмлари рус тилида *Кадыр*, *Надыр* тарзида, *Қўқон* сўзи *Коканд*, *Жиззах* эса *Джиззак* тарзида ёзилади. Биз уларга нега бу тахлитда ёздингиз, деб даъво қилолмаймиз. Лекин нима сабабдандир биз бошқа тиллардаги исм-фамилияларни ўша тилдаги тарзда ёзишга уринамиз. Бунинг ёрқин намунасини ҳар йили давлат мукофотлари билан мукофотланганлар рўйхатидан ҳам билиб олишимиз мумкин.

Аслида, илмда масаланинг катта-кичиги бўлмайди. Кўриб чиқиладиган ы ҳарфининг кирилча ёзувимизда қўлланаётгани ҳам ўзбек имлосида бир қатор долзарб муаммоларнинг мавжудлигини кўрсатади. Биз бундай масалаларни ўз ичига олмай олишимиз, уларга илмий-назарий жиҳатдан баҳо беришимиз ҳамда тезлик билан амалий тавсиялар ишлаб чиқишимиз лозим. Негаки, имлодаги кичик бир камчилик тил амалиётида катта бир чалкашликка сабаб бўлиши, энг асосийси, тил тизимига жиддий зарар етказиши мумкин. Шу сабабли ҳам ўзбек имлоси бўйича махсус анжуман - имло конференцияси ўтказилиши ва бугунги лисоний жараёни ҳисобга оладиган қарорлар қабул қилинишини давр тақозо этмоқда.

РУС ГУРУҲИ ТАЛАБАЛАРИГА ЎЗБЕК ТИЛИ ТАСВИРИЙ ВОСИТАЛАРИНИ ЎҚИТИШИНИНГ БАЎЗИ УСУЛЛАРИ

Resume

The paper discusses about the means of descriptive resources to teach Russian students.

Key words: agglutinative language, word, borrowed language, communicative function, oral speech, written speech.

Ўзбек тили олтой тиллар оиласининг туркий гуруҳига мансуб бўлиб, агглютинатив тил ҳисобланади. Ўзбек тилини бошқа миллат вакиллариغا ўргатиш мазкур тилнинг грамматик хусусиятларини ўзлаштиришга асосланади. Ўзбек тили грамматикаси, морфологияси ва синтаксисига доир маълумотлар фонетика, орфоэпия, орфография, лексикография, фразеология бўлимларига оид назарий қарашларга уйғун ҳолда талабаларга етказилади.

Тил имкониятларидан нутқда фойдаланиш сўзловчидан муайян билим, амалий тажриба, сўз бойлигини талаб қилади. Тил жамиятда уч вазифани: алоқа-муносабат, ҳиссий таъсир, тўплаш вазифасини бажаради. Тил ҳақидаги назарий билимлар, асосан, шу тилнинг коммуникатив функциясини ёритишга хизмат қилади. Тилни ўзлаштириш жараёнида шу тилнинг бадий имкониятларидан фойдаланиш ҳам муҳим ўрин тутди. Ўзбек тилини ўқитиш жараёнида тилнинг грамматик хусусиятларини бадий имкониятлар, тасвирий воситалар, кўчимлар ёрдамида ўзлаштириш муҳим. Тил - тафаккур маҳсули. Ўз навбатида тил фикрни ривожлантирувчи муҳим омил ҳам ҳисобланади.

Тил ва маданият ўзаро алоқадор ҳодисалардир. Тилда миллий маданият белгилари, халқнинг дунёқараши, урф-одат анъаналари ўз аксини топади. Муайян тилни ўрганиш, тил бирликларининг моҳиятини англаш маълум бир халқнинг маданий хусусиятларини ўзлаштиришни ҳам тақозо қилади. Тилдаги ментал хусусиятлар, миллий қадриятлар ифодаси, тилнинг алоқа-муносабат, ҳиссий таъсир функциялари билан маълум маънода боғлиқдир. Шу боис ўзбек тилини фонетикаси, лексикаси, грамматикаси ўрганувчи талабалар билимини оширишда, амалий кўникмаларини шакллантиришда тилнинг тасвирий воситалари, бадий имкониятлари ҳақидаги маълумотларни билиш муҳимдир.

Ўзбек тилининг агглютинатив табиатини ёритишда ўзбек тилининг тасвирий воситалари, троп ва фигураларнинг лингвистик хусусиятлари қиссий таҳлили амалга ошириш муҳимдир. Рус гуруҳидаги талабаларга ўзбек тили тасвирий воситаларини ўқитишда педагогик технологияларни қўллашнинг аҳамияти сезиларли. Тилнинг бадий имкониятларидан фойдаланиш, тасвирий воситаларни қўллаш ҳар қандай нутқнинг образлигини таъминлайди. Таъсирчан нутқ нафақат мазмунни аниқ етказиш, сўзловчининг ҳиссиётларини ифодалаш учун, балки адресатга таъсир кўрсатиш, фикрни ёрқин ифодалаш учун ҳам хизмат қилади.

Нуткнинг таъсирчанлиги коммуникатив вазият хусусиятлари, сўзловчи-ёзувчининг мақсади, ўқувчи-тингловчининг мулоқотга киришиш жараёнидаги дастлабки билимлари ва тасаввурлари савияси билан боғлиқ. Ўзбек тилини бошқа миллат вакилларига ўргатишда бадий тасвир воситаларидан фойдаланиш талабаларнинг фикрлаш даражаси, тафаккур имкониятлари билан боғлиқдир. Негаки, кўчимлар семантик кўчишга асосланган бўлиб, ҳам сўзловчи (шоир ёки ёзувчи), ҳам тингловчидан муайян фикрий тайёргарликни талаб қилади. Тил бирликларини, айниқса, лексемаларнинг ўз маъносида денотатив маънода қўллаш усуллари тафаккур имкониятлари, фикрлаш қобилияти билан боғлиқ. Шу билан бир қаторда, турли услубдаги, айниқса, бадий услубдаги нутқ кўринишларини таҳлил қилиш тил хусусиятларини мақсадга мувофиқ ўзлаштирилишини таъминлайди. Бадий услуб образли ифодаларга асослангани боис сўзловчи ва тингловчидан муайян кўчима, амалий билим даражасини талаб қилади. Шунинг баробарида, образли фикрлаш усуллари маълумотларнинг осон, таъсирчан этиб боришига хизмат қилади.

Ўзбек тилини ўрганувчи талабалар тилни ўрганиш жараёнида муомала воситасининг эмоционал-экспрессив хусусиятларига аҳамият берадилар. Она тили билан солиштириш имкониятига эга бўладилар. Умуман олганда, ўзбек тилини ўргатишда назарий маълумотларни, грамматик қоидаларни етказишда тасвирий имкониятларнинг ўзига хос ўрни бор. Тасвирий воситалар талабаларни нафақат ўрганилаётган тилнинг эмоционал-экспрессив хусусиятларини ўзлаштиришларига, балки фикрлаш доирасини кенгайтиришга, тилнинг амалий аҳамиятини англаб етишларига ёрдам беради. Ўзбек тилини ўқитишда талабаларнинг оғзаки ва ёзма нутқларини такомиллаштиришда қуйидагиларга эътибор беришни тавсия қиламиз:

-ўзбек тили грамматикасини ўзлаштиришда шу тилнинг морфологик хусусиятларини тил ўрганувчиларнинг асосий мулоқот воситаси бўлган она тили хусусиятлари билан қиёслаб ўрганиш лозим;

-ўзбек тили грамматик қоидалари, орфографик меъёрларини ўрганиш жараёнини тил бирликларининг бадий имкониятларини ўзлаштириш билан уйғун равишда олиб бориш яхши натижа беради.

-тилнинг воситалари тил бирликларининг мулоқот воситаси сифатидаги аҳамиятини ёритиш билан бир қаторда, ҳиссий таъсир кўрсатиш ва тўплаш маъносилари моҳиятини англашга ёрдам беради. Шу боис назарий маълумотларни бадий услуб асосида, тил бирликларининг коннотатив функциялари ёрдамида мустаҳкамлаш лозим;

-троп ва фигуралар энг фаол қўлландиган кўчим турларидан бўлиб, ўзбек тилининг бадий имкониятларини ёритишга, сўзлашув ва бадий услуб хусусиятларини ўзлаштиришга ёрдам беради. Сўзлашув ва бадий услубнинг кўчма маънога асосланиши, бошқа услубларга нисбатан кенг имкониятларга эга эканлиги кўчим турлари, метафора, метонимия, синекдоха, ўхшатишлардан фойдаланган ҳолда талабаларга етказилиши лозим.

Ўзбек тили фанининг фонетик, лексик-семантик, грамматик хусусиятларини ёритишда бадий услубдаги, кўчим турлари, услубий фигуралар кенг қўлланган матнлар таҳлиliga қаратилган савол ва топшириқлар

муҳим ўрин тутади М.: 1-топширик .Саид Аҳмад асарларидан келтирилган парчалардан ўхшатишларни топинг.

Бир дам қони айланишдан тўхтагандек, пайлари дуторнинг таранг ипларига сув сепилгандек бўшади-қолди. Жалол полвон этигини ҳам киймай ёнғоқзор томонга ўқдек учиб кетди. Таги ертўлалари саккиз хона уй ҳаммасига чўғдек ёнаман деб турган гиламлар тўшалган. Жалол полвоннинг вужуд-вужудига минглаб игна санчилгандек бўлди... Кеча сокин. Тик этган товуш йўқ, ой ҳам синдирилган патирдек яримтагина бўлиб қолган. Полвон новвот сувидек тотимли чойни ҳузур қилиб ичаркан, ўзингга шукур, ўзингга шукур, деб қўйди. Гуландом сесканиб кетди... Шу топда унинг икки қулоғи ўтда куяётгандек эди. (Саид Аҳмад “Азроил ўтган йўлларда”).

2-топширик. Ифодали ўқинг. Келтирилган парчаларда ўхшатишларни топинг ва маъносини изоҳланг.

1. Табиат саҳарда мисли бир гунча,

Тонг эса гунчанинг очилган чоғи.

Ёки тахмин қилинг: табиат бир қиз,

Тонг эса у қизнинг мармар ёноғи. (Уйғун.)

2. Севаман олтин куз, севаман жондан!

Товусдай безанган дарахт, боғларни!

Ёмғирли окшоминг, қуёшли тонгинг,

Ҳаёлга чўмганим гўзал онларни! (Зулфия.)

3-топширик. Матни ўқинг ва рус тилига таржима қилинг. Ажратиб ёзилган сўзларнинг маъносини тушунтиринг.

Ҳар бир фасл ўзига хос чирой, тароватга эга. Лекин фаслларнинг гўзали куз бўлса керак. Уни олтин куз, деб бежиз айтишмайди. Атрофга қаранг, дарахт барглари олтиндай товланади. Баргларнинг айримлари дарахт тагидаги майсалар устига олтин тангалардек тўкилади. Ҳаво илик, ёқимли шабада юз-кўзингизни силаб ўтади. Ариқларда биллурдай зилол сув. Осмонда оппоқ пахта ғарамлари каби паға –паға булутлар сузиб юради. Куз ҳақиқатдан ҳам олтин фасл.

4-Топширик. Ўқинг. Келтирилган парчалардаги ажратилган сўзларни маъносини изоҳланг.

Энди Зеби “Ёр-ёр”ни ёлғиз ўзи айтарди. Аравакаш билан қолган қизлар-ҳаммаси бир қулоққа айланган эдилар. От бу гўзал овознинг ширин куйлари остида бошини қуйи солиб, бўйнини аста-аста ликиллатиб, битта-битта қадам босарди... “Ёр-ёр”лар битиб, бошқа ҳар хил куйларга ўтилди. Энди Зебини тўхтатмоқ мумкин эмасди. Далаларнинг кенг қучоқларидан учишиб келган майин шабадалар қиз оғзидан чиққан унларни ўз қанотларига миндириб, аллакаерларга, олисларга олиб кетардилар. Ҳов йироқларда липиллаб кўринган кишлок чироқлари ҳам, тепадаги юлдузлар сингари шабада қанотлари билан келган чиройли унларнинг завки биланмаст бўлиб ёнардилар (Чўлпон).

Ўзбек тили фанининг фонетик, лексик-семантик, грамматик хусусиятларини рус гуруҳидаги талабларга етказишда турли методларни қўллаш, замонавий педтехнология усулларидан, компьютер тизими, ахборот

коммуникация имкониятларидан, техник воситалардан фойдаланиш тавсия қилинади.

Адабиётлар

1. Жиянова Н., Мўминова О., Максумова С. Нутқ маданияти // Олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Наврўз, 2016. – Б. 164.
2. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 368
3. Султонсаидова С., Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 2009. – Б. 112.
4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент, 2002.
5. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адаблари. – Т.: Фан, 2007.

Г. АЛИҚУЛОВА, ТошДУТАУ магистранти

ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ЁРЛИҚЛАРИНИНГ ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

Resume

This article is devoted to look into linguistic peculiarities of food labels in the Uzbek language.

Key words: groceries, package, label, stamp, mark, writing.

Озиқ-овқат маҳсулотлари сифати ва ташқи кўринишини, сақланиши, ташиш ва савдога чиқариш санитарик-гигиеник шароитларини яхшилаш, ҳамда маҳсулотнинг тури ва нави, массаси, истеъмол қилиш ҳақида керакли маълумотларни баён этиш учун уларни замонавий материаллардан фойдаланиб қадоклаш - долзарб вазифалардан биридир.

Қадоқлашнинг вазифаси, маҳсулотни ишлаб чиқаришдан истеъмолчилишигача бўлган даврда миқдорини, таркибини ва сифатини, истеъмолчилик шартларини ўзгаришидан химоялаш, яъни маҳсулотнинг белгиланган меъёрлардан четга чиқиб кетилишининг олдини олишдан иборат. Қадоқлашнинг бу вазифаси маҳсулотни механик, физик, кимёвий, об-ҳаво ва биологик таъсирлардан сақлашни назарда тутди.

Қадоқлашнинг хушбичим шакли, чиройли кўриниши нафақат қадоқланган маҳсулотни, балки уни ишлаб чиқарувчисини ва ҳатто ишлаб чиқарётган бошқа маҳсулотлар учун ҳам реклама воситаси бўлиб хизмат қилади. Баъзи ҳолларда қадоқлаш чиройли, хушбичим, такрорланмас кўринишда бўлиши талаб қилинса, бошқа ҳолларда оддий бўлиши талаб қилинади. Мисалан, уни чиройли безак берилган идишга қадоқлашнинг ҳожати бўлмаган ҳолда, қандолат маҳсулотларини ун солинадиган қоғазга қадоқлаш ҳеч бир тилибга жавоб бермайди.

Озиқ-овқат маҳсулотларининг сақланиши кўп ҳолларда қадоқлаш материалига боғлиқ бўлади. Турли маҳсулотлар учун қадоқлаш материални танлаш учун бу материалларнинг стандартларидан фойдаланилади. Озиқ-овқат маҳсулотларини қадоқлашда қадоқловчи материал сифатида қоғозларнинг

турли хиллари, полимер материаллардан тайёрланган пленкалар, алюмин фольга, рухланган пўлат ва бошқалар ишлатилади.

Маҳсулотни кадоклашда этикетка (ёрлик ёки маҳсус ёзувли маълумотлар) аҳамиятли ҳисобланади. Этикетка тайёрлаш учун асосан ГОСТ 7625 га кўра тўрт А, Б, В ва М маркадаги этикетка қоғозидан фойдаланилади. Уларга рангли этикеткалар муҳрлаш билан бирга зарур ҳолларда лаклаш ва босиб нақш солиш имконияти ҳам мавжуд. А маркадаги қоғознинг 1м^2 массаси - 80 г ни ташкил қилса, Б ники- 70 г , В ники – 45 г , М ники - 100...120 г ни ташкил қилади. Этикетка қоғозларидан ташқари ёзув, офсет, босмаҳона қоғозларидан ва юқори сифатли муҳрлаш учун мўлжалланган қоғоздан ҳам фойдаланилади. Этикеткалар варақлар ҳолида чиқарилиб, кейин алоҳида доналарга бўлинади. Қоғознинг намлиги 5...8 % атрофида бўлиши керак.

Этикеткадаги ёзувларининг тил хусусиятларига эътиборни қаратадиган бўлсак, этикетка матнида сўз, сўз бирикмаси, гап ва унинг турлари учрайди.

Масалан, жайдари ундан тайёрланган жавдар нони ҳақида тўхталиб ўтсак, жайдари ундан тайёрланган жавдар нони қолипди ёки тагдонли, тортиб ёки доналаб сотиладиган ҳолда ишлаб чиқарилади. Бундай ундан оддий жавдар нонидан ташқари ферментлаштирилган (қизил) жавдар солоди, зираворлар кўшиб яхшилланган қайнатма жавдар нони, «Москва» жавдар нони, 80 % жайдари жавдар унидан, 15 % П навли бугдой уни ва қизил жавдар солоди, шакар, патока ва зиравор кўшиб, «Бородино» нонлари тайёрланади.

«Бородино» нон маҳсулоти этикеткасида қуйидаги: *хамиртуриш, шакар, таркиби, Тошкент, телефон* каби сўзлар ва *Тошкентча "бородинский" нони, ишлаб чиқарувчи, ишлаб чиқилган кун, соф оғирлиги, жавдар уни, жавдар ачитқиси, биринчи ва иккинчи нав бугдой уни, Маннор уйғур кучаси* каби сўз бирикмалари ҳамда *"Лучшие сорта ржаной муки и солда –для вашего здоровья", "Изготовлено на оборудовании компаний Wescitel Германия"* содда гаплари келтирилган. Ушбу маҳсулот Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган бўлиб, унинг ёрлиғидаги ёзувлар икки тилда: ўзбек ва рус тилларда берилган.

Булочка маҳсулотларининг ёрликларига эътиборни қаратсак, *маргарин, шакар, туз, сув, ванилин, хамиртуриш* каби от сўз туркумига оид сўзлар ва *кунгабоқар ёғи, шакар кукуни, палма ёғи, тухум меланжси, қулубнай ароматизатори* каби содда сўз бирикмалари билан *бирга олий навли бугдой уни, ванилинли кулупнай крем, қуйилтирилган сут маҳсулоти* каби мураккаб сўз бирикмалари ҳамда *"Ўзбекистонда ишлаб чиқилган", "Сақлаш шароитига амал қилинган ҳолда сақлаш мuddати 3 ой", "Маҳсулотнинг сифатига оид саволлар бўйича қуйидаги электрон манзилган мурожат қилинсин"* каби гаплар ўз аксини топган. Ёрликларда *МЧДК, ОАЖ узб.ру. тел.* каби қисқартма отлар билан бирга ҳисоб сўзлар ҳам учрайди: *гр 2, ккал, ой, фоуз, кун* кабилар.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, озиқ-овқат маҳсулотларини кадоклашдаги ёзувлар (этикетка, ёрлик)да от, сифат, сон(ҳисоб сўзлар) каби суз туркумлари ва ҳоким аъзонинг ифодаланишига кўра исмли сўз бирикмалари, содда ва мураккаб сўз бирикмалари, бир таркибли содда гапларни тилшунослик нуқтан назарда таҳлил этиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. “Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари”, Тошкент: Ўзбекистон, 2009.–Б.486 .
2. Багичева Н. Реклама, ее возникновение и некоторые сведения из истории ее развития.– М., 1969.
3. Васиев М.Г., Васиева М.А., Мирзаев Ж.Д. Нон, макарон ва қандолат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда қўлланиладиган хом ашё ва материаллар. –Тошкент: Мехнат,2002. –Б.192 .
Васиев М.Г., Васиева М.А., Илалов Х.Ж., Саидходжаева М.А. Нон маҳсулотлари ишлаб чиқариш технологияси. Дарслик. –Тошкент:Мехнат, 2002. –Б. 224

O.NURULLAYEVA, ToshDO'TAU talabasi

TIL TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV

Resume

This article is devoted to sign the importance of the usage of modern innovative technologies in language education.

Key words: education, innovation, method, technology, program, modelized.

Hozirgi kunda “Talim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning oldiga qo‘yilgan ustuvor vazifalar– jahon talablari asosida yetuk, har tomonlama raqobatbardosh, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashadigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, yosh avlodga chuqur bilim va tarbiya berish asosida barkamol insonlarni voyaga yetkazishdan iborat.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida amalga oshirilgan ta‘limiy inlohotlar yagona maqsad–barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalash hamda tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur maqsadning to‘laqonli amalga oshirilishi uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish, uning mazmunini ijtimoiy talablarga muvofiq ravishda yangilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida ta‘minlanadi.

Ta‘lim jarayoniga “Innovatsiya” va “Innovatsion pedagogika” kabi terminlarlar 1960-yillarda G‘arbiy Yevropada AQShdan kirib keldi. Innovatsiya (inglizcha “Innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, kiritilgan yangilik, ixtiro degan ma‘nolarni anglatadi) – bu oldin mavjud bo‘lmagan predmet, tuzilma, qadriyat va faoliyat metodlari (texnologiyalari)ni yaratish, paydo bo‘lgan yangiliklarni belgi, obraz, himvollarda ifodalash, ijtimoiy o‘zlashtirish hamda tarqatish orqali jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga tatbiq qilish jarayoni hisoblanadi.¹

¹Алимов А. О‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish usullari// Xalq ta‘limi, 2015.– № 3, –Б.74.

Bugungi kun til ta'limini ham bunday innovatsion vositalardan ayri holda tasavvur qilish qiyin. Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish talaba faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'zini, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosini puxta bilishi, ilg'or pedagogic texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidalikka ajratish va tasnif etishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza olish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi dardor.¹

Ta'limda innovatsion faoliyatning asosiy bosqichi dasturlash yoki modellashtirish hisoblanadi. Til ta'limini amalga oshirayotgan pedagogning zamonaviy interfaol metodlar, jumladan grafik organayzerlardan foydalanishi uning innovatsion faoliyatning modellashtirish bosqichidan foydalanayotganidan darak beradi. Masalan, "Venn diagrammasi", "Konseptual jadval", "Baliq skeleti", "Insert", "Klaster", "Nilufargul", "T- jadval" grafik organayzerlarining o'qituvchi tomonidan ma'ruzada foydalanilishi pedagogning darsga nisbatan kreativ yondashganligini bildiradi.

"Venn diagrammasi" GO ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Unda muayyan bo'lim yoki boblarni taqqoslash samaralidir. Yoki "Konseptual jadval" GO o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzuni ikki yoki undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.²

Hozirgi vaqtda oily ta'lim muassasalarida yangi pedagogic texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodika jamiyatini belgilash, ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Ilg'or pedagogic texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda multimedia darslarining yaratilishi esa asosiy yo'nalishga aylanib qolmoqda.

Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi) zamonaviy kompyuterlarning deyarli barchasida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmuini, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari – matn,

¹ To'xtiyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2006. –B.4.

² "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.

jadval, grafika, ovoz, animatsiya, videotasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "inson – kompyuter" interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Bir qator olimlar, metodistlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rt dan bir qismini, ko'rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsu, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich yetmish besh foizni atashkil etadi. Shu bois ta'lim jarayonida avtomatik texnologiyalardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega¹.

Til o'qitish jarayonida quyidagi kompyuter dasturlarini qo'llash mumkin: Taqdimot texnologiyasi, electron nusxa, elektron multimedia darsligi, electron ensiklopediya, electron lug'at, o'rgatuvchi audio dasturlar, electron lingafon kurslari, universal test dasturi, elektron virtual kutubxona, internet tarmog'i, videomateriallar, masofaviy ta'lim.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida har bir pedagog zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogic va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng uni ta'lim tizimiga joriy etishi kerak.

M.HAMROQULOVA, ToshDO TAU talabasi

MORZE ALIFBOSI SUN'IY TILMI?

Resume

The article deals with learning the specific aspects of Morse code that is considered as an artificial language.

Key words: artificial language, Morse code, international language, Esperanto, signal, conventional sign.

Dunyoda rivojlanmaydigan, o'zarmaydigan narsaning o'zi yo'q. Til ham bundan mustasno emas. Inson borki, unga til mansub. U insonlar orasida kommunikatsiya asosi, fikr almashish quroli sifatida namoyon bo'ladi. Sir emaski, dunyoda mukammal til yo'q. Shuning uchun olimlar turli sun'iy tillarni yaratmoqdalar. Ular xalqaro, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan mukammal til yaratishga harakat qilishadi. Xalqaro muomala vositasi sifatida sun'iy til yaratish g'oyasi fransuz olimi R.Dekart va nemis olimi G.Leybnitsga tegishlidir.

Bilamizki, sun'iy til muayyan maqsadni ko'zlab yaratiladigan va tabiiy tillarning o'rinbosari sifatida qo'llaniladigan til hisoblanadi. Unga misol qilib Zamengof komonidan yaratilgan "Esperanto" tilini olishimiz mumkin. Ushbu til tez orada turli mamlakatlarga tarqaldi. Dastlab bu til bilan marka yig'uvchilar (filatelistlar),

¹Yuliyev A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2007.

numizmatlar, sportchilar, tijorat ahli, faylasuflar, filologlar va hattoki yozuvchilar ham qiziqib qoldilar. Esperanto tili darsliklari nashr etilgan, ba'zi asarlar u tilga tarjima qilingan, bu tilda asarlar yaratilgan. Lekin bu asarlarning badiiy qiymati deyarli yo'q, chunki sun'iy tillar tabiiy tillardan farqli ravishda stilistik vositalardan xolidir. Ular tabiiy milliy tilga nisbatan ikkilamchi, yordamchidir.¹

Endi morze alifbosi nima va u nimaga kerakligiga ahamiyat bersak. Morze alifbosi – telegraf aloqasida qo'llaniladigan shartli belgilar tizimi. U nuqta va tirelardan iborat. Har bir harfga muayyan nuqta va tirelar uyg'unlashuvi to'g'ri keladi. Morze alifbosining ixtirochisi amerikalik Samuel Morzedir. U 1854-yilda telegrafga mualliflik huquqini qo'lga kiritgan. Kemalarda radiostansiyalar paydo bo'lganidan so'ng kommunikatsiyani standartlashtirishga zaruriyati yuzaga keldi. Kemalarda halokatdan xabar beruvchi signal so'z tanlangan, bu so'z morze alifbosida yozilgan. Dastlab taklif qilingan signal so'z CDQ harflaridan iborat bo'lib, birinchi ikkita harf hamma radiostansiyalarning standart chaqirig'i hisoblangan, oxirgi D harfi esa signalga keyinchalik qo'shilgan. Bu so'zga dengizchilar "Come Quick, Denger!" degan ibora sifatida qarashgan. Bu ibora ingliz tilidan tarjima qilinganda "Tezroq keling, halokat!" degan ma'noni bildiradi. Morze alifbosida bu iborani yozish juda qiyin, shuning uchun keyinchalik SOS tanlangan. Morze alifbosida bu kod uchta nuqta-uchta tire-uchta nuqta (...---...) orqali ifodalangan. Bu iborani turli ma'nolarda tushunishgan: "Save Our Shin" ("Bizning kemani qutqaring") yoki "Save Our Souls", "Save Our Spirits" ("Bizning qalbimizni qutqaring"), "Swim Or Sink" ("Yordam beringlar yoki cho'kamiz") kabilar.²

Morze alifbosi

A	.-	N	-.	0	-----
B	-. . .	O	---	1	-.----
C	-. .	P	-. .	2	..----
D	-. .	Q	--.	3	...---
E	.	R	. . .	4-
F	.. .	S	5
G	--.	T	-	6	-. . . .
H	U	..-	7	--. . .
I	..	V	...-	8	----.
J	-.---	W	-. .	9	----.
K	-. .	X	-. .	.	-. . . .
L	-. .	Y	-. .	?	--. . .
M	--	Z	-. .	?

Odatda, sun'iy tillarni o'rganganda morze alifbosini unga kiritilmaydi. Ammo ko'pchilik morze alifbosi sun'iy tilmi? deganda ikkilanib qoladi. Ushbu masalaga biroz oydinlik kiritamiz.

¹ Irixulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. -B.217.

² Ziyonet

Hamimizga ma'lumki, sun'iy tillar o'z yozuviga va eng asosiysi oz bo'lsa-da gaplashuvchilariga ega. To'g'ri, sun'iy tilning ham bir qancha kamchiliklari bor: u rivojlanmaydi, bu tilda gaplashadigan jamiyat yo'q. Lekin u til hisoblanadi. Morze alifbosiga kelsak, nomidan ham ma'lumki, u yozuvdir. U xohlagan bir tilni ifodalashi mumkin bo'lgan yozuvdir. U orqali ixtiyoriy shaxs ixtiyoriy tildagi so'zlarni kodlab, kimgadir yashirin tarzda ma'lumot yuborishi mumkin. Buning uchun morze alifbosini bilish yetarli, "morze tili" ni yoki boshqa biror tilni bilish shart emas.

Shundan kelib chiqib, bemalol "Morze alifbosi sun'iy tilmi?" degan savolga "Yo'q" deb javob berishimiz mumkin.

LEKSIKOLOGIYA. TERMINOLOGIYA

*SH.ABDINAZIMOV, QORAQALPOQ DU professori,
X.TOLIBAEV, QORAQALPOQ DU magistranti*

QORAQALPOQ DOSTONLARIDAGI JOY NOMLARINING YASALISHIDA GEOGRAFIK TERMINLAR ISHTIROKI

Resume

In his article, the role of geographical terms at forming toponyms is looked into in Karakalpak epic poems.

Key words: toponyms, toponymy, Karakalpak linguistics, geographic object, group.

Joy nomlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holati to'g'risidagi fan hisoblangan - toponimika avvaldan olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Toponimik ma'lumotlar tadqiqotchi uchun ilmiy va amaliy jihatdan qiziquvchanlik tug'diradi. Chunki, toponimik tadqiq, ayniqsa yer nomlarining kelib chiqishini aniqlash - shu hududda yashovchi xalqning tarixi, madaniyati, etnik kelib chiqishi, tili haqida yetarli ma'lumotlar beradi. Joy nomlari (toponimlar) olis tarixiy davrni qamrab olib, unda tilning rivojlanish bosqichlari, undagi o'zgarishlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, joy nomlari tarix, etnografiya, arxeologiya, geografiya va h.k. fanlar uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Biroq, qoraqalpoq tilshunosligining hozirgi holatida tovush tizimi, leksikologiya, grammatika va til tarixiga bog'liq ayrim masalalarga bag'ishlangan ishlar o'z tasdig'ini topganiga qaramasdan, hali ham o'rganilishi lozim, o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri - qoraqalpoq toponimikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borish hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyotidagi, ayniqsa, dostonlardagi joy nomlarini o'rganishning ahamiyatini qoraqalpoqlar tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tarixchi olimlar S.P.Tolstov, V.M.Jirmunskiy, P.P. Ivanov, T.A. Jdanko, S.Kamalov, L.S.Tolstova, M.Qidimiyazov, M.Maquetova va h.k. ishlaridan ko'rishimiz mumkin.

Toponimik tadqiqotda, ma'lum bir fizikogeografik ob'ektlarga bog'liq bo'lgan, uning ma'nosini aniqlashda asosiy element hisoblangan geografik terminlarning joy nomini hosil qilishdagi ishtirokini aniqlash - ahamiyatli vazifalardan biri sanaladi.

Qoraqalpoq xalq dostonlaridagi joy nomlarini o'rganganimizda, ularning yasalishida geografik terminlarning ishtiroki ko'zga tashlanadi. Ularni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:

1. Oronimik terminlar orqali yasalgan joy nomlari xalq dostonlari tilining toponimiyasida ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Dostonlarning tilida *taw/dag* (*tog'*), *tobe'tobeshik* (*tepa/tepalik*), *shan* komponentli joy nomlari uchraydi.

Taw/dag - Atrofidagi yerdan yuqori balandlik, yanada baland toshli joy [1.287]. *Taw* so'zi fonetik variantlarda ko'pgina turkiy tillarda uchraydi. Qoraqalpoq xalq

dostonlari tilidagi joy nomlaridagi *taw*, *dağ* fonetik variantlarda uchraydi: Adir taw, Ala taw, Alan taw, Alburis taw, Aq taw, Aqsha taw, Asqar taw, Áwliye taw, Babay taw, Badalgi taw, Balaman taw, Balqan taw, Bāndirge taw, Barqiya taw, Buwdir taw, Dālshin taw, Genjirli taw, Gįjduwan taw, Gōhibulır taw, Gōhiqap taw, Gūlapın taw, Hāser taw, Jādde taw, Janqur taw, Kōken taw, Kōkshe taw, Pārlitaw, Peshe taw, Porlı taw, Qap taw, Qarataw, Qaraspan taw, Qarsaqılı taw, Qıran taw, Qiya taw, Qıyamus taw, Qorasan taw, Quba taw, Qubayıs taw, Sarsañ taw, Shağır taw, Shınzan taw, Shūkiralı taw, Taqır taw, Tamalı taw, Tōk taw, Tūye taw, Ulıqpan taw, Urqiya taw, Xazar taw, Yarqut taw, Zārendik taw; Áser dağ/Hāser dağ, Atash dağ, Ordazi dağ, Quba dağ, Zarandip dağ.

Qoraqalpoq xalq dostonlarining tilida *tōbe* yoki *tōbeshik* termini oronimik nomlarning elementi sifatida uchraydi: Aq tōbe, Bes tōbe, Bosagalı tōbe, Dinar tōbe, Gūl tōbe, Jāntōbe, Kōktōbe, Māslāhātōbe, May tōbe, Nayzahal tōbe, Nishana tōbe, Ora tōbe, Qara tōbe, Qayraqlı tōbe, Qos tōbe, Shubar tōbe, Toytōbe, Ura tōbe, Xan tōbe; Aq tōbeshik.

Shan termini faqat *Badaxshon* va *Tyanshan* toponimlarining tarkibida mavjud. *Hadaxshon* toponimining kelib chiqishi bo'yicha toponimikada aniq xulosa yo'q. *Hadaxshon* toponimining kelib chiqishi bo'yicha keng tarqalgan tushuncha asosida toponimist V.A.Nikonovning fikrini keltirish mumkin. Olim *Badaxshon* nomi "Yoqut tog'lari" ma'nosini bildiradigan, eroniy tillardagi "*badash – yoqut*" so'ziga bog'laydi. Ikkinchi komponenti *shan* bo'lsa, *tog'* degan ma'noni anglatishini yozadi [2.38].

Turkiy xalqlarda *Tyanshan* tog'lari *Tangritog'* deb atalgan, ya'ni *Osmon tog'* ma'nosini beradi. "Tyanshan – tyan – osmon, shan – tog'. Aslida uning nomi Xontangri, Tangritog' bo'lib, xitoyliklar uni o'z tillariga mos ravishda Tyanshan deb atay boshlagan"[3.10].

2. *Gidronimik* terminlar. Qoraqalpoq xalq dostonlarining tilidagi joy nomlarida quyidagi gidronimik terminlar qatnashgan: *teñiz* (*dengiz*), *dārya* (*daryo*), *kōl* (*ko'l*), *ōzek* (*o'zak*, *o'zan*), *jap* (*kanal*), *say* (*soy*), *oy*, *hāwiz* (*hovuz*), *bulaq* (*buloq*), *shāshme* (*chashma*), *suw* (*suv*).

Teñiz – bir tomoni quruqlik bilan tutashib turuvchi ulkan suv havzasi [1.308]. Bu geografik termin Aral teñiz, Astarخان teñiz, Qara teñiz, Shar teñiz, Shin teñiz kabi toponimlar tarkibida uchraydi.

Dārya – fors tilidagi *derya* – *dengiz* so'zidan olingan. Turkiy tillarning ko'pchiligida daryo ma'nosida qo'llaniladi. Dostonlarning tilida uchrovchi misollar: Abulaysān dārya, Ájemdārya, Ámiwdārya, Aq dārya, Arazdārya, Bulingır dārya, Buwınuqlı dārya, Dāwkesken dārya, Gūrgen dārya, Girdap dārya, Jañadārya, Jayhun dārya, Narın dārya, Nil dāryası, Qarmaq dārya, Qıpshaqdārya, Shirshıq dārya, Mırdārya, Tallıqdārya, Tunı dārya, Xandārya.

Kōl – qoraqalpoq tilida va qoraqalpoq toponimiyasida unumli qo'llaniladigan geografik termin hisoblanadi. Bu termin orqali ko'pgina suv ob'ektlari nomlari, shuningdek, mikrotoponimlar yasalgan. Ko'l termini ma'nosi bo'yicha atrofi berkilgan suv ob'ektini bildiradi. Misollar: Adıraq kōl, Awdanlı kōl, Áwdek kōli / Hāwdek kōli, Aynakōl, Babır kōl, Baysın kōl, Etekli kōl, Lagalaq kōl, Miyan kōl, Müyten kōl, Qanlıkōl, Qara kōl, Qorıq kōl, Quba kōl, Sasıqkōl,

Sayat kól, Shabır kól, Shağır kól, Shiyshe kól, Shortan kól, Tapsañ kóli, Togstan kóli, Xoja kól.

Ózek – soʻzi koʻpgina turkiy tillarda turlicha fonetik variantlarda uchraydi. N.A.Baskakovning fikri boʻyicha, *ózek* soʻzi eski uygʻur tilidagi *ugus* soʻziga *-ek* kichraytuvchi affiksi qoʻshilishi orqali yasalgan[4.66]. Xalq dostonlarining tilida *ózek* geografik termini bilan yasalgan nomlari soni koʻp emas: Kindik *ózek*, Kók *ózek*, Kókli *ózek*, Maylı *ózek*, Qanlı *ózek*.

Bulaq termini - turkiy va moʻgʻul tillarida keng tarqalgan. Koʻpchilik turkiy tillarida togʻning yoki yerning ostidan chiqib turgan suvning oʻmi maʼnosida keladi. Misollar: Aqbulaq, Arpa bulaq, Boz bulaq, Bozbulaq, Kók bulaq, Larzan bulaq, Qırıq bulaq, Shımdığan bulaq, Tasbulaq.

Shuning bilan birga, dostonlarning tilida *sháshme* geografik termini bilan ataluvchi nomlar ham uchraydi. *Sháshme* soʻzi forscha “*teshik*” maʼnosini beruvchi tojikcha *chashm* soʻziga *-a* affiksi bilan yasalgan boʻlib, yer ostidan tabiiy turda qaynab chiqadigan suv maʼnosini anglatadi[5.253]. Dostonda quyidagicha nomlar uchraydi: Aqsháshme, Araz sháshme, Sabzadara sháshme.

3. Oykonimik terminlar. Qoraqalpoq xalq dostonlari tilidagi joy nomlarining tarkibida *qala*, *sháhár*, *awıl*, *elat*, *jurı*, *bağ* kabi terminlar qatnashgan.

Qala – Eron va Kavkazda, shuningdek, turkiy tillarda dastlab “mustahkam qilib qurilgan qoʻrgʻon” maʼnosi bilan maʼlum boʻlgan. Xorazmda ham devor bilan oʻrab olingan yer, qoʻrgʻon maʼnosini anglatgan[6.93]. Xalq dostonlarida uchraydigan misollar: Aqjúrım qala, Búrkıtmańıt qala, Búyrek qalası, Emenqıyal qala, Eńbekshıl qala, Erik qala, Gúlıstún qala, Haywanqala, Jamanqala, Jańa qala, Kátentler qalası, Múshkil qala, Ordaza qala, Piskemis qala, Qıpsdaq qala, Qırıq qız qala, Qıyal qala, Qorgansha qala, Qubırılı qala, Sardaqlı qala, Sárwan qala, Sasqala, Shahrınan qala, Sham qala, Shardağlı qala, Tasqala, Temirlan qala, Xazaras qala, Yunan qala.

Sháhár – soʻzi bizningcha, maʼno jihatdan *qala* soʻzi bilan mos keladi. Sh.Rahmatullaev *sháhár* soʻzi forsiy tillarda *shahr* koʻrinishiga ega ekanligini, oʻzbek tiliga *hr* orasiga *a* tovushi kiritilib olinganligini taʼkidlaydi[5.263]. Maʼnosi tomondan bu soʻz “savdo-sanoati rivojlangan yirik maʼmuriy-madaniy makon”ni anglatadi. Qoraqalpoq xalq dostonlarida quyidagicha misollarni uchratish mumkin: Adaq sháhár, Antakiya sháhár, Azaw sháhár, Balhun sháhár, Baqsháberden sháhár, Bostan sháhár, Buxar sháhár, Dahshi sháhár, Dumshıq sháhár, Emran sháhár, Gubbat sháhár, Gúlapın sháhár, Hattar sháhár, Hirat sháhár, Isırapıl sháhár, Isırapiya sháhár, Ispahan sháhár, Julian sháhár, Mállet sháhár, Miymun sháhár, Múshkinrabat sháhári, Qazan sháhár, Qızıl alma sháhár, Quddus sháhár, Rat sháhár, Sháhrısar sháhár, Shınzan sháhár, Zámhárshah sháhár, Zulmat sháhár.

Awıl – soʻzi Qoraqalpogʻiston hududidagi koʻpgina oykonimlarning yasalishida unumli foydalaniladi. Tilshunos olim M.Qurbonov *awıl* soʻzining etimologiyasini tahlil qilib, quyidagicha xulosaga keladi: “Bizningcha, bu termin eski turkiy tildagi toʻpla, yigʻ maʼnosini bildiradigan *aw* (*av*) feʼli bilan bogʻliq boʻlishi mumkin” [7.39-40]. Bu termin xalq dostonlari tilida, koʻpincha, shu hududda yashovchi xalqqa tanish insonning ismiga birliktirib kelish hollari koʻp uchraydi. Boshq hollarda juda kam uchraydi: Qırıq ruw awıl.

Elat – shahar koʻrinishida qurilgan, shahardan unchalik uzoqda boʻlmagan, xalq zich joylashgan oʻrin-joy maʼnosida qoʻllaniladi. Koʻpchilik ilmiy adabiyotlarda *el*at oykonim termini *el* asosiga -*at* affiksining qoʻshilishi orqali yasalgan degan fikrlar uchraydi. Xalq dostonlarida bu terminning ishtirokidagi joy nomlari son jihatdan ozchilikni tashkil qiladi: Baʼgabat elatu, Qaraqipshaq elatu, Sardaqli elat.

Jurt termini - ovul, elatli oʻrin, joy maʼnolarini bildiradi. Oykonimlar bilan birikma holida joy nomlarini hosil qiladi: Ariyin jurtu, Barlas jurtu, Irat jurtu, Paʼren jurtu.

Baʼg termini koʻpincha, agronim nomlarni hosil qilishda unumli foydalaniladi. Dostonlar tilida bu termin bilan yasalgan agronimlar koʻp ekanligini uchratishimiz mumkin: Aynali Jahan baʼg, Baʼgi eram, Baʼgi-murad, Baʼgi-sapa, Eram baʼgi, Erenler baʼgi, Guʼlbaʼg, Nurbahar baʼg, Ordaza baʼg, Qasan baʼgi, Shaman baʼg, Shaʼmenli baʼg, Shazat baʼgi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq dostonlari toponimiyasini tadqiq qilish – qoraqalpoq lingvofolkloristikasining oldida turgan muhim masalalardan biri. Maʼlum bir joy nomlarini oʻrganishda kalit vazifasini bajaruvchi geografik terminlarning toponimlarni hosil qilishdagi ishtirokini oʻrganish orqali, shu toponimning oʻziga xos belgilarini, toponimning kelib chiqish jaroyinini aniqlashga imkon tugʻdiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қарақалпақ тилинин түсиндирме сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.
2. Никонов В. А. Краткий топонимический словарь. – М: Мысль, 1966.
3. Низомов А., Раҳимова Г., Расулова Н. Топонимика. –Т: Шарқ, 2012.
4. Баскаков Н. А. Географическая номенклатура в топонимии Горного Алтая // Топонимика Востока. - М., 1969.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III том. –Тошкент: Университет, 2009
6. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.
7. Qurbanov M. Qaraqalpaq tilindegi ayrim oykonimiyaliq terminlerdin etimologiyasi ham semantikalik oʻzgeshelikleri // Ilim ham jamiyet. - №1. –Nökis, 2014.

ТАСАВВУФ ЛЕКСИКАСИДА СЕМАНТИК – СИНТАКТИК УСУЛ БИЛАН ЯСАЛГАН ИСТИЛОҲЛАР

Resume

This article is about the terms that created by approaching of semantic-syntactic way in lexic system of Sufism.

Key words: lexeme, Sufism lexics, to derivate lexemes, semantic-syntactic way, model.

Соҳалар лексикасида у ёки бу тушунчаларни ифодалаш мақсадида, аввало, асос(ўзак-негиз)лардан иборат лексемалардан фойдаланиб келинади. Тасаввуфий лексик катламда ҳам шундай ҳолатни кўриш мумкин. *Нафс, хирқа, мурид, муришид, зот, саййид, тасбеҳ, зикр, истиғфор, зумра(зуруҳ), ширк, ориф, тақя, фано, интисоб, авлиё, шайх, валий, солик* кабилар шундай сўзлар жумласидан бўлиб, улар ясама, қўшма ва бирикма ҳолидаги истилоҳларнинг асосий ясалиш "база"си ҳисобланади. Шу билан бирга, тасаввуфга хос тушунчаларни ифодаловчи "ҳосила" сўзларнинг пайдо бўлишида қайд этилган луғавий бирликлардан ташқари бошқа лексик системаларда термин вазифасини ўтовчи сўзлар ҳам иштирок этиши мумкин.

Тасаввуф лексикасида лексема ҳосил қилишнинг уч усули, яъни семантик, морфологик ва синтактик усуллардан у ёки бу даражада фойдаланилган.

3. Мираҳмедованинг ўзбек тили анатомик терминлари ўрганилган номзодлик диссертациясида [4] семантик усул билан термин ҳосил бўлишининг икки тури мавжуд эканлиги асослаб берилган: 1) соф семантик усул; 2) семантик-синтактик усул.

Тасаввуфга оид лексикада ҳам бу йўллар воситасида ясалган лексемалар мавжуд. Қуйида семантик-синтактик усул орқали сўз ясалиши хусусида қисқача маълумот бериш ниятидамиз.

Семантик - синтактик усул билан лексема ҳосил бўлишининг моҳиятини ёдга олайлик: семантик ясалишдан фарқли ўлароқ, бунда ясалишнинг ҳам семантик, ҳам синтактик усулидан фойдаланилади. Аниқроқ қилиб айтганда, икки ёки ундан ортиқ лексеманинг бирикувидан янги бир истилоҳ ҳосил бўлади. Яъни, бошқа соҳага кўчган лексема қўшимча луғавий бирликлар билан биргаликда шу соҳага оид маъно англатади.

Ўзбек тилининг тасаввуфий лексикасида айти шундай усул билан ҳосил қилинган луғавий бирликларга мисоллар келтирамиз: *касрат пардаси(сайри илоллоҳ ... амалий жиҳатдан ёмон ишлардан қочиб, эзгу амаллар йўналмоқдир ва оқибатта қалбдаги "Ваҳдат"ни тўсиб турган касрат пардасини кўтаришидир* [2, 82], *кўнғил кўтиши(Маломатийлар робита қилиши(руҳий боғланиш)га кўнғилкўтиши дейдилар* [2, 81]. *нубувват муҳри* Муборак кўкракларидидаги нубувват муҳрида ҳам шу нарса маълум қилинган ва қай

томонга юз бурсалар галабага эришишлари нубувват мухри ила билдирилганди [1, 11], *самов зикри* (Иккинчи (таннура)си эса, асосан, оқ бўлиб, *самов зикри* вақтида кейшлади [1, 102], *маънавий ота*(Шайхнинг курсатмалари тавсияларига амал қилмоқ бутун қалби билан унга боғланмоқ, уни *маънавий ота*, устози деб билмоқ лозим [1, 68], *уммул китаб*(Шунинг учун бу мартабага ... *уммул китаб* ... каби исмлар берилган[1, 15], *набийлик силсиласи*(Расуллолоҳ билан *набийлик силсиласи* низоъига етди [1, 11], *байъат усули* (Намуна сифатида Нақибандия тариқатининг Ҳолидия тармоғида амалга ошириладиган *байъат* усулиниқўрайлик[1, 70], *тавҳидхона*(Жамоа ҳолида қилинган зикрлар ҳафтанинг маълум кунларида, муборак кечаларда, қадр ва ҳайит кечаларида такяларнинг *тавҳидхона*, саъмохона, муроқабохонга каби номланган махсус хоналарида ижро этилади.) *аҳли суннат* Бу тармоқ ҳам (*шамсия-байрамия*) *аҳли суннат* эътиқодига ҳам содиқ қолган [1, 124], *нусрат калити* (Ё Муҳаммад, сизга муждалар бўлсин, ҳеч ким сиз етган мартабага ета олмас. Сиз жасурсиз, *нусрат калити* Сизга берилган [1, 11].

Қутбул авлиё (Ҳожа Ориф ҳам ҳаром емагани, ҳаром ичмагани, ҳаром демагани учун *қутбул авлиё* мартабасига етган [3, 360]ни олиб қарайдиган бўлсак, унинг *қутбул* компоненти *қутб* (географияга хос термин)лексемаси семантикасининг кўчиши натижаси эканлигини пайқаш қийин эмас. *Авлиё* эса айни тасаввуфга оид истилоҳ саналади.

Зикруллоҳ ҳалқаси (ҳалқа шаклида туриб ёки ўтириб қилинадиган жамоа зикри)да ҳам, ва шунингдек, *тасаввуфий фирқа* ("Китоби фи мазохибул мутасаввиф" номли асарда тасаввуфий фирқалар ўн иккига бўлинган [2, 64]) да ҳам*ҳалқа* заргарлик термини,*фирқа* эса сиёсий термин саналади. Уларнинг турғун бирикма ҳолида эканлиги эса шарҳсиз ҳам аён бўлиб турибди.

Юқорида келтирилган мисолларнинг тузулиш жиҳатига эътибор қилинса, семантик - синтактик йўл билан ҳосил қилинган тасаввуфга оид лексемаларнинг кўп қисми "сифатловчи+сифатланмиш" типдаги бирикмалар эканлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин.

Жуллас, ўзбек тилининг тасаввуфий лексикасида семантик - синтактик усул билан ҳосил қилинган қатор лексемалар мавжуд бўлиб, уларнинг юзага келишида, айниқса, сиёсий терминлар кўпроқ иштирок этар экан. Бундай терминларни тўплаш ва ўрганиш эса соҳалар лексикасининг бойлиги, бинобарин, ўзбек тили умумлуғавий фонди ҳақидаги тасаввурни янада кенгайтиради.

Адабиётлар:

1. Беш хислат. (Тайёрловчи: Муҳаммад Шариф). –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005.
2. Турар У. Тасаввуф тарихи. –Тошкент: Истиклол, 1999.
3. Ҳақулов И. Хожа Ориф Моҳитобон. – Тошкент, 2003.
4. Мираҳмедова З. Ҳозирги ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Фил. фан. номз. ...дисс. -Т, 1994.

СОҲА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА СИНОНИМИЯ

Resume

This article discusses lexicological and grammatical synonymy in terminology area.

Key words: scienscientific method, term, synonymy, lexeme of sphere terminology, terminologic dictionary, social activity

Тилнинг ривожини миллат ва юрт ривожидан дарак беради. Ривожланган тил эса нафақат бадиий, сўзлашув, расмий услубларнинг бўёқдор ва тартибли бўлиши билан, балки илмий услубнинг қатъий меъзонларга асосланиши билан ҳам белгиланади. Маълумки, илмий услубда бошқа услублардан фарқли қонуниятлар, ўзига хос лексемалар гуруҳи мавжуд. Мазкур гуруҳни терминлар ташкил этади. Терминлар лексема сифатида тилда мавжуд қонуниятлар (сўз ва сўзшаклларнинг ясалиши, синтактик вазифага эгалик, маъно ташиш ва ҳ.к.)га бўйсунди, бироқ мазкур гуруҳ лексемаларининг ўзига хослиги илмийликка асосланган маъно билан бирга бир қатор фарқловчи хусусиятларга эгаллигида ҳам кўринади.

Терминология масалаларига бағишланган барча ишларда синонимияга терминологиянинг жиддий нуқсони сифатида қаралган. Кўпинча терминология соҳасидаги кенг тарқалган синонимия тилшунослар томонидан терминология тараққиёти ва шаклланишининг илк даврларига хос ҳодиса сифатида баҳоланади. Масалан, рус терминшуноси В.Даниленко синонимия ҳақида қуйидагиларни қайд этади: “Айни бир тушунчалар номланишидаги луғавий вариантдошликнинг аниқ рўёбга чиқиши фан тилини яратишнинг илк даврида уч асосий кўринишда бўлиб ўтади: тилда айни бир тушунча учун турли тиллардан ўзлаштирилган бир неча сўз қўлланганда; тилда ўзлашма сўзга тенг келадиган сўз мавжуд бўлганда; ўзлашма сўз пайдо бўлиши билан маъно жиҳатдан унга тенг бўлган русча (бизнинг терминологияда ўзбекча) сўз махсус ҳосил қилинганда”¹. Айни кетма-кетликни тескари ҳолатда ҳам кўриш мумкин, назаримизда. Яъни тилда мавжуд тушунча тақомиллашиб бораверади, ҳодиса моҳиятти сақлаган ҳолда янги кўриниш олади, соҳа вакили хорижий тажрибалар билан бирга соҳа лексикасини ҳам муомалага олиб киради. Натижада терминологик синонимия юзага келади. Масалан, *бозор* – *савдо комплекси*, *дўкон* – *магазин* – *маркет*...

Синонимия ҳақида гап борар экан, “синоним терминлар” билан умумдабий тилдаги синонимия тушунчаси ўртасида катта фарқ борлигини эслатиб ўтиш жоиз. Синонимия нутқнинг бадиий, публицистик услублари учун жуда қўл келади, ёзма ва оғзаки нутқни бир хил тақорлардан озод қилади. Бироқ бундай синонимия илмий услуб, хусусан, терминология учун ортиқча ҳолатдир. Синоним терминлар, биринчидан, киши хотирасига ортиқча юк бўлиб тушади, чунки кўплаб тушунчаларни ўзлаштириш билан бирга,

¹Даниленко В.П. Русская терминология. – М: Наука, 1977. – С.74.

уларни англатувчи бир неча терминларни эслаб қолишга тўғри келади; иккинчидан, уларнинг мавжудлиги натижасида маъно жиҳатидан бир-биридан фаркланиш хавфи тугилади.

Ҳақиқатдан ҳам синонимия тил бойлигини белгилаб берувчи омиллардан саналади ва тилшуносликда тилнинг устун жиҳати сифатида баҳоланади. Бирок термин ҳар қанча тилнинг таркибида бўлмасин, унинг учун синонимлик нуқсон ҳисобланади.

Аксар ўринларда синоним терминлар ҳосил бўлишининг асосий сабабларидан бири сифатида мавжуд лугавий бирликларнинг байналмилал терминлар билан параллел қўлланишда бўлиши кўрсатилади. Муайян бир гушунчани ифодалаш учун бир вақтнинг ўзида ҳам миллий, ҳам байналмилал терминлардан фойдаланиш нафақат ўзбек тили соҳавий терминологиясида, балки барча тилларнинг терминологик тизимлари учун ҳам умумий лисоний белги ҳисобланади. Шу сабаблитилларнинг терминологик тизимларида синонимияни оқлаш зарурати келиб чиқади. Бу фикр олима Б. О. Орузбаева томонидан қуйндагича таъкидланган: "Истеъмолда бир маъноли ўз ва ўзлашма сўзлар мавжудлигидан ҳосил бўлган терминологик синонимия анча кўпроқ учрайди. Амалда дублетлардан тўла қутулишнинг имкони йўқ. Шундай экан, терминологик синонимия миллий тиллар учун муқаррар ҳолдир"¹.

Миллий ва байналмилал терминлар синонимияси ҳақида гап кетганда, айниқса, маълум тизим ҳолига келтирилган ботаника, зоология, анатомия ва тиббиётнинг муайян соҳаларида терминларнинг систематик лотинча номлари ҳамда миллий шаклларининг ёнма-ён қўлланишига эътибор қаратиш зарур бўлади. Шунингдек, бошқа тараққий топиб бораётган соҳалар доирасида, соҳа шаклларининг ёзма ва оғзаки нутқи баробарида, норматив ҳужжатларда ҳам айни ҳадисани кўриш мумкин. Масалан, *жарроҳтик –хирургия, окулист-офтальмолог-кўз шиқокори, ДАН ҳодими- ДАН инспектори- ДАН назоратчиси, стоардесса-борт кузатувчиси-авиасалон назоратчиси, шиқокор-врач-доктор, меъморлик-архитектура, меъмор-архитектор...*

Ўзбек тили соҳа терминологияси доирасида юқорида кўриб ўтилган лугавий ва грамматик синонимлар, баъзи лексик чалкашликларнинг мавжудлиги терминологик тизим соҳасидаги илмий тадқиқот ишларининг қамлиги, фан мутахассислари билан тилшунослар ўртасида алоқанинг мустаҳкам эмаслиги, терминологик лугатлар нашрининг номутаносиблиги ва шунинг асосийси, термин ясалиши ва қўлланиши борасида назоратнинг сустлиги билан изоҳланади. Соҳа терминологиясини ўрганиш, илмий услубнинг тарихий ўзгаришларини, соҳавий лексиканинг пайдо бўлиши ва тараққий топиши омилларини, бу орқали эса жамиятнинг ижтимоий фаоллигини ўрганиш имконини беради.

Шундай экан, соҳавий терминологияда аввало шу соҳа ва у билан шуғулланувчи шахсларни билдирувчи терминлар назорат остига олиниши,

¹ Орузбаева Б. О. О состоянии и задачах сбора, разработки и упорядочения киргизской научно-технической терминологии // Научно-техническая терминология. Ашхабад, 1973. - № 3. - С. 15.

уларда мавжуд муайян чалкашлиklar, албатта, бартараф этилмоғи лозим. Зеро, ҳар қандай ҳолда ҳам тушунчаларни аниқ ва батартиб ифода этувчи терминлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ амал ҳисобланади.

R.ABDULLAYEVA, ToshDOʻTAU magistranti

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA ZONIMLARNING QOʻLLANISHI

Resume

This article is devoted to zoonyms in the system Uzbek phrasema.

Key words: phraseology, zoonym, idiom, neutral words, individual.

Har bir tilning frazeologik fondi ushbu tilning boyligini, fikr yetkazib berish imkoniyatlarini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birliklar xalqning milliy mentaliteti, turmush darajasi, yashash iqlimi, dini, duynoqarashi kabi jihatlarini oʻzida aks ettiradi. Frazeologik birliklar nutq taʼsir doirasini oshirishga, tinglovchi koʻz oldida yaqqol tasvir hosil [1] boʻlishida muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birliklarning asosiy negizi koʻchim. Oʻzbek tili frazeologik fondida hayvonot olami, ularga xos xususiyatlar, ularning tashqi belgilariga asoslanib maʼno koʻchirish holatlari koʻp uchraydi. Ushbu frazeologik birliklar insonlarga xos xarakter xususiyatlarini ifodalashga, predmet-hodisalarning mazmun-mohiyatini aks ettirishga xizmat qiladi [4;5]. Fikrimizni “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” va “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” da keltirilgan birliklar misolida asoslaymiz. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻatida **ammanning buzogʻi** [2] iborasi keltirilgan, ushbu ibora kishi tabiatidagi salbiy xususiyatni ifodalab, bir ishni uddalay olmaslikni, boʻshlik, landavurlikni [3], buzoq qay tomonga yetaklansa, oʻsha tomonga qarab ketaverishini ifodalaydi. **Qoʻy ogʻzidan choʻp olmaslik** [2] iborasida esa darajali mubologʻa mavjud. Shartli ravishda ushbu mubologʻani ikki darajaga ajratamiz. Birinchi darajasi qoʻyning yuvoshligi boʻlsa, ikkinchi daraja qoʻyga-da beozor boʻlgan (qoʻy ogʻzidagi choʻpga-da tegmaslik) insondagi yuvoshlik. Natijada koʻz oʻngimizda eng yuvosh hayvondan ham yuvoshroq inson obrazi gavdalanadi. Bundan tashqari bugungi kunga kelib inson xarakterini aks ettirishda hayvonlar nomlari metaforik birlik darajasiga koʻtarilgan holatlar mavjud. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixida ushbu koʻchim turiga nisbatan majoz atamasi qoʻllanilgan. Masalan, tulki (ayyorlik), ilon (mugʻombirlik, ayyorlik, muomala madaniyati pastligi), ayiq (qoʻpollik, qoʻrslik), sigir (kaltafahmlilik) va hk. Frazeologik birliklardagi hayvon obrazi inson va uning xarakter xususiyatlariga ishora qilishdan tashqari jamiyatdagi voqea – hodisalar, predmetlar, jarayonlarni aks ettirishga ham xizmat qilgan. Buni quyidagi misollar yordamida koʻrishimiz mumkin. **Bir oʻq bilan ikki quyovni urmoq** [2] iborasida quyov soʻzi ish, yumush maʼnolarini ifodalab kelgan. **Bir choʻqishda qochirmoq** [2] iborasida qushlarga xos harakat choʻqish bir urinishda kimgadir zarba berishni ifodalagan. Burgaga achchiq qilib koʻrpa yoqmoq iborasida burga obrazi ahamiyat qaratishga molik boʻlmagan shaxs, voqea-hodisa, narsa-predmet maʼnolarini ifodalaydi. Gah deganda qoʻliga qoʻnadigan qilmoq

iborasida qushlarga oid harakat - holat (gah deganda qo'lga qo'nmoq) bo'ysundirmoq, itoatda tutmoq ma'nosini anglatadi. **Dumini tugmoq** [2] shaxsga nisbatan qo'llanilib, istalgan predmet- hodisadan mahrum qilishni anglatadi. Bu iborada dum so'zi shaxsga oid istalgan tushunchaga nisbatan qo'llaniladi. **Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq** [2] iborasida ilonning yer tagida qimirlashi ko'pchilik diqqatini qarata olmaydigan, nozik fahm- farosat talab qiladigan voqea- hodisa ma'nolarini ifodalaydi. **Ilon po'st tashlaydigan** [2] iborasida ilonga xos holat insonga kuchli ta'sir ko'rsatadigan so'z, voqea – hodisani ifodalashga xizmat qilgan. Ish bitguncha, eshak loydan o'tguncha iborasida eshakning loydan o'tishi muammonin hal bo'lish jarayonini aks ettiradi. **Kapalagi uchmoq** [2] iborasida kapalakning uchishi jon chiqishi qadar bo'lgan qo'rquvni ifodalaydi. **Mushugini pisht demaslik** [2] iborasida mushukka pisht demaslik bir kishiga berilgan haq-huquq, imtiyozning chegarasini ko'rsatishga xizmat qilgan. **Otdan tushsa ham egardan tushmaslik** [2] iborasida otdan tushish kishi egallab turgan ma'lum bir lavozim, yoki qanday bo'lishidan qat'iy nazar qattiq turib olingan fikr ma'nolarini ifodalaydi. **Ilonning yog'ini yalamoq** [2] iborasida ilonning yog'I ayyorlik, makkorlik darajasini ko'rsatishga xizmat qilgan. **Tumshug'idan ilinmoq** [2] iborasida hayvonlar ovlanish jarayonida sodir bo'ladigan holat tumshug'idan ilinish arzimagan sabablar orqali oshkor bo'lish, osonlikcha biror xiyla- nayrang qurboniga aylanish, bosh qo'shish ma'nolarini anglatadi. **Shoxi sinmoq** [2] iborasida shox sinishi ziyon ko'rmoq ma'nosini ifodalaydi. Keltirilgan misollar va ularning tahlilini umumlashtirib quyidagicha xulosalarni keltirishimiz mumkin:

a) zoonimlar frazeologik birliklar vujudga kelishida asos vazifasini bajarishi mumkin;

b) bu ko'chimga hayvonlardagi tashqi belgilar (dum, shox), harakat –holat (cho'qimoq, tumshug'idan ilinmoq), xususiyat (yuvoshlik) kabilar asos bo'lishi mumkin.

d) frazeologik birliklarda keltirilgan zoonimlar faqat shaxsga taalluqli bo'lgan xususiyat yoki harakat – holatlarni ifodalabgina qolmay, narsa- voqea, jarayonni aks ettirish uchun ham xizmat qiladi;

e) bir frazeologik birlikning o'zida bir necha ko'chma ma'nodagi zoonimlar qo'llanilishi mumkin(qarq'a qarq'aning ko'zini cho'qimasligi, it-mushuk bo'lmoq, mushuk – sichqon o'ynamoq). Frazeologik birliklarning shakllanishida zoonimlardan foydalanish ommalashgan. Uning umumiste'moldagi ko'rinishi, xususiyy- individual ko'rinishlari mavjud. O'zbek tilining badiiy va so'zlashuv uslublarida keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham ushbu mavzu tadqiqi ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arastu. Poetika. Yangi asr avlodi. –T., 2011.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –T., 1978.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi tom. – T., 2006.
4. psyznaiyka. Net. Psixologiyaot A do Ya.
5. Uz. Infocom. Qadr –qimmat bulog'i: Xarakter haqida (1 – qism)

OMONIM VA TAJNIS HAQIDA

Resume

The article is devoted to represent the role of homonym and tajnis in the Uzbek language.

Key words: homonym, tajnis, "Funun al baloga", rhyme.

Ma'lumki, o'zbek tili boy til. Ayniqsa tilimizning imkoniyatlari omonim so'zlarni qo'llashda yaqqol namoyon bo'ladi. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. Ikki va undan ortiq so'zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan: Ot (ism), ot (hayvon), ot (fe'l).

Shakldosh so'zlar badiiy adabiyotda tajnis san'atini yuzaga keltiradi. Tajnis san'ati adabiyotshunoslikda alohida janr hisoblangan tuyuqning asosiy talablaridan biridir. Ya'ni ijodkor o'z mahoratidan kelib chiqib qofiyada omonim so'zlarni qo'llaydi. Qofiyada omonim so'zlarni qo'llashda esa bu so'zlar birinchidan, yozuvda ham talaffuzda ham bir xil bo'lishi, ikkinchidan, albatta, turli ma'nolarni ifodalashi va uchinchidan, miqdor jihatdan ikkitadan kam bo'lmasligi shart.

Tajnis (ar. «o'xshash bo'lmoq») –turli ma'noli so'zlar shakldoshligi va hamo-hangligi. Adib va alloma Shayx Ahmad ibn Xudoydot Taroziyning fikricha: "Tajnis ul budurkim, shoir baytda ikki kalima keltirurkim, bir-birining jinsi bo'g'ay bir vajhdin".

Lekin tajnisni oddiygina qilib "omonim so'zlarni qo'llash ekan", deb tushunmaslik kerak. Chunki misralarda qofiyaga olingan so'zlar aksariyat hollarda shu misralardagina omonim bo'lib, misralardan tashqarida omonimlikni hosil qilmasligi mumkin.

Masalan: La'lidin jonimg'a o'tlar yo qilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,
Men vafosi va'dasidan shodmen,
Ul va'fo bilmonki qilmas yo qilur.

1-voqilmoq, 2-qaddini bukmoq, 3-qilmoq.

Misralarda qofiyadosh bo'lib kelgan so'zlar faqat shu misralardagina bir martalik omonimlikni hosil qilyapti.

A. Husayniy "Badoye us-sanoye" asarida tajnislarni dastlab ikki tip (lafziy tajnislar va g'ayri lafziy tajnislar)ga ajratadi. Lafziy tajnis "lafzlarning o'xshashligidIn iboratur, son, tur va shakl jihatdin hamma harflarda yoki aksarida, alaming tartibi muvofiq bo'lmog'i shart bila".

Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloga" asarida tajnislar tiplarga ajratilmagan: tajnisotning yetti navi mavjudligi qayd qilingan, xolos.

Bu turlarining ichida ayrim turlarida harflar soni ham, harakati ham hijolar miqdori va ularning sifati ham bir-biriga muvofiqdir. Ayrim turlarida esa

A.Husayning aytishicha : “ul lafzlarning harflar soni turi va tartibida muvofiq bo`lub, unililar harakati va tashdidi turlicha bo`lmog`idin iborattur”.

Masalan: Eyki , sofiy soxta ayshi maro az durdi-dard,

Dur bod az gardi tu osibi davr-i tezgard.

Demak, tajnis san`atini yuqoridagi misolda ko`rib turganimizdek unililari harakatini o`zgartirib ham yuzaga keltirish mumkin.Lekin bu so`zlar tilshunoslikda omonim hisoblanmaydi. Har doim ham tajnis va omonim bir-biriga tog`ri kelavermaydi.

SH.YO`LDOSHBOYEVA, ToshDO`TAU talabasi

OMONIM VA POLESEMANTIK SO`ZLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Resume

In this article, discussing about the specific peculiarities of homonym and polysemantic words by means of given some factic examples.

Key words: homonym, polysemantics, lexics, word forming, genetic meaning.

Ma`lumki o`zbek tili leksemasi juda boy.Leksik boylikning salmoqli qismini polisemantik so`zlar tashkil qiladi.So`zlarning birdan ortiq ma`no anglatish hodisasi ko`p ma`nolilik yoki polisemiya hodisasi deyiladi.Shu bilan birga tilshunoslikda omonimiya hodisasi ham mavjud bo`lib, ushbu hodisada ham so`zlar shakli bixildir.Shu sababli bu ikki hodisani ko`pchilik adashtiradi, vaholanki ular orasida katta tafovut mavjud. Quyida ularning farqini ko`rib chiqamiz.

Omonimiya- shaklan bir xil mustaqil so`zlar bo`lib, ular anglatadigan ma`no o`zaro bir-biri bilan tutashmaydi. Polisemiya esa bir so`zning turli ma`nolarda qo`llanilishi hisoblanadi.

Olimlarning ta`kidlashicha, omonimiya polisemiyaning taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan.Polisemem so`zlar, o`z navbatida tilimizda mavjud bir tushunchaning turli hosila (ko`chma) ma`nolarini ifodalash va shu bilan birga so`zlarni tejash maqsadida yuzaga kelgan. Demak, ular orasida ma`lum aloqa bor. Ana shu aloqaning yo`qolishi natijasida omonimlar paydo bo`lgan.

Masalan, oy so`zining genetik ma`nosi “yerning tabiiy yo`ldoshi”ni ifodalaydi.Undan yo`ldoshning “yerni bir marta aylanib chiqish” hosila ma`no yuzaga kelgan. Bu davr yangi oy ko`rinishidan tugaguncha vaqtini, 29 yarim kunni bildiradi. Hozir u shamsiya va milodiy yil hisobidagi oylarda yangi oy chiqishi bilan aloq bo`lishiga mos kelmaydi va 28, 29, 30 31,32 kunlar oralig`ini ko`rsatadi. U shartli ravishda yilning o`n ikkidan biriga teng “davr” deb qaraladi.Shu tariqa yangi “oy” so`zi tarkib topadi va omonim so`z hosil bo`ladi.¹


Ko`rib turganimizdek, tarixan bir so`zning ko`chma ma`nolari orasidagi aloqa yo`qolib ular alohida mustaqil so`zni hosil qilyapti.Huddi shu kabi holat chet tilidan

¹M M Mirtojyev. O`zbek tili semasiologiyasi.-T.,2010.

kirib kelgan soʻzlarda ham kuzatilishi mumkin. Masalan, arab tilidan olingan “rasm” soʻzi asli arab tilida 5 ta maʼnoga ega boʻlib, polisemantik soʻz hisoblanadi. Bizning tilimizga shulardan faqat 2 tasi oʻzlashgan xolas:

1. *Chizilgan; tasvir.* 2. *Urf-odat. Ularni bir-biri bilan bogʻlovchi maʼnolari esa oʻzlashmay qolgan, natijada omonim soʻz hosil boʻlgan.*¹

Endi polisemantik va omonim soʻzlar oʻrtasidagi farqni koʻrib chiqamiz. Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga nazar tashlasak, birgina bosh soʻzining 20 ta maʼnosi izohlanganini koʻramiz. Bunda bosh soʻzining bir nechta koʻmakchi maʼnolari boʻlib, polisemantiklik xususiyatiga ega. Shu soʻzlardan ikkitasini olib, affiksatsiya yordamida soʻz yasalsa, ular orasidagi maʼno butunlay yoʻqoladi; a) biror narsaning boshi yaʼni eng avvali; b) poyabzalning ustki qismi;



1- misolda bosh odamning tana aʼzosi, boshlanish qismini anglatasa, 2- va 3- misollarda ham shu maʼno saqlangan holda ishning, koʻchaning boshlanish qismini anglatgan, bundan ular orasida maʼlum aloqa mavjudligi koʻrinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, omonim soʻzlarni shartli ravishda egizaklarga oʻxshatish mumkin, bir qarashda ularning koʻrinishidan ikkisini bir odam deb oʻylashsa ham, ichki dunyosi, xarakteri va boshqa jihatlardan ular boshqa-boshqa odamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirtojdiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. –Toshkent, 2010.
2. Hakimova M. Semasiologiya. –Toshkent, 2008.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-j. –Toshkent, 2006.

M.XAYITBOYEVA, ToshDOʻTAU talabasi

XORAZM OʻGʻUZ SHEVALARI XUSUSIDA

Resume

The article is about learning of Uguz dialect that they use in Khorasm region.

Key words: Khorasm dialect, Chagatoy literary language, dialect, Karluk dialect, Kipchok dialect.

Xorazm oʻzbeklarining tili, ayniqsa, oʻgʻuz shevalari haqida ilk maʼlumotlarni mashhur Venger olimi Herman Vamberi keltirgan. U oʻzining “Cagataische Sprachstudien” nomli asarida chigʻatoy adabiy tili (eski oʻzbek tili) grammatikasining

¹M. Hakimova. Semasiologiya. –T., 2008.

qo'llanilishi doiralarini ochib beradi. H.Vamperi o'zbek tili shevalarini uch dialektga bo'ladi: Qo'qon, Buxoro va Xiva dialektlari.

Qayerda yashashidan qat'iy nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o'zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi kabi guruhlarini qamrab oladi.

Milliy tilning ma'lum qoidaga solingan, olimlar tomonidan ishlov berilgan shakli adabiy til hisoblanadi. Adabiy til o'z navbatida shevalardan oziqlanadi, takomillashadi, rivojlanadi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi bilan dialektologiyadan ajralib turadi. Til avval sheva (lahja), keyin adabiy til va oxirgi bosqichda milliy til ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

Sheva bir millatga mansub bo'lib lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladi. Sheva adabiy tildan fonetik, leksik, grammatik jihatidan farq qiladi. Xalq shevalari faqat og'zaki shaklda mavjud bo'ladi.

O'zbek milliy tili tarkibida uchta lahja mavjud¹:

1. Qarluq lahjasi (janubi-sharqiy guruh)
2. Qipchoq lahjasi (janubi-g'arbiy guruh)
3. O'g'uz lahjasi (shimoli-g'arbiy guruh)

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi: Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqan va h.k. Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

-ko'pincha o'lashish yuz beradi: aka-oka, nahor-nohor;

-so'z oxirida k tovushi y tarzida aytiladi: elak-elay, terak-teray;

-bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi kamdan-kam hollarda kuzatiladi va uning o'miga ko'proq tushum kelishigidan foydalaniladi: singlim(ning) ro'moli.

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud. Ko'pincha qipchoq lahjasi so'zlashuvchilari: Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm va respublikamizning janubiy viloyatlarida ko'plab uchraydi. Mazkur lahjaga xos xususiyatlar quyidagilar:

-eng ko'p qo'llaniladigan turi: - y tovushi o'miga - j tovushining ishlatilishi: yaxshi-jaqshi, yig'layapti-jig'layapti;

-g' tovushining o'mida v tovushining ifodalanilishi: sari(q)...

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi Urganch, Xiva, Hozarasp, Qo'shko'pir, Shovot, Xonqa, Bo'g'ot, Buxoro viloyatining janubiy tumanlari da so'zlashuv tili hisoblanadi. Ularning boshqa lahjalardan farqli tomonlari quyidagilardan iborat:

-unilarning ko'pincha qisqa, cho'ziq aytilishi: at (hayvon), aad (ism);

-t tovushi d,k tovushi esa g tovushi singari talaffuz qilinishi: ketdim-getdim, koldi-galdi;

-kelishik qo'shimchalarini qisqargan shakl² da qo'llash: maktabga bordim-nimktaba bordim, buvimning ro'moli-buvimi ro'moli;

¹ И. И. Рощетов. Ўзбек шеволарининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - № 1. - Т., 1966. - Б. 7-11.

² О'zbek tili va adabiyoti masalalari. - №3. - Т., 1961 - В. 34.

Bundan tashqari, Xorazm viloyatining tumanlari ikki xil shevada muloqot qiladi. Yuqorida ta'kidlaganidek, shevalar faqat og'zaki nutqda namoyon bo'ladi. Xorazm shevasida adabiy tilga yaqin bo'lgan va ayrim xususiyatlari bilan undan farq qiladigan shevalar mavjuddir. Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor, Amudaryo tumanlarining shevalari adabiy tilga yaqin. Shovot, Xiva, Xonqa, Qo'shko'pir tumanlarining shevalari esa o'g'uzdir. Umuman, Xorazm shevalarini biz o'z navbatida ikki lahja, ya'ni o'g'uz va qipchoq shevalari orqali o'rganishimiz mumkin. Qipchoq lahjasiga Shimoliy Xorazm kirs, o'g'uz lahjasi esa Janubiy Xorazmda amal qilinadi. Masalan: *nima uchun* jumlasida Janubiy Xorazm shevalarida *nochun*, Shimoliy Xorazm shevalarida *nuchun* tarzida qo'llaniladi. Ko'rinadiki, Shimoliy Xorazm va Janubiy Xorazm shevalari bir-biridan tafovutlanadi. Shevalardan adabiy tilga qabul qilingan so'zlar ko'p sonli. Bu esa o'z navbatida dialektal so'zlarning faollashuviga olib keladi.

Janubiy Xorazmning Shovot, Xonqa tumanlarida keng qo'llaniladigan *mengzamoq* fe'li o'g'uz shevasida "qiyoslamoq", "o'xshamoq", "tenglashtirmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Adabiy tilga bu fe'lining "o'xshamoq" ma'nosi qabul qilingan. Bundan tashqari, bu sheva egalari adabiy til me'yorlariga moslashuvi qiyin kechadi. Ularda ko'proq "g" tovushining faollashishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. -Тошкент, 1978.
2. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси.—Тошкент, 1961.
3. Решетов В. Ўзбек шеваларининг классификацияси \ \ Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1966. № 1.
4. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. -Тошкент, 1961-1963.

M.MARAJABOVA, ToshDO'TAU talabasi

ABDULLA ORIPOV G'AZALLARIDA METAFORALAR

Resume

This article is devoted to usage of metaphors in Abdulla Oripov's poetry.

Key words: metaphor, assimilation, speech forms, image, expression.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi juda ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. M. Qo'shjonov, S. Meli G. Ashurova, A.Hamdamiyov, Y. Qosimov, B. Aliyev, G.Emazarova, M. Rahmonova, N. Affoqova kabi olimlar ilmiy izlanishlari tadqiqot obyekti sifatida aynan shoir ijodi tanlangan. S. Mamajonov, N. Karimov, U. Normatov, B. Qosimov, B. Akramov, I. Haqqulov, A. Ulug'ov, N. Jabborov singari olimlar tomonidan aynan dissertatsion ish qilinmagan bo'lsa-da, adabiy -nazariy fikrlar berish barobarida shoir ijodiga murojaat qilingan o'rinlar talaygina. Abdulla Oripov ijodiyotiga qaratilgan ishlar hozircha "dengizdan tomchi". Zero, shoir ijodiyotining hali ochilmagan qirralari bisyor.

Mazkur maqolada shoir she'rlarida qo'llanilgan metaforalarning matn mohiyatidagi ahanniyati, badiiyatga ta'siri borasida fikr bildiramiz. Abdulla Oripov

she'rlarida qo'llangan har bir tasvir, ifoda, o'xshatish o'ziga xos ma'noni beradi. Bunda she'rning ohangi, uning mazmuniy tomoni ham go'zal chizgilar orqali tasvirlanadi. Ayniqsa, ham semantik, ham badiiy go'zallikka ega she'rlarda metaforalar o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu fikrlarni "Tog' aro balqqanda sen..." deb boshlanuvchi g'azal misolida ko'rib chiqamiz. Oshiqning ma'shuqaga qarata aytilgan izhori tasvirida metaforalar masalasiga diqqat qaratamiz:

**Tog' aro balqqanda sen
Bilki, u tog'ning toshiman,
Tun bo'yi kutgan seni jim
Sabriman, bardoshiman.**

Bilamizki, metafora bir "predmet nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish"¹ hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yuqordagi she'riy misrada oshiq dardini ifodalashda shoir aynan metaforalarning o'xshashlikka asoslanish xususiyatini hisobga olmoqda. Ma'shuqaning tog'ga bir nazar tashlashi oshiqqa shu qadar quvonch bag'ishlaydi-ki, hatto uning oyog'i ostidagi tosh bo'lishga ham tayyor. Bunda ma'shuqa quyoshga qiyoslanmoqda. Bu misrada metaforaning tuzilishiga ko'ra kengaygan turi qo'llanilgan. Aynan gap shaklida olib ko'rganimizda [*Sen tog' orasidan balqqaningda men u tog'ning toshiman*] degan mazmun kengaygan metafora shaklida bo'lsa, ma'shuqa- quyosh, oshiq tog'ning kichik bir toshi. M. Mirtojdiyev bu borada yana bir xususiyatga ko'ra metaforalarni tasniflaydi: denotat o'xshashligiga ko'ra. Misrada metaforaning personifikatsiya deb nomlanadigan turi qo'llanilgan bo'lib, jonli obyekt jonsiz obyektga o'ziga o'xshash qilib olmoqda. Keyingi misrada bu fikr metafora orqali ma'no ko'chishi natijasida yanada ma'noni kuchaytiradi. Tog'lar – metin iroda, sabr-bardosh ramzi hisoblanar ekan, oshiq yor visolini bir bor ko'rmoqlik uchun o'zining sabr-ildirlikni tog'larning sabr- bardoshiga ko'chirmoqda, qiyoslamoqda. Bunda shoir, men shunchalar sabr-ildirlik-ki, bu borada tog'lar bardoshiga tenglasha olaman, degan fikri aynan metaforik munosabat orqali qisqa va aniq ifoda etadi. Bu misrada metaforaning aynan belgiga asoslangan turi qo'llanilmoqda. Denotat o'xshashligi belgisiga ko'ra [*sabriman*], [*bardoshiman*] metaforik vazifa yuklatilgan birliklarda minteqiy turi qo'llanilgan. Ya'ni bunda bir obyekt sezgi orqali his etiladigan ikkinchi obyektga o'ziga nomdosh qilib oladi.

**Nur sohib, chehrang bilan
Borliqqa bersang mehru taft,
Suv bo'lib oqqan o'zimman,
Chashmayu, ko'z yoshiman.
Soy o'zim, irmoq o'zim,
Chopdim izingdan darbadar**

Ma'shuqaning oshiq oldida qanchalar yuksak darjada turishi g'azalning keyingi misrasida takomillashtiriladi. Ma'shuqa bu o'rinda g'azalning umumiy g'oyasi negizida quyoshga tenglashtiriladi. Bu jihat g'azalning aynan shu misrasida ma'shuqani to'g'ridan to'g'ri nur sochmoq, borliqqa nurlari bilan mehru taft bermoq ko'llari orqali berilmoqda. Metaforalar muallifni [*sening chehrang quyoshga*

¹ Mirtojdiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T.,2002

o'xshaydi, bir nazar tashlab olamga mehr va iliqlik bag'ishlaysan] degan uzundan uzoq fikr bayonotidan qutqargan. Keyingi misrani o'qir ekanmiz, erta bahordagi tabiat tasviri ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Erta bahorda quyosh chiqishi, kunlar isishi bilan tog'lardagi qorlar erib, irmoq va soylarga aylanib oqadi. Bunda ma'shuqaning bir qiyoy boqishi oshiqning tog'dan oqib tushayotgan suvga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Shu fikr bilan parallel ravishda oshiq o'zining ertayu kech ishq o'tida ko'z yosh to'kayotganligini ham tuzilish jihatdan sodda metaforik birlik asosida keltirib o'tadi. G'azal mazmuning tadrijiy rivoji taqozo etgani bois tuzilish jihatdan murakkab metaforalar uning lug'aviy butunligini, mazmuniy yaxlitligini ta'minlaydi. Personifikativ metaforalar keyingi misralarning ham asosini tashkil qiladi. G'azalning yagona semantik asosi uning so'ngi baytida aniq va go'zal tasvirlar orqali beriladi.

**Sen orom olmoq uchun
Ketsang g'urubga kech tomon,
Men yana poylab seni
Turgan u tog'ning toshiman.**

Bu baytda murakkab tuzilishli personifikativ metaforalar g'azal boshidagi voqea tasviriga yana qaytarib bog'lanadi: quyosh chiqdi, tosh uning tashrifini intiq kutar edi (1-baytda), quyosh yana "orom olmoq uchun" tog'orasiga ketdi, tosh yana uning jamolini ko'rmoq istagida yana kutishni boshladi (so'ngi baytda). Baytdagi *g'arb* leksemasi o'z shaklini [*g'urub*] tarzida ifoda etgan bo'lsa, vazn talabi va shoiming individual yondashuvi g'azaldagi so'zlar ohangdorligini ta'minlagan. Xulosa qilib aytganda, g'azaldagi metaforalar bir stukturada keltirilgan bo'lib, ularning ishtirokini har bir baytda uchratishimiz mumkin. Bunda tasviming keng ko'lamliligini aynan shaklan kengaygan metaforalar tashkil etgan va ular o'z navbatida personifikativ xarakterga ega. Abdulla Oripov she'rlarida bu kabi metaforik hodisalarni ko'plab uchratish mumkin. Shiordagi falsafiylik, teran fikrlar aynan metaforalar orqali yuzaga chiqadi. Demak, metaforalar she'riy asarda, nafaqat, go'zal badiiy nutqni shakllantiradi, balki muallifni uzundan uzoq tasvirdan qutqaradi, fikmi qisqa va tushunarli qilib ifodalaydi. Zero, G. Lorka ta'biri bilan aytganda: "Metaforasiz she'riyat yaralangan ohuga o'xshab qoladi".

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YANGI SOHALAR RIVOJI

*М.Жўраев, ЎзРФА ЎТАФИ бўлим бошлиғи,
Д.ТОШЕВА. ТошДУТАУ КИХИ*

ЗООНИМЛАРНИНГ ХАЛҚ МАДАНИЙ ҲАЁТИНИ ИФОДАЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

Resume

The article deals with the role of zoonyms expressing cultural life style of people.

Key words: zoonym, speech, lingua-cultural peculiarities, dictionary.

Зоонимлар луғавий бирлик сифатида барқарор бирикмаларнинг таркибий қисмини ташкил қилиб, халқ дунёкараши, маданий ҳаёти асосида шаклланган образли тасвирни яратишда муҳим аҳамият касб этади.

Зооним компонентли барқарор бириклар дунё тилларининг деярли барчасида учрайди. Бунга сабаб инсон ва ҳайвонот оламининг бир неча минг йиллар давомида ёнма-ён ҳаёт кечириб келаётганлигидир. Шу боис жониворлар инсониятнинг кундалик фаолияти ва маданий ҳаётида алоҳида вазифа бажаради.

Зоонимларни ўрганишда қуршов, нутқдаги вокелик муҳим ҳисобланади¹. Нутқда зоонимларнинг қўлланилиш миқдори ва усулининг фарқлиниши ҳар бир халқнинг индивидуал яшаш шароити, табиий муҳити, атрофга бўлган муносабатини кўрсатади. Зоонимларнинг турли тилларда дифференциал номланиши ҳам ҳайвонларга бўлган муносабат, ҳар бир тилнинг лексик, грамматик ва фонетик имкониятлари натижасидир.

Ҳайвон номларининг шаклланишида дунё халқларининг кундалик турмуш тарзи, лисоний-маданий хусусиятлари муҳим омил вазифасини бажаради. Хусусан, япон тилида сичқон ва каламуш тушунчалари айнан бир лексема – “nezumi” билан ифодаланад². Аммо ўзбек, рус ва инглиз тилларида мазкур тушунчалар ифодаси алоҳида лексемалар саналиб, бу лисоний ўзига хослик дея баҳоланади.

Ўзбек тилида	Инглиз тилида	Рус тилида	Япон тилида
Каламуш	Rat	Крыса	Nezumi
Сичқон	Mouse	Мышь	

Зоонимлар – ўрганилиши қийин бўлган ономастик соҳа ҳисобланади. Зеро, табиатда маълум турларнинг йўқолиб кетиши айнан ўша номнинг

¹ Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар: Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 10.

² Нежбицкая, А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996. – С. 35.

йўқолишига ҳам сабаб бўлади¹. Каламуш ва сичқон номининг япон тилида айни лексема билан аталиши мазкур кемирувчилар халқнинг кундалик ҳаётида нисбатан кам учраши ёки умуман мавжуд эмаслигини билдиради.

Шунингдек, бу ҳар бир тилда зоонимлар номланиши ҳамда гурухланишининг фарқли эканлигини, уларнинг миллий ва маданий қарашлар асосида шакллантирилишини кўрсатади.

Австралиянинг айрим шеваларида “қуш” зооними кенг маъно кўламига эга бўлиб, кўршапалақлар ҳамда уча оладиган ҳашарот (кўнғиз) номини ҳам билдиради. Қизиғи шундаки, аҳолининг бошқа бир қатлами томонидан истеъмолда бўлган шевада “ҳайвон” тушунчасини англатадиган алоҳида лексема мавжуд эмас. Уларда кундалик истеъмол учун яроқли ва кундалик истеъмолга яроқсиз маҳсулот тушунчалари мавжуд бўлиб, маҳсулот ва ҳайвон номи айнан бир лексема ёрдамида англашилади². Бу ҳол мазкур шева вакиллари нутқида ҳайвон номлари ҳамда гўшт маҳсулотларининг нисбатан кам қўлланилишини билдиради. Яъни аҳолининг гўшт маҳсулотини истеъмол қилмай, фақат мева-сабзавотлар, кўкатлар ҳамда денгиз маҳсулотларини истеъмол қилиши улар нутқида намоён бўлади. Инглиз ва рус тилларида эса ҳайвон номи ва ундан олинадиган маҳсулот дифференциал номланишга эга. Ўзбек тилида ҳам маҳсулот номини фарқлаш мақсадида муайян ҳайвон номи билан гўшт сўзи қўшиб талаффуз қилинади. Масалан:

Т/р	Ўзбек тилида		Инглиз тилида		Рус тилида	
	Ҳайвон номи	Ундан олинадиган маҳсулот номи (унинг гўшти)	Ҳайвон номи	Ундан олинадиган маҳсулот номи (унинг гўшти)	Ҳайвон номи	Ундан олинадиган маҳсулот номи (унинг гўшти)
1	Қорамол	Мол гўшти	Cow	Beef	Бык	Говядина
2	Қўй	Қўй гўшти	Sheep	Mutton	Баран	Баранина
3	Товуқ	Товуқ гўшти	Hen	Chicken	Петух	Курица
4	Чўчка	Чўчка гўшти	Pig	Pork	Свинья	Свинина

Демак, халқнинг кундалик турмуши, маданий ҳаётида кенг истеъмолда бўлган маҳсулотларгина унинг луғат бойлигида ўз аксини топади. Аммо нисбатан кам қўлланиладиган ёки умуман халқ тасаввуридан ўрин олмаган тушунчалар лексик қатламда ифода этилмайди. Юқорида таъкидланган

¹ Суперанская А.В., Сталтмане Б.Э., Подольская Н.В. Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1985. – С. 28.

² Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В. Падучевой. – М.: Русские словари, 1996. – С. 34.

Австралия шеваларидаги кўршапалаклар ҳамда хашарот номларининг қуш лексемаси билан ифодаланиши ёки зоонимларни билдирувчи алоҳида сўзларнинг мавжуд эмаслиги ҳам кундалик фаолият натижасида шаклланган лексика кўринишидир.

Зоонимлар кишининг жисмоний, эмоционал ва рухий тасвирида қўлланилади. Шунингдек, ҳайвон номлари англатган мазмун кўлами қўлланилаётган тил хусусиятларига боғлиқ бўлади. Муайян халқ ва миллат дунёқараши, ҳаёт тарзи ва ўй-фикрлари зоонимларнинг окказионал семасидан англашилади. Бунда мақол таркибида қўлланилган ҳайвон образи бир қанча тилларда интеграл семани ҳосил қилиши ёки дифференциал семалари билан фарқланиши ҳам мумкин. Ваҳоланки, айрим жониворлар номи ҳамда образли тасвирининг бир қатор миллат ва элатлар маданиятида универсал характерга эгаллиги – коннотатив семанинг яқдиллиги, миллатлараро умумий тушунчанинг мавжудлигидан далолат беради. Бу лисоний универсалия дея баҳоланади. Масалан:

Т/р	Ҳайвон номи	Ифода семаси	Ўзбек халқ мақолларидан мисол	Инглиз халқ мақолларидан мисол	Рус халқ мақолларидан мисол
1	От	Орзу-истак рўёби; кенг имкониятга эгалик; куч, ғайрат, шижоат	От битди – қанот битди; Оти бор – ботир, оти йўқ – ётир; Оти борнинг қаноти бор, моли борнинг – бахти; Этик кийсанг, эр бўласан, отга минсанг, шер бўласан.	Every man has his hobby – horse	Лошадь человеку крылья
2	Ит	Бирор фаолият мохиятини англамаган ҳолда бутун умрни унга бахшида этиш	Итнинг иши – хурмок	All are not thieves that dogs bark at; An honest man is not the worse because a dog barks at him	Собака и на Владыку лает
		Садоқат, муҳаббат, дўстлик	Ит - чўпоннинг қўлдоши, ёлғизликда йўлдоши	The greater love is a mother's; then comes a dog's; then a sweetheart's	Собака человеку неизменны й друг

Маълумки, ҳар бир халқ ўз маиший ҳаётидаги воқеаларни ўхшаш ҳодисалар билан боғлаб қолишга солган. Ҳаёт ҳар канча мураккаб бўлмасин, ана шундай кичик-кичик лавҳалардан иборат бўлади. Ҳар бир қолишга тушган воқеа ҳақида эса, албатта, битта доно, ҳикматли мақол яратилган...¹ Шундай экан, учала тилда бир-бирига яқин луғавий маъно ифодаси учун хизмат қилувчи зооним компонентли мақолларнинг мавжуд эканлиги турли халқ ва миллатлардаги умумий дунёқараш, ўхшаш турмуш тарзи натижасидир.

Хуллас, ҳайвон номлари ҳамда уларнинг шаклланиши ҳар бир халқ кундалик турмуш тарзининг ифодаси ҳисобланади. Зоонимлар мисолида англашиладиган мажозий маъно бўёқлари ҳам айнан халқ маданий ҳаёти таъсирида шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996.
2. Вежбицкая, А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996.
3. Собитова Т. Халқ ижоди сабоқлари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.
4. Суперанская А., Сталтмане Б.Э., Подольская Н.В. Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1985.
5. Юлдашева Д. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар: Филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 2007.

*B.ABDUSHUKUROV, ToshDO‘TAU dotsenti,
O.SAIDAXMEDOVA, ToshDO‘TAU magistranti*

“CHOY” EKVALENT BIRLIGINING O‘ZBEK VA INGLIZ MADANIYATIDA AKS ETISHI

Resume

In this article, “tea” equivalent singular is analyzed in the Uzbek and English languages. Equivalent singulars are being in the two languages, but there has got difference in semantic meaning.

Key words: equivalent, equivalent singular, “tea”, the Uzbek culture, the English culture

Ekvivalent birliklar madaniyatlararo mavjud muvofiqliknigina qayd etib qolmay, balki ularning farqlantirib turuvchi xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Xususan, Roman Yakobson² ekvivalentlarda ma’no farqliklarini aniqlab, til birliklari orasida, odatda, to‘liq ekvivalentlik mavjud bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Buning sababi esa har ikki til ortida turgan madaniyat ekanligi nazarda tutadi.

¹ Собитова Т. Халқ ижоди сабоқлари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011. – Б. 63.

² Jakobson, Roman. On Linguistic Aspects of Translation // in R. A. Brower (ed.) Cambridge. -MA: Harvard University Press, 1959. - P.39.

Ingliz tilida *tea* ekvivalent birligi o'zbek tilida *choy* ekvivalenti bilan izohlanadi. "Macmillan English Dictionary"da choy quyidagicha izohlanadi: "... a hot brown drink made by pouring boiling water onto dried leaves of the tea bush; 1a. a cup of tea; 1b. the dried cut leaves of the tea bush, used for making tea; 1c. a hot drink made by pouring boiling water onto the dried leaves, fruit, or flowers of a particular plant, or a cup of this drink; 2. a meal eaten in the evening; 2a. a small meal consisting of sandwiches etc that is eaten in the afternoon with tea"¹ (tarjimai: choy butasining qurigan barglaridan qaynatib, damlangan jigarrang ichimlik; 1a. bir finjon choy; 1b. choy tayyorlashda foydalaniladigan choy butasining qurigan yaproqlari; 1c. muayyan o'simlikning quritilgan yaproqlari, mevasi yoki gullaridan qaynagan suv solib, damlangan issiq ichimlik; 2. kechki ovqat; 2a. tamaddi, tushdan keyingi choy bilan birga iste'mol qilinadigan sandvich (pishloq yoki saryog' surilgan non). Choy ekvivalent birligi ortida ingliz madaniyatida choy butasining qaynatilgan suvda damlangan suyuqlik, qolaversa, ovqatlanish paytlari ham tushuniladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *choy* ekvivalenti "... 1. Bargi damlab ichiladigan, janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta; 2. Shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari; 3. Shu o'simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik; 4. Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish"² kabi ma'nolari bilan izohlanadi. O'zbek madaniyatida choy leksemasi orqali ham ingliz madaniyatidagi kabi tushunilish kuzatiladi.

Ingliz tilida choy ekvivalent birligiga berilgan ikkinchi izohda (tamaddi, tushdan keyingi choy bilan birga iste'mol qilinadigan sandvich (pishloq yoki saryog' surilgan non) inglizlarning choy ichishning muayyan vaqti bor ekanligi anglashiladi. Odatda, Buyuk Britaniyada choy tushunchasi ikki xil ma'noda tushuniladi: ichimlik va ovqat. Choyning ovqat deb tushunilishi ayni madaniyat bilan bog'liq bo'lib, unga ovqat sifatida yondashish 1800-yildan boshlangan. Choyga bunday yondashish betfordlik gersoginiyalar tomonidan boshlangan. Britanlar odatiga ko'ra, kechki ovqat kechki soat ~~h~~kkiz va to'qqiz oralig'ida tanovul qilingan. Bedford gersoginiyalarini kechki soat ~~h~~kkizgacha ochlik hissi chulg'ab olgan. Shu tariqa tushdan keyin soat uch va besh oralig'ida choy va bir bo'lak shirinlik tanovul qilish odat tusiga kirgan. Tez orada bu Britaniya ayollari o'rtasida odat tusiga kirdi va bu vaqt "afternoon tea" (tushlikdan keyingi choy) deb atala boshlandi³. Buyuk Britaniyada "afternoon tea" atamasi o'mida "low tea" termini ham qo'llanadi. "Low tea" kichik choy vaqtini bildirib, odatda, damaturxon ovqatlanish uchun mo'ljallangan stol bezatilmaydi, balki kichikkina choy ichib olish uchun qulay bo'lgan stol bezatiladi. Dastlab "afternoon tea" ayollar yig'ilib, choy ichadigan vaqt deb qaralgan bo'lsa, keyinchalik bu erkaklar davrasiga ham ko'chgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya mehmonxonalarida va "tea shop" (choyxona) larda tushdan keyingi choy ichish kundalik ijtimoiy marosimi sifatida amaladi va choy bilan birgalikda bir bo'lak tort yoki shokolad taklif qilinadi.

Buyuk Britaniyada *afternoon tea* vaqtining odat tusiga kirishi boshqa odatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lgan, ya'ni "choy bog'lari"ning yuzaga kelishiga turtki

¹ Macmillan English Dictionary. Bloomsbury Publishing, 2002.-P.1471.

² Uzbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Tom 5, 2006. -B.505.

³ [http://www.maa.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture-](http://www.maa.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture)

Маълумки, ҳар бир халқ ўз маиший ҳаётидаги воқеаларни ўхшаш ҳодисалар билан боғлаб қолишга солган. Ҳаёт ҳар қанча мураккаб бўлмасин, ана шундай кичик-кичик лавҳалардан иборат бўлади. Ҳар бир қолипга тушган воқеа ҳақида эса, албатта, битта доно, ҳикматли мақол яратилган...¹ Шундай экан, учала тилда бир-бирига яқин луғавий маъно ифодаси учун хизмат қилувчи зооним компонентли мақолларнинг мавжуд эканлиги турли халқ ва миллатлардаги умумий дунёқараш, ўхшаш турмуш тарзи натижасидир.

Хуллас, ҳайвон номлари ҳамда уларнинг шаклланиши ҳар бир халқ кундалик турмуш тарзининг ифодаси ҳисобланади. Зоонимлар мисолида англашиладиган мажозий маъно бўёқлари ҳам айнан халқ маданий ҳаёти таъсирида шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996.
2. Вежицкая, А. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996.
3. Собитова Т. Халқ ижоди сабоқларари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011.
4. Суперанская А., Сталтмане Б.Э., Подольская Н.В. Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1985.
5. Юлдашева Д. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007.

*B.ABDUSHUKUROV, ToshDO'TAU dotsentl,
O.SAIDAXMEDOVA, ToshDO'TAU magistrantl*

“CHOY” EKVIVALENT BIRLIGINING O‘ZBEK VA INGLIZ MADANIYATIDA AKS ETISHI

Resume

In this article, “tea” equivalent singular is analyzed in the Uzbek and English languages. Equivalent singulars are being in the two languages, but there has got difference in semantic meaning.

Key words: equivalent, equivalent singular, “tea”, the Uzbek culture, the English culture

Ekvivalent birliklar madaniyatlararo mavjud muvofiqlikligina qayd etib qolmay, balki ularning farqlantirib turuvchi xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Xususan, Roman Yakobson² ekvivalentlarda ma'no farqliklarini aniqlab, til birliklari orasida, odatda, to'liq ekvivalentlik mavjud bo'lmasligini ta'kidlaydi. Buning sababi esa har ikki til ortida turgan madaniyat ekanligi nazarda tutadi.

¹ Собитова Т. Халқ ижоди сабоқларари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – Б. 63.

² Jakobson, Roman. On Linguistic Aspects of Translation // in R. A. Brower (ed.) Cambridge. -MA: Harvard University Press, 1959 - P.39.

Ingliz tilida *tea* ekvivalent birligi o'zbek tilida *choy* ekvivalenti bilan izohlanadi. "Macmillan English Dictionary"da choy quyidagicha izohlanadi: "... a hot brown drink made by pouring boiling water onto dried leaves of the tea bush; 1a. a cup of tea; 1b. the dried cut leaves of the tea bush, used for making tea; 1c. a hot drink made by pouring boiling water onto the dried leaves, fruit, or flowers of a particular plant, or a cup of this drink; 2. a meal eaten in the evening; 2a. a small meal consisting of sandwiches etc that is eaten in the afternoon with tea"¹ (tarjimasi: choy butasining qurigan barglaridan qaynatib, damlangan jigarrang ichimlik; 1a. bir finjon choy; 1b. choy tayyorlashda foydalaniladigan choy butasining qurigan yaproqlari; 1c. muayyan o'simlikning quritilgan yaproqlari, mevasi yoki gullaridan qaynagan suv solib, damlangan issiq ichimlik; 2. kechki ovqat; 2a. tamaddi, tushdan keyingi choy bilan birga iste'mol qilinadigan sandvich (pishloq yoki saryog' surilgan non). Choy ekvivalent birligi ortida ingliz madaniyatida choy butasining qaynatilgan suvda damlangan suyuqlik, qolaversa, ovqatlanish paytlari ham tushuniladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *choy* ekvivalenti "... 1. Bargi damlab ichiladigan, janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta; 2. Shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari, 3. Shu o'simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik; 4. Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish"² kabi ma'nolari bilan izohlanadi. O'zbek madaniyatida choy leksemasi orqali ham ingliz madaniyatidagi kabi tushunilish kuzatiladi.

Ingliz tilida choy ekvivalent birligiga berilgan ikkinchi izohda (tamaddi, tushdan keyingi choy bilan birga iste'mol qilinadigan sandvich (pishloq yoki saryog' surilgan non) inglizlarning choy ichishning muayyan vaqti bor ekanligi anglashiladi. Odatda, Buyuk Britaniyada choy tushunchasi ikki xil ma'noda tushuniladi: ichimlik va ovqat. Choyning ovqat deb tushunilishi ayni madaniyat bilan bog'liq bo'lib, unga ovqat sifatida yondashish 1800-yildan boshlangan. Choyga bunday yondashish betfordlik gersoginiyalar tomonidan boshlangan. Britanlar odatiga ko'ra, kechki ovqat kechki soat ukkiz va to'qqiz oralig'ida tanovul qilingan. Bedford gersoginiyalarini kechki soat ukkizgacha ochlik hissi chulg'ab olgan. Shu tariqa tushdan keyin soat uch va besh oralig'ida choy va bir bo'lak shirinlik tanovul qilish odat tusiga kirgan. Tez orada bu Britaniya ayollari o'rtasida odat tusiga kirdi va bu vaqt "afternoon tea" (tushlikdan keyingi choy) deb atala boshlandi³. Buyuk Britaniyada "afternoon tea" atamasi o'mida "low tea" termini ham qo'llanadi. "Low tea" kichik choy vaqtini bildirib, odatda, tushdan keyin ovqatlanish uchun mo'ljallangan stol bezatilmaydi, balki kichikgina choy ichib olish uchun qulay bo'lgan stol bezatiladi. Dastlab "afternoon tea" ayollar yig'ilib, choy ichadigan vaqt deb qaralgan bo'lsa, keyinchalik bu erkaklar davrasiga ham bo'lgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya mehmonxonalarida va "tea shop" (chayxonona) larda tushdan keyingi choy ichish kundalik ijtimoiy marosimi sifatida amal qililadi va choy bilan birgalikda bir bo'lak tort yoki shokolad taklif qilinadi.

Buyuk Britaniyada *afternoon tea* vaqtining odat tusiga kirishi boshqa odatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lgan, ya'ni "choy bog'lari"ning yuzaga kelishiga turtki

¹ Macmillan English Dictionary. Bloomsbury Publishing, 2002.-P.1471.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: Uzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Tom 5, 2006. -B.505.

³ [http://english-reading.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture-](http://english-reading.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture)

bergan. Ingliz madaniyatida, dastlab “coffee houses” (kofe uylari) faqat erkaklar uchun mo’ljallangan, “coffee houses”ning asosiy mehmonlari erkaklar bo’lgan. Dastlab, kofe oila davrasida ichiladigan ichimlik sifatida qaralmagan¹. Choy esa oilaning barcha a’zolari: erkaklar, ayollar, bolalar uchun muvofiq keladigan ichimlik sifatida va chanqoqni bosishi, bir qancha xastaliklarga shifo bo’lishi, qolaversa, mast qilmaydigan ichimlik sifatida madaniyatdagi o’rni barqarorlana bordi. Choy bog’lari *afternoon tea* vaqtini tashkil qilish uchun maxsus qurilgan bo’lib, juda tinch, ochiq tabiat qo’ynida juda shinam, gullar va giyohlar bilan bezatilgan. Choy bog’lari inglizlar orasida juda tez shuhrat topa bordi, bunga sabab u yerga oilaviy borib, choy ichish bilan bir qatorda, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash usullaridan biri bo’lib xizmat qildi. Shu tariqa, choy bog’lari *afternoon tea* vaqtini o’tkazishning eng qulay joyiga aylanadi va choyning inglizlar hayotidagi iste’mol pog’onasi yana bir pog’onaga ko’tariladi. Keyinchalik “coffee house” larda ham *afternoon tea* vaqtini tashkil qilina boshlangan hamda kofe bilan birgalikda choy ham mehmonlarga taklif qilina boshlangan². Hozirda ham choy bog’lari oilaviy yig’iladigan maskanlardan bo’lib, inglizlar *afternoon tea* vaqtini, ko’pincha, shu bog’larda o’tkazadilar.

“Afternoon tea” odati, ko’pincha, ayollar davrasi bilan bog’liq bo’lsa, “High tea” odati erkaklar davrasi bilan bog’liq. “High tea” (yuqori choy) ingliz tilida birikma bo’lib, odatda, erkaklar kechki soat beshdan so’ng ishdan uyga qaytgach, oila davrasida kechki ovqat tayyor bo’lgunga qadar ovqatlanib olishni bildiradi. “High tea” tamaddi hisoblanmaydi, aksincha dasturxonga choy bilan birgalikda, pishirilgan go’sht, baliq, tuxum, pishloqlardan biri tortiladi³. Choy ichish vaqtining bunday nomlanishi dasturxonning ovqat tanovvul qilinadigan stolga bezatilishi bilan ham bog’liq. “Afternoon tea” choy ichish vaqtida kichik stol beatiladi, “High tea” vaqtida esa ovqatlaniladigan katta stol bezatiladi. Shuning uchun ham bu choy ichish vaqti *high*, ya’ni *baland (asosiy) stolda ichilgan choy* ma’nosini bildiradi. Ayniqsa, *high tea* Buyuk Britaniya qishloqlari uchun juda ahamiyatli bo’lib, dala va chorva ishlaridan qaytgan mehnatkashlar bir yerga jam bo’lib, birgalikda choy ichganlar. Hozirda bu vaqt xatto *evening meal* (kechki ovqatlanish) vaqti bilan ham tenglashtiriladi.

O’zbek madaniyatida esa ovqatlanish vaqtida choy ichiladi, alohida choy ichish uchun vaqt belgilanmaydi. Nonushtaning asosiy qismini choy tashkil qiladi. Odatda, nonushta vaqtida sut maromi bilan qaynatiladi hamda unga damlangan choy, tuz, sariyog’ va murch qo’shiladi⁴. Nonushta vaqtida bunday choy non bilan iste’mol qilinadi. Bunday choy turi *shirchoy*, ya’ni *sulti choy* deyiladi. O’zbek madaniyatida, ko’pincha, sulti choy nonushta bilan bog’lanadi, sutga biroz choy qo’shiladi va odatda, bunday choy kunning boshqa qismida ichilmaydi. Ingliz madaniyatida esa nonushtadagi choy iste’moli bilan bir qatorda *afternoon tea*, *high tea* vaqtida ham choyga sut qo’shib ichadilar. Ingliz madaniyatida o’zbek madaniyatidan farqli o’laroq, choy damlanadi, dam yegach, unga biroz qaynatilgan sut qo’shiladi, ta’bga ko’ra shakar solinishi

¹ Brittany, Carol Ashby. *Tea Culture And The British Empire, 1600-1900* // A thesis submitted to the faculty of The University of North Carolina at Charlotte in partial fulfillment of the requirements for the degree of Master of Arts in History. Charlotte, 2014.- P.35.

² Jessica Hanser. *Teatime in the North Country: Consumption of Chinese Imports in North East England* // *Northern History* vol. 49, no. 1 (March 2012): -P.52.

³ english-magazine.org/english-reading/english-for-culture/719-the-tea-party-past-and-present

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Том 4, 2006. -Б.582.

mumkin¹. Choyning bu tarzda tayyorlash inglizlar uchun odatiy hisoblanib, choy tarkibida sut ham bo'ladi. O'zbek madaniyatida esa odatda, choyning o'zi damlanib ichiladi, ya'ni uning tarkibida boshqa tarkibiy qism bo'lmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, "choy" leksemasi o'zbek va ingliz tilida o'zaro ekvivalent deb qaralsa ham, ular bajaradigan funksiyasi, tarkibiy komponentiga ko'ra farqlanadi. Bu farqlanish bevosita madaniyatlarda farqlanishlar mavjudligini qayd etadi.

Adabiyotlar:

- 1 **Ўзбек тилининг изохли луғати.** -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Том 5, 2006. -Б.505.
- 2 **Macmillan English Dictionary.** Bloomsbury Publishing, 2002.-P.1471.
- 3 www.english-magazine.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture-article
- 4 **Brittany, Carol Ashby.** Tea Culture And The British Empire, 1600-1900 // A thesis submitted to the faculty of The University of North Carolina at Charlotte in partial fulfillment of the requirements for the degree of Master of Arts in History. Charlotte, 2014. - P.35.
- 5 **Jessica Hanser.** Teatime in the North Country: Consumption of Chinese Imports in North East England // Northern History vol. 49, no. 1 (March 2012): -P.52.
- 6 www.english-magazine.org/english-reading/english-for-culture/719-the-tea-party-past-and-present
- 7 www.itoen.com/cultural-tea-traditions

Г. ИСКАНДАРОВА, ТошДЎТАУ ўқитувчиси

БОЛАЛАРДА НУТҚИЙ МУЛОҚОТ КЎНИКМАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МУҲИТНИНГ ЎРНИ

Resume

The article analyzes the role of environment in formulation of children's speech.

Key words: oratory, paradigm, cognitive linguistics, child's speech, kindergarden, circumstance.

Инсоннинг нутқий хулқи асосан икки ташқи жиҳат, яъни хатти-ҳаракати ва сўзлаган нутқи, одамлар билан ўзаро муомаласида намоён бўлади. Инсоннинг нутқи оҳанги, талаффузи, сўзларнинг танланиши, вербал нутқнинг новербал воситалар билан бойитилиши, яъни бош, қўл ёки тананинг бошқа аъзолари ҳаракати ва ҳолати қабилар орқали унинг нутқий акт амалга ошириладиган жараёндаги руҳияти, кайфияти, мулоқотга киришишга иштиёқи ҳамда маданий даражаси, умуман, мулоқотмандлиги ҳақида маълум ахборот бериб туради.

Ўзбек тилшунослигида нутқий маданият масаласи билан жиддий шугулланиш XX асрнинг охириларида шаклланди. Бу ҳолни ўзбек

¹ www.itoen.com/cultural-tea-traditions

тилшунослари С.Иброҳимов, К.Назаров, О.Усмонов, Б.Бегматов ва бошқалар 1969 йили “Нутқимиз ривожи масалалари” мавзусида Тошкентда ўтказилган республика конференциясида қилган маърузаларида алоҳида таъкидлаганлар. Шу билан бирга, Э.Бегматов, Л.Хужаева, Б.Ўринбоев, Р.Қўнғуров, Т.Қурбонов, А.Рустамов, Ё.Тожиёв, Х.Раҳматуллаева, Ш.Искандароваларнинг илмий тадқиқот ишларида нутқ маданиятига оид изланишлар чуқур қўламда олиб борилган. Бу тадқиқотларнинг аксарияти нутқ маданиятининг айрим томонларини услубий ёки педагогик максатда ёритиб беришга қаратилган бўлиб, масалага ижтимоий-лисоний аспектда ёндашилмаган. Бугунги кунда нутқ маданияти соҳаси илмий муаммо сифатида тан олинган¹.

XXI асрга келиб дунё илмида инсон нутқи омилига янгича антропоцентрик ёндашув юзага келиши кузатилади. Бу тадқиқотчи диққатини объектдан субъектга кўчирилишидир, яъни инсон тил ичида ва тил инсон ичида таҳлилга тортилади. И.А.Бодуэн де Куртенэ сўзлари билан айтганда, “тил фақат индивидуал мияларда, фақат дилларда, фақат муайян лисоний жамиятни ташкил қилувчи индивид ёки шахсларнинг психикасидагина мавжуд”². Лингвистикада ушбу парадигма негизида когнитив тилшунослик ва лингвокультурология йўналишлари юзага келди. В.А.Маслованинг фикрича, лингвокультурология тилни маданият феномени сифатида ўрганadi. Бу дунёни миллий тил призмаси орқали ўзига хос қабул қилиш, кўриш бўлиб, бунда тил алоҳида миллий менталликни акс эттирувчи кўзгу вазифасини бажаради. В.Н.Телиянинг фикрича эса “Тилда маданий омилга ва инсонда лисоний омилга таяниши керак”³.

Боланинг нутқий ривожида унинг болалар боғчасига бориш-бормаслиги ҳам муҳим аҳамият касб этади. Кузатишларга кўра, болалар боғчасида тарбияланувчи болада мулоқотга киришиш салоҳияти кучли бўлиб, у тарбиячи билан ҳам, кўча-қўйда бегона киши билан ҳам тортинмай гаплашиб кетаверади. Болалар боғчаси муҳити бола нутқий ахлоқига ҳам таъсир ўтказади: бола бирга тарбияланувчи болалар билан мулоқотга киришиб, кўп салбий-ижобий хусусиятларни, яхши-ёмон гапларни ўрганadi. Болалар боғчасига бормай, уйда тарбияланувчи бола эса кўчага чиққанда, бегона кишилар билан тўқнашганда уялиб, индамай туради. Уни мулоқот қилишга ундаш ҳам қийин кечади. Болалар боғчасига бормай, уй шароитида тарбияланувчи болаларнинг сўз бойлиги боғчага боровчи боларникига нисбатан камроқ бўлади. Маълумки, луғат захирасининг бойлиги боланинг тил қондаларини мукамал эгаллаши учун асос бўлади. Бола боғчада турли ўйинлар, янги эртақлар ва шеърлар ўрганadi, тарбиячи ва тенгдошлари билан фаол мулоқот муҳитида бўлади. Бунинг барчаси натижасида гўдақда “боғча – яхши” ёки “боғча – ёмон” тушунчалари шаклланади. Бола учун боғча муҳити оила муҳитидан кейинги иккинчи даражали муҳим омил бўлиб,

¹Қўнғуров П., Бегматов Е., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. - Тошкент. Ўқитувчи. 1992.

²Маслова В.А. Лингвокультурология. - М.: 2001. - С. 6.

³Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа. 1996. - С. 271.

боланинг ўсиши, аклий ва жисмоний ривожланиши учун болалар боғчасидаги тўғри ва соғлом муҳит катта аҳамиятга эга.

Оилавий мулоқотда ҳудудий шевадан ташқари ўзига хос маиший услубнинг таъсири сезилади. Тошкент шаҳрида тошкентча, Бухоро вилоятида бухороча шева билан бир қаторда шу оиладагина қўлланадиган маълум лексик бирликлар, эркалаш ва мурожаат шакллари ҳам истифода этилади. Масалан, Тошкент шаҳрида истикомат қилувчи хоразмлик оиланинг фарзанди уйда Хоразм шевасида сўзлашса, кўчада, болалар боғчасида унинг нутқида Тошкент шевасига хос элементлар ҳам кузатилади. Бола 3-3 ярим ёшида буни онгли равишда пайқайди ва онасига “Нега “ҳа” эмас, “ҳова” дедингиз?” ёки “Нима учун сабзини “гашир” деяписиз?” каби саволларни бериши мумкин. Бундай ҳолат бола нутқий фаолиятида ўз аксини топади. Бола учун адабий тил тушунчаси мавҳум бўлиб, унинг учун она тили ягона мулоқот воситасидир.

Бола нутқий ривожланишида, ҳатто, ота ва онанинг қандай касб эгаси эканлиги ҳам аҳамиятга молик. Чунки олий маълумотли зиёли ота-оналар фарзандининг нутқий хулқи зиёли бўлмаган ота-она фарзанди нутқий хулқидан фарқ қилади. Биринчи гуруҳ болалар нутқи бошқа болаларникига қараганда нисбатан раво, мулоқотда эркин ва тенгдошлари билан ортиқча қийинчиликсиз муносабат ўрната оладилар.

Боланинг ота ва онаси қайси касб ёки ҳунар билан шуғулланса, болада шу касбга қизиқиш эрта уйғонади ва бу касб терминларини, унга хос тушунчаларни тез ўрганиб, нутқида қўллаши кузатилади. Агар оилада она уй бекаси бўлса, у ҳолда фарзанд нутқида маиший лексиканинг ўзига хос хусусиятлари намоён бўлади. Бу ҳолат ижтимоийлашув жараёнининг жадал амалга ошиши учун хизмат қилади ва боланинг нутқий фаолиятини тобора бойита боради.

Фикрларни умумлаштириб, хулоса қилинадиган бўлса, бола нутқининг ривожланиши муҳит ва қуршовга чамбарчас боғлиқ. Бола ҳар бир ҳаракати билан катталарга ўхшашга ва шу орқали ҳаётини тушунишга ҳаракат қилади, беихтиёр тақлид қилишга интилади. Бу бола билан мулоқотни енгиллаштиради. Бундай ўсиш боланинг атроф-муҳитга кўникиб бораётгани, ижтимоийлашув жараёнини бошидан кечираётганини билдиради. Бу пайтда болага иложи борица кўпроқ эътибор, диққат, меҳр берилса, унинг нутқий ва руҳий ҳаёли шунча раво ва чиройли бўлади.

N.Z.ABDURAXMONOVA, ToshDO‘TAU KIXI

KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASI: WORDNET

Resume

The paper deals with significant issues of lexicography that how to build up the system part of speeches according to their hierarchic and linear relative position of each component for machine-readable dictionaries as example of WordNet.

Key words: machine-readable dictionaries, WordNet, hierarchic and linear relation, part of speeches

WordNet tizimida ingliz tilidagi barcha so'z turkumlarining semantik ma'nolari ifodalangan. Ot so'z turkumi misolida ushbu lug'atning xususiyatlari tahlilga tortilar ekan, uning hajmi 80000 dan ziyod ot so'z turkumiga to'g'ri kelishi va bu ko'rsatgich muayyan leksemaning nutqiy birlik sifatida voqealinishida so'z birikmasi holatida qo'llanish imkoniyati ham qamrab olinganini eslatib o'tish o'rinli bo'ladi. WordNETda berilgan so'zlar kompyuter o'qiy olmasa-da, ushbu lug'at kompyuter leksikografiyasida erishilgan innovatsion yutuqlardan biridir desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki unga ilova etilgan so'zliklar mashina o'qishi mumkin bo'lgan holatga moslashtirilgan. Odatiy lug'atlarda kiritilgan so'zliklarning talaffuzi, grammatik shakllanishi, yasalishi, etimologiyasi, izohi hamda sinonim, antonim kabi yana bir qator lingvistik xususiyatlari singdirilgan bo'ladi. Bunday belgilar mashina o'qishi mumkin bo'lgan imkoniyati mavjud bo'lmaganligi bois aksariyat jihatlari tushirib qoldiriladi, xususan, WordNet yuqorida qayd etilgan talaffuz, etimologik tavsif va shunga o'xshash ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olmaydi. Ushbu lug'atda o'rin olgan maqolalarning qo'llanishida ifoda ma'nolarining semantik xususiyatlarini ochib berish bilan bog'liq afzalliklarni yaratish, qolaversa to'g'ri tarjimaga erishishda so'z maydonlarini mantiqiy loyihalash birlamchi mezon bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan WordNet so'zlarning semantik aloqalarini chuqur o'rganishda sinonimiy hodisa muhim deb qaraladi. WordNetda sinonimlar muayyan bloklarga ajratilib, semantik jihatdan tasniflangan. Sparck Jones (1964, 1986) o'zining semantik kallasifikatsiya nazariyasiga asos slogan tadqiqotchidir. U o'zining bu boradagi izlanishlarida matndagi olingan muayyan so'z shakli boshqa so'z shakllari bilan birga barcha bo'lishi mumkin bo'lgan sinonimlar tizimini yaratadi. Masalan, u ingliz tilidagi qurol-yarog' bilan bog'liq bo'lgan tushuncha *pellet* hamda *injection* (*inyeksiya*) so'zlarining kontekstdagi ma'nodoshi *shot* leksemasi bog'laydi, bu esa shartli ravishda muayyan holatdagina sinonimik qatorda mavjud bo'ladi. Sinonimlar tizimi (synset) o'zaro semantik bog'langan bo'lib, biroq har ikki tizimning strukturasi har xil tipga tegishlidir: {shot, pellet} va {shot, injection}. Bu ikki to'plam o'zaro hech qanday ma'no jihatdan aloqaga kirishmaydi, ya'ni ularni faqat "shot" leksemasiga bog'lab turadi.

Aksariyat Synsetda odatiy lug'atlardagi izohlardan foydalaniladi. Polisemantik so'zlarda bir necha ko'chma ma'nolar ifodalangan glossalar mavjud bo'lsa, Synsetda faqat yagona glossema mavjud bo'ladi. WordNetdagi Synset orqali so'zliklarning leksikallashuv konsepti shakllanadi.

Sinonimlar so'zshakllar o'rtasidagi semantik bog'lanish bo'lsa-da, semantik bog'lanish otlarning leksikallashuv konsepti o'rtasidagi bog'lanishning muhim tarmog'i sanaladi. Bular subordinatsiyalar (guruh yoki muayyan tasniflar)ning bog'lanishi bo'lib, unga kiruvchi elementlar giponimlar deb ataladi. Masalan, burgut qush so'zining giponimi bo'ladi, qush esa burgut so'zining giperonimi bo'ladi. Bunday semantik bog'lanish leksik ierarhiyani hosil qiladi. Odatiy lug'atlarda ham otlar o'rtasidagi giponimik bog'lanish haqidagi ma'lumotlar beriladi (Amsler, 1980).

Leksik ierarxiya quyidagicha tarmoqlanadi: {robin, redbreast} @.-> {bird} @-> {animal, animate_being} @-> {organism, life_form, living_thing}.

@->belgi shuni ifodalaydiki, muayyan soʻzni boshqa soʻzlikka qarab xususiy lashib borishi, yaʼni generilazatsiyalashuvidir. S_g, @->ushbu belgi ot soʻz turkumidan tashkil topgan Synsetni boshqa S_goʻtishini bildiradi. Jumladan, Synset oʻrtasida doimiy inversiya hodisasi sodir boʻladi: S_g ~-> S_n. Boshqacha qilib aytganda, S_n S_gning giperonomi, S_g esa S_nning giponimi hisoblanadi. ~->bu belgi giperonimdan giponimga qarab maʼno kengayishi, degan maʼnosini ifodalaydi. Nafaqat {bird} synset giperonim bilan bogʻlangan boʻladi va balki buning tarkibiga barcha qush turlari ham kiritiladi. Bunday bogʻlanish haqida maʼlumotlarni berish hamda ularni tuzish boʻyicha qoʻyilgan talablar odatiy lugʻatlarda ham mavjud, biroq ularni topishni yanada osonlashtirish zarur. Lugʻatshunoslar soʻzliklarni kiritishda u haqidagi maʼlumotni aylana holatda emas, balki tarmoqli holatda bersa maqsadga muvofiq. Tarmoqlanish kompyuter texnologiyalarda ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu metod maʼlumotlar bazasida umumiy boʻlib, mavjud birliklar haqidagi maxsus joyga ID raqami bilan oʻzaro bogʻliq maʼlumotlarni birlashtirish imkonini yaratadi. Kompyuter mutaxassislari bu usulni “meros tizimi” deb ham nomlashadi, chunki meros keyingi avlodga tarmoqlangan holda uzatiladi. Leksik struktura chiziqli holatda aks etadi: “Agar oy yerning yoʻldoshi boʻlsa, demak oy sayyora; agar u sayyora boʻlsa, quyosh tizimining tarkibi; agar oy quyosh tizimining tizimi boʻlsa, demak bir xil dinamik holatda harakatlanuvchi...” Shuningdek, Word NETda meronimlar (butun-qism munosabatlari) va antonimlar ham oʻrin topgan. Masalan, {gʻildirak} soʻzi {velosiped} soʻzining meronimi hisoblanadi.

Wm #p —► Wh - bu yerda Wm Whning tarkibiy qismi ekanligini bildiradi;

Wm #m —► Wh - Wm Whning aʼzosi ekanligini bildiradi;

Wm #s —► Wh - Wm Whning tarkibi ekanligini bildiradi.

#p-WordNetdagi soʻzlarning qism toʻmlam aloqasini bildiradi.

Xulosa oʻrinda shuni taʼkidlash joizki, til doimo harakat jarayonida rivojlanadi, uning rivojlanishi milliy lugʻatlarda aks etadi. Shu bois kompyuter leksikografiyasida oʻzbek tili bilan boʻgʻliq boʻlgan, jumladan maqolada tahlilga tortilgan Wordnetga oʻxshash tizimlar yaratilishi muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Christiane Fellbaum. Wordnet. An Electronic Lexical Database. 1998 Massachusetts Institute of Technology, P. 23-44.
2. Atkins, B. T. S., and Levin, B. (1991). Admitting impediments. In U. Zernik (Ed.), Lexical acquisition: Exploiting on-line resources to build a lexicon, 233-262.
3. Hillsdale, NJ: Erlbaum. Beckwith, R., Fellbaum, C, Gross, D., and Miller, G. A. (1991). WordNet: A lexical database organized on psycholinguistic principles. In U. Zernik (Ed.), Lexical acquisition: Exploiting on-line resources to build a lexicon, 211-232.
4. Berlin, B., Breedlove, D., and Raven, P. H. (1973). General principles of classification and nomenclature in folk biology. American Anthropologist, 75, 214- 42.

ФЕЪЛ-АТВОРНИ ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКСЕМАЛАР

Resume

In this article, the lexemes of expressing people's behaviour are analyzed as example in Alisher Navoi's works.

Key words: character, peculiarities, literary style, symbol, explanatory dictionary, positive, negative.

Белги-хусусият билдирувчи сўзлар асосан инсонларнинг феъл-атворини, табиатини, характерини очиб беришда, унинг ҳар хил рухий ҳолатларда, маълум шароитларда ўзини тута-билиши, хатти-ҳаракатларини изоҳлашда ишлатилади. Масалан: *мулоим*, *меҳрибон*, *маҳмадона*, *ёввои*, *хушчақчақ* ва бошқалар.

Белги-хусусият билдирувчи сўзлар кўпроқ бадий услубда ишлатилиб, бадий асарларнинг бадий-эмоционал бўёқдорлигини оширишда, эстетик таъсир этишда, асар ғоясини таъсирчан ифодалашда, қахрамонларнинг образини очиб беришда кенг қўлланилади.

Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий асарларига мурожаат этар эканмиз, улар томонидан белги-хусусият билдирувчи, ранг-тус ифодаловчи сўзларнинг кўп ва ўринли ишлатилганлигига гувоҳ бўламиз. Навоий ўз асарларида шахс феъл-атворини ифодаловчи сўзларни контраст ҳолларда, яъни ижобий образлар характерларини изоҳлаганда *айбпуш*, *мунбасит*, салбий образлар характерларини изоҳлаганда эса *айбжўй*, *айёр*, *аблаҳ* каби лексемалардан фойдаланади.

Айбжўй – *маъюб*, *айбғўй* – *манкуб*

Ушбу мисолда А. Навоий инсонларнинг ҳар хил вазиятда ўзларини оқил-олижаноб тута билишлари уларнинг ақлли, камтарлигини ва аксинча, *айбжўй*, яъни қора ниятли, бировларнинг хатолари, айбларини кидирувчи, фисқу-фасодчи, ичкиқора инсонлар ақлу-заковатдан йироқ кишилар эканликларини изоҳлайди, шахс феъл-атворининг салбий томонларини ифодалайди.

Айбжўй сўзи Навоий асарларининг изоҳли луғатида – бировларнинг айбини кидирувчи, фисқ-фужур юритувчи, қора ниятли инсон маъносини билдиради.¹

Муаллиф *айбжўй* сўзининг антоними *айбпуш* сўзидан, яъни ёмонликни-яшириб, яхшилиқни- оширадиганлар тоифасига кирувчи инсоларни ижобий оттенкаларда тасвирлаш учун фойдаланади:

Мухтасиб таъзир этар вақти таним қилди яланг

Дайр пирининг қулидурменким, улдур айбпуш.

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент. Фан, 1983. – Б. 46, 48, 50.

Мисолдаги айбнуи сўзи Навоий асарлари изоҳли луғатида “айб яширувчи, инсонларнинг камчиликларини кўрсатмасликка ҳаракат қилувчи, айб кечирувчи инсон” маъносини англатади.

Салбий шахс феъл-атворини ифодаловчи *нодон, калтабин, тентак, ақлсиз, камфаҳи, аблаҳ* каби сўзларидан муаллиф ўз асарларида фаол фойда –ланади:

Қилур қунуну қадаҳ манъини манга зоҳид

Дегайму телбага бу сўзин бўлмаса аблаҳ

Навоий айёр сўзини икки, яъни инсон характерининг салбий томонларини изоҳловчи “ҳийлакор, алдоқчи, маккор” ва ижобий, яъни “ўзига ром этувчи, сеҳргар ва мафтункор инсон(ёр)” маъносини ифодалаш учун қўллайди.

Ул нур ошиқи маҳжур кўзи развани шишалари разван кўзан кўзи шишаларидек ҳайрон қилиб ишқи бебок айёри ул развон йўлидин ўзин кўнгул маъмурасига ташилар.

Кўз учидин ваъдан васл айлаб имо олди жон

Гўйиё бози бериб жон олди ул айёр кўз

Навоий асарларини тили ниҳоятда бой, белги билдирувчи сўзлар уларнинг янада таъсирчанлигини ошириш учун хизмат қилади.

S.ZIYATOVA, ToshDO‘TAU magistranti

O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA “UY” KONSEPTINING IFODALANISHI

Resume

In this article, the expression of the concept “home” is analyzed via comparative aspect in Uzbek and English.

Key words: cognitive linguistics, concept, system, word meaning, home with children, childless home.

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya fanlarining asosiy birliklaridan biri bu konsept bo‘lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Konsept - madaniyat uchun ahamiyatli va til egalari jamoasi ongida aks etgan, muayyan voqelik sohasida o‘rin olgan hamda u yoki boshqa til shakllarida o‘z in‘ikosini topgan murakkab hosiladir. N.D.Arutyunovanning talqinicha, konsept - milliy an‘ana, folklor, din, hayotiy tajriba, san‘at obrazlari, his-tuyg‘ular va qadriyatlar tizimlarining o‘zaro harakati natijasi bo‘lgan falsafiy tushunchasanaladi. Konseptlar «inson bilan olam o‘rtasida vositachilik qiladigan o‘ziga xos madaniy qatlam»ni hosil qiladi¹. “Konsept, ko‘proq so‘zlar bilan ekstralingvistik voqelik o‘rtasidagi vositachi hisoblanib, biroq so‘zning ma‘nosi faqat konseptlardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Binobarin, c‘yzkonsept to‘g‘risida gapirganda so‘zning ma‘nosi, o‘zaro nisbatli tushunchalarni e‘tiborga olish lozim. Chunki belgini ifodalagan konsept so‘z ma‘nosiga aylanadi”². Konseptlar inson ongida nafaqat

¹ Арутюнова Н. Д. Логический анализ языка. Ментальные действия. - М.: Наука, 1993. - С. 38.

² Кибрикова Е. С. Кратком словаре когнитивных терминов. - М., 1996. - С. 57.

soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari asosida, shu bilan birga shaxsiy hamda xalqning madaniy-tarixiy tajribasi negizida vujudga keladi. Bunday tajriba qanchalik boy, konsept doirasi qanchalik keng boʻlsa, soʻzning, konseptning barcha jihatlarini aks ettiradigan hissiy aurasini ham shunchalik keng boʻladi. Konseptni madaniyatning inson ongida qoldirgan oʻchmas izi, madaniyat insonning mental olamidani oʻrin olishida egallaydigan shakli sifatida talqin qilishimiz mumkin. Shuningdek, konsept “madaniy boylıklar ijodkori” emas, balki oddiy bir odamning madaniyatning mazmun-mohiyatini tushunishda va ayrim hollarda unga taʼsir ham qilishida vosita vazifasini oʻtaydi. Sir emaski, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bogʻliq jarayon. Tilda paydo boʻlgan leksik qatlamning maʼnosi qoʻllanish doirasi bevosita shu tildan foydalangan xalq dunyoqarashi, mentaliteti va madaniyatini ochib beradi. Maʼlumki, umuminsoniy gʻoyalar, tushunchalar turli xalqlarni birlashtirib turadi. Bu esa xalqning ijodiy mahsuli boʻlmish maqollarda oʻz ifodasini topadi. Oʻzbek madaniyatida eng muqaddas tushuncha oiladir va u jamiyatning kichik boʻgʻini hisoblanadi. Shu boisdan ham ushbu konseptni tadqiq qilish jarayonida “uy” konsepti keng mazmun ifodalashi, oila orqali oilaviy munosabatlar yoki oila jamuljam boʻladigan uy tushunchasi ham faqatgina joy, maskan mazmunini ifodalamay, balki oila aʼzolari, oilaviy munosabatlarni ham ifodalashi mumkin. Masalan: *“Koʻcha sevgisi uyni barbod qiladi”* – ushbu maqoldagi “uy” leksemasi bino maʼnosida emas, balki oila semasida qoʻllanmoqda. *“Koʻcha sevgisi”* – yengilyelpi hayot oilaviy munosabatlarni buzadi kabi mazmun yuklangan. Bundan tashqari, “uy” leksemasi *uy ichi* – “oila aʼzolari”, *uyi buzilmoq* – “er-xotinning ajrashishi”, *uyi kuymoq* – “xonavayron boʻlmoq” kabi koʻchma maʼnolardagi birliklarda ham keladi. *“Uyli-joyli qildik”*: *“Uyi buzilmasin”*; *“Shoikromni uylantirishdi”* ushbu gaplardagi “uyli-joyli”, “uyi buzilmoq”, “uylanmoq” soʻzlari mazmunida “oilali qilmogʻ”, “oilasi buzilmasin” degan mazmun bevosita “uy” konseptini ifodalamoqda. *“Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor”* kabi maqollarda “uy” leksemasi konseptual belgilar orqali ochib berilgan. Ushbu maqolda “bolali” va “bolasiz” soʻzlari konseptual belgi vazifasini bajargan. Xususan, “bolali uy”; “bolasiz uy” –konseptual belgi + leksema =konsept tarzida namoyon boʻladi. Uy leksemasining oʻzi kelganda makon, ammo bolali, bolasiz sifat leksemasi bilan kelganda birgalikda “baxtiyorlik”, “baxtsizlik” semasini ifodalovchi “uy” konsepti orqali oilaviy ahvol, oilaning sharoiti koʻrsatib berilmoqda. “Uy” konseptini bildiruvchi maqollar bir-biridan maʼno nozikliklari bilan farqlanishi, umuman, boshqa-boshqa semalarni aks ettirishi mumkin. Maʼlum bir xalq oʻzining dunyoqarashi, urf-odatlari, madaniy hayotini oʻz tilida aks ettiradi va xalq ogʻzaki namunalari orqali ajdodlardan avlodlarga meros qilib qoldiradi. Xalq ogʻzaki ijodining asrlar osha, avlodlan-avlodga, tillardan tillarga oʻtib, kamol topib kelayotgan oʻziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Xususan, ushbu maqollarda “uy” konsepti faqatgina makon, joy mazmunini emas, balki oila, oilaviy munosabatni aks ettirgan.

“Uyi boshqa – mungi boshqa, oʻyi boshqa gʻam bilmas” – aytish joizki, har bir oilaning oʻz gʻam-u quvonchlari boʻladi, albatta, bu oilaning aʼzosi shu tashvish-u xursandchiliklar bilan yashaydi. Bu yerda mung – hazinlik maʼnosini bildirib, quvonchli damlarda begonalar ham sherik boʻlishi mumkin, ammo mushkul vaziyatda oʻzingnikilar doimo yonma-yon boʻladi. Mazkur maqolda uyi, oilasi

boshqa bo'lgandan keyin o'y-g'amlari ham o'zgarishi mumkinligi ifodalangan bo'lsa, "Uyim sinch – ko'nglim tinch" maqollarida oilaviy xotirjamlik inson faoliyatining har bir jarayoniga ta'sir qilishi e'tiborga olingan. Sinch so'zining ma'nosi bino, inshootlarning yog'och qismi mazmunini bildirib, inshootni qurishda sinch qism asos vazifasini bajarib, uning mustahkamligini ta'minlaydi. Oilaviy munosabatlar mustahkam bo'lsa, insonning ko'ngli hotirjam bo'ladi. Demak, ushbu maqolni o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda ham tushinish mumkin. "House upon a rock, Build one's" (Uyni qoyaga qurmoq) inglizlarni ushbu maqoli yuqorida keltirilgan maqolga mazmunan o'xshaydi. Zero, bino qoyaga qurilsa, mustahkam bo'lmasligi, xotirjamlik bo'lmasligini maqol orqali ifodalangan bo'lib, maqolda bevosita qoya leksemasining ishlatilishi ingliz xalqining turmush tarzi, hududining geografik joylashuvi bilan bog'liq hodisadir. "Oshsiz uy bor-u, janjalsiz uy yo'q", "Bir kun janjal chiqqan uydin qirq kun baraka ketadi" - ma'lumki, har bir oilada kelishmovchiliklar, moddiy qiyinchiliklar bo'ladi. Bu maqolda, aynan, xalqimiz janjalsiz oila bo'lmasligi, lekin bu orqali o'tkinchi holatligi, turmushda har xil vaziyatlar bo'lishini ta'kidlaydi. Chunki oiladan baraka uchishi o'zbek mentalida salbiy bo'yodqorlikka ega hodisad bo'lib, o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan o'ziga xos jihaddir. Ushbu maqolning muqobil varianti sifatida "Fish, if you swear you will catch no" (Janjallashadigan bo'lsangiz baliq tutolmaysiz) ingliz maqoli bir semantik mazmunni ifodalab, umumiy hukm-xulosa yagona nuqtaga birlashadi, ammo ulardagi harakat qiluvchi konseptual belgilar farqlanadi. Maqollarda osh, baraka kabi tushunchalar o'zbek mentaliteti, madaniyatidan kelib chiqqan holda maqollar mazmuniga singib ketgan bo'lsa, ingliz maqolidagi fish (baliq) konseptual belgisi shu xalqning turmush tarzida baliq ma'lum bir davrda yetakchi tirikchilik manbai ekanligini bilishimiz mumkin. Bu tamoyil har bir xalqning urf-odati, sharoiti, badiiy-estetik qarashi bilan bog'liq. Maqollar shunday tabiatga egaki, xalqimiz o'z o'y-fikrlarini ham zohiriy ma'nosida, ham botiniy ma'noda ifodalab kelgan. "O'rgimchak ham o'z uyim deydi" – "Bird likes its own nest, Every" (Har qush o'z uyasini der). Xususan, ushbu maqollarda ham o'rgimchak yoki qushlar garchi to'rlar, daraxtlar orasida yashasa ham, ammo u uchun o'sha to'rdan yasalgan uyi aziz o'zi intiladigan makonidir. Maqolning bu zohiriy ma'nosida uy "makon", botiniy ma'nosida "oil", "Vatan" semalarini bildirdi. Sababi bu dunyoda har bir mahluqot oilaga intiladi.

"Yetim yetti uydin osh ichar" – xalqimiz azaldan yetim-yesirlarning boshini tilagan xalq. Shuning uchun ham ushbu maqolda "yetti uyda" yetti oiladan "osh ichar" mehr ko'rar degan ma'noda kelmoqda. Bu orqali "uy" konsepti oila ma'nosini ifodalayotgan bo'lsa-da, maqoldagi konseptual belgilar orqali xalqimizning muhimiyigi, bolajonligi ko'rsatib berilgan.

"Uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi", "Uy siri yopig'li qozon". Ushbu maqollarda "uy" konsepti oilaviy sir mazmunini ochib berilgan. Har bir oilaning o'z muammolari, sirlari mavjud. Aynan uydagi gapni har kimga ham aytib bo'lmasligidan tashqari xalqimiz ogohlantiradi. Maqollardagi "uydagi gap", "uy siri" oilaviy sir mazmunini bevosita "yopig'li qozon" metaforik o'xshatish orqali ifodalangan. Ingliz pragmatologik qatlamidagi "Wash your dirty linen at home" (Uydagi gapni ko'chaga chiqarma) maqolida ham "home" konsepti orqali yuqoridagi mazmun yoritib berilgan.

Har ikki tildagi maqollarni tadqiq etish jarayonida "oila" muqaddas tushuncha bo'lishi, oilaviy munosabatlar insonlarni o'zaro mushtarak birlashtirib turishini anglashimiz mumkin. Zero, dunyodagi xilma-xil millat vakillari turli mintaqalarda yashab, turlicha din, dunyoqarash, tilga ega bo'lsa-da, ularni umuminsoniy mushohadalar, umumbashariy g'oyalari o'zaro birlashtirib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арутюнова Н. Логический анализ языка. Ментальные действия. - М., 1993.
2. Кубрякова Е. Кратком словаре когнитивных терминов. - М., 1996.
3. Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. - Т., 2005
4. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли луғати. - Т., 1990
5. Кароматова К., Кароматов Н. Proverbs, Maqollar, Posloviцы. - .: Mehnat, 2000

L.KOMILOVA, ToshDO`TAU magistranti

REKLAMA TILI VA TEMPERAMENTI

Resume

The article directs attention the factors of formulating the language of advertisement and temperament.

Key words: advertisement, temperament, sociolinguistics, social character, poster.

XXI asr axborot asri bo'lishi bilan birga reklama asri ham bo'lib qoldi. Reklama bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning o'ziga xos shartiga aylandi. Aytish joizki, mahsulot ishlab chiqarishning kengayishi, xizmat ko'rsatish turlarini ko'payishi bilan bozorlardagi raqobat ham keskin o'sib bormoqda. Bu esa, o'z navbvtida, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining reklamaga bo'lgan talabini kuchayishiga olib kelmoqda.

Shunday sharoitda o'z milliyligini saqlagan va jahon andozalarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek tilidagi reklamalar, unga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, yozilishi va xaridorlarga yetkazilishi iqtisodiyotimizni ham, ma'naviyatimizni ham, jamiyatimizni ham yuksaklikka olib chiqishi shubhasizdir.

Istiqlol yillarida yangicha fikrlashning shakllanishi tufayli ma'naviyat, madaniy meros, ona tili imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish va tahlil etish uchun keng imkoniyat yuzaga keldi.

Tilshunoslikda tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyot faoliyatini o'rganuvchi soha sifatida yuzaga kelgan sotsiologlar va tilshunoslarning tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika lingvistlar oldiga sotsiolingvistik tadqiqotlar olib borishni vazifa qilib qo'yadi. Bizning kichkinagina tahlilimiz ham o'z navbatida sotsiolingvistika bilan bog'liq holda o'zbek tilidagi reklamalarning sotsiolingvistik tahliliga bag'ishlanadi.

O'zbek tilidagi reklamalarning ijtimoiy tadqiqiga oid ko'pgina ishlar qilingan. Masalan, A. Abdusaidovning "O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati" monografiyasi, "Reklama tili", "Reklama va savodxonlik" kabi maqolalari, U. Saidovning "Globallashuv va madaniyatlararo muloqot", I. U. Ne'matov va boshqalarning "Reklama faoliyatini tashkil etish" kabi tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Dunyo olimlaridan A. P. Repevning "Язык рекламы", S. N. Bardishevning "Рекламный текст", Klod Хоркинning "Научная реклама", D. E. Rozental va N. N. Кохтеvning "Язык рекламных текстов", R. Rivzning "Слово в рекламе", F. P. Nasteranko va G. N. Babadjanovanning "Эффективная реклама" kabi tadqiqotlarida ham reklama matnining turli qirralari yoritilgan. Bundan tashqari, tilshunos O. Jumaevning reklamaga oid izlanishlari o'ziga xosdir. U "Vizual reklama", "Reklamanning lisoniy xussiyatlari", "Reklamada terminlarning qo'llanilishi" nomli maqolalarida reklama tiliga oid bir qancha tavsiyalar berib o'tadi, uning doktorlik dissertatsiyasi ham reklama tili mavzusiga oid.

Reklamanning ijtimoiy xarakterini yoritishga doir yana ko'pgina maqolalar mavjud: F. Mo'minovning "O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi saylov komissiyasini tashviqot-reklama bilan ta'minlash masalalari", A. Abdusaidovning "So'z va talaffuz", A. Abdusaidov, M. Usmonovning "Tilimiz ko'zgusi yoki ayrim reklamalar materiallari adabiy til me'yorlariga mos kelmayotganligi to'g'risida", N. Shomurotova va F. Toshpo'latovanning "Reklamanning idrok qilinishi", I. Abdievning "Sizni hech reklama bezovta qiladimi?", B. Botirov va K. Hotamovning "Yana reklama", U. Bo'taevning "Milliy mentalitet va reklama", Sh. Yunusovanning "Reklama shiorlari xususida", N. Qosimovanning "Reklamada musiqadan foydalanish" va h.k.

Reklamadan ishlab chiqarish tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari xilma-xil turlarini namoyish etishda foydalaniladi. Reklamanning asosiy afzallik jihatlardan biri tezkorlik va tejamkorlik xususiyatiga egaligidadir.

Bugungi kunda turli sohalarda reklama berish bo'yicha, uning qanday yaratilayotgani-yu, qanday maqsadlarda qo'llanilayapti va qo'llanilishi shart, bu jarayonlarning ijobiy va salbiy ahamiyati, milliy urf-odatlarimizga va yoshlar turbiyasiga ta'siri haqida har xil qarashlar mavjud.

Hozirgi paytda reklama nafaqat mahsulotni targ'ib qiluvchi vosita, balki ishlab chiqarishdagi muayyan yutuqlarni namoyish etuvchi, aholiga ma'lum ma'noda axborot yetkazuvchi, insonning ruhiy-intellektual holatiga tez ta'sir etuvchi, ona tili imkoniyatlarini o'zida aks ettiruvchi tezkor omil hisoblanadi. Mana shu davr nuqtai nazaridan reklamalarning sotsial qiymati, sotsiologik tadqiqi yuzasidan fikr bayon etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir.

"Vikipedia" elektron manbasida yozilishicha, reklama – xohlagan shakl va usulda tarqatiladigan, odamlarning e'tiborini qaratishga yo'naltirilgan, omma qiziqishlarini shakllantiruvchi, shu bilan birga, bozorda e'ton qilinayotgan obyekt obro'sini saqlovchi axborotdir. Uning ta'sirida iste'molchida mahsulot va xizmatlarga ehtiyoj yuqori bo'lmasa-da, qiziqish paydo bo'ladi va aksariyat hollarda mahsulotni sotib oladi. Shu sababli bugungi ijtimoiy hayotda reklamanning bir qancha ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda salbiy tomonlariga ham to'xtalmay iloj yo'q. Ayniqsa,

bugun televizor qarshisida kunining asosiy qismini o'tkazayotgan bolalar reklamani qanday qabul qilayotganini o'rganish juda katta ahamiyatga ega.

1998-yilda O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi, shuningdek, bugungi kun talabidan kelib chiqib, unga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ayni paytda ushbu qonun mamlakatimizda reklama tayyorlash va tarqatish to'g'risidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur qonunning 5-moddasiga muvofiq, reklama materiallari asosan davlat tilida, reklama beruvchi tomonning xohishiga asosan rus, ingliz tillarida berilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari rang-barang. Masalan, bugungi kunda ko'chalardagi afishalar, nashriy adabiyotlar, OAV orqali e'lon qilinayotgan turli xizmatlar yoki mahsulotlar reklamasi, gastrol-konsert, kino va video, ijtimoiy muhofaza hamda ogohlikka da'vat etuvchi reklamalar mavjud. Ular mahsulotni tanlashda yordam berish bilan birga ruhiy holatga, nutq madaniyatining oshirishga ham ma'lum ma'noda ta'sir qiladi. Har jihatdan mukammal, bezakli, bejirim, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda tayyorlangan reklamalar inson ruhiyatiga nafaqat ijobiy ta'sir etadi, kerak bo'lsa, hordiq chiqarishga yordam beradi.

Reklamaning asosiy maqsadi sotish va faqat sotish. "Agar reklama sota olmasa, eng yaxshi ajoyib matn ham foydasiz"¹. Reklamada har bir so'z sotish uchun xizmat qilgan ekan, demak, har bir so'z ustida badiiy, iqtisodiy tomondan yuksak talablar asosida ish olib borish lozim bo'ladi.

Reklama kompyuter ekрани yoki ofis stolida yashamaydi. U haqiqiy o'ziga xos muhitda – gazeta, jurnal yoki televideniya bloklari, avtoyo'l shitalarida yashaydi. Demak, o'ziga xos har xil muhitlarda reklama ham har xil ko'rinishda bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq kommunikantlarining millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi. Bulardan tashqari, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi aloqaning kontakt-distantligiga ko'ra ham ixtisoslashadi.

Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya'ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so'zlovchi - adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat deb, kommunikant deb muloqotda bevosita ishtirok etuvchilar ko'zda tutiladi².

Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, reklamada adresat – reklama matni bilan tanishuvchi shaxs, o'quvchi. Retsipient termini ham aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Adresant – reklama matnini tayyorlovchi va tarqatuvchi subyekti. Reklamaning vazifasi sotish va yana sotish ekan, adresant bu muammoni yechuvchi shaxslardan asosiyisidir. Umuman olganda, tushunarli so'zlardan foydalanish uning birlamchi vazifasidir.

Ma'lumki, har qanday reklama axborotni ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, har qanday reklamaning birlamchi va asosiy elementi bu tildir. Reklamalar matni ko'cha tilining boshqa turlari (peshlavha, shior, afishalar) matnlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

¹Бардышев С.Н. Рекламный текст. Методика составления и оформления. – Москва, 2010. –С.72.

²Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiologik. – Samarqand: SamDU, 2010.–B. 41-42.

Reklamalar o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: jumladan, lingvistik birliklarning qo'llanishiga ko'ra, reklamaning nima haqida axborot berayotganligiga ko'ra, tovar va xizmatlarning kategoriyasiga ko'ra, matn qaysi vosita orqali berilayotganligiga ko'ra, ta'sir doirasiga ko'ra, reklama kimlarga mo'ljallanganligiga va axborotni yetkazish usullariga ko'ra. Reklamalarning bu turlari matn tuzilishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Reklama shunday jarayonki, unga har kuni, har yerda har bir kishi duch keladi. Reklama ommaviy kommunikatsiyaning barcha sohalariga kirib bormoqda. Reklamani ommaviy axborot vositalariga tayangan holda yana quyidagi besh turga ajratish mumkin:

1. Matbuot reklamasi.
2. Radio reklama.
3. Televizion reklama.
4. Tashqi reklama.
5. Internet reklamasi

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, reklamaning tempramenti, ma'lumoti, yashash tarzi har xil bo'lgan odamlar ko'rishadi va tinglashadi. Shuning uchun reklama o'rtamiyona tinglovchilarga moslashtirib yaratiladi.

Har qanday holda ham reklama ishonchli, uning uslubi og'zaki suhbat tarziga yaqin, lekin nutqdagi nuqsonli so'zlar, jargonlardan xoli bo'lishi lozim.

S.TUXTAYEVA, ToshDO'TAU magistranti

NUTQ MEXANIZMLARI

Resume

This article is about to identify the formulating mechanism of speech

Key words: speech, mechanism, psycholinguistics, voice, neurology, homonyms.

"Mexanizm" tushunchasi ko'pgina fanlarda qo'llanilgani kabi hozirgi kunda psixolingvistika va tilshunoslik sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. Avvalo, "mexanizm" tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz. "Mexanizm" tushunchasi "biror narsani biror narsa vositasida harakatga keltirish"ni ifodalaydi¹.

"Nutq mexanizmi" tushunchasi psixolingvistika va neyrolingvistika fanlarida ham keng tadqiq etilgan hodisalardan biridir. "Nutq mexanizmlari" atamasini juda ham keng ma'noda tushunish mumkin. I.A.Zimnayaning ta'kidlashicha, "miya mexanizmi", "nutq mexanizmi" tushunchalari metaforik ma'noda qo'llaniladi. Nutq mexanizmi nazariyasining o'rganilishi birinchi darajadagi amaliy ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan biridir. Agar bizga nutqiy so'zlashuv tizimining birliklari, elementlarimalum bo'lsa, fikrni yetkazib berish, tushunish va shakllantirish jarayonlari qanday amalga oshiriladi degan savol tug'iladi. Jinkin N. I. o'zining

¹ Jinkin N. I. Психология обучения неродному языку. - М., 1989 - С. 166.

“Механизмы речи” asarida nutq mexanizmi muammosininutqiy so‘zlashuvning oddiybirliklarini o‘rganish bilan cheklash maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi¹. O‘zining ishida ham aynan shunday chegaralash amalga oshirilib, nutq mexanizmining, asosan, tovushlardan so‘zlar yasash qismi o‘rganilgan. Nutq tovushlarining paydo bo‘lishi, bo‘g‘inlar yasalishi, so‘zlar va iboralarning shakllanishi masalalari nutq mexanizmining birlamchi muammolaridan hisoblanadi. Bu ona tili va chet tillarini o‘zlashtirishdagi, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi, xususan, orfografiyani o‘rganishdagi, nutq va uning yuqori shakllarini tadqiq qilishdagi muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq mexanizmining o‘rganish nuqtalaridagi turli xil patologik hodisalarni, nutqiy tartibsizliklarni tushunishga va o‘rganishga yordam beradi.

Nutq patologiyasi nutq mexanizmi qismlaridagi kamchiliklarda nutqning qaysi vazifalari buzilishi haqida ma’lumot beradi. N.I. Jinkin ta’kidlaganidek, nutq mexanizmining butun tizimini ikki qarama-qarshi bo‘g‘inga ajaratish mumkin. Nutqni qabul qilish va nutqni shakllantirish mexanizmi².

Nutq mexanizmining birinchi bo‘g‘inida – birliklar hosil qilish uchun til elementlaridagi asosida tanlab olinsa, nutqni ishlab chiqarishda esa nutqni xabar tarzida yetkazish uchun til elementlari tanlab olinadi. Shu jihatdan nutq mexanizmining bu ikki bo‘g‘ini bir-biriga qarama-qarshidir. Nutqni qabul qilishda qabul qilinayotgan so‘z elementlarini farqlash va uni tanib olish muhimdir. Nutqni ishlab chiqarishda ham ushbu harakat yuzaga keladi. Nutqni qabul qilish keng ko‘lamda bir necha sohalar doirasida o‘rganiladi: fiziologiya, nevrologiya, psixologiya, psixolingvistika.

Nutq mexanizmlarining o‘z vazifasini amalga oshirishi butun bir tizimni tashkil etadi. Nutqni qabul qilish quloq, ya’ni sezgi a’zolarimiz orqali qabul qila olishdan boshlanadi. Nutqni qabul qilishning muhim jihati shundaki, unda ob’ektning o‘zi emas, belgisi qabul qilinadi. Nutqni qabul qilish uni bir elakdan o‘tkazish orqali sodir bo‘ladi, u eshitish bilan bog‘liqdir. Nutqni qabul qilishda eshitish va ko‘rish tiplari ajratiladi va bizni eshitish orqali qabul qilish ko‘proq qiziqtiradi. Nutqni qabul qilish haqida I.N. Gorelov shunday yozadi: Fikrni qabul qilishning murakkab tomoni shundaki, unda so‘zlar ko‘p ma’nodlilik va omonimlik kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi³.

Leksik-grammatik jihatdan til tushunchalarini dekodlash nutqni fikrni qabul qilishni tushuntirishga yetarli emas. Bu yerda holatdan kelib chiqib aytilgan so‘z katta ahamiyatga ega. I.I. Gorelov bu borada Jinkin qarashlariga qo‘shiladi: “Biz nutq (matn)ni emas, voqelikni tushunamiz”. Aytilgan fikrni qabul qilish jarayonida adresat nutqidagi fikrni faollashuv muhim rol o‘ynaydi.

Nutqni ona tilida qabul qilish ko‘p o‘rganilgan. Chet tilidan nutqni qabul qilish nisbatan murakkab jarayon. Tinglovchi chet tilidagi nutqni o‘z ona tilidagi til tizimiga asoslanib qabul qiladi. E.D. Polivanov bu masalaga birinchi bo‘lib ahamiyat qaratgan olim edi. U nutqniung sub’ektiv xususiyatlari haqidagi mashhur tezisini ilgari suradi va shunday yozadi: “Fonemalar va elementar fonologik birliklar har bir

¹Жинкин Н.И. «Механизмы речи». Издательство академии педагогических наук. – М., 1958. – С. 13.

²Жинкин Н.И. «Механизмы речи». Издательство академии педагогических наук. – М., 1958. – С. 20.

³Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психоллингвистики: Учеб пособие. – М.: Лабиринт. 1997.

til egasida o'z tilidan kelib chiqib assotsiatsiya hosil qiladi. Shunday qilib, fonemalarni o'z tilidan kelib chiqib analiz qiladi, hatto jumlar va so'zlarni ham¹.

Bolalarda nutqni qabul qilish jarayonini o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. L.S.Vigotskiy o'zining "Bolalarda nutqni qabul qilish va uning taraqqiyoti" nomli maqolasida bolalarda nutqni qabul qilish jarayoni xotiraning o'sishi bilan izohlanishi, umuman bu butun bir jarayon ekanligi, nutqni qabul qilish uning ichki qismi bo'lishi, fazoviy bo'lmagan qabul qilishni kategorial qabul qilishdan ajratib bo'lmazligi, ya'ni biz predmet tushunchalarini qabul qilishimiz uni fikriy qabul qilishimizni ko'rsatishini aytadi². Bolalarda qabul qilish jarayoni T. P. Xrizman, V.P. Yeremeev, T.D.Loskutovlarning "Bola miyasining faolligi, nutqi va emotsiyasi" ishida keltirilgan 3-7 yoshli bolalardan olingan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh bolaning miyasi unga shaxsan tanish, emotsional ahamiyatli so'z aytilganda faol holatda bo'ladi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bolada qabul qilish mexanizmi ishlashi unga so'zning tanishligi, tanlangan munosabat nutqiga bog'liq.

Nutqni ishlab chiqarish sintezdan boshlab eng oxirgi elementlarga parchalanish bilan tugaydigan jarayondir. Faqatgina nutq effektorlarining chiqishida yana eshitis uchun moslashgan sintezlangan nutq kelib chiqadi. Biroq nutq ishlab chiqarish yo'lini tushunish hamda ushbu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ko'zdan kichirish uchun asosan nutq effektorlari chiqishidagi tahlildan sintezga o'tish holatini o'rganish kerak. O'rganishning bunday usuli nafaqat qulay va amaliy, balki nutq ishlab chiqarish jarayonining tub ma'nosidan kelib chiqadi. Nutqning harakatlanuvchi apparati dastlab bo'm-bo'sh bo'ladi. Nutq mexanizmini ishga tushirish so'z yoki bo'g'in obrazini ishlab chiqarishdan boshlanadi. Agar mexanizm bo'g'in ishlab chiqarishga qodir bo'lsa, u nutq ham ishlab chiqara oladi.

Agar so'zlar yig'indisi zarur tarkibda o'zlashtirilishi mumkin bo'lsa, unda faqatgina bu so'zlar yig'indisidan so'zlarni tanlab olish muammosi tug'iladi. Bundan tashqari, so'zlarni tanlab olishda nutq effektorlari sekinlashgan, tovush xususiyatlarining sintezi esa, masalan, harflar bilan almashtirilishi mumkin. Agar so'zlar yig'indisi hali o'zlashtirilmagan bo'lsa, u holda nutq effektorlari ishisiz yiqilgan kela olmaydigan so'zlar yig'indisini yaratish muammosi yuzaga keladi. Ushbu mexanizm markazida tanish so'zlar tarkibidan iborat so'zlar yig'indisi tashkil topadi, deb hisoblansa, bir tomondan lug'atdagi so'zlar qanday, qaysi qoidalarga asoslanib va qaysi elementlardan tashkil qilinganligi haqida bilish ehtiyoji tug'ilsa, ikkinchi tarafdin xabar qanday va qaysi qoidalarga asosan tashkil topgan so'zlardan iborat qanday qilib elementlardan tuzilishini aniqlash kerak. Signal ma'nolar boshqa signalga yetkazib berilishi uchun shunday tashuvchi signallar kerakki, ular boshqa shivalent (akustik) signallar bilan almashtirilishga qodir bo'lishlari va shu bilan birga ushbu ma'nolarni yo'qotishlarsiz eshituvchining eshitis analizatoriga yetkazib berilishi lozim. Aniq qilib aytganda, signallarning birinchi turi harakat analizatori yordamidan asab impulsleri, ikkinchi turi esa nutq effektorlarining mushak harakatlari, uchinchi turi akustik signallar hisoblanadi.

¹Лекции по введению в языковедение и общей фонетике. –М.: 2004.

²Лекции по психологии. СПб.: СОЮЗ. 1997.

Nutq effektorlari mushak sinergiyalarining qiyin tizimini tashkil qiladi. Har bir mushak tolasiga o'ziga xos alohida asab impulsi etkazib berilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutqning qabul qilish va ishlab chiqarish mexanizmlari murakkab jarayon bo'lib, nazariy jihatdan amaliy ahamiyatga egava alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan jarayonlardan hisoblanadi.

D.TO'RAYEVA, ToshDO'TAU magistranti

NUTQNING SHAKLLANISHI VA UNDA UCHRAYDIGAN XATOLAR

Resume

In this article, it is analyzed about some defects in the process of speech forming.

Key words: speech forming, defects, information, speech activity, language.

Til orqali har bir kishi o'zi hech qachon duch kelmagan notanish hodisa, holat, vaziyat, sharoitlar haqida bilim olishga erishadi. Shu boisdan til odam uchun hissiy va intellektual ta'sir hamda taassurotlar to'g'risida o'ziga o'zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til vositasida boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik haqida axborot, xabar, ma'lumot berishi, ularga ijtimoiy tajriba asosida ko'nikma hamda malakalarni o'tkazishi, uzatishi mumkin.

Ma'lumki, hayvonlar o'zlarining individual tajribalarini o'z turkumidagi boshqa namoyondalarga o'tkazishga yoki berishga, shuningdek, o'zlashtirish qobiliyatiga ham ega emas, chunki mavjudotlar tug'ma irsiy belgi, instinkt va shartsiz reflekslarga asoslanadi, xolos. Demak, inson hayvonot olamidani farqli o'laroq o'zi xoh amaliy, xoh aqliy harakat bo'lishdan qat'i nazar, uni rejalashtira oladi. Faoliyatni bunday rejalashtirish yechimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli – til. Tilning o'zi nutqsiz yuzaga chiqolmaydi, ular bir-birini taqozo etadigan ijtimoiy hodisa. Nutqning qanday muhitda shakllanganligi haqida tilshunos olimlarning turli qarashlari mavjud.

Nutqning qanday hosil bo'lishi 50 yil mobaynida dunyo olimlarini qiziqtirgan va bu o'z davrida dolzarb muammoga aylangan. 1865-1873-yillarda fransuz tilshunosi olimlari nutqning hosil bo'lishi tadqiqini befoyda va samarasiz ish deb qaraganlar. Londonlik tilshunosi bu ish filologiyani zimmasidagi vazifa emas degan to'xtamga kelganlar. V.P.Belyaninning fikricha, nutq ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shakllangan. Ov qilish jarayoni ibtidoiy jamoa vakillarini bir-birlari bilan o'zaro muloqotga kirishishga majbur etadi.¹ Dastlab ular o'z fikrlarini imo-ishonlar orqali munosabatga kirishganlar. Demak, ibtidoiy jamoa davrida nutqni mehmat jarayoni yuzaga keltirgan deyish mumkin.

F. de Sossyur tomonidan til va nutqning farqlanishi psixolingvistik tadqiqotlarda "nutqiy faoliyat" tushunchasining yanada aniqroq bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. A.A.Leontev fikriga ko'ra, F.de Sossyur nutqiy faoliyatni til va

¹ Belyanin V.P. Psixolingvistika. – M., 2004

lisoniy qobiliyatning birligi sifatida tushuntirgan. L.V.Shcherba esa nutqiy faoliyatni soʻzlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, deb belgilagan¹. Ye.S.Kubryakovaning taʼkidlashicha, aynan L.V.Shcherba til hodisalariga oid boʻlgan nutq, uning real asosi hamda nutqiy jarayon mahsulini ajratib koʻrsatgan. Shuningdek, olim *nutqiy faoliyat* termini ostida nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalarni tushunish kerakligini alohida qayd etgan².

I.A.Zimnayaga koʻra, nutqiy faoliyat faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar oʻrtasida oʻzaro taʼsir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat boshqa kengroq, masalan, ijtimoiy-ishlab chiqarish (mehnat), bilish faoliyatiga ham kirishi mumkin. Biroq u mustaqil faoliyat boʻlishi mumkin. Nutqiy faoliyatning har qaysi turi oʻzining "kasbiy timsoli"ga ega boʻladi, masalan, gapirish - maʼruzachining, yozish - yozuvchining kasbiy faoliyatini koʻrsatadi³.

L.S.Vigotskiyning fikricha, fikr nutqqa aylanguncha bir necha bosqichlarni oʻtishi lozim. 60-70-yillarda rus psixolingvistikasi tomonidan ishlab chiqilgan nutq yaratilishining barcha psixolingvistik modellarida L.S.Vigotskiy tomonidan taklif qilingan taʼlimotning rivojlantirilganligi va aniqlashtirilganligini koʻrish mumkin. Hinnobarin, nutq yaratilishining birinchi bosqichi uning motivatsiyasidir. Nutq yaratilishining ikkinchi bosqichi fikr boʻlib, u nutqiy maqsad (niyat) tushunchasiga oʻtish keladi. Uchinchi bosqich fikrning ichki soʻz vositasida ifodalanishi bildirib, u zamonaviy psixolingvistikada nutqiy ifodaning ichki dasturlanishiga muqobil boʻladi. Toʻrtinchi bosqich fikrning tashqi soʻzlarning maʼnolari orqali ifodalanishi yoki ichki taʼlimotning amalga oshirishidir. Vanihoyat, oxirgi beshinchi bosqich fikrning soʻzlar vositasida ifodalanishi yoki nutqning akustik-artikulyatsion amalga oshirishidir.

Demak, nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani oʻzlashtirish, mavlodlarga berish(uzatish) yoki kommunikatsiya oʻrnatish, oʻz shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Agar til aloqa vositasi boʻlsa, nutq aynan oʻsha aloqa jarayonining oʻzidir. Nutqiy faoliyat soʻzlash, eshitish, yozish va oʻqish vositasida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar verbal muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. 1989-yilda tilshunos olim Levelta nutqni shakllantirish haqidagi qarashlarini ilgari surgan.⁴ Uning fikricha, inson oʻziga qaratilgan gaplari va boshidan kechirgan nutqiy vaziyatlarini oʻz nutqida namoyon qiladi. Avval maʼlumotlarni toʻplaydi, ularni taqqoslaydi va vaziyatga koʻra kerakli boʻlganlarni foydalanadi. Uning fikricha, nutq quyidagicha hosil boʻladi:

1. Harf	I + sh	q+i+z+g'+i+n	k+e+t+y+a+p+t+i
2. Leksik birlik	Ish	Qizg'in	ketyapti
3. Grammatik birlik	-	-	-di

¹ Osnovi tvoril rechevoy deyatelnosti. – M., 1974. – S. 64.

² Kubryakova I.B. Nominativniy aspekt rechevoy deyatelnosti. – M., 1986. – S. 9.

³ Osnovi V.P. Osnovi psixolingvistik. – M.: AST: Astrel, 2008. – S. 33.

⁴ Osnovi Uchebnin V.P. Psixolingvistika. – M., 2004.

4.Gap	Ish qizg'in ketyapti.		
5.Nutq	Ish qizg'in ketyapti. Ko'chalar toza...		

Inson, deydi olim, hayvonlardan farqli o'laroq, avval maqsad qiladi, keyin rejalashtiradi so'ng grammatik jihatdan tartiblaydi va oxirida natijani yuzaga keltiradi, ya'ni nutqini bayon etadi. Xullas, nutq yaratilishi bir qancha murakkab ruhiy va jismoniy jismoniy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, nutq – faoliyatdir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va namoyon bo'lishi har bir individ uchun o'ziga xos.

Nutqning asosiy funksiyasi – kommunikativlik. Demak, u insonning biologik holati bilan chambarchas bog'liq. Tabiiyki, insonning fiziologik, psixologik holatlarining o'z me'yorida bo'lmasligi natijasida uning nutqiy faoliyatida ayrim kamchiliklar uchraydi. Tilshunos olim Meringer 1985-yilda inson nutqiy faoliyatida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan 8000 ta xatolik mavjudligini aniqlagan. Bu og'zaki va yozma nutqqa ham tegishli. Ushbu xatoliklar, asosan, nutqdagi pauza, to'g'rilash, qaytarish, almashtirishlar bilan bog'liq. Viktoriya Fromkin og'zaki nutqdagi xatoliklarni 4 tipga bo'lgan:

1. So'zning matn mazmuniga mos kelmasligi;
2. So'zlarning o'rnini almashtirib qo'yish;
3. So'zni nutqiy aktdan tushirib qoldirish;
4. So'zni qo'shib qo'yish;

Fonologik sathda ushbu xatoliklar fonema, bo'g'in, so'z va sintagmalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin tovushlar ikki so'zda almashinib qo'llanilishi mumkin¹. Masalan,

Pol	fol
Fol	pol

Demak, "pol" qurilish ashyosi, "fol" esa tom ma'nodagi inson taqdirini bayon etuvchi bashoratdir. "p" va "f" tovushlarining o'rin almashinib kelishi, balki verbal muloqotda o'z semasini saqlab qolar, ammo noverbal muloqotda ushbu holat semalarning mutlaqo o'zgarishiga va bu adabiy me'yoming buzilishiga olib keladi. Olimlarning aniqlashicha, nutqdagi xatoliklarning 87 foizi yuqoridagi holatga tegishli. Hozirgi kunda nutqiy faoliyatdagi buzilishlar nafaqat psixolog yoki shifokorlarni balki, tilshunoslarni ham, qiziqtirgan dolzarb muammolardan biridir. Fikrimizcha, tilshunoslikda bu borada psixolingvistik metodlarning qo'llanilishi ushbu kamchiliklarning yechimiga sabab bo'ladi.

¹Леонтьев А. А. Психофизиологические механизмы речи. Общее языкознание. М., 1977.

MATNNI MORFOLOGIK JIHATDAN AVTOMATIK TAHRIR QILISH DASTURINING LINGVISTIK MODULI

Resume

The article discusses creating linguistic module of program of morphological automatic editor

Key words: automatic editing, morphologic editing, module, part, algorithm, corpus, machine, person.

Avtomatik tahrir jarayoni morfologik, sintaktik, semantik tahrir jarayonlarining uzviy bog'liqligidan iborat.

Matnni morfologik darajada tahrir qilish bevosita so'z turkumlarining lingvistik modelini yaratishdan iboratdir.

So'zni turkumlarga bo'lishda ikki umumiy super kategoriya mavjud: yopiq sinf va ochiq sinf¹. Yopiq sinflar boshqa a'zolar bilan aloqa o'rnatgan. Masalan, predloglar yopiq sinf hisoblanadi, chunki ana shu aloqalar natijasida o'rnatilgan, yangi predloglar kamdan-kam hollarda hosil bo'ladi. Bundan farqli ravishda, otlar va fe'llar ochiq sinf hisoblanadi, chunki yangi otlar va fe'llar davomiy tarzda paydo bo'lib boradi yoki boshqa tillardan o'zlashtiriladi.

Dunyo tillarida to'rtta katta ochiq guruh mavjud: otlar, fe'llar, sifatlar va ravishlar.

So'zlarni turkumlarga ajratish algoritmi bu so'zlarni bir tizimga tizilishi va ma'lum bir tartibda belgilanishidir. Ingliz tilida so'zlarni turkumlarga ajratishda Brown korpusi (1979) dastlabki asosiy ajratish namunasi bo'lib, turli janrlarda yozilgan 500 dan ortiq matndan 1 million ta so'zlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu korpus birinchi turkumlarga ajratishda dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Unda 87 ta ajratilgan to'plam berilgan. Keyinchalik 45 ta ajratilgan to'plamga ega Penn Treebank korpusi (Marcus, 1993), Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus, 1997) kabi so'z turkumlariga ajratishdagi to'plamlar berilgan. Quyida 45 ta ajratilgan to'plamga ega Penn Treebank korpusi beriladi.

Ba'zi turkumlarga ajratishdagi farqlar inson uchun ham, mashina uchun ham murakkabdir. Masalan, predloglar, yordamchi so'zlar, ravishlar katta o'xshashlikka ega. Masalan, *around* so'zi yuqorida sanalgan uchta vazifada ham kelishi mumkin:

1. Mrs. Shafaer never got **around** (particle) to joining.
(Mister Shafaer birlashtirishda ortga qaytmagan).
2. All we gotta do is go **around in** (determiner) the corner.
3. Chateau Petrus costs **around** (adverb) 250.
(Chateau Petrusi taxminan 250 narxlanadi).

Ajratish (Tag)	Tavsif (Description)	Namuna
CC	Coordin. Conjunction	<i>and, but, or</i>

¹ Daniel Jurafskiy & James H. Martin. Speech and Language Processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics and speech recognition.

CD	Cardinal number	<i>one, two, three</i>
DT	Determiner	<i>a, the</i>
EX	Existential 'there'	<i>There</i>
FW	Foreign word	<i>Mea culpa</i>
IN	Preposition /sub-conj	<i>of, in, by</i>
JJ	Adjective	<i>Yellow</i>
JJR	Adj., comparative	<i>Bigger</i>
JJS	Adj., superlative	<i>Wildest</i>
LS	List item marker	<i>1, 2, One</i>
MD	Modal	<i>Can, should</i>
NN	Noun, sing. or mass	<i>llama</i>
NNS	Noun, plural	<i>llamas</i>
NNP	Proper noun, singular	<i>IBM</i>
NNPS	Proper noun, plural	<i>Carolinas</i>
PDT	Predeterminer	<i>all, both</i>
POS	Possessive ending	<i>'s</i>
PRP	Personal pronoun	<i>I, you, he</i>
PRP\$	Possessive pronoun	<i>your, one's</i>
RB	Adverb	<i>quickly, never</i>
RBR	Adverb, comparative	<i>Faster</i>
RBS	Adverb, superlative	<i>Fastest</i>
RP	Particle	<i>up, off</i>
SYM	Symbol	<i>+, %, &</i>
TO	"to"	<i>To</i>
UN	Interjection	<i>ah, oops</i>
VB	Verb, base form	<i>Eat</i>
VBD	Verb, past tense	<i>Ate</i>
VBG	Verb, gerund	<i>Eating</i>
VBN	Verb, past participle	<i>Eaten</i>
VBP	Verb, non-3sg pres	<i>Eat</i>
VBZ	Verb, 3sg pres	<i>Eats</i>
WDT	Wh-determiner	<i>which, that</i>
WP	Wh-pronoun	<i>what, who</i>
WP\$	Possessive wh-	<i>Whose</i>
WRB	Wh-adverb	<i>how, where</i>
\$	Dollar sign	<i>\$</i>
#	Pond sign	<i>#</i>
“	Left quote	<i>(' or “)</i>
”	Right quote	<i>(' or ”)</i>
(Left parenthesis	<i>([, (, ! , <)</i>
)	Right parenthesis	<i>([, ! , } , >)</i>
,	Comma	<i>,</i>
.	Sentence-final punc	<i>(! ?)</i>

	Mid-sentence punc	(: ; ... --)
PennTreebank soʻz turkumlariga ajratish korpusi (punktuatsiyani oʻz ichiga olgan holda).		

Quyida Brown korpusining Penn Treebank variantda ajratilgan soʻzlardan namunalardan keltiriladi:

1. The/ DT grand /JJ jury /NN commentend/ VBD on/IN/ a /DT number /NN of other /JJ/topics/NNS./

(Nufuzli hakamlar hay'ati mavzularning qiymatini izohlab berdilar).

2. There/EX are/VBP 70/CD children/NNS there/RB

(Bu yerda 70 ta bola bor).

3. Although/ IN preliminary / JJ findings/NNS were/VBD reported/VBN more/RBR than/IN a/ DT year /NN ago/IN , /, the/DT latest /JJS result/ NNS appear/ VBP in/IN today/NN's /POS New/NNP England/NNP/ Journal/NNP of/IN Medicine/NNP./,

(Dastlabki topilmalar bir yil oldin aytilganiga qaramay, bugun Yangi Angliya tibbiyot jurnalidan natijalar ko'rindi). Demak, matn korpusini yaratishda g'arb tilshunosligi katta amaliy tajribaga ega. Tahrir jarayonini avtomatlashtirish uchun birinchi navbatda uning lingvistik ta'minotini amalga oshirish kerak. Avtomatik tahrir qiluvchi dasturning lingvistik ta'minotini yaratish uchun birinchi navbatda o'zbek tilidagi fe'llarning LSGlarini semantik maydon sifatida ajratish, ularning ma'no tuzilishini va grammatik xususiyatlarini modellashtirish zarur bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi birgina harakat fe'llarini S.Muhamedova 9 guruhga ajratib tasnif qiladi ².

O'zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan muhim tadqiqotlardan yana biri matn korpusini yaratishdan iboratdir. Bu bir-biri bilan o'zaro bog'liq murakkab tadqiqotlar bo'lib amaliy ahamiyati ham kattadir.

O.SAIDAXMEDOVA, ToshDO'TAU magistranti

THE USAGE OF "DO'PPI" REALIA SINGULAR IN UZBEK LANGUAGE AND "TUDOR BONNET" REALIA SINGULAR IN ENGLISH LANGUAGE

Resume

In this article, realia units are analyzed in the Uzbek and English languages. Realia means existence or non-existent of some meaning in comparing culture

Key words: linguoculturology, realia, realia singular. "duppi", "Tudor bonnet".

The national clothes play an important role in Uzbek culture. They are used at Uzbek's national traditions and customs. *Do'ppi* is a piece of Uzbek national

²Muhamedova S. Harakat fe'llari asosida kompyuterda sturlari uchun lingvistik ta'min yaratish (metodik qo'llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2006. – B. 16-18.

cloth that wear on head, inner and outer fabric, quilted, made stiff with paper. It's composed of *kizak* (a special ribbon, which it is sewed do'ppi's edge), *jiyak* (the rim) and it's formed to circular and squared with painted flowers or without it¹. When the baby is born in a family, this family organize ceremony: *beshik to'yi* (beshik wedding, which new born baby puts in to beshik)² for baby. In this ceremony, do'ppi is gifted to baby by the head of family. Do'ppi is a symbol of the head of family in Uzbek culture. So in the weddings, the head of family (he is usually bride's father and bride groom's father) wears do'ppi. It's expressed that, there has wedding and happiness in his family.

Women's do'ppi is used by brides these ceremonies: *kelin ko'rdi*³ (In Uzbek culture, bride's parents and her other relations visit to bride groom's house after the wedding), *kelin salom* (ceremony in which a new bride greets the members of her husband's family after wedding day), and usually brides wear the do'ppi in few month after the wedding. As well as, do'ppi is wearred at Navruz holiday by girls and brides. So *do'ppi* realia singular does not exist in English culture and English language and this realia singular is estimated a realia in English language.

Do'ppi realia-singular participates many proverbs' compositions⁴: *Haq o'z do'ppisining tagida* (The truth is under it's do'ppi). The proverb is expressed about the truth's obvious in some days. *Uyurni shamol uchirsa, Do'ppingni osmonda ko'r* (When wind scatters the herd, Your do'ppi will fly to the sky). The proverb's meaning is about strength and weakness. *To'kinning do'ppisi kam* (Rich men's do'ppi is a few). This proverb is showed about stinginess. *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar* (When the head safe, *do'ppi* will be found). This proverb's meaning is about to value the health. The existence of *do'ppi* realia-singular components of proverbs are showed that, this realia singular takes a stable possession in Uzbek language.

Do'ppi realia singular is a main component these idioms:⁵ *Birovning do'ppisini birovga kiygizmoq* (to think of about yourselves and to lie others), *do'ppini almashtirgandek* (very easy, it is not difficult), *do'ppining tagida odam bor* (there has somebody which to hear any information), *do'ppisini osmonga otmoq* (to be very happy), *do'ppisi yarimta* (carefree, indifferent), *do'ppi tor keldi* (out of desperation). It can be seen that, do'ppi realia singular relates with head lexeme and it's expressed man's head with his do'ppi on good days or bad days.

Today, there has not any a piece of national head's wear in Great Britain. But *Tudor bonnet* is a hat that ties under chin⁶, belong to Yeoman Borders in Queen castle. Tudor bonnet lexeme is accepted as a conditional realia singular. Because, ordinary people do not wear it in Great Britain. Usually, the British

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. I том, 2006.–Б.676.

²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. I том, 2006.–Б.402.

³Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006. The following examples and their explanations are taken this source.

⁴Ўзбек халқ мақоллари – Toshkent: Sharq, 2013. The following Uzbek proverbs are taken this source.

⁵Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент 1992. The following Uzbek idioms are taken this source.

⁶Macmillan English Dictionary. Bloomsbury Publishing, 2002. P.148.

people respect the Queen and her family. The reason being that, the Queen Elizabeth I saved the British nation from subjugating. So, to organize of each tradition and ceremonies are tied with Queen and her family. In these ceremonies and holidays, the Queen participates, as well as, Yeoman Borders also participate in these ceremonies and holidays together with Queen. Yeoman Borders always wear Tudor bonnet in the ceremonies.

In Tudor dynasty sovereign time, Tudor bonnet put into action among the borders as a glory, so Yeoman Borders began to wear Tudor bonnet and this action became a habit. After certain time, Elizabeth I added tradition to insert white feathers to Tudor bonnet as a symbol of peace. In that way, Tudor bonnet rose up to cult level and it is acknowledged as a national head wear of castle. *Tudor bonnet* realia singular does not exist in Uzbek language, so this realia-singular is considered realia in Uzbek language.

In other words, *do'ppi* realia singular connects with common to all the people and it's expressed an inseparable part of Uzbek culture. *Tudor bonnet* realia singular connects with Yeoman Borders, which castle guards differently *do'ppi* realia singular. Although Tudor bonnet is used only special people, this head wear could find a stable place in English culture. So this realia singular is not seen in Uzbek language.

Literatures

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006.
2. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2013.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати.– Тошкент,1992.
4. Macmillan English Dictionary. Bloomsbury Publishing, 2002.

F.SAIDOVA, ToshDO'TAU talabasi

AYOLLAR NUTQIDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI

Resume

This article is about how to learn implementing of nonverbal means in women speech.

Key words: genderlinguistics, women speech, nonverbal means, version, men, women.

Tilshunoslikning rivoj topayotgan sohalaridan biri sotsiolingvistika oldida turgan vazifalar va muammolar juda ko'p. Bulardan o'zbek tilida til belgilarining ijtimoiy variativligi masalasiga oid muammolarni keltirish mumkin. Avvalo, variativlik nima? degan savolga javob berish lozim. Bir xil ma'noga ega bo'lgan ijtimoiy belgilarning shakl, tashqi ko'rinishdagi nomutanosiblikka, har xillikka *variativlik* deyiladi. Ijtimoiy guruhga xoslangan variativlik jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bevosita aloqada bo'ladi, u turli xil ijtimoiy qatlam haqida guruhlarda

ko'zga tashlanadigan til va nutqiy tafovutlarda o'z ifodasini topadi. Bunday hodisalarni biz kundalik hayotimizda deyarli har kuni uchratishimiz mumkin: masalan, shaxslarning yosh, kasb-kor, saviya, ma'lumotga ko'ra farqlanishi nutqda namoyon bo'ladi va sezilib turadi.

Tilda erkaklar va ayollar nutqi ham farqlanadi va bunday farqlanishni tilshunoslikning yangi sohalaridan bo'lgan *genderolinvistika* bo'limi o'rganadi. "Sotsiologiya hamda psixologiya fanlarida "gender" tushunchasi "biologik jins" tushunchasidan farqlanuvchi ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Buning asosida jamiyatda erkak va ayollarga xos bo'lgan xususiyatlar negizida shakllangan "ijtimoiy jins" tushunchasi yotadi. Boshqacha aytganda, gender tadqiqotlarda uzoq vaqt davomida odamlar dunyoqarashida shakllangan, jamiyat tomonidan (taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida!) qabul qilingan erkaklik va ayollik (maskulinnost va feminism)ka xos axloq me'yorlari tushuniladi".¹

Ayollar nutqi erkaklar nutqidagi fonetik, leksik va grammatik jihatiga ko'ra farqlanadi. Ammo bu fikrdan maxsus ayollar nutqi mavjud, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Erkaklar va ayollar nutqi o'zbek tilida yaqqol ajralib turmaydi. Lekin yapon, ingliz, rus va h.k. tillarda erkaklar va ayollar nutqi alohida grammatik kategoriyalar bilan ifodalanadi va farqlanadi. Biz ayollar nutqida ishtirok etuvchi noverbal vositalarning ahamiyati haqida so'z yuritmoqchimiz.

Noverbal vositalarning aloqa-aralashuvda ishlatilishi tilning rivojlanish jarayonida o'ziga xos omil sanaladi. Xotin-qizlar xarakteri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri his-hayajon va holatning tez yuzaga chiqishida ko'rinadi. Bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Nutqqa qo'shimcha ma'no berish, uning ta'sirchanligini oshirishda deyarli har bir ijtimoiy qatlam vakili noverbal vositalardan foydalanadi. Bu jarayon bevosita muloqot paytida o'z-o'zidan sodir bo'ladi. Odatda ayollar o'z nutqida fonatsion va kinetik noverbal vositalardan foydalanadi.

Xotin-qizlar nutqidagi fonetik xoslik nutqiy odatning turli vaziyatlarida aniq yuzaga chiqadi. Erkak kishining ovozi yo'g'on, kuchli bo'ladi. Talaffuzda ayol erkakdan ovoz tembri, pauzalarining xarakteri, nutq tempi bilan farqlanadi. Ayollar ancha mayin, ingichka ovozda, urg'uni yanada cho'zib so'zlaydilar.² Muloqot jarayonida ayollar undov so'zlardan unumli foydalanib, turli ohanglarda turli xil ma'no berish uchun foydalanadi (*Voy* undov so'zining 10dan ortiq ma'noni bildirgan holda talaffuz qilish mumkinligi ma'lum). Ayollar nutqida unli fonemalarni cho'zib, undosh fonemalarni ikkilantirib talaffuz qilish hodisasi ko'p uchraydi, erkaklar nutqida bu holat ancha kam kuzatiladi. Ma'lum sotsial-ijtimoiy holat ham nutq jarayoniga ta'sir qilishi mumkin bo'lib, past ohangda gapirish tasdiq, ishonchsizlik; yuqori ohangda gapirish savol, qahr-g'azab, achchiqlanish kabi ma'notlarni bildiradi va bu holat ayollar nutqida ham o'z aksini topadi. Ayollar nutqida erkalanish, erkalash ohanglari yetakchilik qiladi. Fonatsion noverbal vositalar ayollar nutqida shu tarzda namoyon bo'ladi.

"Voy man o'layii-in, qurib ketsin!" (Odil Yoqubov "Diyonat")

¹ Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida// O'zbek tili va adabiyoti.- T.,2014. 2-son.

² Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. -T.,1993.

V.G.Kolshanskiyning fikricha, “Paralingvistik vositalar subyektning verbal (soʻzli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini toʻldiradigan nutqiy muloqot boʻlimidir”.¹ Shunday ekan ayollar nutqi bosh, qoʻl, qosh, koʻz, lab harakatlari bilan boyib, ular orqali nutqning yanada taʼsirchanligini oshiradi. Masalan, oʻzbek ayollari nutqida qoʻl harakati orqali turli oʻrinlarda har xil maʼno ifodalanadi, fikrga qoʻshimcha mazmun yuklanadi, nutqning taʼsirchanligi oshiriladi, his-hayajon ifodalanadi. Ayollar nutqida birgina qoʻl siltash harakati hafsalasizlik, umidsizlik, voz kechish, norozilik, ahamiyatsizlik, inkor kabi maʼnolarni ifodalashda ishtirok etadi.

-E qoʻying-e! – ammam jahl bilan qoʻl siltadi. (Oʻ. Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Bu harakatlar kinetik noverbal vositalar deb yuritiladi. Kinetik noverbal vositalarning ayollar nutqida faol qoʻllanishi, ayniqsa, soʻzlashuv jarayonida koʻproq namoyon boʻladi.

- Ha dadajonisi?, - dedi ayol ikki qoʻlini beliga qoʻyib, qoshlarini chimirgan holda (Soʻzl.)

- Voy, sharmanda-a-a!! –dedi qoqshol qoʻllari bilan yuzini yumdalab. –voy, bevafo! Shuncha xiyonat qilganmisiz, mengina,a?!

Xulosa qilib shuni aytish joizki, oʻzbek tilida ayollar nutqining erkaklar nutqidan fonetik, leksik, grammatik jihatiga koʻra farqlanishi bilan birga unga yondosh, qoʻshimcha farqlovchi xususiyat sifatida noverbal vositalar ham mavjuddir. Gender variativlikning obyektini hisoblangan ayollar va erkaklar nutqida noverbal vositalar alohida ahamiyatga ega. Tilshunoslikda ayollar va erkaklar nutqini oʻrganish, ilmiy tahlil etish orqali genderolingvistika sohasi yanada rivoj topib, ushbu fanning obyektini boʻlgan nutq qirralari ilmiy asoslab beriladi. Ijtimoiy variativlikning tarkibiy qismi boʻlgan gender variativlikda noverbal vositalarning oʻmi va vazifasini tadqiq etish orqali ham ayollar va erkaklar nutqining alohida farqli xususiyatlari ochib beriladi.

¹ Визнанский В. Ф. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974.

NUTQ MADANIYATI VA USLUBIYAT

T.TOG'AYEV, ToshDO'TAU dotsenti

NAVOIYNING NOTIQLIK VA NUTQ MADANIYATI HAQIDAGI QARASHLARI

Resume

In his article, some point of views are discussed about it eloquent and orator speech in some works of Alisher Navoiy.

Key words: orator speech, oratory, word, orator, courteousness, expression.

Alisher Navoiy asarlari tengsiz badiiy, mislsiz ma'naviy va lisoniy boylikdir. Bu boylikning tarkibiy qismlaridan birini alloma shoir asarlarida uchraydigan nutq madaniyati, notiqlik va so'z odobiga oid qarashlar, talqinlar tashkil qiladi. Mana shu ilmiy-ma'rifiy merosning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganib, ularni ilmiy umumlashtirib, zamonaviy o'zbek tili nutqi madaniyati va notiqlik san'atiga doir ishlarni talab darajasiga ko'tarish lozim.

Navoiy bir umr vasf va shukrini tildan qo'ymagan Alloh insonni nutq va til bilan sharaflab, jamiki mahluqotdan mumtoz qildi:

Ey so'z bila qilg'on ofarinish og'oz,

Insonni aroda aylagon mahrami roz.

Chun «kun fayakun» safhasiga bo'ldi tiroz,

Qilg'on oni nutq ila boridin mumtoz. [1, 3-bet]

Aslida olamu koinot, undaki jamiki borliq sohibi qudratning birgina so'zi bilan bunyodga keldi. Ularning ibtido va intihosi ham so'zga bog'liq:

Avvalu oxiringga solg'il ko'z,

Bil ham avval so'zu ham oxir so'z.

Yoki:

Bas avvalgi sado so'z o'lg'ay,

Har savtga ibtido so'z o'lg'ay. [2, 27-bet].

So'z hayot mohiyati hisoblangan to'rt unsur: suv, havo, o't, tuproq ham, yetti qavat osmondagi yetti sayyoraning ham mavjudlik asosidir:

To'rt sadaf gavharining durji ul,

yetti falak axtarining burji ul. [3, 38-bet]

Ulug'mutafakkir so'zning ilohiyiligini tarannum etar ekan, bu bebaho ne'matga ega bo'lgan insonning nutqi doim go'zal, shirin, fasih va ta'sirchan bo'lmog'i lozimligini talab qiladi, avvalo, bunga o'zi o'mak bo'ladi.

Navoiy asarlarida so'zning azaliy va abadiyligi haqidagi qarashlar, so'z leksemasini qator ma'nolarda qo'llangani ilmiy tadqiqotlarda atroflicha taqlil qilingan [4, 13-15-betlar]. Biz quyida so'zning notiqlik va nutq madaniyatiga oid ma'nolari xususida fikr yuritamiz.

Alisher Navoiy notiqlik san'atiga alohida e'tibor beradi. "Mahbubul-qulub" nomli falsafiy asarining 24-faslini "Nasihah ahli va voizlar zikrida" deb ataydi va

bunda voizlik san'atiga, va'zga, voizga o'z munosabatini bildiradi. Buyuk shoiming voizlik, notiqliq haqidagi fikrlari bugun ham katta qimmatga ega.

Mutafakkirning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voiz, avvalo, e'tiqodli, din-diyonatli va to'g'ri yo'lga boshlovchi bo'lmog'i lozim: *"Voiz kerakki, «qolalloh» so'z aytsa va «qola rasululloh» muxolafatidin qaytsa, xudo va rasul yo'lig'a qadam ursu. O'zi kirgondin so'ngra nasihat bila elni ham kivursa. Yurumagon yo'lga elni boshqarmoq, musofirni yo'ldin chiqormoqdur v biyobong'a keturmak va bodiyada iturmakdur"*.

2. Nutq tinglovchi uchun yangi bilimlar va o'zgarishlar xabarchisi bo'lmog'i lozim: *"Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nas'hati qabul etgan maqbul kishidir"*.

3. Notiqning o'zi biror sohani egallagan bo'lishi, undan so'ng va'z orqali kishilarga ta'sir etib, ularni boshqarishi kerak: *"Avval bir yo'lni bormoq kerak, andin so'ng elni boshqarmoq kerak"*.

4. Voiz sahih va solih nutqi, notiqlik mahorati bilan insonlarning ruhiyatiga, qalbiga ta'sir eta olsin: *"Voiz uldurki, majlisig'a xoli kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay"*.

5. Notiq olim va bilimdon, har narsadan xabardor kishidir: *"Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy – aning nas'hatidin chiqqan shaqiy (baxtsiz)"*.

6. Notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmog'i lozim, aks holda nutqning ta'siri bulmaydi: *"Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmagay"* [1, 29-bet].

7. Ulug' shoir *"Tiling birla ko'nglingni bir tut, ko'ngli va tili bir kishi aytg'on so'zla but"* der ekan, o'zi hamisha bu qoidaga rioya qildi. Til va dil, so'z va amal birligi Navoiy dahosining mumtoz xislatlaridandir.

Navoiy zamonasining notiqlik san'ati namoyondalaridan to'rt atoqli siymoni tilga oladi. Ular Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Husayn Voiz, Mavlono Muin Voizdir. Voizlarning dono va fozilligi, san'atkor notiqligi bilan birga ularning o'ziga xos xislatlari ham bayon qilingan. Alloma shoirimizning voiz va voizlik haqidagi saboqlari ko'p va xo'p. Ularni o'zlashtirish bugungi notiqliq martabasiga erishish uchun juda foydalidir.

Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va odobiga e'tibor g'oyat kuchli. Shoiming nutq madaniyati va odobi borasidagi fikrlari bunga doir ishda ikki katta guruhga bo'lib taqiq qilgan:

1. Navoiy nutq madaniyati va odobining ijobiy omillari haqida.

2. Navoiy nutq madaniyati va odobini buzadigan salbiy omillar haqida. [3, 15-bet].

Navoiy asarlarida yaxshi nutqning fazilati sifatida ko'rsatilgan *fasohat* so'zining ma'nosi nutq madaniyati, til madaniyati tushunchasiga yaqin.

*"Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati"*da *fasohat* so'zi quyidagicha tushlangan: *"fasohat – so'zning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidalarga muvofiq bo'lishi"* [5, 335-b.]. Yana boshqa bir lug'atda *"yoqimli"*, *"uslubning chiroyliligi"* tushunchalari ham qo'yilgan [6, 636-b.]. *"O'zbek tilining izohli lug'ati"*da so'zi quyidagicha talqin qilingan: *"Chiroyli va yoqimli so'zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi"* [7, 334-b.].

Alisher Navoiy fasohatli tili va nutq sohiblarini *fasihzabon, ilmning fasihrozi, fasih tili bila so'zlovchi, fasihguftor* kabi tushunchalar bilan ataydi. Masalan, "Majolis un-nafois"da shunday fikrlar bor:

"Mavlono Qavsariy – Buxorodindur. Qabuliyatlik, xush suhbat, shiringo'y va fasih zabon va donishmand kishi erdi"[8, 51-bet].

Turkiy tilning yashirin qolgan sirlari, chiroyi va afzalliklari borasida hazrat Navoiy shu jumlamani yozadi:

"Va filhaqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafzda muncha vus'at va maydonida muncha fus hat topilur, kerakkim, munda har nav' suxanguzorlig' va fasihguftorlig' va nazmsozlig' va fasonapardozlig' osonroq bo'lg'ay va voqye' osonroqdur"[1, 19-bet].

Misollardagi *fasohat* so'zining asosiy ma'nolari hozirda nutq madaniyati deb yuritilayotgan tushuncha mazmuniga mos keladi. Alisher Navoiyning fasohatli nutqni yuzaga keltiruvchi ijobiy omillar to'g'risida fikrlari ko'p. Xususan, lisoniy omillarga keng o'rin berilgan. Bular quyidagilar:

1. Nutq mazmunli, ma'noli bo'lishi kerak. Navoiy *daqiq* so'zini "sermazmun, teran ma'noli" ma'nosida qo'llagan: "Bular ul hazratning daqiq so'zin yo anglamay, yo anglasalar buyurulzan yo'sun bila amal qilmay." [1, 35-bet].

Mazmunlilik tushunchasini shoir mazmunluq so'zi orqali ham ifodalagan: "Safar azmida musofiridin ayrilur chozda xayrbod mazmunluq alfozni radif qilib aytqon she'rning matlai furqatnamo kelibdur". [5, 207-bet].

2. So'z qisqa bo'lishi lozim, chunki so'z qancha cho'zilsa, kamchiligi ham shuncha ko'p bo'ladi, ko'p so'zdan ko'p ayb topadilar:

*Bermas tatvil chun suxandon so'zga,
Qil muxtasar ulcha bo'lgay imkon so'zga,
Ko'p ayb topar kimsa farovon so'zga,
Chun chekti uzoqqa, yetti muqson so'zga.* [9, 202-bet].

Darhaqiqat, "Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar".

3. Nutq rang-barang, ifodalarga boy bo'lishi kerak. Navoiy ushbu tushunchani *balog'atko'sh* so'zi orqali izhor qiladi:

*Demonkim, so'z ayturga balog'at ko'sh o'l,
Nafsingga saloh istar esang xomo'sh o'l.* [5, 208-bet].

4. Turkiy til boy bo'lgani jihatdan bir tushunchani ifodalash uchun ko'plab ma'nodosh so'zlarga ega ekanligini isbotlagan shoir, so'z takroridan qochishga, so'z yoqimlilikiga putur yetkazmaslikka chaqiradi:

*Bir deganni ikki demak xush emas,
So'z chu takror topdi, dilkash emas.*

Alisher Navoiyning notiqlik, nutq madaniyati va odobi haqida aytgan quyidagi fikrlari g'oyat qimmatlidir:

"Tilingni ixtiyoringda asrag'il, so'zungni ehtiyot bila degil. Mahallida aytur so'zni asrama, aytmas so'z tegrasiga yo'lama. So'z borkim, eshituvchi tanig'a jon kiyurur va so'z borkim, aytg'uvchi boshin yelga berur. Tiling bila ko'nglungni bir tut, ko'ngli va tili bir kishi aytg'on so'zla but. So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko'nglungda bo'lsa tilga surma. Agarchi tili n asramoq ko'ngulga mehnatdur, ammo so'zni sipamoq boshqa ofatdur. Aytur yerda unutm, ayimas yerku

o'zungni mutakallim tutma. Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt. Oqil chindin o'zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas". [10, 129-bet].

Bugungi kun o'quvchisi uchun hech bir izohsiz, ochiq-oydin tushunarli bu purma'no tanbehlarda nutq ma'daniyatining eng muhim talablari o'z aksini topgan.

Umuman, Alisher Navoiyning so'zning qudrati, muqaddasligi haqidagi fikrlari, notiqlik va nutq madaniyati yuzasidan bildirgan mulohazalari yoshlar ta'lim-tarbiyasi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. -T.: Fan, 2000.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 9-jild. -T.: Fan, 1992.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -T.: G'.G'ulom, 1989.
4. Islamov O'. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini. Filol.f.n.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2011.
5. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. III jild. -T.: Fan, 1984.
6. Navoiy asarlari lug'ati. -T.: G'.G'ulom, 1972.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. -T.: Fan, 1997.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-jild. -T.: Fan, 1999.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. -T.: Fan, 1998.

Т.ЭНАЗАРОВ, ТОШДУТАУ профессори

БАЪЗИ БИР НУТҚ СИФАТЛАРИ ҲАҚИДА

Resume

The article deals with the qualitative features and the factors of the formulation of speech.

Key words: speech, speech attractiveness, synergism, jargon, argo.

Нутқ сифатлари деганда нутққа хос сифатий хусусиятлар мажмуи тушунилади. Улар куйидагилардан иборат: нутқнинг аниқлиги, тўғрилиги, мантикийлиги, таъсирчанлиги, образлилиги, тушунарлиги, мақсадга мувофиқлиги ва ҳ.к. Улар иккинчи ном билан нутқнинг фазилати ҳам дейилади.

Шу ўринда нутқ сифатлари **нутқий жозибанинг** шаклланишида маълум бир восита бўлишини таъкидлаш керак. Чунки нутқий жозоба нутқ сифатлари мажмуи билан биргаликда тилнинг табиий қонуниятларини ҳам талаб қилади. Нутқий қонуниятлар жумласига сингармонизм ҳодисаси ҳам киради¹. Унда тил шакли ундошлари тил орқа унлилари билан, тил олди ундошлари тил олди унлилари билан бирга ёзилгани сингари айтилади, яъни сўзларда нафақат унлилар, балки ундош товушлар мослиги, сўзларда учраган ундош

¹ Бу ҳақда қarang: Тўйчибоев Б. (ГулДУ). Нутқий жозибани таъминловчи тил қонунияти // Нутқ сифатлари ва тарбияси Халқаро илмий – назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2006. – Б. 82-83.

товушлардаги жаранглилик ва жарангсизлик ҳодисаси сингармонизмни вужудга келтиради. У туркий тиллар тарихининг қадимги давридан бошлаб амал қилиб келмоқда¹. Демак, ўз-ўзидан сингармонизм ҳам унли, ҳам ундош товушлар учун хос фонетик ҳодиса бўлиб, айтилаётган гапларнинг оҳангига жозиба қўшади. Мисолларга эътибор қилинг: **қоғон-хокон; сўқум-сўқим; кўзум-кўзим** ва бошқалар. Улардаги биринчи сўзлар иккинчи сўзларга нисбатан ёқимлироқ ҳамда жозибалидир.

Сўзлардаги оҳангдорлик, ёқимлилик, жарангдорлик, кўп маънолилик, қофиядошлик, шунингдек, *а, о, у* товушларининг ўта чўзиқлиги каби хусусиятлар ҳам нуткий жозибаторликнинг шаклланишига туртки бўлади:

*Кўққамиш қўлидан суқсур учурдим,
Суқсурни излаган лочин бўламан
Чанғалим пулатдан, Бойсун элида
Кўйилан шунқор бўламан* (“Алпомиш”).

Айтар сўзни айтиши керак, Айтмас сўздан қайтиши керак (Мақол). Бу икки мисолда *о, у, а* унлиларининг чўзиқлиги жозибали оҳангдорликни таъминлагани каби мазмуннинг ҳам бетақрорийлигини белгилаган.

Шу ўринда яна бир нарсани таъкидлаш керакки, Алишер Навоий асарларининг маълум ва машҳур бўлишига нафақат улардаги бадиий малоҳияту салоҳият асос бўлган, шу билан бирга матн(нутк)нинг жозибалиги, ёқимли ҳамда қофиядошлигининг ўрни каттадир². Бу ҳақида Алишер Навоий ҳам “Маҳбуб ул-қулуб”да бундай фикрларни ёзган: “*Чин сўз- мўтабар, яхши сўз — мухтасар. Кўп дегувчи — мумил, муқаррар дегувчи — лояқил. Айбжўй — маъюб, айбжўй — манқуб. Туз кўргувчи — пок назар, ҳунар кўргувчи — рост басар*”.

Нутк софлиги деганда айтилаётган фикрда ўзга тил(лар)га оид тушунилмайдиган сўзларни қўлламасдан гапириш назарда тутилади. Чунки баъзи бир нотиклар адабий тил меъёрларига амал қилиб, нутк сўзлаб турганида ўзлари билмаган ҳолда, баъзан эса бошқа тил(лар)ни ҳам билишларини билдириб, мақтанish учун ҳам турли тилларга хос лексемаларни айтаётган фикрларида қўшиб юборишади. Сабаби, “*Сўзларни эшитамиз, сўзлашни қотирамыз, лекин сўз мағзи(маъноси)ни чақши (тушуниши ва англаши) аксар хаёлимизга келмайди*”³.

Нутк софлигига қуйидагилар, сўзсиз, путур етказди: 1) ўринсиз қўлланилган чет тилига оид сўз ва сўз бирикмалари; 2) маълум бир тилдаги мавжуд баъзи бир сўзларни ноўрин ишлатиш билан фикрда нотўғри маъно(лар)ни ҳосил қилиш; 3) маҳаллий диалект ҳамда шеваларга хос сўз, ибора, грамматик шакллар ва шеваларга оид фонетик ҳодисалар; 4)

¹ Шўро даврида рус ва бийналмиал сўзларнинг тилимизга кўп ўзлаштирилиши сингармонизм ҳодисасининг адабий тилда йўқ дейилишига асос бўлган. Айни вақтда муस्ताқиллик тўғрисида ҳамма соҳада объективликка асосланганлиққа, энди бемалол сингармонизм ҳодисасининг ўзбек адабий тили доирасида мавжудлигини эътироф этиб, асослаш, мисолларни амалда қўлаш ўринлидир.

² Бу ҳақида А.Рустамовнинг докторлик диссертациясида, Д.Абдурахмоновнинг илмий мақолаларида, шунингдек, Х.Дониёровнинг ўзбек тилининг қипчоқ шевалари тадқиқига бағишланган рисола ва монографияларида атрафлича тўхталинган.

³ Вохидов Эркин. Сўз лафоти. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2014. – Б. 99.

вулгаризмлар; 5) жаргон ҳамда арголар; 6) нутқда қўлланадиган паразит сўзлар; 7) канцеляризмлар.

Мисолларга мурожаат қилсак:

1. “*Тилувзани мақивоппиза?*” (Аҳмад Аъзам).

2. “*Асмандаги ақ жулдуз*

Нур сачқин кече-кундуз.

Кувединг ҳасретини

Агайинларга жеткиз.

Жизу-бизу бўмади,

Сизу бизем бўмади.

Назик кувединг кўнгини

Агайиннан тўлмади” (Насриддин Назаров).

3. “*Кишиларнинг нутқий фаолияти монолог, диалог, полилог кўринишларида амалга ошади*” (Тура Қудратов).

4. “...*Сен бизга хиёнат қилдинг, ит увли!*” (Абдулла Қодирий).

Биринчи ва иккинчи мисолларда шеваларнинг фонетик ва морфологик хусусиятлари ўз ифодасини топиб, нутқнинг софлигини бузган. Учинчи гапда эса *монолог, диалог, полило* сўзлари ўзга тил лексемалари бўлса; тўртинчи гапдаги *ит увли* бирикмаси эса вулгаризм ҳисобланади. Бу гаплар жуда кам ишлатилса-да, тингловчиларга айтилаётган фикр(лар)ни яхши тушуниб, англаб олишларига соя солади. Бу ҳақида Аҳмад Аъзам ўзининг “Тил номуси” китобида турли мисоллар мисолида махсус тўхталган¹.

Ёхуд “Ўзбек тили изоҳли луғати”нинг 2-том 221-, 32-, 700-бетларида ва шу луғатнинг беш томлилиги 4-том 185-, 5-том 533-саҳифаларида *туйғу 1, сезги 1, ҳис(с)* сўзларининг маъноларини беўхшов мисоллар билан ноўрин изоҳлашлар ҳам аслида нутқнинг софлигини хиралаштирган², холос. Шунинг учун ҳам бўлса керак Кайковус бундан минг йил олдин нутқ софлигини тушунтириш учун бундай деб ёзган эди: “*Эй фарзанд, сўзнинг юзин ва орқасин билгил ва уларга рия қилгил, ҳар на сўз десанг юзи билан дегил, то сухангўй бўлгайсан. Агар сўз айтиб, сўзнинг нечук эканин билмасанг қуиға ўхиарсанки, унга тўти дерлар, ул доим сўзлар, аммо маъносини билмас*”³. “*Эй фарзанд, демак, ёлгон ва беҳуда сўз айтмагил, беҳуда сўз айтмоқ девоналикнинг бир қисмидур*”⁴.

Нутқнинг **жўялиги** юқорида айтиб ўтилган нутқнинг аниқлиги, тўгрилиги, таъчирчанлиги, образлиги, мантикийлиги, мақсадга мувофиқлиги қабиларнинг бир бутунлиги асосида юзага келади. Шу ўринда жўяли ва жўясиз сўзларнинг изоҳига тўхталсак: “**ЖўЯЛИ** ўринли, бамаъни, маъкул. **Жўяли** маслаҳат. **Шаҳзода** иккиланиб қолди: «*Бир ҳисобда чолнинг гапи жўяли*», деб ўилади. М. Осим, Аждодларимиз қиссаси.

¹ Аҳмад Аъзам. Тил номуси. – Тошкент: Akademnashu, 2013. – Б. 14-51.

² Имомназаров М Шоир сўзининг латофати ва кадри. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2016. – Б. 13-18.

³ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи. 1986. – Б. 31.

⁴ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи. 1986. – Б. 50.

Asarda so'z qo'llash odobi, nutilq madaniyati sifatlariga noya qilgan holda nutilq tuzish, so'z qo'llashning pragmatik vaziyati, so'zning sifat, ta'sir kuchini va boshqa shu kabi masalalar haqida fikrlar berilgan. Mazkur fikrlar "tanbeh" shaklida beriladi.

"Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz! Til muncha sharaf bila nutqning oltidir va nam nutqdur, agar nopisand zohir bo'lsa, himing ofatidir" (2, 69) fikri berilgan bo'lib, bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Alishe'r Navoiy qanday dar va zamoni bo'lishidan qat'iyy nazar, o'z tiliga nisbatan loqayd bo'lmaslik kerakligini uqutgan. Qachonki til egalari vaqti va sharoitidan, yoshi va jinsidan qat'iyy nazar til masalasi e'tibori bo'lishsa, tilning yozma shaklida kuzatiladigan xato va kamchiliklar bartaraf etilib borsin, nutilq jarayonida so'zni tanlay bilish ko'nikmasi shakllantirilsa, tilning ichki va tashqi manbalari hisobiga muqaddir oshib boriyotgan nutilq tarkibi o'rganilib borsin, be'laho turkiy manbalarimizda berilgan so'z o'zbekcha so'zlarini taqqiq qilib diqqat markazimizdan cheida gollmasa, zamonaviy kompyuter texnologiyalarida o'zbek tilidan foydalana olish darajasini oshirish masalasi o'rganilmasa, o'ylaymizki, nutilq' bobokalonimiz orzu qilganidek, yozma va og'zaki nutqimizning benuqsosligiga erishamiz.

Navoiy e'tirof etganidek, turk (o'zbeklar) tabiatan himil, ta'bi muloiy xalq. Shu sababli suhbat odobi azaldan shartqad ulug'lanib kelingan. "Mahub ul-qulub" muarida mutafakkir o'rni, ta'kidlaganidek, "Ma'rufek, harzasi lavil va ovozi karhidur, o'zi xat bila qunbagag a shab'idatur. Ahli saoddalar ruh'abaxsh zilohig a munda ham til, ahli shagovallat nahs gavqabig a mala' ham til Tiliga iqindorlig - hakimi xiradamand; so'ziga ixtiyorsiz - laimi najand Tilki fash va dilpazir bo'lgay - bo'rog bo'lgay, agarko'ngul bila bir bo'lgay. Til va ko'ngul xo'broq a zodurlar inkonda; savsan va g'uncha marq'ubrog rayohindurlar bo'stonda Odamo'ni bila noyi' hayvondin muntoz bo'lar va ham aning bila soyir insong a sarafoz bo'lar" (2, 69). Ovoz be'mani va yoqimsiz odamning qunbagaga o'xshatilib, tilning baxt berishi va yomonliklar kelirishi munimligi, tilini tyoalgan qul, tyo olmagan himilif ajoyib o'xshatishlar bilan dalillaydi.

Til nafqat aloqa-munosabat vositasi, balki be'laho ma'naviy-madaniy merosi muvoddan-avlodga yetkazish qur'oli ham. Shuningdek, til inson ruhiyatini, his-tilay ularini tarbiyalash vositasi ham. Navoiy nazida inson ko'ngilini tushunish, b'ir b'irni b'ir dunyoning xotim shod aylash" dunyoda eng buyuk saodat: "U'lar ko'ngulakim, qatig, so'z din reshdek bo'lgay, achchig' til zahrohud neshdek bo'lgay. Ko'ngulda til sinoni jarohatni butmas; anga hech nimma marham yerin tutmas. B'ir ko'ngulki, nismonidin jarohatdur ham yunshoq so'z va shirin til anga marham bo'lurdir. Muloyim takallim vahshiyatini ulfat sari boshqarur; fusungar afsun bila munom to'shukdin chiqorur". (2, 69) Yok: "Xo'shgo'y kim, so'zni rifq va musovo bila berur; ko'ngulga yuz g'am keladur; on bo'lsa, aning so'zidin qayig ay. So'zda datur, turkiy ixtiyorsiz inkom bor, munda de'durlarki, nafasning joni bor. Mas'uhokim, nafas bo'lgan i'htak jon berdi, go'yo bu jihadin erdi" (2, 69) fikrlari aynan tilidan ko'ngil va muloyim yetkaziladigan jarohat yoki til ta'siri natijasida bemorning davo topishi kabi muammoni mujassamlidir. Til orqali inson ruhiyatini, uning qalbiga yetkazilgan jarohatni muvazdan olingan jarohatga teng. Uning davosi faqat yaxshi so'z.

1² Ўзбек тилининг янги ашъа-Ташкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2-жилд. - Б. 125.
2 Носиров П. Ўзбек юртқа маданияти. - Тошкент: ЎАЖБНТ Маркази, 2004. - Б. 142.
3 Тоқсов Ф., Хасанова Н., Тоқмақтов Х., Илдошева О. Нутқ маданияти ва услубидан асослари. - Тошкент, 1994. - Б. 19.

Алишер Навоий тарихда нафақат, тенги ю'қ шoir, шу билан бирга улкан билишмос олим сифатида ҳам о'з о'рнига ега. Биринчи Президентимиз Назрат ҳақида - "Агар бу илг' зоти авли'о десак, у авли'олатимиз аъйоси, мутафаккир десак, мутафаккирларимиз мутафаккир, шoir десак, шoirларимиз сultonдир" (1,47) дe'я та'риф-у тавсиф берган. Йодкор олимнинг адабийот, тилим, тарих, сан'ат, но'тқиқ, дин, сийосат, иқтисод ва бoshqa бир гanchа муҳим соҳаларга оид қimmatбахшо асарларини о'рганиши о'ргали ушқорндаги та'рифнинг нечоғ'ли то'ғ'ри берилганининг гувоҳи бо'ламиз.

Назаратнинг бетакор асарлар, нафақат, унутимизда, балки хорижий мамлакатларда ҳам ко'р ва хо'р о'рганилмоқда. Нар сафар йод намуналари таҳлилга тортиганда унинг қimmatли натижалардан биз кabi yoshlar баҳраманд бо'ламиз.

Bugungi kunda barcha sohalarda notqilik san'atni takomillashtirish, nufuzli madaniyatni rivojlantirishga e'tibor kuchaytmoqda. Mamlakatimizda uzluklarni ta'limning barcha bo'g'inlarida nufuzli savodxonlikni o'stirishga qaratilgan maxsus fanlar qo'yilib, ular izchillilik bilan o'qitilmoqda. Ulg' yodkorning bebaho asarlaridan berilgan o'yalaridan ilming turli yo'nalishlarini rivojlantirishda foydalanilishi mumkin. Oliy filologik ta'limda nutq o'stirish bilan bog'liq mashg'ulotlarni o'tishda ma'mabot mutafakkirning "Mahub ul-qulub" asari bir nechta yillardan buyon asosiy manba bo'lib xizmat qilib keladi.

This article discusses Alisher Navoi's ideas about oratory
Resume
Key words: oratory, pragmatic function, literary, method, mental, philological study.

NAVOIYNING NUTQ MADANIYATIGA OID QARASHLARI

О.АБДУЛЛАЕВА, ToshDO.TAU.O'QITUVCHISI

Ж'В'ЯСИЗ Ўринсиз, бe'маъни, ноқ'в, Ж'в'ясиз танбeҳ, Ж'в'ясиз ҳаракат" билан қўриб турибдики, нутқнинг ж'в'ялиги дe'ғанда коммуникатив хусусиятлар асосида ўринли, бe'маъни ва маъқул галпириш тушунилади. Куйидаги мисолга эътибор бe'райлик: "Бурчмиз каттамуз, бурчмиз кичик, бурчмиз тарабамиз, бурчмиз мураббий, бурчмиз раҳбармиз, бурчмиз хо'шм, леким хe'ч бурчмиз но'рун, асаба мега'бe'ган ган айтмиза ҳаққимиз Шунинг учун ҳам "Агар нутқ ўз ўрнида, ўз вақтида, ўз жандида, вазифасига кўра тузилган бўлса, шу шароит ёки вазиятларга мос кe'лса, бундай нутқ ж'в'яли нутқдир"³. Левак, нутқ сифатлари қадимдан кишиларнинг, шу жумладан, олим ушқорларнинг тикка эътиборида турган долзарб масалалардан бири саналади.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning, nafaqat “Mahbub ul-qulub”, balki barcha asarlarida xoh u nasr, xoh nazm bo’lsin, so’z qo’llash odobi, hilmilik, nutq odobi masalasi yetakchilik qiladi. Ulug’ shoiming tilga bo’lgan buyuk ehtiromi va muhabbati uning ishlarida yog’du nur singari yorqin ko’rinish aks etib, jilolanishi ko’zni qamashtiradi. Biz kelajak avlod vakillari esa mana shu nurning jilolanishi ta’sirida har safar asarlarini o’qiganimizda faqat hayajonga tushamiz va yangi ma’no qirralarini kashf etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2010.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-том. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент, 1998.

SEMANTIKA

N.SARIMSOQOVA, ToshDO'TAU magistranti

O'TKIR HOSHIMOV QISSALARIDAGI EVFEMIZMLARNING USLUBIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Resume

This article is devoted to show the stylistic-literary peculiarities of euphemism in Uzbek writer U.Hoshimov's works.

Key words: euphemism, linguistics, literary-aesthetic, custom, culture.

Dunyo tilshunosligining hozirgi holati, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fanning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligi oldiga ham yangi vazifalarni qo'yimoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida ta'kidlaganidek, "...ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz."¹

I.Karimov tomonidan belgilab berilgan o'zbek tilini milliy ma'naviy boyligimiz sifatida avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish mumkinligini oshirish, qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari tilshunoslarga ham muayyan talablarni qo'ydi.

O'zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizmga til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy ma'naviyat muammosi globallashgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik vositalarni ilmiy tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O'tkir Hoshimov asarlari tilining lingvistik tahliliga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'tkir Hoshimovdek iste'dodli adib va so'z yaratuvchilarning asarlari tilini atroflicha va keng miqyosda turli lingvistik aspektlarda jiddiy tadqiq qilish bu boradagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Evfemik ma'noli birliklar, asosan nutqiy hodisa bo'lganligi sababli, adiblar nutqida individual hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun so'z yaratuvchilarning asarlarida qo'llangan bunday til hodisalarini individual nutq tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega.

O'tkir Hoshimov o'z badiiy-estetik ideallarini go'zal lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida tasvirlaydi. Evfemik ma'noli birliklarni o'z o'rnida mohirlik bilan qo'llab, har bir hodisa, shaxs, voqelik hamda unga o'z munosabatini

¹ Hoshimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 87.

tasvirlashda munosib evfema tanlaydi, turli lisoniy va nolisoniy birliklarga evfemik "mas'uliyat" yuklaydi. Natijada voqea-hodisalar yanada ravshanroq, shaxsning ichki va tashqi qiyofasi tiniqroq, adibning ularga badiiy-estetik munosabati yorqinroq va ta'sirchanroq namoyon bo'ladi.

Masalan: "... *Oyim choy quyib uzatdi.*

-*Endi o'rgilay, - deb gap boshladi atlas ko'ylakli xotin, uzoq hol-ahvol so'ragandan keyin, - agar taqdir qo'shgan bo'lsa qarindosh bo'lamiz degan umidda eshigingizni supurgani keldik*¹". Sovchilar nutqidagi bu evfemizm o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzining namunasi. Ular to'g'ridan-to'g'ri, ochiqdan-ochiq qizning ota yoki onasiga "... qizingizni o'g'limizga xotin qilib olib bergani keldik", demaydi. Bu maqsadlarini "qarindosh bo'lish umidi", "eshigingizni supurgani keldik" kabi evfemalarga yashiradi.

Ochiq aytish noqulay, qo'pol bo'lgan nutqiy jarayonni evfemik bayon etishda jamiyat a'zolarining saviyasi, didi, ruhiyati, e'tiqodi, dunyoqarashi, intellektual salohiyati, fikrlash qobiliyati, so'zamolligi, suxandonligi, zukkoligi, hozirjavobligi, kasbi, yoshi, ijtimoiy holati, umuman aytganda axloq-odobi muhim rol o'ynaydi.

Quyida keltirilgan *o'ldi, o'lib ketsinmi* tushunchasi *omonatini topshirdi, dumalab ketsinmi* kabi evfemalari bilan alamashtiriladi:

1. - *Tinchlikmi?*

Dadam negadir ko'zini yashirdi:

-*Odamzodning ahvoli shu ekan-da, - dedi xo'rsinib - Habiba buvi omonatini topshiribdi*².

2. - *Albatta, senlar o'qimishlisan, hamma narsani bilasan... - oyim bir zum jim qoldi-da, o'ziga-o'zi gapirayotgandek sekin qo'shib qo'ydi. - Onasida nima gunoh? Qon bosimi bo'lsa, ertaga puf etib dumalab ketsa, shunga suyunasanmi?*³

3. - *Voy, voy kennoyi tushmagur-ey! - dedi Dalavoy kulgidan nafasi qaytib. - Voy sodda xotin-ey! "Qurug'i" desam, turshak olib chiqibdi*⁴. Yuqoridagi keltirilgan gapda qahramon *pora*, so'zini ochiqdan-ochiq aytish jarayonidagi noqulaylik va hijolatdan qutilish uchun bu so'z o'mida "*qurug'i*" evfemasini ishlatadi.

Quyida keltiriladigan gapda so'zlovchi "*suyanchiq*" bugungi kundagi "*tanka*" so'zi o'mida "*Ohon*" evfemasini qo'llagan:

4. - *Bu diyman, uka gazetlaringga bizni ham yozsa bo'luvradimi? Yo buniyam "ohoni" bormi?*

- *Qanaqa "ohoni"?*

Sartarosh ko'zini qisib qiqirlab kuldi:

- *O'zingni soddalikka solma, uka. Man hammasini bilaman. "Ohoni" bo'lmasa Olim paravozni gazetada maqtab chiqisharmidi?*⁵

5-misolda qahramon yoshi, millati, umuman olganda odob-axloq normalaridan kelib chiqqan holda er so'zi o'mida "*o'rtoq*" evfemasidan foydalangan:

¹Hoshimov O'. Duniyoning ishlari. - Toshkent:Sharq, 2008. -B. 45. Quyida keltiriladigan iqtiboslar ushbu adabiyotdan olingan.

²O'sha asar, 67-bet.

³O'sha asar, 78-bet.

⁴O'sha asar, 92-bet.

⁵O'sha asar, 121-122-betlar.

5.–O'lsin kech qolib ketdim. Murodjon akam mashina yubiraman, deb edilar.
Kutib qolgandirlar...

- Murodjon... o'rtog'ingizmi? - dedi ro'molli ayol inqillab'.

6. – O'v, akam, opkela qoling anavi “oqbola”dan! Tomoq jonivor bedana bo'lib sayrab ketdi-ku!²

6-matndagi qahramon islom dinida xarom qilingan mast qiluvchi *aroq* ichimligini to'g'ridan-to'g'ri so'rashga honadon egasining yoshi ulug' onasidan iymanganligi uchun ham uni “oqbola” deb ataydi.

Voqelikni aynan oshkor bayon etmaslikka muayyan muomala madaniyati, axloq-odob talabi sabab bo'ladi. Shu tamoyil buzilgan vaqtda, nutq yalang'ochlangan, o'z bezagi: zebu ziynati va ibosidan ajralib qoladi. Shu jihatni nazarda tutuib Alisher Navoiy:

Of'ziga kelganni demak nodon ishi

Oldig'a kelganni yemak hayvon ishi, degan bo'lsa kerak.

YEON SANG HEUM, ToshDO'TAU magistranti

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA KO'MAKCHI FE'LLAR

Resume

In this article, the function and form of auxiliary verbs are analyzed comparing in the Uzbek and Korean languages.

Key words: Altai languages family, the Uzbek language, the Korean language, auxiliary verbs, verbs, equivalent.

O'zbek va koreys xalqlari madaniyati orasida bir-biriga o'xshash tomonlar ko'p: urf-odat, xatti-harakat, turmush tarzi va h.k. Bulardan eng asosiysi tildir. Til ma'lum xalqning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mosiy vositadir. Har qanday xalqning xarakteri u foydalanadigan tilde namoyon bo'ladi. O'zbek va koreys tillari bir oilaga-oltay tillari oilasiga mansub. Bu mansublik ikki xalq orasida umumiy madaniyatning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillardan hisoblanadi.

Ma'lumki, fe'l barcha tillarda faol so'z turkumlaridan biridir. Xususan, ko'makchi fe'llar o'zbek va koreys tilshunosligida o'rganilgan bo'lib, qiyosiy mupektida ilk bor tadqiq etilmoqda. Buni tadqiq qilish tilshunoslikda qiyosiy tahlil orqali o'zbek va koreys tillaridagi ko'makchi fe'llar strukturasi umumiyliklar va farqlilar aniqlanadi. Ularning bir til oilasiga mansub ekanligi izohlanadi.

O'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan (mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llanadigan) birorta fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi va turli-tuman ma'nomlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l,*

¹Falsh naz. 166-bet.

²Falsh naz. 187-bet.

bit(bitir), ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, et, ko'r, qara, boq, yoz.¹

Koreys tilida quyidagi ko'makchi fe'llar faol qo'llanadi: **주다[juda]** (*bermoq*), **보다[bo'da]** (*ko'rmoq*), **놓다[no'hda]** (*qo'ymoq*), **있다[itda]**, **되다[do'eda]** (*bo'lmoq*), **버리다[borida]** (*tashlamog*), **말다[malda]** (*to'xtamoq tugatmoq*).

O'zbek tilida ko'makchi fe'llar asosiy (yetakchi) fe'lga asosan-(i)b, -a va -y ravishdosh yasovchilari orqali birikadi *yozib oldi, yoza boshladi, ishlay tur* kabi.²

Koreys tilida -어[*o*], -고[*go*'], -게[*ge*] va -수[*su*] yasovchilari orqali birikadi: **먹어보다[mogobo'da]** (*yeb ko'rmoq*), **하고있다[hago' itda]** (*qilib turmoq*), **피곤하게되다[pigo'n hagedo'eda]** (*charchab qolmoq*). **할수있다[halsuitda]** (*qila olmoq*) kabi.

· **먹어보다**: 먹+어보다[mog+obo'da]· yebko'rmoq: ye+bko'rmoq.

Koreys tilida ravishdosh shaklisiz ham yetakchi fe'l ko'makchi fe'lni biriktirib kelishi mumkin: **해주다[he juda]** (*qilib bermoq*) kabi.

· **해주다**: 해(하다→해서→해) 주다.

· *qilib bermoq*: qil+ib bermoq.

O'zbek tilida esa bunday holat kuzatilmaydi. Yetakchi fe'l tarkibida, albatta, ravishdosh shakli bo'ladi.

Quyida koreys tilidagi bir nechta ko'makchi fe'llar ma'nosi bilan izohlanadi va o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llar bilan qiyoslanadi:

주다[juda] (*bermoq*). Bu ko'makchi fe'li o'zi uchun emas, harakatni boshqa odam uchun bajarilish ma'nosida qo'llanadi. Masalan, **해주다[he juda]** (*qilib bermoq*). O'zbek tilida ham *qilib bermoq* ko'makchi fe'lining *bajarib bermoq* (≡*해주다[he juda]*), *yasab bermoq* (*만들어주다[mandiro juda]*) kabi shakllari uchraydi.

보다[bo'da] (*ko'rmoq*). Bu ko'makchi fe'li harakatni bajarishga uringanlik ma'nosida qo'llanadi: Masalan, **먹어보다[mogobo'da]** (*yeb ko'rmoq*). O'zbek tilida *ko'rmoq* ko'makchi fe'li *yemoq* yetakchi fe'lidan tashqari *kiyibko'rmoq* (**입어보다[ibo bo'da]**), *aytib ko'rmoq* (**말해보다[malhe bo'da]**), *ushlab ko'rmoq* (**잡아보다[jabda bo'da]**), *sinab ko'rmoq* (**검사해보다[gomsahe bo'da]**), *pishirtib ko'rmoq* (**요리해보다[yo'rihe bo'da]**), *bo'yab ko'rmoq* (**색칠해보다[sekchilhe bo'da]**) va yana boshqa shakllarda keladi.

놓다[no'hda], **두다[duda]** (*qo'ymoq*). Bu ko'makchi fe'li harakatni butunlay bajarilganligini bildiradi. Masalan, **놓다[he no'hda]** (*qilib bo'lmoq* yoki *qilib qo'ymoq*). O'zbek tilida bu ko'makchi fe'lning *aytib bo'lmoq* (**말해놓다[malhe no'hda]**), *bajarib bo'lmoq* (**다해놓다[dahe no'hda]**), *yozib bo'lmoq* (**써놓다[seo no'hda]**), *o'qib bo'lmoq* (**읽어놓다[ilgo no'hda]**) kabi shakllardan foydalaniladi. Koreys tilidagi **해놓다[he no'hda]** (*qilib bo'lmoq* yoki *qilib qo'ymoq*) ko'makchi fe'li harakatning to'liq yakunlanganligini bildiradi. O'zbek tilida esa bunga

¹Азим Хожиев. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар - Тошкент: Фан, 1966

²Азим Хожиев. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар - Тошкент: Фан, 1966

qo'shimcha sifatida shu harakatning oson, kutilmaganda bajarilganini ifodalaydi. Masalan, *aytib qo'ymoq* (말해놓다[malhe no'hda], *o'qib qo'ymoq* (읽어놓다[ilgo no'hda]), *sotib qo'ymoq* (팔아놓다[para no'hda]) va boshqa.

있다[itda]·되다[do'eda] (bo'lmoq). Bu ko'makchi fe'li biror ish-harakatni amalga oshirishda mavjud imkoniyatning bor ekanligini bildiradi. Masalan, *halsu itda* (halsu itda) (*qila olmoq*), *algae do'eda* (*bilibqolmoq*). O'zbek tilida *ayta olmoq* (말할수있다[malhalsu itda]), *bajara olmoq* (실행할수있다[shil heng hal su itda]), *chala olmoq* (연주할수있다[yon juhal su itda]), *yasay olmoq* (만들수있다[mandi(ы) lsu itda]), *qura olmoq* (건설할수있다[gon sol hal su itda]) kabi va boshqa shakllar uchraydi.

버리다[borida] (tashlamoq). Bu ko'makchi fe'l ish-harakatning biror majburiyat tufayli bajarilganini ifodalaydi va asosan, so'zlashuvda qo'llaniladi. Masalan, *ssoborida* (yozib tashlamoq). O'zbek tilida *aytib tashlamoq* (말해버리다[malheborida]), *kesib tashlamoq* (잘라버리다[jallaborida]), *buzib tashlamoq* (부췌버리다[busuo borida]) va boshqa shakllari uchraydi. Koreys tilida *ssoborida* ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi yozish kerak, shart ma'nolarida ham qo'llaniladi. O'zbek tilida bu ma'no harakat nomi bilan kesimlik shakllari birga kelish orqali ifodalanadi.

말다[malda] (to'xtamoq; tugatmoq). Bu ko'makchi fe'l o'zbek tilidagi *qolmoq* ko'makchi fe'li ma'nosi bilan ekvivalent hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ko'makchi fe'lda o'zi xohlab bajarilmaganlik ma'no ottenkasi mavjud. Masalan, *hago' malda* (qilib qolmoq), *ni tgo' malda* (kechikib qolmoq).

오다[o'da] (kelmoq). Bu ko'makchi fe'l o'zbek tilidagi ko'makchi fe'li kelmoq'ning davomlilik ma'nosini bildiradi. Bundan boshqa o'zi uchun yoki o'zidan boshqa uchun bajarmoq ma'nosini bildiradi. Masalan, *gajigo' o'da* (olib kelmoq), *he o'da* (qilib kelmoq).

Ko'rinadiki, o'zbek va koreys tillaridagi ko'makchi fe'li so'z qo'shilmalarining shakli shakily hamda ma'noviy jihatdan bir-biriga o'xshash. Har ikki tilda ham ikki va undan ortiq fe'l ishtirokidagi ko'makchi fe'li so'z qo'shilmalari uchraydi. Koreys tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq ravishdosh shaklisiz ham ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi uchraydi. Biroq bunday fe'l shakllarining soni ko'p emas.

Demak, o'zbek va koreys tilidagi bunday shakily yaqinlik ularning oltoy oilasiga mansubligi va bu mansublikning belgisi sifatida tilda namoyon bo'ladi.

RUHIYATNI ANGLATUVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI

Resume

This article is about forming phrases of spiritual expressions.

Key wods: speech process, idiom, proverb, saying, aphorism, spiritual condition.

Nutq jarayonida fikrni bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan ham foydalaniladi

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya¹, barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya² sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra, barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazelogizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Frazelogizmlar uch turli bo'ladi: erkin birikmalar, turg'un birikmalar, frazeologik chatishmalar.

Frazelogizmlar kishilarning jismoniy, ruhiy holatlarini tasvirli qilib ifodalashi mumkin. Ular orasida inson ruhiy holatini anglatuvchi iboralar o'zining xilma-xilligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ruhiyatni ifodalovchi iboralarda, albatta, insonning tabiiy holati asos qilib olinadi va uning tarkibidagi qaysidir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi. Quyida ruhiyatni ifodalovchi iboralarning genezisiga nazar tashlaymiz, ularning shakllanishiga asos bo'lgan omillarni aniqlashga urinamiz.

¹Paremiologiya - (lot.) *parema* - barqaror, *logos* - ta'limot

²Paremiografiya - (lot.) *parema* - barqaror, *grapho* - yozmoq

Masalan, *Toshkentdagi istiqloq davrida qurilgan inshootlarni ko'rib, og'zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og'zim ochilib qoldi* birikmasi so'zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kiritilgan.

Og'iz ochilib qolmoq birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema *hayron bo'lmoq* leksemasi ifodalagan ma'noga teng bo'ladi. Hayron bo'lmoq-bukishi ruhiy holatining ifodasi hisoblanadi. Ana shu ruhiy holat kishida qay tarzda namoyon bo'lishi frazeologizmga ko'chgan. Ya'ni hayron bo'lgandagi holat *og'iz ochilib qolmoq* iborasi bilan berilgan.

Yuragi orqasiga tortmoq iborasi qo'rqmoq ma'nosini ifodalaydi. Qo'rqish jarayoni ham bevosita insonning ruhiy olami bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Inson qo'rqqanda avvalo uning qon aylanish tizimida o'zgarish yuz beradi. Yurak notinch bo'ladi. Shu sababli ham qo'rqish holati *yuragi orqasiga tortmoq* iborasi bilan berilgan. Bunda inson qo'rqqanda tana a'zolarida sodir bo'ladigan birgina yurakning o'zgarishi iboraga asos vazifasini bajargan.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga to'g'ri keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ruhiy holatni bildiruvchi iboralarda ham xuddi shu holni kuztish mumkin.

Masalan, *qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochdi – quvonmoq* kabi.

Qulog'i ding bo'lmoq iborasi ham inson ruhiy holatining ifodasidir. Yuqorida tahlil qilgan iboramiz kabi bunga ham hushyor bo'lganda insonning a'zolaridagi o'zgarish asos vazifasini bajargan. Agar inson biror narsaga diqqatini qaratib, hushyor tortsa u birinchi gald e'tiborini qaratgan narsani eshitishga harakat qiladi. *Qulog'i ding bo'lmoq* iborasida ham ayni shu jarayon ifodalangan.

Qovog'i osilmoq-bu insonning xafa holatini bildiradigan ibora bo'lib, uning shakllanishida ham xafa bo'lganda inson tashqi qiyofasida yuz beradigan o'zgarish zamin vazifasini o'tagan. Inson nimadandir xafa bo'lganda, kayfiyati yo'q bo'lganda uning ko'zidan yaqqol bilinadi. Ayniqsa, qovoq qismi uyilib, yuzida bu holat aniq aks etadi. Shu sababli ham insonning xafa holatini ifodalash uchun uning yuzida ro'y bergan o'zgarishlar asosida *qovog'i osilmoq* iborasi hosil bo'lgan. Shuningdek, *qovog'i osilmoq* iborasida *osilmoq* so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan.

Inson ruhiy holatining yana bir ifodasi *og'zining tanobi qochmoq* iborasida namoyon bo'lgan.

Ushbu iborada tanobi qochmoq birikmasi ko'chma ma'noda qo'llangan. Tanob so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlangan:

1) "arabcha-arqon, pay". Yer o'lchash, uzunlik o'lchash, chiziq tortish va sh.k.larda ishlatiladigan uzun chilvir, reja ip;

2) umuman ingichka arqon, chilvir yoki kanop ip, rishta¹.

"Og'zining tanobi qochmoq" iborasi yana "og'zining bog'ichi qochmoq" shaklida ham uchraydi. Bu iboraning shakllanishida ham inson tabiiy holatining xursand bo'lish jarayonida o'zgaradigan tasviri turibdi. Ya'ni inson xursand

¹O'zbek tilining izohli lug'ati 3-jild. T.: Ensiklopediya, 2006. –B.666.

bo'lganda bevosita uning lablariga kulgi yuguradi va og'iz atrofidagi mushaklar tortiladi. Insondagi ana shu tortiluvchi mushaklar ipga, arqon yanayam aniqrog' I tanobga o'xshatilyapti. Og'zining ipi ikki tomonga qochdi, ya'ni muskullari tortildi degan tushunchani ip, arqon, rishta ma'nosini beruvchi "tanobi qochmoq" iborasi bilan berilishi xalqimizning zukkoligini, hech narsani, xususan o'xshatishlarni, ko'chma ma'nodagi so'zlarni bejizga qo'llamasligini ko'rsatadi. Zero, og'zining muskullari xursand bo'lganda tabiiy jihatdan ikki tomonga tortilishini "og'zining tanobi qochmoq" iborasi bilan berish uchun keng dunyoqarash, zukkolik, donolik talab etiladi.

Demak, qisqagina tahlilimiz natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Iboralar insonning ham jismoniy, ham ruhiy holatining ko'chma, badiiy ifodasi hisoblanadi.
2. Ruhياتni anglatuvchi iboralar, asosan, insonning ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tanasiga ta'siri asosida shakllanadi.
3. Bunday iboralarda, albatta, insonning tabiiy holati bilan birgalikda ko'chma ma'nodagi so'z ham ishtirok etadi.
4. Frazеologizmlar semantic tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, Grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning o'zaro birikuv va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ларин Б. А. Очерки по фразеологии. –Л.: 1956.
2. <http://frazеologiyahaqida//uz/76300/uz>.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 3-jild. –T.: Ensiklopediya, 2006.

SH.TOJIBOYEVA, ToshDO'TAU talabasi

EVFEMIZM VA DISFEMIZMNING LEKSIK MA'NO TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Resume

This article is about to identify the role of euphemism and diseuphemism during the lexic meaning progression.

Key words: linguistics, euphemism, diseuphemism, lexic meaning, negative meaning, positive meaning.

Keyingi yillarda tilshunoslik sohasida leksik ma'no va uning taraqqiyoti bilan bog'liq tadqiqot natijalari yuzaga keldi. Bunday ilmiy izlanishlar natijasi fanda "semasiologiya" deya nomlandi. Semasiologiya bo'limi har vaqt o'zgarish va rivojlanishda bo'lgani bois, mazkur bo'lim tadqiqotchilar tomonidan qiziqish bilan o'rganilmoqda. Mazkur sohada leksik ma'no va uning chegarasi, semantik tarkibi, so'zlarning leksik ma'nosida bo'ladigan o'zgarishlar, hosila ma'nolarning vujudga kelishi, hosila ma'nolarning vujudga kelish sabablari, ma'no kengayishi va torayishi kabi masalalari izchil o'rganiladi.

Har bir sohada bo'lgani kabi tilshunoslik sohasida ilmiy faoliyat olib borayotgan, yangidan – yangi ma'lumotlarni kashf etib kelayotgan, til taraqqiyoti yo'lida xizmat qilayotgan ustoz-tilshunos olimlar talaygina. Shunday ulug' olimlardan biri filologiya fanlari doktori, professor Miraziz Mirtojdiyevdir. Tilshunos olimning ilmiy izlanishlari talaygina, shular qatorida "O'zbek tili semasiologiyasi" nomli 18 bosma taboqdan iborat monografiyasi alohida o'rin tutadi. Olim leksik ma'no va uning taraqqiyotida kuzatiladigan o'zgarishlarni bir-biridan qiziq ma'lumotlar bilan tavsiflaydi. Quyida nutqiy muloqot jarayonida muhim aspektlardan hisoblanuvchi evfemizm va disfemizm haqida olimning ba'zi qarashlarini o'rganamiz.

Leksik ma'no taraqqiyotida shunday hodisalar borki, ularni sof lisoniy hodisa sifatida emas, balki nutqiy hodisa sifatida baholash to'g'ri bo'ladi. Shunday hodisalardan biri evfemizm va disfemizm hodisalaridir. M. Mirtojdiyev "O'zbek tili semasiologiyasi" kitobida evfemizm va disfemizm haqida ma'lumot berib, hodisaning til va nutq jarayonida tutgan o'rniga atroflichat o'xtalib o'tgan.

"Evfemizm" tushunchasiga izohli lug'atda – yunoncha "euphemismos: eu – yaxshi+phemi - gapiraman", biror sababga ko'ra qo'llanishi taqiqlangan yoki qo'llanishi noqulay bo'lgan qo'pol, dag'al so'z, ibora o'miga boshqa yumshoqroq so'z yoki ibora qo'llash. Masalan, *chayon* so'zi o'rmda *eshak*, *otl yo'q* so'z va iborasining qo'llanishi¹- deya ta'rif berilgan. Disfemizm hodisasi esa mazkur lug'atda izohlanmagan.

Evfemizm va disfemizm shu tilda gaplashuvchi xalq ruhiyatining o'z so'zlari leksik ma'nosi taraqqiyotida aks etishi deb qaraladi. Shuning uchun ham tilning mazkur hodisasi tadqiq etilar ekan, shu xalqning udumi, dunyoqarashi, irim-chirimlari - umuman ruhiyati e'tiborda tutilishi kerak. Evfemizm ifodaga ijobiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi². Disfemizm ifodaga salbiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi. Bu esa kishilarning o'zaro muloqoti, axloqi va o'zini tutishi bilan aloqador.³ O'zbek xalqi azaldan til va nutq masalalariga, nutqiy muloqot jarayoniga, nutq odobiga alohida e'tibor qaratadi. Buni evfemizm va disfemizm hodisalari misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. "O'zbek tili semasiologiyasi" kitobida mazkur tushunchalardan faqat ta'qiqlangan so'z va iboralar o'rmda qo'llash mutlaqo noto'g'ri ekanligi zarur misollar bilan isbotlab berilgan. Chunki tilimizda "qan", "keksa", "chol", "nafaqaxo'r" so'zlari yoki "oshini oshab, yoshini yashagan", "bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda" iboralari mavjud. Ammo nutqimizda bunday so'zlarni o'rinni o'z o'rnida qo'llashimiz, nafaqat, nutqiy madaniyatsizlik, balki lisoniy bilimning yetilmasligidan dalolat beradi. Ushbu so'zlardan foydalanish, aslida ta'qiqlanmagan, ammo inson ruhiyatiga ta'siri ijobiy bo'lmasligi hisobga olinib, ba'zi so'zlardan foydalanganda muloqot vaziyati va tinglovchi holati hisobga olinadi. Yuqoridagi so'z va iboralar o'miga "nuroniy", "otaxon", "onaxon", "yoshi ulug'",

¹ Ushbu ilmining izohli lug'ati – Toshkent: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

² Mirtojdiyev M. Uzbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 119.

³ Mirtojdiyev M. Uzbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 119.

“oqsoqol”, “keksalik gashtini surayotgan”, “keksalik libosini kiygan”¹kabi bir qancha evfemik xarakterdagi soʻz va iboralarni qoʻllash mumkin.

Baʼzan nutqimizda biror leksik birlikni qoʻllagimiz kelmaydi, yoshligimizdan uni kattalar taʼqiqlab, oʻmiga boshqa bir soʻzni ishlatish lozimligini uqtirib kelishadi. Masalan “chayon”, “ilon” soʻzlari oʻmiga “oti yoʻq”, “uzun opa” kabi soʻzlarni qoʻllaymiz. Ularni oʻz nomi bilan atab gapirish, chaqirish bilan barobar tushunilgan yoki chaqib olishi mumkin deb choʻchishgan. Soʻzlashuv jarayonida yuqoridagi kabi leksik birliklardan maqsadli foydalanishimiz ham evfemizm hodisasiga kiradi. Mavjud soʻzga evfemistik maʼno yuklanar ekan, bu sema qoʻllanmay qolgan soʻzga tegishli boʻladi. Yaʼni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Mutaxassislar uni, asosan, tabu bilan bogʻlaydilar. Tabuga uchragan soʻz yoki ibora oʻmida toʻgʻridan-toʻgʻri evfemizm qoʻllanadi, yaʼni maʼlum soʻzga tabuga uchragan lugʻaviy birlikning maʼnosi yuklanadi, u evfemistik maʼno boʻlib qoladi².

Nutqimizda har vaqt ham ijobiy boʻyoqqa ega soʻzlardan foydalanmaymiz, baʼzan suhbatdosh yoki muayyan vaziyat, kayfiyatga koʻra soʻzlarning hosila maʼnolaridagi salbiy boʻyoqdor birliklaridan qoʻllaymiz. Bu birliklar evfemizmning ziddi disfemizm maʼnoli soʻzlarga misol boʻladi. Disfemizm dagʻal, qoʻpol, betakalluflik bilan munosabatda boʻlish uchun, narsa, voqelik, harakat, holat kabilarni salbiy xarakterli narsa, voqelik, harakat, holat kabilar nomi bilan atashdir. U lugʻaviy birlikning hosila maʼnosi sifatida yuzaga kelib, hamma vaqt emotsional-ekspressiv ifodaga ega boʻladi. Shuningdek, hosila maʼno yuzaga kelishiga juda yaqin ekanligi holda, uning hosilasi sifatida eʼtiborda tutiladi. Disfemizm evfemizmga oʻxshash oʻzgaruvchan qatlam emas. Uning argo va neologizmlar, shuningdek, laqablar bilan hech qanday aloqasi yoʻq³. Masalan, “toʻnka”, “hoʻkiz” soʻzlarini odamga nisbatan qoʻllash, “ahmoq”, “ezma” deya haqoratli soʻzlardan foydalanish disfemizmga misol boʻladi.

Umuman olganda, har qaysi xalqning bebaho qadriyatleri, oʻlmas anʼanalari, ming yillik odob-axloq qoidalari, xarakteri, ruhiyati, madaniy dunyoqarashi mavjud boʻladi. Mana shunday xususiyatlarga ega xalq vakillari tilida evfemizm va disfemizm, yaʼni ijobiy va salbiy maʼnoli soʻzlar taraqqiyoti davom etadi. Ulardan muloqot jarayonida foydalanish esa muhim ahamiyat kasb etadi.

B.MIRZAAKBAROVA, ToshDOʻTAU talabasi

TILNING IFODA VA MAZMUN JIHATINI OʻRGANISH

Resume

In this article, discussed about the specific peculiarities of learning of expressive and content plan of the language.

¹A. Omonturdiyev. Oʻzbek nutqining evfemik asoslari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. B. 64.

²Миртожиев М. Ўзбек тили семаснологияси. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2010. – Б. 120.

³Миртожиев М. Ўзбек тили семаснологияси. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2010. – Б. 132.

Key words: language, expressive plan, content plan, voice, phoneme, morpheme.

Til murakkab hodisadir. Tilga bir sistema sifatida qaraydigan bo'lsak, til o'ziga xos birliklarga ega. Til birligi bo'lishi uchun esa bir butunni tashkil etuvchi ikki jihat bo'lishi lozim, ya'ni bular: tilning ifoda va mazmun jihati. Tilning ifoda va mazmun jihati deyilganda aynan nima nazarda tutilayotganini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1. Ifoda jihati-muayyan lingvistik birlikning ifoda tomoni, ya'ni til(nutq) birligining tashqi tomoni (ifodalovchisi). Masalan, So'zdagi ifodalovchi uning tovush qobig'i, gapdagi ifodalovchi esa gapga xos model va sxemalarning muayyan voqealanishi. (Ifoda plani deb ham yuritiladi)¹

2. Mazmun jihati- muayyan lingvistik birlikning ma'no tomoni, ya'ni til(nutq) birligining ichki tomoni (ifodalanuvchisi). Masalan, so'zdagi ifodalanuvchi uning lug'aviy ma'nosi bo'lsa, gapdagi ifodalanuvchi-uning mazmuni. (Mazmun plani deb ham yuritiladi.)²

Tilning ikki muhim jihatini quyidagi til birliklari orqali o'rganishimiz mumkin. Masalan, til birliklarining asosida yotuvchi birliklar sifatida til tovushlari nazarda tutiladi. Aynan til tovushlari boshqa til birliklari uchun qurilish ashyosi bo'lib xizmat qiladi. Xo'sh, til tovushlari ham ifoda va mazmun jihatiga egami?

Til tovushlarini birlamchi til birligi sifatida o'rganadigan bo'lsak, u boshqa til birliklaridan tub leksemaga, tub morfema kabilarga ifoda jihati bo'lib xizmat qiladi. Tovushlar va ularning birikmalari inson ongida biror tushuncha bilan bog'lanadi va bu tilning mazmun jihati deb yuritiladi. Masalan, "Uy" so'zi ikki tovushdan iborat bo'lib, so'zlovchilar ongida "odamlar yashaydigan joy" tushunchasini keltirib chiqaradi. "Uy" so'zi tildagi belgi sifatida o'zining ifoda va mazmun jihatlariga ega. Zero, til belgilar sistemasini unutmangimiz lozim. Biroq birgina tovush hech qanday ma'no anglatmaydi. Demak, shu nazariyadan kelib chiqqan holda biz til tovushlarini faqat ifoda jihatiga ega yoki faqat bir yoqlamali deya olamiz.

Tildagi belgilar murakkab tuzilishi, ifoda va mazmun jihati bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir til bosqichi o'zining til birligiga ega. Quyi bosqich birliklari bir-biri bilan birikib yuqori bosqich birliklarini hosil qiladi. Morfema-tilning ifoda va mazmun jihatiga ega eng kichik belgisidir. Morfemalar ketma-ket birikib tilning kattaroq birliklarini hosil qiladi. Masalan, "bilim" so'zida til-bo'zning asosi bo'lib o'zak morfemani hosil qiladi, -im qo'shimchasining qurilishi bilan yangi so'z hosil bo'ladi. Tilning morfema va leksema bosqichlari yuqori bosqichlari sanalib, o'z strukturasisiga ega. Tilning ifoda jihatida morfemalardan quyi bosqich fonema bosqichi sanaladi. Fonemalar ketma-ket birikib tilning yuqori bosqichlari birliklarini -morfema, leksema, so'z birliklarini va gapni hosil qiladi. Har bir bosqich birliklari o'zidan keyingilari

¹ Шейхон А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. 2002 –Б.46.

² Шейхон А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Фан, 2002 – Б.60.

uchun ifoda jihati bo'lib xizmat qiladi va yuqori bosqich birliklari esa o'ziga xos ma'no va mazmun jihatlarini bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu nazariyalarni quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

1. –gan morfemasining ifoda jihati bo'lib g,a,n tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qilsa, mazmun jihatini “uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi” ma'nosi tashkil qiladi.

2. “ko'z” so'zining ifoda jihati bo'lib k,o,z tovushlarining shunday tartibda joylashgan qatori xizmat qilsa, mazmun jihatini “odamning ko'rish uchun xizmat qiladigan juft a'zosi” ma'nosi tashkil qiladi.

Shuni unutmasligimiz lozimki, so'zning mazmun tomonini biror shaxsga ma'lum qilish mumkin bo'lmagani uchun uning ifoda jihati, ya'ni tovush tomoni belgi, aniqrog'i, ramz sifatida xizmat qiladi. Natijada aytilgan so'z orqali tinglovchi ongida tegishli tushuncha paydo bo'ladi va shu tariqa davom etadi.

Shuningdek, aytib o'tilganlardan tashqari frazemalar ham o'zining ifoda va mazmun jihatiga egadir. Frazemalarning ifoda jihati deyilganda ularning qanday til birliklaridan tarkib topgani tushuniladi. Frazema ikki va undan ortiq leksemalarning o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumiy ko'chma ma'no hosil qilishidan yuzaga keladi. Masalan, “og'zi qulog'ida” frazemasini “og'zi” leksemashaklining ¹ “qulog'ida” leksema shakliga tobelanishi bilan tuzilgan birikmasiga teng. “Og'zi” leksemashakli va “qulog'ida” leksemashakli ham o'z navbatida so'zga qo'shimcha morfemaning qo'shilishidan hosil bo'lgan, eng quyi bosqichida esa ularning ma'lum tovushlar birikuvidan hosil bo'lganini guvohi bo'lamiz. Lekin bu frazemaning mazmun jihatini alohida birliklarga bo'lib o'rganilmaydi. Chunki frazema murakkab til birligidir, ya'ni mazmun jihatini bilan bir so'zga teng bo'lsa, tuzilishi jihatidan ba'zan so'z birikmasiga va gapga teng bo'ladi. “Og'zi qulog'ida” frazemasini ham tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga teng bo'lsa ham, mazmun jihatidan faqat bir so'zga tengligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu frazemaning mazmun jihatini “xursand” ma'nosi tashkil etadi.

Har bir til birligini chuqurroq o'rganish orqali yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz ham mumkin. Demak, tilning ifoda jihati deyilganda uning ifodalovchisini, mazmun jihatini deyilganda esa uning ifodalovchisini tushunar ekanmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 8, 418
2. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –T: Sharq, 2010. –B.65-66.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent, 2007. –B. 213
4. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Фан, 2002.
5. Aim.uz sayti

¹ Leksema va morfemaning qo'shilishidan hosil bo'lgan birlik. Bu yerda “og'iz” leksemasiga –i III shaxs birligidagi egallik qo'shimchasini qo'shish orqali “og'zi” leksemashakli hosil bo'lgan

O'ZBEK TILIDAGI MAQOLLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI

Resume

This article is devoted to analyze the semantic structures of proverb in the Uzbek language.

Key words: proverb, semantic, structure, scheme, saying.

Maqollar - xalq og'zaki ijodi merosining keng tarqalgan, harakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, harakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko'rsa, ming yillar bo'yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Biror til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan yoki bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi. Maqolni boshqa paremiyalardan ajratish uchun uning tub, spesifik alomatlarini tavsiflash zarur. Paremiyalar spesifik alomatlariga - xalqchilik, kelib chiqishi qadimiy bo'lgan, metaforalik, majoziylik, ko'p manolilik, nasihatomezlik, nazmiylik kabi xususiyatlarga ega. Ana shu xossalarga suyangan holda quyidagi maqollarni taklif etamiz: "Maqol - obrazli, majoziy va nasihat xarakteriga ega bo'lgan qoliplashgan paradigmatic shakldagi struktur va semantik jihatdan tugallangan ixcham xalq so'zi bo'lgan maqollarni ajratib chiqamiz.

Vatanga, ona diyorga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbat.

O'zbek xalqi ona deb hisoblaydigan Vatanga bo'lgan chuqur va cheksiz muhabbatni o'z maqollari orqali ifodalaydi.

Vatan uchun o'lmoq ham sharaf; Ona yurtning-oltin beshiging; Ona yurtning inson bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas;

Agar yurt og'ir kunlarni boshdan kechirayotgan bo'lsa *Vatanning vayronasi- insonning g'amxonasi; Vatanga falokat-o'zinga halokat.*

Insonning mohiyati, ichki dunyosi.

Maqollarda insonning ichki dunyosiga nisbatan bir xil bo'lmagan munosabat bildiriladi. Ba'zan maqollarda inson va uning fe'l-atvoridagi ijobiy jihatlardan gapirulanish ifodalangan. Masalan: *Odam aqli - olmos; Odam bolasi- elning lolasi; Odam gavhar - qo'li gul; Odanning qo'li - gul.*

Boshqa hollarda maqollar (eskirgan) insonning ichki dunyosini salbiy munosabdan xarakterlaydi, masalan: *Odam - odamga yov; Odam shaytoni - odam.*

Insonni turli yo'llar orqali bilib olish mumkin. *Odam - odanning ko'zgusi maqolida bir insonning fe'l-atvorini bilib olish, boshqasining fe'lini bilib olishga*

yordam berishi haqida soʻz boradi. Ruscha *Скажи, кто твой друг, и я скажу, кто ты* maqoli bilan taqqoslasak (*Doʻsting kim ekanligini ayt, men sening kimligingni aytay*).

Inson feʼl-atvorini uning yuzidan bilib olsa boʻladi: *Odam yuzi – qalb oynasi*
Oʻzbek tilida Sn+Sn sxemali gap shaklidagi maqollar koʻp ishlatiladi.

Ushbu sxema boʻyicha yasalgan sodda yigʻiq gaplar rus tilidagi kabi kam uchraydi, masalan: *Podsholik – qonxoʻrlik; Vaqt – omad; Yoshli – beboshlik; Qarilik – hastalik; Mastli – pastlik; Bolalik – podshohlik; Asad – rasamat; Basharam – shajaram.*

Bu gaplarning baʼzilari inkor gaplar hisoblanadi: *Kambagʻallik ayb emas; Yolgʻonchi kishi emas.*

Sn+Sn konstruksiyalari murakkab bogʻlovchisiz gaplar tarkibiga kirishi mumkin, masalan: *Odam – gavhar, qoʻli – gul; Yolgʻonchi qalloq, oʻgʻri alloq;*

Sn+Sn strukturali sodda yoyiq gaplar oʻzbek tilida koʻp uchraydi, masalan: *Yutuqning kaliti – mehnat; Baxt garovi – doʻstlik; Baxt belgisi – bilim; Baxt yalqovga – begona; Kambagʻalning boyli – tanining sogʻligi; Vatan tuprogʻi – gʻalaba garovi; Odam odamga yov; Salomatlik – tanga katta neʼmat; Tavakkal – yerning yoʻldoshi; Aqlning oʻlchovi – idrok; Ahmoqning javobi sukut.*

Koʻpgina Sn+Sn struktur sxemali maqollar oʻzlarida obrazli qiyosni ifodalaydi, masalan: *Umr – oʻtkinchi mehmon; Umrning egovi – qaygʻu; Ish – insonning gavhari; Ona yurtning – oltin beshiging; Vatanning vayronasi – umrning gʻamxonasi; Xalq harakati – dengiz toʻlqini; Odam aqli – olmos; Odaming qoʻli – gul; Umr – ariqdan oqqan suv; Aqli ish – qanotli qush; Bilim – aql chirogʻi; Ilm – tubsiz quduq; Aytilgan s oʻz otilgan – otilgan oʻq; Haqiqat – oltindan qimmat.*

Oʻzbek tilidagi maqollarning struktur tahlilidan quyidagi xulosaga kelindi: oʻzbek maqollari orasida koʻpchilik maqollar Sn+Sn sxemali konstruksiyada tuzilgan. Maqollar hatto yagona mantiqiy-semantik tuzilishga egadir. Maqollar ming yillardan buyon mavjud. Inson aql-zakovati yordamida atrof muhitdagi hodisalarni kuzatadi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganadi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni anglaydi. Inson zakovatining bunday yaratuvchilik faoliyati natijalari maqollar deb nomlangan qisqa, loʻnda jumalalarda mujassamlanadi. Struktur-semantik tugallik maqollarni paremiyalarning eng yaqin boʻlgan matal (ibora)lardan farqlab turadi. Oʻzining grammatik tuzilishiga koʻra maqollar tugallangan gapni (sodda yoki qoʻshma) ifodalaydi, iboralar esa gap boʻlaklari yoki tugallanmagan gaplardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakirov P.U. Oʻzbek, rus, qozoq tillarining semantik va struktur tahlili. – T, 2006.
2. Mirzayev T. Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent, 2003.
3. Садриддинова М. Ўзбек мақол ва маталлари лексикаси. –Тошкент, 1985.
4. Саримсоқов Б. Мақоллар ҳақида. –Тошкент, 1978.
5. Содикова М. Ўзбек ва рус мақол ва маталларининг луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969.

ЎЗБЕК ТИЛИ ТАЪЛИМИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВОДИДАКТИКАСИ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Resume

In this article it is given information about computer didactics which one of the progressive teaching method in the teaching methods of the Uzbek and foreign languages.

Key words: computer linguodidactics, behavioristic stage, communicative stage, integration stage, virtual classroom

Узлуксиз таълимда ўзбек тили ва хорижий тилларни ўқитиш методикасида бугунги кунда жадал суръатлар билан ривожланаётган *компьютер лингводидактикаси* таълимнинг инновацион усуллари қаторидан етакчи ўринни эгалламоқда. Вужудга келганига кўп вақт бўлмаса-да, ушбу соҳа, бир томондан ҳисоблаш техникаси ривожи билан, иккинчи томондан тил ўргатиш концепцияси билан чамбарчас боғланган йўлни босиб ўтди. Замонавий ахборот технологияларининг имкониятлари тил ўргатишда шунчалик муҳим бўлиб қолдики, уларни бир-бирисиз тасаввур қилиш қийин. Тил таълимида ахборот технологияларидан фойдаланиш зарурияти ҳозирги даврда умум томонидан эътироф этилди, компьютерлар ёрдамида таълим бериш ўқув жараёнининг ажралмас қисмига айланди ҳамда методиканинг мазкур соҳасига қизиқиш ортишига сабаб бўлди.

Амалий лингвистика бўйича мутахассис, америкалик олим М.Варшауэр компьютер лингводидактикаси ривожланишининг уч босқичини кўрсатган:

1. Бихевиористик босқич (XX аснинг 50-70-йиллари) – машқ-назорат дастурлари даври. Унда содда технологияга асосланган назорат қилувчи компьютер дастурларидан фойдаланилган.

2. Коммуникатив босқич (70-80-йиллар) – таълимий-ўйинли ва амалий дастурлар даври. Бунда бир хил типдаги вазифалар: матнни тайёрлаш, имлони текшириш, жадвалларни тўлдириш, ахборотни излаш, тасвирларни қайта ишлаш ва шу қабиларни бажариш бўйича дастурлар қўлланади. Бундай дастурлар тайёргарлик даражаси турлича бўлган фойдаланувчиларга мўлжалланган, шу туфайли улар билан ишлашда компьютер соҳасида махсус билимларга эга бўлиш талаб қилинмайди.

3. Интеграцияловчи босқич (80-йиллар охиридан ҳозирги кунга қадар) – компьютерлар ёрдамида гипермедиа ва коммуникатив воситаларни қўллашга асосланган. Ушбу босқич мультимедиа (ахборотни овоз, графика, мультимпликация ва видео уйғунлиги кўринишида тақдим этиш) ва гиперматн (ночизикли матн кўринишидаги ахборотни чапараста (перекрёстный) бирламчи ҳаволалар тизимини яратиш йўли билан) имкониятларини бирлаштириш ҳисобига ривожланди.

М.Бовтенко компьютер лингводидактикаси ривожланишини икки босқич, яъни анъанавий ва замонавий босқичларга ажратиш фикрини қўллаб-

қувватлайди. Биринчи босқич (60-80-йиллар) ўша даврдаги компьютерларнинг техник имкониятлари ва тилини ўргатишда “анъанавий” бўлиб қолган, оммалашган таълим дастурлари туфайли шундай ном олган. Компьютерларнинг имкониятлари бирмунча чекланган бўлса-да, улар ёрдамида нуткий фаолиятнинг алоҳида турлари ҳамда тил аспектиларини самарали ўргатиш мумкин бўлган. Бу борада айниқса таълим жараёнини индивидуаллаштириш ва ўқувчиларнинг тил компетенциясини шакллантириш устида ишлаш имконияти катта аҳамиятга эга бўлган. Ўша даврнинг энг оммалашган дастурлари – машқ ва машқ-назорат дастурлари бўлиб, улар лексика, грамматика ҳамда нуткий фаолиятнинг ўқиш ва ёзиш турларини ривожлантиришга мўлжалланган эди.

Иккинчи босқич 90-йилларда бошланиб, компьютерларнинг техник имкониятларидаги сифат ўзгаришлари билан боғлиқ бўлдики, бу билан тил ўргатишда муҳим бурилиш юз берди. Ушбу даврнинг асосий технологик ютуқларига қуйидагилар қиради:

- нутқни эшиттириш ва ёзиб олиш ҳамда интерактив видео имкониятларини бирлаштирувчи мультимедиа воситалари;
- лазер компакт-дискларида сақланадиган ахборот ҳажмини кўп маротаба оширишга имкон берувчи CD-ROM технологияси;
- ахборотнинг матн майдонларида чапаста бирламчи ҳаволалар тизимини яратувчи гиперматн;
- гиперматн ва мультимедиа имкониятларини мужассам этувчи гипермедиа;
- телекоммуникация технологиялари.

Ушбу воситалар компьютердан нуткий фаолиятнинг барча турлари устида ишлашда, яъни фақатгина ўқиш ва ёзиш эмас, балки тинглаш ва сўзлаш (шу жумладан талаффуз ва оҳанг) малакаларини ривожлантиришда, шунингдек ўрганилаётган тилда сўзлашувчилар билан ҳам ёзма, ҳам оғзаки шаклда реал мулоқот қилишда фойдаланишга имкон беради.

Компьютер воситасида таълим беришнинг кейинги босқичи виртуал вокеликдан фойдаланиш бўлади, деб тахмин қилинмоқда. Виртуал синф ёки лабораторияда ўқувчи вокеликни имитация қилувчи шароитда таълим олиши мумкин бўлади, бу эса, шубҳасиз, тилини компьютер технологиялари ёрдамида ўрганиш имкониятларини кенгайтиради.

Шу билан бирга, замонавий босқичга ўтилиши анъанавий босқичдан воз кечиш керак, деган фикрга олиб келмаслиги лозим. Энг яхши анъанавий дастурлар ҳозирги кунда ҳам таълим жараёнида қўлланиб келинмоқда, уларнинг бир қисми эса техник жиҳатдан янгилашиб бормоқда.

Агар қарийб ярим аср илгари Европа тилларини компьютер технологиялари ёрдамида ўрганишга асос солган ва бутунги кунга келиб ниҳоятда ривожланиб, бутун дунёга тарқалган тил дастурларини таққосласан, улар орасидаги тафовут яққол кўринади. 2014 йилда яратилган русча-ўзбекча ва ўзбекча-русча онлайн лугатлар, шунингдек ўзбекча сўзлашгич бу борада қўйилган илк кадамлар бўлиб, уларни бойитиш учун ҳали жуда кўп меҳнат қилиниши лозим. 2017 йил март ойида Интернет ресурсларида ўзбек тилини

инглиззабонларга ўргатувчи “Teach Yourself Uzbek” компьютер дастури жорий қилинди. Унда ўзбек тили дарслигининг PDF файли жойлаштирилган ҳамда 6 та онлайн луғат: ўзбекча-инглизча чўнтак луғати, “Зангори кема” икки тили луғати, Индиана университетининг ўзбек-инглиз луғати, ўзбек-инглиз луғати, ўзбек-араб луғати, ўзбек-олмон луғатлари мавжуд. Мазкур дастур ўзбек тилида сўзлашишни ўргатишга қаратилган бўлиб, такомиллаштирилиб бормоқда.

Компьютер лингводидактикасининг замонавий босқичида интеграциялашган таълим мухитини яратиш мақсадида таълим берувчи, амалий ва телекоммуникация дастурлари қўлланади. Бунда ўқувчи-талабаларнинг ўрганилаётган тил мухитига тўлиқ кириши таъминланади, бу эса уларнинг мулоқот компетенциясини ривожлантиришга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Warschauer, M. (Ed.) (1996) Telecollaboration in foreign language learning. Honolulu, HI: University of Hawai'i Second Language Teaching and Curriculum Center <http://nflrc.hawaii.edu/publications/view/TR12/>

2. Бовтенко М.А. Компьютерная лингводидактика. – Москва: Флинта-Наука, 2005. – С.12.

3. Русско-узбекский переводчик <http://solver.uz/translate.php>

4. Русско-узбекский разговорник http://sahifa.tj/russko_uzbekskii_gazgovornik.aspx

5. Узбекско-русский переводчик http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx

6. Teach Yourself Uzbek <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/>

Н.ҚУДРИДДИНОВА, Олий ҳарбий божхона институти

ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА КўП ГАПИРТИРИШ ОРҚАЛИ ОҒЗАКИ НУТҚНИ ЎСТИРИШ

Resume

In this article, it is given the different examples to raise up the oral speech, teaching of the free communicative process through the Uzbek language's lessons at the Russian group pupils in academic lyceum.

Key words: mono speech, dialogue speech, comics, oral discussion, text.

Тил ўқитишнинг ҳар бир асосий мақсади ўз ичига маълум хусусий мақсадларни қамраб олади. Ўзбек тилига ўргатиш асосий мақсад қилиб белгиланса, оғзаки нутқ турига устувор аҳамият берилса, сўзлаш ва ўзаро сўзлашиш малакаларини шакллантиришга элтувчи хусусий мақсадлар илгари сурилади, ушбу хусусий мақсадларга эришишни мўлжаллаб метод ёки методлар танланади. Бошқача айтганда, муайян методлар тизими маълум хусусий мақсадлар учун хизмат қилади. Булар дарснинг мақсадларини белгилашда ўз ифодасини топади: тингловчиларнинг ўзбек тилида мулоқот миданиятини ривожлантириш, уларнинг боғлианишли нутқини ўстириш ва шакллалар.

Маълумки, иккинчи тилни ўқитиш дарсларида нутқни ўстириш нутқий фаолият турлари устидаги ишларнинг имкониятлари доирасида амалга оширилиши керак.

Нутқ диалогда яъни иккита инсоннинг ўзаро мулоқотида пайдо бўлади, кейинчалик инсон монологик нутқка эга бўлади. Бироқ бугунги кунда қўлланилаётган методика фақат монологик нутқни ривожлантиришга қаратилмоқда. Нутқий фаолият турларининг оғзаки нутқ малакасини ўстиришдаги имкониятлари бир хил эмас. Нутқий фаолиятнинг ҳар бир тури ўзига хос нутқий механизмларга, яъни психологик ва психофизиологик асосларга эга. Шунинг учун ҳам ўзбек тилида гапиришга ўргатишда назарда тутилмаган нутқий механизмлар нутқни эшитиб тушуниш, матнни ўқишга ўргатишда инобатга олинмаган нутқий механизмлардан фарқ қилади. Нутқни ўстиришда ўзбек тилида сўзлашга ўргатиш методикаси танланса, таълим мазмуни, шакл, восита ва методлари шунга яраша белгиланади.

Ўзбек тилини ўқитишдан кўзланадиган асосий макссадлардан бири ўқувчиларни шу тилда гапиришга ўргатиш – уларнинг оғзаки монологик ва диалогик нутқини ўстириш бўлиб, ушбу таълимий тадбирни амалга ошириш хусусида психолог олимлар етарлича хулосалар берганлар. Ана шундай хулосалардан бири – таълимий амалларни нутқ механизмини шакллантириш учун етарли даражада гапиришни таъминловчи нутқий фаолият асосида ташкил этиш, яъни тил ўрганувчини шу тилда кўп гапиртириш кераклигидир.

Тингловчи матнни ўқиганда ҳам, саволларга жавоб берганда ҳам, ўзи гап тузиб ҳикоя қилганда ҳам гапиради. Лекин ушбу “гапиришлар” бир хил даражадаги гапиришлар эмас. Матн ўқилганда, уни овозлантириш жараёни кечади. Саволларга жавоб берганда ҳам шунга яқин ҳолат кузатилади. Мустақил равишда гап тузиб сўзлаш жараёнигина оғзаки нутқ ўстириш талабларига кўпроқ жавоб бериб, асл гапиришни ифода этади.

Сўз бойлиги бир йўла нутқий фаолият турларининг (ўқиш, тинглаш, сўзлаш, ёзиш) барчасига тегишли бўлиб шаклланмайди. Улар махсус машқлар ёрдамида ҳар бири учун айрим-айрим ҳосил қилинади. Тингловчиларнинг ўзбек тилидаги оғзаки нутқини ўстириш учун уларни шу тилда сўзлаш ва ўзаро суҳбатлашиш машқларига кўпроқ жалб этиш керак. Сўзлаш ва ўзаро суҳбатлашиш машқлари бир-икки гап айтиш даражасида эмас, балки нутқ аъзоларининг қўниқиши учун етарли миқдорда ташкил қилиниши лозим. Гап туза олмайдиган, яъни оғзаки нутқи ривожланмаётган тингловчи ўрганилаётган тилда фикрлай олмайди. Бу ҳам гапиришга ўргатиш ишларининг нечоғлик зарурлигини ифода этади.

Ўқитувчи нутқи тингловчиларнинг нутқини ўстиришда намуна бўлиб хизмат қилиши керак.

Оғзаки нутқни ривожлантириш учун тавсия қилинаётган усуллар қуйидаги ўқув ишларини қамраб олади:

Тасвирлар билан ишлаш. Тасвирлар сифатида комикслар ёки расмлар ва суратларни олиш мумкин.

Комикслар (умумий мазмун билан боғланган, ҳар бирига қисқа-қисқа текст берилган расмлар серияси) мавзу жиҳатдан турли хил бўлиши, ҳаётда кенг тарқалган мавзу ва мазмунда бўлгани маъқул.

Комикслар билан тавсия қилинадиган иш турлари.

А) Оғзаки диалог. Комикслар бўйича оғзаки диалог методикаси куйидагича: 1. Комиксларни оғзаки изоҳлаш орқали кўриб чиқиш. Унинг асосий мақсади мавзу ва мазмунни, рассомнинг ғоясини тушуниш, асар қаҳрамонларини тавсифловчи деталларни кўпроқ аниқлаш ва ушбу деталлар асосида психологик тахминларни қилиш (қандай инсонлар тасвирланганлигини, улар нимани ҳис қилаётганликларини) ҳамда уларни айтиш. 2. Ишнинг иккинчи босқичи – тингловчиларнинг оғзаки диалогларни импровизация қилиши – кейинги дарсда ўтказилади. 3. Тингловчилар томонидан оғзаки диалоглар баҳоланади.

Б) Комикс бўйича оғзаки ҳикоя тузиш.

Бу монологик иш бўлиб, оғзаки диалогдан сўнг бажарилгани маъқул.

Ишнинг моҳияти куйидагича: тингловчилардан бири ҳикоясини гапириб беради (ўқимайди), қолганлар эса уни эшитадилар. Бунда комикслар олдиндан тарқатилган бўлади. Оғзаки диалог тузилганда тингловчилар ҳамкорликда ишлаган (биргаликда кўриб чиққан) бўлсалар, энди ҳар бир тингловчи ўзи мустақил равишда комиксни кўриб чиқади ва ўзининг ҳикоясини тузади. Тузилган ҳикоялар тингловчилар томонидан баҳоланади.

Расмлар ёки суратлар билан ишлашдан асосий мақсад – кузатувчанлик, фикрлаш, чуқур тасаввур қилиш, асардаги воқеликни англаб етиш, зийракликни ривожлантириш. Расмлар ва яхши суратларда, одатда, кўриш осон бўлмаган ва ушбу расмдаги ролин тушуниш кийин бўлган кўплаб қизиқарли деталлар бўлади. Турли жанрдаги расмлар ва суратлардан фойдаланиш мумкин. Ўйлашда, авваламбор, кузатувчанлик, зийракликка эътибор берилади. Юқори баҳо ҳеч ким пайкай олмаган детални кўра олган, мантикий тўғри фикрлаган тингловчига қўйилади.

Оғзаки баҳслар. Бундай турдаги ишнинг асосий мақсади – эшитиш ва тинглашга ўргатиш, ўз фикрларини аниқ ифода этиш ва уларни асослаш. Баҳслар тингловчилар учун қизиқарли ва таниш бўлган мавзуларда, масалан, биргаликда ўқилган бадиий асар ёки бирон бир тўлкинлантирган воқеа-ҳодиса асосида бўлгани маъқул.

Оғзаки газета. Тингловчилар институтда, курсда, гуруҳда ва улар яшайдиган шаҳарда бўлаётган воқеалардан хабардор қиладилар.

Ақборот маълум бир услубда, аниқ ва қизиқарли бўлмоғи лозим. Бу иш турининг асосий вазифаси – қизиқарли материал танлаш ва уни адабий тил шаклларида амал қилган ҳолда аудиторияга етказиш.

Маъруза ва хабарлар. Дарсда маъруза ёки хабарларни тайёрлашда, авваламбор, тингловчиларга асосий хабарни иккинчи даражали хабардан, аниқликни маъхумликдан ажрата билишни ўргатиш керак. Тайёрланадиган маъруза ёки хабардаги маълумотлар гуруҳдаги тингловчилар учун қизиқарли бўлмоғи, улар берилаётган маълумотларни қизиқиб тинглашлари лозим. Бунда уларни нафақат қизиқарли хабарларгина қизиқтира олади, балки маъруза

қилаётган тингловчининг оғзаки нутқининг ривожланганлик даражаси, шунингдек, дикцияси ҳам эшитувчиларнинг диққатини жалб этиши керак.

Ўзбек тили дарсларида тингловчилар оғзаки нутқини ривожлантиришда юқорида келтирилган методлардан фойдаланилганда тингловчиларда тилни, сўзни ҳис этиш ривожланади, улар гапларни тузишда сўзларни ўз ўрнида қўллашга ўрганадилар.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, бўлғуси божхона органлари ходимлари учун нутқнинг равлониғи, сўзларни ўз ўрнида қўллаш жуда муҳимдир. Шунинг учун улар фуқаролар билан мулоқот қилиш жараёнида нафақат сўзлашув услубидан, балки бошқа услублардан ҳам фойдалана олишлари, йиғилишларда жамоа, омма олдида маъруза қилганларида ўзбек адабий тил меъёрларига риоя қилишлари талаб этилади.

R.N.YUSUBOVA, NDPI katta o'qituvchisi

BADIIY ASAR TAHLILI

Resume

In this article, it is analyzed the literary works and author-storyteller's speech is connected with person's spirits and his characters.

Key words: work concept, textbook, story, author-storyteller, spiritual condition.

Adabiyot darslarida badiiy asar tahlilining bosh maqsadi o'quvchining asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglashidan, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishidan, hayot murakkabliklarini yengib o'tishga harakat qilishiga yo'l ochishdan iborat. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarga badiiy asarda aks ettirilgan voqelik muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga har doim ham tenglik qo'yib bo'lmasligini, asar qahramonlari ruhiyatini to'g'ri tahlil qila bilishlarini ta'minlash asosida ularning ijodiy tafakkurini o'stirishdir.

Badiiy asarda yozuvchining asar qahramonlariga bo'lgan munosabati muallif nutqi orqali ochib beriladi. Shunday ekan, muallif nutqi epik asarning "yuragi" sanaladi, bunda yozuvchi uslubining asosiy tomonlari; asar g'oyasi, qahramonlar xarakteri, yozuvchining tafakkur olami namoyon bo'ladi. Umumta'lim maktablarining 6-sinf "Adabiyot" darsligida O'.Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi berilgan, o'quvchilar hikoyani tahlil qilish jarayonida yozuvchi tomonidan tanlab olingan hayotiy materiallarning muayyan maqsad va vazifalarga bo'ysungan holda ıchchillikda berilganligini muallif-hikoyachi nutqi orqali chuqur anglab olishladi. O'qituvchi o'quvchini badiiy asar tahlili bilan tanishtirganda, muallif nutqi va qahramonlar nutqi farqlanishi, muallif nutqi badiiy asar tilining muhim qismi hisoblanishi, muallif nutqining o'zi ikki turli bo'lishi, ya'ni muallif-hikoyachi nutqi hamda qahramon-hikoyachi nutqiga bo'linishi va ularning o'zaro farqlari haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'rgatgan bo'lishi kerak bo'ladi. "Urushning

so'nggi qurboni" hikoyasi muallif-hikoyachi nutqiga asoslangan bo'lib, M.Yo'ldoshev ta'kidi bilan aytganda, "...asar voqealarini so'zlab beruvchi odam yozuvchining o'zi bo'ladi. Peyzaj tasviri va qahramonlar qiyofasi, fe'l-atvori, ularning ruhiy holati, ma'naviy takomili hamda ularning ongida ro'y bergan o'zgarishlar muallif-hikoyachi nutqida xolis bayon shaklida keltiriladi". O'qituvchining bu kabi nazariy ma'lumotlar bilan o'quvchini tanishtirishi o'quvchining aqliy faolligini oshiradi. Shunisi ham borki, o'quvchi asami o'qish davomida yozuvchining asarning qaysi o'rinlarida o'zi ifodalayotgan voqelikka qanday munosabatda ekanligini ba'zan ochiq yoki ba'zan yashirin ifodalaganini ko'pda anglayvermaydi, buning uchun o'qituvchi ko'magi zarur bo'ladi.

Hikoyaning barcha o'rinlarida muallif-hikoyachi har bir personaj ruhiy holatiga chizgi beradi, masalan, asar Shoikromning tushkun ruhiy holati tasviri bilan boshlangan bo'lib, bu holat muallif-hikoyachi nutqidagi "xomush", "g'ashi kelmoq", "xunuk", "xira" kabi so'zlar orqali reallashtirilgan; qahramon kayfiyati, makon tasviri orqali zamon xarakteri (ikkinchi jahon urushi) ochib berilgan. Sodda tasvir bayoni o'quvchining bunday o'rinlarni tezda topib olishiga ko'maklashadi: "...Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan shinni dog'i qotgan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xumuk ko'rinib ketdi". O'quvchilarga yozuvchilar o'z qahramonlari kechmishlarini, ruhiyatini, albatta, his qilishlarini uqtirish to'g'riroq bo'ladi, kimningdir holatini o'zida his qilib ko'rish uni tushunishga tomon yo'l ochadi. Yozuvchilar ba'zan qahramonlar xarakterini yaratishda ko'pincha o'z munosabatlarini ochiq-oydin ifodalaydilar, O'.Hoshimov tasvirida esa xoh muallif nutqi bo'lsin, xoh personaj nutqi bo'lsin, o'quvchini mukammal his-tuyg'ular girdobi qurshab oladi, mazkur hikoyadagi Shoikrom obrazida murakkablikka ega haqqoniyatga duch kelasan kishi. Chunonchi, bu kabi holatlar obraz xarakterining harakati bo'lib, Shoikromdagi ruhiy holatning asta-sekin kuchaya borishi ana shu xaraktering harakati bilan bevosita bog'liqdir. Xolbuki bu harakat asarning boshidayoq muallif-hikoyachi nutqida ifoda etiladi: "...Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to'g'rida o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi." Mazkur hikoya avvalidayoq Shoikromda ruhiy g'ashlik tasvirlanib, bu holat muallif-hikoyachi nutqiida bosqichma-bosqich rivojlantirib borilgan: "...Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga qaradi-yu, ter anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi... tag'in g'ashlandi". Muallif urushni, xalqning og'ir ahvolini tasvir etar ekan, ko'z oldimizga Shoikrom ruhiyatiga mos tarzda davr ruhini to'qnash qo'yadi. Asar davomida Shoikromda paydo bo'lgan g'ashlik harakatlana borib uni batamom iskanjaga olayotganini muallif-hikoyachi nutqi orqali "ko'rib turamiz". Yo'qchilik, sigirining o'g'irlab ketilishi va nihoyat so'nggi ilinj – choy puli bo'lib turgan qulupnaylarning tunda o'g'irlanishi uning insoniy tuyg'ularini chegaralay boshlaydi. Muallif-hikoyachi asaming boshidan to oxiriga qadar asar qahramonlarini ruhiy iztirob iskanjasida tasvirlaydi. (Shoikromning onasi Umri xolada ham, xotini Xadichada ham, ukasi Shone'mat ruhiy sajiyasida ham shu iztirobga to'qnash kelinadi).

Endi muallif-hikoyachi qahramon holatini tasvirlashda o'zining kulminatsion nuqtasini egallaydi: Shoikrom "... *tiroq qo'llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig'liq turgan ikki o'ram simni oldi... simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi... Yopiq qismini ayvon etagidan olib o'tdi-da, bir uchini ustumdagi ilgakka tiqib qo'ydi...*" Endi Shoikrom dilidagi g'ashlik o'z tragik yechimini topdi: qulupnay o'g'risi – o'z onasi o'limiga o'zi bilmagan holda sababchi bo'ldi va o'z harakatlarining qurboniga aylandi.

Asarni o'qish davomida yozuvchining asarda keltirilgan har bir detalga, holat va hodisalarga munosabati aniq seziladi. Bu munosabat kuzatganimizdek, Shoikromning ruhiy holatini ifodalash jarayonida ko'zga tashlanadi. Muallif qahramon holatini, o'y-fikrlarini o'z nutqida bayon qilayotgan bo'lsa ham, voqelikni qahramon qiyofasida turib kuzatadi, ifodalaydi. Bundan tashqari, tabiat tasviri ham qahramon holati bilan uyg'unlashtirilib, muallif niyatiga moslashtirilgan: "*Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab. yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitmas edi.*" Muallif-hikoyachi nutqi orqali Shoikromning asar boshidan to oxiriga qadar tark etmagan ruhiy holati – g'ashligi tadrijiy tarzda takomil topa borib, nihoyasiz nadomatga aylantiriladi. Shoikrom jisman onasini, ruhan esa o'zini urushning so'nggi qurboniga aylantiradi.

Xulosa shuki, hikoyada muallif-hikoyachi nutqi orqali inson xatti-harakatlari ruhiyati bilan bog'liq ekanligi chuqur tahlil etilgan, oqibat insondagi u yoki bu holatning tadrijiy takomilga erishuvi sababidan yuzaga kelishi asar xotimasida aks ettirilgan, shunday ekan, adabiyot darslarida muhim vazifalardan biri murg'ak qalbni ezgulikka to'ldirish ekanligini unutmashlik kerak.

Ш.А. АБДУРАХМАНОВ, НамДУ

ЭРКИН ВОХИДОВНИНГ ПРЕЦЕДЕНТ БИРЛИКЛАРДАН Фойдаланиш Маҳорати Хусусида

Resume

In this article it is given information of the usage of presedent singulars in E. Vokhidov's works.

Key words: presedent singulars, linguoculturology, Omar Hayyam, Othello, poem.

Бугунги кун тилшунослигида тил бирликларини антропоцентрик парадигма тамойиллари асосида таҳлил қилиш етакчи ўрин тутмоқда. Ҳозирги кунда тилни бирор тушунча ёки объект номи сифатида эмас, балки муайян халқ маданиятини акс эттирувчи лингвомаданий ҳодиса сифатида ўрганиш етакчилик қилмоқда. Замонавий тилшунослиқда антропоцентрик тилшуносликнинг етакчи соҳаси сифатида лингвокультуралогия ривожланиб бормоқда. Соҳа ривожидида тилшунос олимлар Э.Бегматов, А.Нурмонов, Н.Маҳмудов, Д.Худойбергеноваларнинг алоҳида ўрни бор.

Тилимиздаги бирликларни лингвомаданий жиҳатдан тадқиқ қилиш бугунги кун тилшунослари олдида турган муаммолардан биридир. Шу нуқтаи назардан қараганда тилни лингвокультуралогиянинг объекти сифатида ўрганиш лозим. Биз кичик тадқиқотимизда Э.Воҳидов асарларида қўлланган баъзи прецедент бирликлар ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Д.Худойберганова “Матннинг антропоцентриқ тадқиқи” номли монографиясида прецедент бирликларни машҳур матнлар ёки вазиятлар билан боғлиқ бўлган номлар, шунингдек, муайян сифатларнинг намунавий йиғиндисига ишора қилувчи рамзий номлар сифатида изоҳлайди.¹ Демак, нутқда маълум мақсадда келтирилган кўпчиликка маълум бўлган номлар, вазиятлар, асарлардан олинган иборалар прецедент бирликлар саналади.

Биламизки, прецедент бирликлар ифоданинг таъсирчанлигини ошириш, кенг қамровли ахборот бериш мақсадида матнга киритилади. Прецедент бирликларни тушуниш учун ўқувчи маълум билимга эга бўлиши лозим, акс ҳолда муаллиф мақсадини тушуна олмайди.

«Май ва маҳбуб» кўчасининг

Киравериш йўлида

Турсин шоир Умар Хайём,

Май косаси қўлида.

«Саргашталиқ» кўчасининг

«Рашк» тупиги устида

Отеллонинг шакли турсин

Қора кийиб устига.

(Э.Воҳидов, “Шаҳар ижрокомининг раисига ошиқлардан ариза”)

Парчадаги Умар Хайём, Отелло исмлари ҳақида онгимизда Умар Хайёмнинг шоирлиги, Отеллонинг эса асар қаҳрамонлиги ҳақида маълум тушунча бор. Лекин ўқувчи Умар Хайём рубойларини ўқимаган ёки мазмунига тушунмаган бўлса, «Май ва маҳбуб» кўчасида нима учун шоир “қўлида май косаси” билан турганлигига, Отеллога нисбатан рашк атамаси қўлланаётганлигига тушунмаслиги мумкин. Шунинг учун “аллюзив ном матн яратувчининг нечоғлиқ билим эгаси эканлигини кўрсатиш билан бирга ўқувчи билимлари синаладиган “майдон” ҳамдир”.² Ушбу мантда Умар Хайём, Отелло исмлари прецедент ном сифатида қўлланган бўлиб, Умар Хайём ижодида “май” (“ишқ майи”) образининг кенг қўлланганлигига ишора қилади. Бунда ўқувчи “май”нинг “ишқ майи” эканлигини унутмаслиги лозим.

В.Шекспирнинг “Отелло” трагедияси дунёнинг кўплаб тилларига таржима қилиниб, саҳналаштирилган. Асар қаҳрамони ва унинг характери ҳам барчага таниш. Шу сабабли матнни тушуниш жараёни ўқувчига кийинчилик туғдирмайди. Ҳозирги кунда Отелло рашкчи эркак рамзи сифатида тушунилмоқда. Маълумки прецедент номлар миллий ва универсал турларга бўлинади. Юқоридаги матндаги Умар Хайём ва Отелло номлари универсал турга кирувчи бирлик саналади.

¹ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. –Тошкент, 2013.

² Худойберганова Д. Прецедент номларнинг антропоцентриқ таққиқи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 2-сон, 42-бет

Лирик турга мансуб асар матнларида тилмех санъатидан унимли фойдаланилади. Муаллиф тилмех сифатида аллюзияни қўллаганда уни китобхонга таниш деб билади, шувинг учун унга изох бермайди.

Гар согинчим шарҳин айтсам

Ёндирар **Фарход** ўзин,

Ё очай **Мажнун**га дардим,

Ул-ку мендан соғроғ.

(Э.Воҳидов, “Висол соғинчи”)

Мисрадаги **Фарход** ва **Мажнун** аллюзив номлари барчага таниш номлар бўлиб, тафаккуримизда ошиқлар тимсоли сифатида гавдаланади. Улар орқали шоир лирик қахрамон соғинчини ифодалаган. Туртинчи “*Ул-ку мендан соғроғ*” мисрасида “**Лайли** ва **Мажнун**” достони қахрамони **Қайснинг** ишк дардида **мажнун** бўлганлигига ишора бор.

Прецедент бирликлар турли матнларга ишора қилиб келади. Масалан, қуйидаги мисрани тушуниш учун ўқувчи “**Лайли** ва **Мажнун**” достонини ўқиган ва **Мажнунни** **Каъбага** бош уриб “*Қим, бизни даги дуода ёд эт, Бу ишқ ути ишўласин зид эт!*” мисраларидан хабардор бўлиши лозим.

Сени соғинганда илтижо қилиб **Мажнундек**

Каъбага бош қўйсам, дедим.

Мўъжиза кўрсату она юртимга

Зухрамга етказ, деб ёш қўйсам, дедим.

(Э.Воҳидов, “Олтин Девор”)

Демак, китобхон учун мисра мазмунини тушуниш учун прецедент номнигина билиш кифоя килмас экан. Прецедент ном билан боғлиқ воқеа-ҳодисаларни эсда сақлаш ўқувчига муаллифнинг бадий мақсадини тўлиқ англашда, бадий ниятни тушунишда ёрдам беради. “**Лайли** ва **Мажнун**” достонини ўқиган, асар билан яхши таниш бўлган китобхон учун қуйидаги мисрадаги шоир мақсадини тушуниш кийинчилик тугдирмайди.

Ёр билан сайр этмоғимга

Ҳеч умидим колмади,

Мен ўзим **Мажнун** каби

Айлайми сахро бирла сайр.

(Э.Воҳидов, “Сайр”)

Биз юқорида Э.Воҳидовнинг баъзи шеърлари мисолида прецедент номларни таҳлил қилдик, холос. Аслида Э.Воҳидов шеърларида прецедент бирликлар салмоқли ўрин эгаллайди. Д.Худойберганова биргина “**Ўзбегим**” қасидасида 28 та ономастик бирликнинг прецедент ном сифатида қўлланганлиги айтиб ўтади.¹ Прецедент бирликлардан фойдаланиш, аввало, муаллифнинг маҳоратига, унинг кенг билим соҳиби эканлигига боғлиқ. Э.Воҳидов асарларида қўлланган прецедент бирликлар асарни мазмун жиҳатидан бойитиш, гўзал бадий ифодалар яратишга, ўқувчини дунё ва халқ маданияти билан таништиришга хизмат қилади. **Бинобарин**, **Э.Воҳидов**

¹ Худойберганова Д. Прецедент номларнинг антропоцентриқ талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 2-сон, 45-бет.

шеърларида қўлланган бундай бирликларни янада кенгрок ўрганиш долзарб вазифалардан биридир.

D.J.ERBOYEVA, TTPU huzuridagi akademik litsey o'qituvchisi

BADIIY MATN – SHAXS MA'NAVIYATINI BOYITUVCHI MANBA SIFATIDA

Resume

This article is about the importance of the literature, to formed the moral life of academic lyceums' pupils.

Key words: spiritual heritage, literature, ancestors, encyclopedic scientists

“Adabiyot yashasa, millat yashar

Bizga eng lozim bo'lg'on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyotdur.....

Chunki, adabiyot - o'tkir, yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvidir.....”

Abdulhamid Cho'lp'on.

Insonni boshqa mavjudotlardan yuqori qo'yuvchi eng oliy xislati bu - uning aql-u idroki, ma'naviyatidir. Olloh farishtalarni gunoh ishlarga boshlovchi nafsdan forig', hayvonlarni esa faqat o'z nafsini qondirish xislati bilan yaratgan. Biz insonlar ruhida esa har ikki jihat: yaxshilik va yomonlikni anglashimiz uchun aqlni ham, har xil gunohlarga boshlovchi nafsni ham joylagan va tanlash imkonini bergan. Shu sababli agar inson o'z nafsidan g'olib chiqib aql bilan yashasa, farishtalardanda yuqori darajaga erishar ekan. Mabodo, nafs quliga aylanib, halol va haromning farqiga bormay qolsa, hayvondan ham tubanlashib ketarkan.

Sharq qadimdan ma'naviyat markazi bo'lgan, o'zbek xalqidek ko'plab buyuk farzandlarni dunyoga keltirib, bashariyat rivojiga katta hissa qo'shgan millat esa, dunyoda kam. Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Al-Farg'oniy, Imom Al Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ... ularni sanab sanog'iga yetmoq qiyin.

Ammo yurtimiz tarixida shunday davrlar bo'ldiki, o'zbek farzandlariga sening ota-bobong savodsiz, qoloq, avom xalq bo'lgan deya uqtirishga urinishdi. Sobiq sho'ro tuzumi davrida voyaga yetgan yoshlar esa bobolardan meros bo'lgan boy ma'naviy xazinadan beharra o'sa boshlashdi. Faqat juda teran fikrli, chuqur bilimga ega bo'lgan kishilargina bu harakatlar zamirida ma'naviyatsiz, o'zligini yo'qotgan, manqurt shaxslarni tarbiyalash maqsadi yotganligini anglashar edi. Shu sababli ham ziyoli insonlar doimiy tanqid va ta'qib ostida bo'lishdi.

Sho'ro tuzumining dastlabki yillarida bu haqiqatni anglagan yurtdoshlarimiz, fidoiy bobolarimiz Stalin tomonidan olib borilgan dahshatli qatag'on qurboni bo'lishdi. Ular orasida mumtoz adabiyotimizdan ilhomlanib, g'arb adabiyoti ta'sirida yanada boyigan betakror ijod sohiblari ko'p edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lp'on, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir va ular kabi bir qator adiblarimiz har biri serqirra tug'ma iste'dod sohibi bo'lganlar. Yana qancha bizga asarlari mutlaqo yetib kelmagan, biz nomini ham bilmaydigan ijod egalarning esa biz kelajak avlodlar uchun aytar so'zlari, yozmoqchi bo'lgan asarlari armon bo'lib

bevaqt olamdan ko'z yumgandir. Agar ular har tomonlama ta'qib, adolatsizliklar ostida emas, balki mustaqil yurtda ijod qilishganda, o'zbek adabiyotida ikkinchi uyg'onish davriga asos solishgan bo'lar edi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ming shukrki, bugun Vatanimizda istiqloq quyoshi porlamoqda, osmonimiz musaffo. Yurtimiz kundan kunga obod bo'lib, yer yuzidagi eng baxtli insonlar yashayotgan mamlakatlar qatoridan joy olgan. Tarixi buyuk yurtning, albatta, kelajagi ham porloq bo'ladi. O'zbek yoshlari har sohada muvaffaqiyatga erishishlari uchun, ota-bobolarimizdan qolgan bebaho ma'naviy merosimizdan bahra olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ularning intellektual darajasi, bir necha tillarda bemalol so'zlasha olishi, har bir sohada dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlari buyuk bobolariga mos avlod ekanliklarini isbotlamoqda. Bugungi davr o'zbek yoshlari bilan faxrlansak arziydi.

Ammo bir fikr kishini biroz o'ylantiradi. So'nggi yillarda voyaga yetayotgan ko'pgina farzandlarimiz, tuganmas hikmat bulog'i bo'lgan mumtoz adabiyotimizdan kundan kunga uzoqlashib borayotgandek. Bunga sabab, adabiyot darslarida o'qituvchilar asarlarining g'oyasi, asl mazmun va maqsadidan ko'ra, yozuvchining hayoti haqidagi ma'lumotlarga ko'proq urg'u berib qolayotganliklari emasmi. Oliyoghlardagi kirish imtihonlari uchun tuzilayotgan testlarning ham aksariyat qismi, adiblar hayotiga bog'liq sanalar, ma'lumotlar haqida ekanligi, asarlar haqida testlarning ko'p qismi esa yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikr va asar mazmuniga zarracha aloqasi yo'q savollardan iborat. Bunday savollar o'quvchilarni asarlarning asl mazmuniga e'tibor berishga emas, balki uning matnini ko'r-ko'rona yod olishga undamoqda.

Axir adabiyot xotira mashqi emas, balki insonning ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi buyuk kuch emasmi? Agar inson har qanday fan yoki mutaxassislikni a'lo darajada o'zlashtirgan bo'lsa ham, ma'naviy dunyosi qashshoq bo'lsa uni ziyoli deb atash mumkinmi?

Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Forobiy kabi buyuk qomusiy olimlar ham avvalo ma'naviy kuchni badiiy adabiyotdan olishgan-ku. Ularning ilmiy asarlari bilan bir qatorda go'zal she'riy va nasriy asarlari ham yaratganliklarini hammamiz yaxshi bilamiz. Ularning bu asarlari bugungi kunda, nafaqat, Sharqda, balki butun dunyoga mashhur. Yoshlarimizning bobolaridan meros, dunyo ahli tan olgan bebaho asarlar mazmunini bilmasliklari, kelajakda ulami mulzam qilib qo'yasmikin.

Shu o'rinda, bir xoriyda o'qib, o'z yo'nalishida katta muvaffaqiyatlarga erishayotgan tanish yigitning hikoyasi yodimga tushadi. U turli millatdagi tengdoshlari davrasida o'zbek yoshlari haqida so'zlab turib:

-Biz o'zbek yoshlari Farhod va Shirinlar avlodimiz! - debdi g'urur bilan

Bir ingliz yigiti esa:

-Axir Farhod xitoy yigiti, Shirin arman qizi emasmi?-deb so'rabdi.

Yigit ishonch bilan:

-Yo'q ular o'zbek! - deya ta'kidlabdi.

Ammo uyga qaytgach Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni haqida o'qib ko'rib, haqiqatni bilgach, ancha vaqtgacha o'sha tengdoshlarini ko'rganda o'zini noqulay his etib, juda qattiq uyalib yurganligini aytdi. U yoshligidan bolalar bo'g'chasida, maktabda va akademik litseyda ham rusiyzabon guruhda o'qigan,

undan so'ng o'qishini yurtimizdagi xorojiy oliygohlardan birida davom ettirgan. Shu sababli ham, o'z kelajagi uchun o'zbek adabiyoti bilan yaqinlikni muhim deb hisoblamagan, bu esa - uning katta xatosi bo'ldi. Hozirgi vaqtda bu xatoni ko'plab yoshlarimiz takrorlamoqda.

O'sha yigit shundan so'ng, mumtoz adabiyotimizni o'rganish uchun kun tartibida ma'lum vaqt ajratibdi. Avvaliga majburiyat shaklida boshlangan bu jarayon, keyinchalik ruhiy quvvat manbai, chinakam madaniy hordiqqa aylanib qolibdi.

Darhaqiqat, adabiyot shunday sehrli dunyo, inson uchun olamni va o'zligini anglashida juda muhim vosita. Shuning uchun ham, bugungi kunda yurtimizda yoshlarning badiiy adabiyot mehrini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kitobxonlik keng targ'ib qilinmoqda. Chunki adabiyot inson ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi buyuk kuchdir.

D.P. QOBILOVA, TTPU huzuridagi akademik litsey o'qituvchisi

O'QUVCHILARDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Resume

In this article it is given the different methodic examples which can be used to raise up writing literate (skill) of the academic lyceums' pupils.

Key words: orthography, dictionary, dictation, the creative idea, paronym, literacy (skill).

Bugungi kunda o'z fikrini to'la, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan yozma savodxonligi yaxshi bo'lmagan mutaxassisni zamon talabi darajasidagi mutaxassis deb bo'lmaydi. Ana shuni hisobga olgan holda, akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limiga alohida e'tibor beriladi. Unda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishga, ulardagi leksik zahirasini ko'paytirishga va analiyotda faol qo'llashga harakat qilinadi.

Akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tili fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'z fikrini erkin va ta'sirli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga, fikr doirasini kengaytirishga, milliy an'analарimizga, boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilganligini hisobga olib, har bir pedagog o'z darslarini tashkil qilishini talab etiladi.

Shunga ko'ra, orfografiya bo'limini o'qitish jarayonida lug'at diktant olish usuli o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda samarali natija beradi. Bunda o'quvchi to'g'ri yozishga qiynaladigan so'zlar saralab olinadi.

Masalan:

mas'ul,	mas'ud,
afv,	akkordeon,
badiiyat,	bahri dil,
halqum,	ma'yus,

minimum,	olam-jahon,
olamshumul,	rejissor,
sa'y-harakat,	sayohat,
ssenariy,	taassuf,
tamba,	tambur,
taqozo,	taqsimot,
taralabedod,	xohish kabi.

Bu yig'ilgan so'zlar o'qituvchi tomonidan diktant tarzida yozdiriladi. Vaqtdan unumli foydalanish maqsadida ikki nafar yonma-yon o'tirgan o'quvchi yozgan lug'at diktantlarini almashtirib olishi va doskadagi to'g'ri variantdan tekshirib, xatolarini aniqlashi mumkin. O'qituvchi tomonidan har bir so'zning talaffuzi va imlosi joriy etilgan qonun-qoidalar asosida izohlab beriladi. Keyingi darslarda lug'at diktant tuzib kelish o'quvchilarning o'zlariga qo'shimcha vazifa sifatida topshiriladi. Bu jarayon kichik guruhlarda davom ettiriladi, guruhlardan tanlangan vakil tomonidan lug'at diktant yozdiriladi va izohlanadi. Bunda o'qituvchi faqat hakam bo'lib ishtirok etadi.

Bunday savodxonlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni ona tili mavzularining istalgan mavzusida o'tkazish mumkin. Deylik, fe'l so'z turkumi mavzusidan keyin fe'l so'z turkumiga, ravish so'z turkumidan keyin ravish so'z turkumiga oid so'zlarni yig'ib, lug'at diktantni har darsda tashkil qilish mumkin.

O'quvchilarda yozma savodxonlikni oshirish bilan birgalikda ijodiy fikrlashini ham o'stirish maqsadida turli xil yuqoridagi kabi yig'ilgan so'zlarni ishtirok ettirgan holda, ma'lum vaqt belgilanib, matn tuzish topshirilishi mumkin. Bu o'quvchi uchun foydali, samarali hamda qiziqarli mashg'ulotlardan biri sanalanadi.

O'quvchilarda yozma savodxonlikni oshirishda paronim so'zlarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish kerak. Bunda har bir kichik guruhga ma'lum miqdorda paronim so'zlar yozish topshiriladi.

Masalan:

urush,	urish
alfoz,	alpoz
xiyla,	hiyla,
qism,	qisim,
serviz,	servis,
kompaniya,	kampaniya kabi.

Yozilgan paronim so'zlarni guruhlar bir-birlari bilan almashishadi va ularning ishtirokida gaplar tuzib, izohlab berishadi.

Bu kabi mashg'ulotlarni mavzuning mustahkamlash bosqichida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИДАН ФЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Resume

In this article, it is given information of the pedagogic, psychologic, methodic peculiarities of the usage of the computer technics at teaching process.

Key words: educational technology, text, article, essay, letter.

Бугунги кунда баркамол шахсни вояга етказмасдан туриб, инсониятнинг муносиб келажакка эриша олмаслиги тан олиб бўлинди. Шу билан бирга, техника ва информатика соҳасида эришилган катта имкониятлар таълим сифати ҳамда даражасини ошириш ва кенгайтиришда ўз самарадорлигини кўрсатиб турибди. Шу сабаб таълим жараёнида илғор педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш муҳим босқичга кириб улгурди.

Таълим технологиясида компьютердан фойдаланиш дарсларни самарали ва унумли ташкиллаштиришда муҳим роль ўйнайди, қабул қилишнинг юқори сифати эшитиш ва кўриш жараёнининг бирлиги орқали таъминланади, бу эса ўқувчида диққатнинг кучайишига сабаб бўлади. Компьютер техникаси ўқувчи ижодий фаолиятини фаоллаштиради, маълум бир топшириқ ва унинг жавоби асосида улардаги қобилиятни шакллантиради. Компьютер базасига киритилган мавзуга доир маълумотлардан фойдаланиш ўқувчининг билимини янада мустаҳкамлашга, қолаверса, ижодий тафаккурининг шаклланиши ва дунёқарашининг кенгайишига яқиндан ёрдам беради.

Маълумки, академик лицей ва касб-хунар коллежларида ўқувчиларнинг матн билан ишлаш, иложи бўлса, мустақил ҳолда матн тузиш малакасини шакллантиришга эътибор қаратилади, бу вазифа она тили ва инглиз тили ўқитувчилари зиммасига юклатилган. Биз тавсифий матн асосида фикримизни ўртоқлашмоқчи эканмиз, ассало, умумтаълим мактаблари ҳамда академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун нашр этилган “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати”да тавсифий матнга берилган қуйидаги таърифга диққат қаратмоқчимиз: “Сўзловчи ёки ёзувчи томонидан баён этилган воқеа-ҳодиса, нарса ёки шахс тасвири, тавсифи ёхуд хабар, маълумот баёни. Мас., *мақола, иншо, хат* каби” [1]. Одатда, тавсифий матнлар монологик нутқ асосига қурилган бўлади ва табиийки, ўқувчининг интеллектуал салоҳиятини белгилашга, унинг ижодий тафаккурини шакллантиришга ёрдам беради. Компьютер мониторида тавсифий матн турлари - *мақола, иншо, хат* ва уларнинг таърифи слайд асосида жойлаштирилади, улар асосидаги муқаддас кадамжолар, Ўзбекистоннинг бугунги кўйидаги акс эттирилган фотосуратлар, бугунги оғир сиёсий вазиятлар акс эттирилган тасвирлар, хуллас, юксалиб бораётган Ўзбекистон ҳаётининг олинган лавҳалар билан сиёсий курашлар қаърида йўқ бўлиб кетаётган давлатлардаги ҳаёт тасвири ўзига хос ишора килувчи бўёқларда жойлаштирилади. Ўқувчи мазкур тасвирлардан бирини ўзи

танлаган матн тури асосида тавсифлайди. Дейлик, тасвирий иншо асосида. Маълумки, тасвирий иншоларда такқослаш, қиёслаш асосидаги тасвир етакчилик қилади, ўқувчи тасвирдан маъно кидиради ва нағижада ўз туйғуларини бадиий ифодалашга интилади. Ўқувчининг тасвир баёнида кетма-кетликка амал қилиши, сўз танлаш маҳорати, фикр кашфиёти кўзга гашланади. Ўқувчи ўз тасавурини ўхшатишлар ва сифатлашларга таянган ҳолда ифодалайди. Бунда унинг тасаввур имкониятлари ҳам реаллашади. Нағижада типик интраверт, яъни кийинчилик билан мулоқотга киришувчи, уятчан, оғир, ўз ички дунёсига қўмилган, аудиториядан “узилган” болаларнинг рухий дунёсига кириб борилади. Баъзида шундай ўқувчилар танлаган ва тавсифлаган тасвирларда кучли тахайюлотга берилиш, алоҳида танланган бўёқдор сўзлардаги маъно ва ижодкорлик кишини лол қолдиради. У компьютер каршисида ўтирар экан, бу “тилсиз суҳбатдошга” ишонади, уни ўзига яқин олади.

Ўқувчилар юрт тинчлиги мавзусида матн яратишда шеърый парчалардан фойдаланишлари мумкин, бунинг учун тўғаракларда ўқувчилар билан Сирожиддин Саййид, Иқбол Мирзо, Эшқобил Шукур, Азим Суюн каби забардаст ижодкорларнинг Ватанни улуғлаб битилган шеърларини кўпроқ таҳлил этиш лозимдир. Ўқувчи бу мавзуга қанча кўп мурожаат этса, қалбида Ватанга муҳаббат шу қадар кучли ўрнашади, ўзбек адабиёти намояндлари ижоди билан чуқурроқ танишади, бу ҳаракатлар матн яратишда ижобий самара беради. Матн яратиш жараёнида ўқувчилар эътиборига қуйидаги саволларни ҳавола этиш мумкин: *Тинчлик қандай тушунча? Нима учун тинчликни асраш ҳар биримизнинг бурчимиз саналади? Ватан тинчлиги ва уйингиздаги тинчлик ўртасида боғлиқлик борми? Ватан улуғланганда қандай қиёслашлардан кенг фойдаланилади?* каби. Масалан, ўқувчиларга С.Саййиднинг “Ифтихор”, “Остона ҳақида кўшиқ”, “Ватанни ўрганиш” каби шеърларини тавсия этиш мумкин, бу шеърларда Ватанимиз ўтмиши, аждодларимиз курашлари, она табиатимиз шукуҳи, ўзбекона кадр-қиммат ўз моҳиятини топган. Ўқувчи тасаввури кенг бўлса, у ўз фикрини дидактика билан боғлайди. Фикр фақат тил ёрдамида рўёбга чиқар экан, шунинг учун ўқитувчи ўқувчиларга ундан қандай фойдаланишни ҳам ўргатиши лозим. Тилни ўрганиш бу фақат тилнинг грамматик қурилишини билиш, қонда ва таърифларни ўзлаштириб олиш дегани эмас, балки тилнинг бой имкониятларидан фойдаланиб, бу ўринда, фикрни ёзма шаклда тўғри, равон ифодалаш малақасини эгаллашни ҳам тақозо этади.

Компьютер техникасидан таълим жараёнида фойдаланиш педагогик ва психологик, методик нуқтан назардан катта аҳамиятга эга бўлиб, ўқув-тарбия жараёнини фаоллаштиради, илмий ахборотнинг янғича шаклда берилиши ўқувчининг диққатини тортади, кўргазмалилик унинг тасаввур оламини бойитади, ўқувчи пассив тингловчидан фаол иштирокчига айланади, унинг компьютер саводхонлиги ошади, мавзунинг узоқ вақт хотирасида сақланишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Маҳкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Т.: Фан, 2013. 112-б.

MUNDARIJA

1.	Dadaboyev H.	Ogahiy tarixiy asarlaridagi diplomatiyaga oid terminlar.....	4
2.	Xolmanova Z.	История узбекской письменности.....	8
3.	Abdushukurov B.	“Devonu lug‘otit turk” asari va uning yangi nashri xususida.....	15
4.	Rahmatov M.	Eski o‘zbek tilida misli ko‘makchisining sintaktik-semantik xususiyatlari.....	18
5.	Jo‘rayev M., Xolmuradova M.	“Qutadg‘u bilig”dagi tibbiy terminlar.....	20
6.	Mo‘minova M.	“Saddi Iskandariy”dagi harbiy terminlar.....	23
7.	Raxmonova N.	“Qisasi Rabg‘uziy” asarining o‘rganilishi.....	25
8.	Axmedov A.	O‘zbek tilida ot-ko‘makchilarning o‘rganilishi.....	28
9.	Turniyozova Sh.	Matn derivatsiyasida kirish so‘zlarning o‘mi.....	31
10.	Abdullayeva K.	Fe‘l takrori matn qismlarini bog‘lovchi vosita sifatida.....	33
11.	Azizova F.	Zulfiya she‘riyatida antitezaning qo‘llanilishi.....	37
12.	Usmanova Sh. Mirsharipova B.	Frazeologizmlarni tarjimada berish usullari.....	43
13.	Jomonov R.	O‘zbek kirill alifbosida Ы harfi mavjudmi?.....	46
14.	Fattaxova D.	Rus guruhi talabalariga o‘zbek tili tasviriy vositalarini o‘qitishning ba‘zi usullari.....	48
15.	Aliqulova G.	Oziq-ovqat mahsulotlari yorliqlarining til xususiyatlari.....	51
16.	Nurullayeva O.	Til ta‘limida innovatsion yondashuv.....	53
17.	Hamroqulova M.	Morze alifbosi sun‘iy tilmi?.....	55
18.	Abdinazimov Sh., Tolibaev X.	Qoraqalpoq dostonlaridagi joy nomlarining yasashida geografik terminlar ishtiroki.....	58
19.	Axatova M., Bekmurodova D.	Tasavvuf leksikasida semantik – sintaktik usul bilan yasalgan istilohlar.....	62
20.	Mahkamova D.	Soha terminologiyasida sinonimiya.....	64
21.	Abdullayeva R.	Frazeologik birliklarda zoonimlarning qo‘llanilishi.....	66
22.	Aminova Z.	Omonim va tajnis haqida.....	68
23.	Yo‘ldoshboyeva Sh.	Omonim va polesemantik so‘zlarning asosiy xususiyatlari.....	69
24.	Xayitboyeva M.	Xorazm o‘g‘uz shevalari xususida.....	70
25.	Marajabova M.	Abdulla Oripov g‘azallarida metaforalar.....	72
26.	Jo‘rayev M., Tosheva D.	Zoonimlarning xalq madaniy hayotini ifodalashdagi ahamiyati.....	75
27.	Abdushukurov B., Saidaxmedova O.	“Choy” ekvivalent birligining o‘zbek va ingliz madaniyatida aks etishi.....	78
28.	Iskandarova G.	Bolalarda nutqiy muloqot ko‘nikmasining shakllanishida muhitning o‘mi.....	81

29.	Abduraxmonova N.	Kompyuter leksikografiyasi wordnet.....	83
30.	Qodirova B.	Fe'l-atvorni ifodalovchi leksemalar.....	86
31.	Ziyatova S.	O'zbek va ingliz maqollarida "uy" konseptining ifodalanishi.....	87
32.	Komilova L.	Reklama tili va temperamenti.....	90
33.	Tuxtayeva S.	Nutq mexanizmlari.....	93
34.	To'rayeva D.	Nutqning shakllanishi va unda uchraydigan xatolar.....	96
35.	Abduhamidova L.	Matnni morfologik jihatdan avtomatik tahrir qilish dasturining lingvistik moduli.....	99
36.	Saidahmedova O.	The usage of "do'ppi" realia singular in uzbek language and "tudor bonnet" realia singular in english language.....	101
37.	Saidova F.	Ayollar nutqida noverbal vositalarning o'mi.....	103
38.	Tog'ayev T.	Navoiyning notiqlik va nutq madaniyati haqidagi qarashlari.....	106
39.	Enazarov T.	Ba'zi bir nutq sifatleri haqida.....	109
40.	Abdullayeva O.	Navoiyning nutq madaniyatiga oid qarashlari.....	112
41.	Sarimsoqova N.	O'tkir Hoshimov qissalaridagi evfemizmlarning uslubiy-badiiy xususiyatlari.....	115
42.	Yeon Sang Heum	O'zbek va koreys tillarida ko'makchi fe'llar.....	117
43.	Mamarajabova I.	Ruhiyatni anglatuvchi frazeologizmlarning shakllanishi.....	120
44.	Tojiboyeva Sh.	Evfemizm va disfemizmning leksik ma'no taraqqiyotidagi o'mi.....	122
45.	Mirzaakbarova B.	Tilning ifoda va mazmun jihatini o'rganish.....	124
46.	Karimova D.	O'zbek tilidagi maqollarning semantik va struktur tahlili.....	127
47.	Asilova G.	O'zbek tili ta'limida kompyuter lingvodidaktikasi istiqbollari.....	129
48.	Qudriddinova N.	O'zbek tili darslarida ko'p gapirtirish orqali og'zaki nutqni o'stirish.....	131
49.	Yusubova R.N.	Badiiy asar tahlili.....	134
50.	Abdurahmanov Sh.	Erkin Vohidovning pretsedent birliklardan foydalanish mahorati xususida.....	136
51.	Erboyeva D.J	Badiiy matn – shaxs ma'naviyatini boyituvchi manba sifatida.....	139
52.	Qobilova D.P.	O'quvchilarda yozma savodxonlikni oshirish yo'llari.....	141
53.	Nurmanova S.F.	Ta'lim jarayonida kompyuter lingvistikasidan foydalanish samaradorligi.....	143

Адади 80 нусха. Бичими 60x84¹/₁₆
Босма табоғи 9,25. "Times New Roman" гарнитураси.
Низомий номидаги ТДПУ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, Юсуф Хос Ҳожиб 103.